

Abdujabbor MUHAMMADIYEV

HUQUQIY INFORMATIKA



Abdujabbor MUHAMMADIYEV

HUQUQIY INFORMATIKA

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim
vazirligi qoshidagi muvofiqlashtiruvchi Kengashning qarori
bilan huquqshunoslik oliy o'quv yurtlari talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan

Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti
Toshkent — 2006



Mas'ul muharrir:**M.M.Mamatov**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent**Taqrizchilar:**

M.M.Aripov, fizika-matematika fanlari doktori, professor,
S.S.G'ulomov, yuridik fanlari doktori,
B.B.Toshev, yuridik fanlari nomzodi.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati asoslari barpo etilmoqda hamda uning negizida yangi zamonaviy g'oyalar, yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Qo'lingizdagi darslikda muallif davr jarayonlarini hisobga olgan holda huquqiy informatikaning yuridik faoliyat sohasidagi axborot jarayonlarining qonuniyatlari va xususiyatlari, ularni avtomatlashtirish, yuridik faoliyatni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining tuzilishi va ulardan foydalanish usullari kabi masalalarni atroflicha yoritishga, huquqiy axborotlar milliy tizimini tashkil etish vazifalari, huquq va davlat tizimlari hamda siyosiy tizimni axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati, yagona axborot maydoni tushunchasi, umumiy va huquqiy axborot tushunchasini o'rganish metodologiyasi va usullari, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash sohasi, kriminalistika va sud ekspertizasi, sotsiologik tadqiqotlar va boshqa sohalarda foydalanish yo'llari va vazifalarini teranroq ochishga harakat qilgan.

Ushbu darslik huquqiy informatika va kibernetika muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislariga, yuridik oliy o'quv yurtlari o'qituvchi va aspirantlari, magistratura tinglovchilari va talabalariga mo'ljallangan.

Muhammadiyev A.O'.

M 93

Huquqiy informatika / A.O'. Muhammadiyev. — T.:
 Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
 nashriyoti. 2006-yil. 224 b.

BBK 32.81+67

ISBN 978-9943-06-014-2

© A. O'. Muhammadiyev,
 © Toshkent Davlat yuridik instituti,
 © Alisher Navoiy nomidagi
 O'zbekiston Milliy kutubxonasi
 nashriyoti, 2006-yil.

MUNDARIJA

Kirish.....	5
I BOB. Fan tizimida huquqiy informatika	
§1. Huquqiy informatika predmeti.....	9
§2. Huquqiy informatikaning integrativ funksiyasi.....	15
§3. Tizimlarni tahlil qilish metodi.....	19
II BOB. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari	
§1. Axborot tizimlari, axborot texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarining yaratilish va qo'llanish sohasi.....	23
§2. Huquq tizimi va uning kichik tizimlari tushunchasi hamda ularning umumiy tavsifi.....	26
§3. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari.....	37
III BOB. Huquqiy informatikada modellashtirish metodi	
§1. Modellashtirish metodi.....	39
§2. Formalizatsiya metodi.....	45
§3. Algoritm tushunchasi.....	46
IV BOB. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida axborot tushunchasi	
§1. Axborotning jamiyat hayotidagi o'rni.....	49
§2. Ijtimoiy axborot tushunchasi.....	54
§3. Huquqiy axborot tushunchasi.....	58
§4. Axborotlar sohasidagi munosabatlar.....	65
§5. Huquqiy tartibga solish mexanizmidagi axborot jarayonlari.....	69
§6. Huquq sohasidagi axborot jarayonlari.....	71
V BOB. Huquq sohasini axborotlashtirish borasidagi davlat siyosati	
§1. Axborotlashtirish tushunchasi.....	82
§2. Huquq sohasidagi axborotlashtirish borasidagi davlat siyosatining vazifalari.....	89
§3. O'zbekiston Respublikasi hamda MDHga a'zo davlatlarning yagona huquqiy-axborot maydonini yaratish.....	94
§4. O'zbekistonning jahon axborot maydoniga kirishi muammosi..	97
§5. Davlatning axborotlar sohasidagi siyosati.....	101
VI BOB. Axborot xavfsizligi sohasidagi munosabatlarning huquqiy masalalari	
§1. Axborot xavfsizligi.....	104
§2. Axborotga doir huquqiy munosabatlar obyektlarini axborot sohasidagi tahdidlardan himoya qilishning huquqiy asosi.....	107

§3. Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini sifatsiz axborotlarning ta'siridan, axborot tarqatish tartibining buzilishidan himoya qilish.....	109
§4. Axborot, axborot resurslari va axborot tizimlarini begona shaxslarning ruxsatsiz va qonunga zid ta'sirlari tahdididan huquqiy himoya qilish.....	111
§5. Axborotlashtirish sharoitlarida axborot sohasidagi huquq va erkinliklarni himoya qilish.....	116
§6. Axborot xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning tuzilmasi.....	118
§7. Axborot texnologiyalariga oid huquqbuzarlik va unga qarshi kurash yo'llari.....	122
§8. Axborot texnologiyalarida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	126
§9. Axborotni himoya qilishning kriptografik usullari.....	136

VII BOB. Huquqiy informatikaning metodologik asoslari

§1. Informatika va sun'iy intellekt muammosi.....	142
§2. Informatika va kibernetika.....	147
§3. Ijtimoiy kibernetika g'oyalari.....	154

VIII BOB. Huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish faoliyatini axborotlashtirish

§1. Huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish faoliyatini axborotlashtirish vazifalari.....	158
§2. Jinoyat ishlarini tergov qilishni kompyuterlashtirish.....	163
§3. Sud ekspertizasida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.....	167

IX BOB. Huquq sohasida axborot qidirish

§ 1. Axborot qidirish nazariyasi asoslari.....	174
§ 2. Axborot qidirish tili. Huquqiy tezaurus.....	181

X BOB. Kompyuter jinoyatchiligi va xavfsizligi

§ 1. Kompyuterda saqlanayotgan ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish...	187
§ 2. Kompyuter ma'lumotlarini o'g'irlash.....	193
§ 3. Kompyuter viruslarini ishlab chiqish va tarqatish.....	197
§ 4. Kompyuterdagi ma'lumotlarni yo'q qilish va qalbakilashtirish..	201
§ 5. Kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarni himoya qilish.....	204
§ 6. Xavfsizlik dasturiy – texnik vositalarini identifikatsiya va autentifikatsiya qilish.....	212

Adabiyotlar.....	216
------------------	-----

Kirish

XX asrning o'rtalarida barcha rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy boshqaruv va tartibga solish vazifalarining murakkablashishi huquqiy axborotlarning shiddatli o'sishiga turtki berdi. Qonun hujjatlari va boshqa meyoriy huquqiy hujjatlarning soni bir necha yuz mingtadan oshib ketdi. Bu informatsion inqirozning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Mazkur ahvoldan chiqishning yo'llari zamonaviy elektron-hisoblash texnikasidan keng va samarali foydalanilishi natijasida topildi.

Yuristlarning amaliy faoliyatida kompyuter tizimlari tobora keng o'rin olib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi kompyuter huquqiy axborotlarni jamlash, saqlash va berishning eng mukammal vositasi ekanligini ko'rsatmoqda.

XXI asr global axborotlashtirish va kompyuterlashtirish asri bo'lishi taxmin qilinayotir. «Elektron inqilob» natijasida yuzlab, minglab milliy, mintaqaviy va global kompyuter tizimlari va tarmoqlari paydo bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda informatsion jamiyat va informatsion iqtisodiyot (ya'ni bilimlarga asosiangan iqtisodiyot) vujudga keladi. Global telekommunikatsiyalar tizimi barpo etiladi. Bu jarayonlar ijtimoiy boshqaruv tuzilmasiga, davlat, huquq va demokratiyaning rivojlanishi va faoliyatiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolar xalqaro huquqning umum e'tirof etgan meyor va prinsiplariga muvofiq axborot olish huquqiga ega ekanligi rasman belgilab qo'yilgan. 1993-yil 7-mayda O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi tomonidan «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi ko'rib chiqilyotgan sohada muhim hodisa bo'ldi. Mazkur qonunda axborotlar sohasidagi munosabatlarni tartibga soladigan qonun hujjatlarining asoslari ta'riflab berildi. Huquqiy yo'nalishdagi barcha vazirliklar va idoralarda (O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi, Bosh prokuraturasi, IIV, Oliy sudi va boshqalarda) axborot-

lashtirish konsepsiya va dasturlari ishlab chiqildi va qabul qilindi. Qonun chiqaruvchi idoralar zamonaviy elektron-hisoblash texnikasi vositalari bilan jihozlanmoqda, bu esa qonun chiqarish jarayonining samaradorligini oshirishga yordam berayotir.

Bugungi kunda "axborot portlashi" faqat iqtisod, biznes va boshqaruvdagina emas, davlat va huquq sohasida ham jiddiy ko'zga tashlanmoqda. Bu fikrni isbotlash uchun raqamlarga murojaat qilishning o'zi kifoya. Agar 60-chi yillarda turli davlat organlari faoliyatida hujjat aylanishi 30 mlrd. varaq deb baholangan bo'lsa, 70-chi yillarda bu ko'rsatkich ikki baravar oshdi va bugungi kunda ham tinimsiz ortib bormoqda. Meyoriy yuridik hujjatlar soni ham, so'nggi yillarda 20 mingdan ortiq hujjatlar o'z kuchini yo'qotgan, deb topilgani, 4 mingdan ortiq hujjatlar esa bekor qilinganiga qaramay, uzluksiz ko'payib borayotir. Ta'sis hujjatlari, shartnomalar, bitimlar, ishonchnomalar, xatlar va boshqa shunga o'xshash hujjatlarning soni ham ortib bormoqda.

Byurokratizm va keraksiz yuridik qog'ozbozlikka qarshi qat'iy kurash olib borish kerakligi tayin. Ammo bu ishning faqat bir tomoni. Yuridik hujjatlar orasida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun juda zarur bo'lgan hujjatlar - qonunlar, farmonlar, qarorlar, shartnomalar, bitimlar, bayonnomalar va boshqa shu kabi hujjatlar ham bor. Binobarin, ishning ikkinchi tomoni huquqiy mazmundagi axborot oqimlarini maqbullashtirish, moslashtirish va takomillashtirish — tartibga solish, buning uchun hozirgi zamon axborot texnikasi, birinchi navbatda – shaxsiy kompyuterlardan foydalanishdan iborat.

Muammo huquqiy axborotni tartibga solish sohasi bilangina chegaralanmaydi, albatta. Yuridik tijorat firmalarining faoliyatini, korxonalarining yuridik xizmatlari va davlat organlarining ishini, sud, adliya, prokuratura, xo'jalik sudining faoliyatini va kriminalist-ekspertlarning ishini ham xuddi shunday yo'lga qo'yish talab etiladi. Zero, jamiyat huquq tizimining mazkur va boshqa komponentlarining har biri so'nggi yillarda juda ko'p odamlar manziliga axborot signallarini uzluksiz yubormoqda va o'z navbatida ulardan javob tariqasida ma'lum axborotlarni talab qilmoqda. Hozirgi zamon odami qudratli huquqiy-axborot oqimlari chorrahasida ya-

shamoqda va ijtimoiy turmushning umumiy sur'ati ortishi bilan har bir kishining yelkasiga tushuvchi huquqiy axborotlarning yuki ham ortib bormoqda.

Yuridik faoliyatning turli sohalariga umumiy "axborot portlashi"ning tatbiq etilishi jarayonida huquqiy informatikaning mustaqil yuridik fan sifatida shakllanishi va kengayishi uchun obyektiv shart-sharoitlar yuzaga kelib bormoqda. Jamiyat hayotining barcha sohaları axborotlashtirilishi natijasida «huquqiy informatika» atamasining talqini ham ancha kengayib borayotir. Informatika va kibernetikaning umumiy g'oyalarining bevosita ta'sirida ko'z o'ngimizda yuridik bilimlarning yangi, keng sohasi vujudga keldi va e'tirof etilmoqda.

Informatsion rivojlangan mamlakatlarning tajribasi asosiy moliyaviy va moddiy resurslarni ta'lim sohasiga va axborot madaniyatini mukammal egallagan mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirish zarurligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston uchun bu hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur sohada to'rt muammoni ajratib ko'rsatish kerak:

— yuristlarni umumiy tayyorlash, ya'ni yalpi kompyuter savodxonligiga erishish;

— EHM bilan professional darajada ishlay oladigan tor soha mutaxassislarni (huquqiy informatika nazariyasi va amaliyoti bo'yicha mutaxassislarni) tayyorlash;

— ishlayotgan yuristlarni kompyuter savodxonligi sohasida qayta tayyorlash;

— «huquqiy informatika» fani bo'yicha o'qituvchi kadrlar va professorlarni tayyorlash.

2002—2003 - o'quv yilidan boshlab huquqiy informatika fani O'zbekiston Respublikasining oliy yuridik o'quv yurtlarida o'qitib kelinmoqda. Ammo bugungi kunga kelib fundamental huquqiy informatika bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish zarurati tug'ildi. Taklif etilayotgan darslik muallif Toshkent Davlat yuridik institutida o'qigan ma'ruzalarga asoslangan bo'lib, uning huquqiy informatika va kibernetika sohasidagi ko'p yillik ilmiy-tadqiqot, nazariy va amaliy ish tajribasini umumlashtiradi. Qo'lingizdagi darslik ularning dastlabkisi hisoblanadi.

Mazkur darslikda huquqiy informatikaning yuridik faoliyat so-

hasidagi axborot jarayonlarining qonuniyatlari va xususiyatlari, ularni avtomatlashtirish, yuridik faoliyatni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining tuzilishi va ulardan foydalanish usullari, huquqiy axborotlar milliy tizimini tashkil etish vazifalari, huquq va davlat tizimlari hamda siyosiy tizimni axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati, yagona axborot maydoni tushunchasi, umumiy va huquqiy axborot tushunchasini o'rganish metodologiyasi va usullari, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash sohasi, kriminalistika va sud eksperti-zasi, huquq sohasida axborot qidirish, kompyuter jinoyatchiligi va xavfsizligi, sotsiologik tadqiqotlar va boshqa sohalarda foydalanish yo'llari va vazifalari kabi masalalarni atroflicha yoritishga harakat qildik.

I BOB. FAN TIZIMIDA HUQUQIY INFORMATIKA

§1. Huquqiy informatika predmeti

O'zbekistonning davlat va huquq sohasini axborotlashtirish bo-rasidagi murakkab vazifalarni hal qilish ilmiy bilimlarning yangi sertarmoq tizimini vujudga keltirishni talab qildi. Yangi fanlararo tarmoq — huquqiy informatika ana shu vazifalarni hal qilishga javob beradi.

Umumiy va huquqiy informatika g'oyalari dastlab murakkab dinamik tizimlarni boshqarish qonunlari haqidagi fan – kibernetika tarkibida rivojlandi.

Informatikani mustaqil fanga ajratish masalasi faqat ayrim olim-lar tomonidan qo'yildi. Jumladan, mazkur sohaning yetakchi mu-taxassislaridan biri V.I. Siforov informologiya – axborotlarni uza-tish, taqsimlash, qayta ishlash va o'zgartirish qonunlari haqidagi fan g'oyasini ilgari surdi. Bunda informologiya mazmuniga axborot-larni kodlash, koddan chiqarish, eslab qolish, saqlash, qidirish, ajratib olish, yetkazish, taqqoslash, ifoda etish, ishlab chiqarish va foydalanish kirishi nazarda tutildi (1976).

60- yillarning oxirida «informatika» tushunchasi mamlakatimizda faqat axborot texnikasi bilan emas, balki ilmiy axborot nazariyasi («dokumentalistika») bilan ham bog'landi. Bunga ko'p jihatdan A.I. Mixaylov, A.I. Cherniy va R.S. Gilyarevskiyning «Informatika asoslari» (1968) asarining e'lon qilinishi sabab bo'ldi. Asarda ilmiy-texnik axborot tushunchasi va unga ishlov berish usullari batafsil ko'rib chiqildi.

1982-yili kibernetika va informatika sohasidagi atoqli olim V.M. Glushkovning «qog'ozsiz informatika asoslari» monografiyasi e'lon qilindi. Ushbu monografiyada axborot tushunchasi va unga ishlov berish usullari, ilmiy tadqiqotlar, noshirlik faoliyati, tibbiyot, ta'lim, loyihalash ishlari, kredit-moliya munosabatlari sohalaridagi qog'ozsiz texnologiyalarning amaliy masalalari ko'rib chiqildi. Tashkiliy tizimlarni avtomatlashtirish va turdosh masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Umumdavlat avtomatlashtirilgan tizimi g'oyasi ilgari surildi.

Informatikaning tushunchalar apparatini shakllantirishda G.R. Gromovning «Milliy axborot resurslari: sanoatda foydalanish masalalari» (1984) monografiyasi katta rol o'ynadi. Bu monografiyada milliy axborot resurslari, ulardan sanoatda foydalanish, EHM sanoatining o'sish sur'atlari, axborot texnologiyalari va dasturlashtirish fanining rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Axborot resurslari – mamlakat mehnatga layoqatli aholisi eng malakali va ijodiy jihatdan faol qismi intellektual faoliyatining bevosita mahsulidir. Milliy axborot resurslari – nisbatan yangi iqtisodiy kategoriya. Bu resurslarni miqdoriy baholash va ularning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan aloqasi masalasining to'g'ri qo'yilishi turli bilim sohalaridagi mutaxassislar va olimlardan hamkorlikdagi uzoq izlanishlarni talab etadi.

80- yillarning oxirlaridan O'zbekistonda ikkinchi kompyuter inqilobi boshlandi. «Informatika» atamasi faqat fannigina emas, amaliy faoliyat yo'nalishini ham anglata boshladi. Informatika xalq xo'jaligining tarmog'i sifatida kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulot ishlab chiqarish va zamonaviy axborotlarga ishlov berish texnologiyalarini ishlab chiqish bilan bog'liq turli xo'jalik yuritish shakllaridagi turdosh korxonalar majmuidan tashkil topadi.

«Informatika» atamasi 60- yillarda Fransiyada vujudga kelgan bo'lib, elektron hisoblash mashinalari yordamida axborotlarga avtomatlashtirilgan ishlov berish sohasi ana shu atama bilan atalgan. Fransuzcha informatique atamasi information (axborot) va automatique (avtomatika) so'zlarini qo'shish yo'li bilan hosil qilingan bo'lib, «informatsion avtomatika yoki axborotlarga avtomatlashtirilgan ishlov berish» degan ma'noni anglatadi. Inglizabon mamlakatlarda bu atamaga computer science (kompyuter texnikasi haqidagi fan) atamasi mos keladi.

Mamlakatimizda «informatika» atamasining hozirgi talqini 1983 yili sobiq SSSR Fanlar akademiyasi yillik yig'ilishi sessiyasida Informatika, hisoblash texnikasi va avtomatlashtirish bo'limini tashkil etish haqida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran qaror topdi. Informatika «EHMga asoslangan axborotlarga ishlov berish tizimlarini ishlab chiqish, loyihalash, yaratish, baholash, bu tizimlarning ishlashi, ularning qo'llanishi va ijtimoiy amaliyotning turli sohalariga ta'sirining barcha jihatlarini o'rganuvchi kompleks ilmiy va muhandislik fani» sifatida talqin qilindi.

Predmetini axborotlar va axborot jarayonlari tashkil qiluvchi fanlarning sertarmoq tizimi mavjud. Axborot jarayonlarining umumiy qonuniyatlari va ularning matematik modellarini o'rganuvchi nazariy informatika; jamiyatdagi axborot jarayonlarining xususiyatlarini o'rganuvchi ijtimoiy informatika; to'g'ridan-to'g'ri amaliy vazifalarni hal qilish uchun avtomatlashtirish vositalaridan foydalanishga mo'ljallangan amaliy informatika; muayyan fanlar (iqtisodiyot, sotsiologiya, huquq va boshqalar)dagi axborot jarayonlarini o'rganuvchi informatikaning tarmoq yo'nalishlari shular jumlasidan.

Hozirgi zamon informatika fani matematika va kibernetika, tizimli texnika va elektronika, mantiq va lingvistika negizida vujudga kelgan. Uning asosiy ilmiy yo'nalishlari hisoblash texnikasining nazariy asoslari, statistik axborot nazariyasi, dasturlashtirish va sun'iy intellekt singari fanlarni hosil qilgan.

Umumiy va huquqiy informatikani farqlay bilish zarur. Umumiy informatika – bu axborotlarning tuzilishi va xususiyatlarini, shuningdek, axborot faoliyatining qonuniyatlari, uning nazariyasi, metodikasi va tashkilotini o'rganuvchi fandır. Umumiy informatikaning maqsadi axborotlarni yozib olish, to'plash, tahliliy-sintetik ishlov berish, saqlash, qidirish va tarqatishning maqbul usul va vositalarini ishlab chiqishdan iborat.

Mavjud ishlar umumiy informatikaning tuzilishiga tegishli quyidagi qoidalarni ta'riflash imkonini beradi.

1. Axborot va axborotlashtirishning ijtimoiy masalalari.

Ijtimoiy axborot. Axborotning jamiyatdagi roli. Axborot jamiyati konsepsiyasi. Axborot xavfsizligi. Axborotlashtirishning ijtimoiy oqibatlarini.

2. Nazariy va matematik informatika.

Algoritm, model, formalizatsiya tushunchalari. Qarorlar qabul qilish nazariyasi, matematik va mantiqiy apparat.

3. Sun'iy intellekt nazariyasi.

Intellektual va psixik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish. Ekspert tizimlar. Obrazlarni tanib olish. Intellektual robotlar.

4. Hisoblash texnikasi va dasturlash.

EHM arxitekturasi. Dastur va dasturlash. EHMning yaratilishi tarixi. Rivojlanish tendensiyalari. Kompyuter tarmoqlari va tizimlari.

5. Amaliy informatika.

Fan va amaliyotning turli sohalarida (iqtisodiyot, texnika, har-

biy ish, huquq va boshqalarda) axborotlarni to'plash va ularga ishlov berish usullarini qo'llash masalalari.

Informatika amaliy fan sifatida axborot jarayonlaridagi qonuniyatlar (axborotlarni jamg'arish, qayta ishlash va tarqatish)ni o'rganish, inson faoliyatining turli sohalarida kommunikatsiyalarning axborot modellarini yaratish, axborot tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Huquqiy informatika umumiy informatikaning amaliy tarmog'i hisoblanadi. Huquqiy informatikaning vazifalari va tabiatini tushunishga nisbatan har xil yondashuvlar mavjud. Aytib o'tilgan qarashlardan kelib chiqib unga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Huquqiy informatika – bu yuridik faoliyat sohasidagi axborot jarayonlarining qonuniyatlari va xususiyatlari, ularni avtomatlashtirish, yuridik faoliyatni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish hamda huquqiy vazifalarni hal qilish uchun huquq fanlari nazariyasi va metodologiyasi, matematika, informatika va mantiq, vosita va usullaridan kompleks foydalanish negizida yaratiladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining tuzilishi va ulardan foydalanish usullari haqidagi fanlararo bilim sohasidir¹.

Huquqiy informatika va huquqiy kibernetika g'oyalarining vujudga kelishi va rivojlanishida V.N. Kudryavsev, D.A. Kerimov, O.A. Gavrilova, R.M. Lansman, Z.I. Kirsanov, S.S. Moskvina, N.S. Polevoy, A.R. Shlyaxov, L.G. Ejubov singari olimlarning ishlari katta rol o'ynadi.

Huquqiy informatikaning vazifalariga quyidagilar kiradi:

plyuralistik demokratiya va oshkoralik, jamiyatning har bir a'zosi normativ huquqiy hujjatlarning butun majmuidan foydalanish imkoniyatiga egaligi, zarur vaqtda, zarur joyda va zarur shaklda erkin axborot olish imkoniyatining mavjudligi prinsiplarida huquqiy davlat qurishda faol ishtirok etish;

avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ), intellektual va maslahat tizimlarini joriy etishning ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish;

yuridik muassasa va organlarning faoliyatini intellektuallashtirish, adliyani va yuridik faoliyatning boshqa shakllarini amalga oshirishda ish samaradorligi va madaniyatini oshirish;

avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlarini yaratish; yuridik kadrlar tay-

¹ Bu ta'rif professor N.S. Polevoy tomonidan taklif qilingan.

yorlash va qayta tayyorlashning nazariy va uslubiy muammolarini ishlab chiqish, yangi huquq ixtisosligi – «huquqiy informatika» bo'yicha yosh mutaxassislar korpusini shakllantirish.

Bugungi kunda huquqiy informatikani ilmiy tadqiqotlarning o'z predmeti, vazifalari va tadqiqot usullariga ega bo'lgan istiqbolli va tez rivojlanayotgan yo'nalishi sifatida ko'zdan kechirish mumkin. Informatika qoidalari va xulosalarini yuristlar yuridik tushuncha va kategoriyalar nuqtai nazaridan idrok etishlari lozim.

Huquqiy informatika fani nisbatan yaqinda paydo bo'lganiga qaramay, O'zbekistonning huquq sohasini axborotlashtirish borasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ular jumlasiga: respublika huquqiy axborot markazlari va tizimlarining tashkil etilishi; axborot va axborotlashtirish haqidagi qonun hujjatlarining chiqarilishi; bilim tizimlarining yaratilishi; matematika va informatika kurslarining kiritilishi; informatika sohasida xalqaro miqyosga chiqilishi kiradi.

«Informatika huquqi» (yoki kompyuter huquqi) tushunchasi adabiyotlarda nisbatan yaqinda, jamiyatda hisoblash texnikasi va informatikaning jadal rivojlanishi natijasida paydo bo'ldi. U axborotlarni to'plash, qayta ishlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi hisoblash tizimlaridan (hisoblash markazlari, xizmatlari, axborot-qidirish tizimlari va boshqalar) foydalanish jarayonida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga bevosita taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi doirasida informatika kodeksini va jamiyatdagi hisoblash tizimlarining ishini optimallashtirishga yo'naltirilgan boshqa huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bizning nazarimizda, informatika huquqi yoki kompyuter huquqiga hozirgi ko'rinishida huquqiy informatikaning aspekti sifatida qaralishi mumkin. Ammo istiqbolda bu bilim sohasi huquqiy informatikadan ajralib chiqishi va yurisprudensiyaning mustaqil yo'nalishini tashkil etishi mumkin.

Binobarin, huquqiy informatika mustaqil bilim sohasi sifatida huquq, huquq tizimi va umuman yuridik faoliyatga axborot nuqtai nazaridan, yaxlit huquqiy-axborot tuzilmalari sifatida qaraydi va o'rganadi.

Huquqiy hodisalar va jarayonlarga informatsion yondashuvdan hamda huquqni rivojlantirishning asosiy aspektlaridan kelib chiqib, huquqiy informatika fanining predmeti doirasida huquqiy voqelikni

axborotlashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan vazifalarning ikki turkumini ajratish mumkin.

Birinchi turkumga nazariy vazifalar: informatikaning predmeti, metodlari va nazariy g'oyalarini aniqlashtirish; huquqning izchil axborot konsepsiyasini, ya'ni huquqning informatsion tabiati haqidagi ta'limotni ishlab chiqish; jamiyatdagi huquq tizimi, uning kichik tizimlari va elementlarining axborot aspektlarini o'rganish; jamiyatda huquqiy-axborot ta'siri ko'rsatishning samarali tuzilma va modellarini ishlab chiqish; huquqiy axborot nazariyasini yaratish; huquq normalari va huquqiy tartibga solishning informatsion tabiatini o'rganishda qo'llanishi mumkin bo'lgan kompyuter texnikasi va dasturiy vositalardan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish; huquq sohasida informatsion modellashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va boshqa shunga o'xshash vazifalar kiradi.

Ikkinchi turkumga amaliy xususiyatga ega bo'lgan vazifalar kiradi. Bular avvalambor har xil axborot texnikasidan keng foydalanish asosida yuristlarning amaliy faoliyatini takomillashtirish vazifalari, shu jumladan yuridik firmalar, markazlar, agentliklar va uyushmalarning ishida kompyuter texnikasidan foydalanilishini optimallashtirish vazifalaridir. Korxonalar, birja, kompaniya va banklarning yuridik xizmatlari faoliyatida kompyuterlar va boshqa texnikadan foydalanilishini takomillashtirish; amaliy axborot-qidirish tizimlarining ishini yo'lga qo'yish; huquq ijodkorligida va qonun hujjatlarini tartiblashda, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining ishida va huquqiy targ'ibotda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish; hozirgi zamon informatikasi uchun qonun hujjatlarini ishlab chiqish vazifalarini ham shular qatoriga kiritish mumkin.

Bilimning boshqa ko'pgina sohalari singari, huquqiy informatika fan sifatida huquqiy axborotlar milliy tizimini tashkil etish vazifalarini, huquq va davlat tizimlari hamda siyosiy tizimni axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatini, yagona axborot maydoni tushunchasini, umumiy va huquqiy axborot tushunchasini, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash sohasi, kriminalistika va sud ekspertizasi, sotsiologik tadqiqotlar va boshqa sohalarda foydalanish yo'llari va vazifalarini o'rganish metodologiyasi va usullarini o'z ichiga oladi va o'rganadi.

Huquqiy informatika, davlat va huquq nazariyasida hamda umumiy, "katta informatika"da o'z ildizlariga ega bo'lgan holda,

huquqqa va yuridik faoliyatning barcha sohalariga mustaqil yondashadi; u huquq va huquqiy mexanizmlar sohasidagi umumiy va muayyan axborot muammolari va vazifalarini tadqiq qiladi.

Huquqiy informatika ma'lum huquqiy tizimlar, hodisalar va jarayonlarni yangi nuqtai nazardan – umumlashtirilgan axborot pozitsiyalari nuqtai nazaridan o'rganish, ularni yaxlit bir butun axborot tuzilmasi ko'rinishida tasavvur qilish imkonini beradi.

Huquqiy informatikaning ilmiy maqomi va sohasiga aniqliklar kiritib borilmoqda. Huquqiy informatika hali mustaqil fan shakliga kirgani yo'q. U nisbatan quyi pog'onada – fanlararo bilim sohasi pog'onasida turadi.

Huquqiy informatikani qator turdosh ilmiy yo'nalishlardan farqlay bilish zarur. Biroq bu uning ilmiy va amaliy ahamiyatini kamaytirmaydi. Chunonchi, huquqiy informatikani «Axborot huquqi» kursidan chegaralash lozim. Bu kursning vazifasi axborot va axborotlashtirishga doir qonun hujjatlarini o'rganishdan iborat. Mustaqil axborot fani – «Kompyuter savodxonligi kursi» o'rta maktab o'quv fanlari qatoriga kiritilgan va mamlakatning barcha oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan yuridik o'quv yurtlarida ham o'qitiladi.

§2. Huquqiy informatikaning integrativ funksiyasi

Turli bilim sohalarini integratsiya qilish hozirgi zamon fanining asosiy tendensiyalaridan biridir. Huquqiy informatika doirasida yuridik va boshqa ijtimoiy, texnik, tabiiy va matematik fanlarning ma'lumotlari sintez qilinadi. Informatika huquq fani sohasiga tadqiq qilishning aniq usullari kirib keladigan kanal vazifasini bajaradi.

Huquqiy informatikaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, uning mazmunida ikki asos – yuridik va texnik asoslar uyg'un mujassamlashgan va o'zaro bog'langan. Uni to'liq holda fanning texnik sohalariga ham, yuridik sohalariga ham mansub deb topib bo'lmaydi. Bu tipik kompleks, chegarali va integrativ bilim sohasidir.

Huquqiy informatikada umumiy huquq nazariyasi – huquqiy hodisalar va jarayonlarning qonunliyatlarini ochib beruvchi funda-

mental huquqshunoslik fanining ma'lumotlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Axborotlashtirish jarayoni huquq fanida ishlab chiqilgan to'g'ri ilmiy-nazariy asoslarga tayanishi lozim.

Yurisprudensiyada huquqning umumiy nazariyasi muammolari-ga unumli yondashuv qaror topayotir. Unga muvofiq mazkur nazariya huquqni tushunishga falsafiy, sotsiologik va maxsus yuridik yondashuvlarning birligini aks ettiradi. Har bir yondashuv huquq nazariyasini o'rganishning yagona predmetini tashkil etuvchi hodisa va jarayonlarning tegishli doirasiga nisbatan o'z nuqtai nazariga ega bo'ladi. Har bir yondashuvga o'z metodologik xususiyatlari mos keladi. Huquq nazariyasi rivojlanishining har bir aspekti uni bilishning murakkab dialektik jarayonini aks ettiradi.

Umumiy huquq nazariyasidagi ilmiy bilimlarning teran tuzilishini quyidagicha tavsiflash mumkin:

nazariy-huquqiy yondashuv – o'rta miqyosdagi nazariyalarni ishlab chiqish;

normativ-huquqiy yondashuv va normativ-huquqiy masalalar; sotsiologik yondashuv va sotsiologik muammolar;

tizimli-boshqaruv va tizimli-axborot yondashuv hamda tegishli muammolar;

bilish usullari haqidagi ta'limotni rivojlantirish va yangi muayyan usullarni ishlab chiqish.

Hozirgi zamon huquq nazariyasining nazariy asosi ana shunday obyektiv ko'rinishga ega.

Bayon etilgan konsepsyaning metodologik qimmatini shundaki, u universal xususiyatga ega, chunki yuridik fanlarning keng doirasiga, shu jumladan umumiy davlat nazariyasi va tarmoq yuridik fanlariga mansub; u juda samarali, zotan bilimlarni real ko'paytirish imkonini beradi; u prognostik xususiyatga ega, chunki ilm-fan taraqqiyotining muhim yo'nalishlarini o'zida mujassam etgan.

Huquq tizimini axborotlashtirish muammosi umumiy huquq nazariyasining bayon etilgan tuzilishida o'z o'rnini topgan. U huquq hodisalarini tahlil qilishning tizimli-axborot va tizimli-boshqaruv (kibernetik) usullari bilan bog'liq bo'limga kiritilgan.

Jamiyat hayotining huquqiy sohasini axborotlashtirish jarayoni umumiy huquq nazariyasining huquq va qonun, qonunchilik va qonunchilik sohalari hamda huquq tizimi singari tushunchalariga tayanadi. Qonunan belgilab qo'yilgan axborot munosabatlari tu-

shunchasi, shuningdek, axborot huquqi tushunchasi puxta ilmiy tahlildan o'tkazishni talab etadi.


Huquqiy informatika konstitutsiyaviy huquq fani bilan uzviy bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida axborotlar sohasidagi munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy normalar belgilab qo'yilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga binoan har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Konstitutsiya fuqarolarning shaxsiy hayoti, davlat organlarining materiallari va hujjatlari haqidagi axborotlar tushunchasini, shuningdek, maxsus rejimli axborotlarning tur—xili sifatida davlat sirlari tushunchasini kiritadi. Konstitutsiyada axborot olish huquqini amalga oshirish tartibini tartibga soluvchi normalar belgilangan.

Axborotlarni olish va tahlil qilish bilan bog'liq muammolar barcha yuridik fanlarda vujudga keladi.

Umumiy va huquqiy informatika til haqidagi fan – lingvistika bilan uzviy bog'liq. Informatika til, so'z, alifbo, gap, matn singari tushunchalardan keng foydalanadi. Matn tuzilishini o'rganish lingvistikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy kompyuter – matn bilan ishlashni avtomatlashtirishning qudratli vositasidir. Ko'pgina katta mehnat sarfini talab etuvchi jarayonlar, masalan, matnlarga statistik ishlov berish, har xil lug'aviy va leksik kartotekalarni yuritish ishlarini avtomatlashtirish imkoniyati tug'ildi. Kompyuterlar paydo bo'lgani zahoti ular bilan muomala qilish muammosi vujudga keldi. Oddiy tabiiy til bu muammoni hal qilishning eng yaxshi usuli bo'lishi mumkin. Ammo bunday o'zaro ta'sirni tashkil etish uchun eng avvalo tabiiy tildan insonlarning o'zaro aloqalari jarayonida foydalanish qonunlari va o'ziga xosliklarini tushunib yetish lozim.

Informatikada psixologiyaning xotira, tafakkur, idrok etish va tanib olish singari tushunchalari qo'llanadi.

Informatikaning rivojlanishi bugungi kunning vazifalaridan biri inson intellektini o'rganish bo'lgan psixologiya fanining yutuqlari bilan uzviy bog'liq. Psixologiyada hozir alonida yo'nalish inson intellekti, xotirasi va tafakkurining qonuniyatlarini ochib beruvchi



kognitiv psixologiya faol rivojlanmoqda. Kognitiv psixologiya insonning o'zi va atrof olam haqidagi bilimlarini, shuningdek, bilimga ega bo'lishni ta'minlovchi jarayonlarni o'rganadi.

Huquqiy informatika bilishning matematik usullaridan faol foydalanadi. Matematika miqdoriy nisbatlar va makonga oid shakllarni o'rganuvchi aniq abstrakt fandır. Matematikaning aniqligi uning asosiy o'rganish usullaridan biri qat'iy mantiqiy mulohazalar ekanligi, o'rganish natijalari esa qat'iy mantiqiy ko'rinishda shakllanishini bildiradi. Matematikaning abstraktligi esa uning o'rganish obyektlari matematik modellar ekanligini bildiradi. Bitta model bir-biriga o'xshamaydigan har xil hodisalarning xususiyatlarini ma'lum darajadagi yaqinlik bilan tavsiflashi mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmida informatika, kibernetika, iqtisodiyot, lingvistika va boshqa qator fanlarning talablari ta'sirida matematikaning ulkan binosida chuqur qayta qurish amalga oshirildi. O'ziga xos ilmiy inqilob sodir bo'ldi. Informatika axborotlarga ishlov berish, ularni uzatish va ulardan foydalanish modellarini tuzish va o'rganish uchun matematika usullaridan foydalanadi, informatikaning nazariy negizini yaratadi.

Axborot o'z tabiatiga ko'ra diskret tasavvurga moyil. Axborotlarni, odatda, diskret ko'plik ko'rinishida tavsiflash mumkin. Demak, nazariy informatika o'z xususiyatiga ko'ra diskret matematikaga yaqin turadi.

Matematik mantiqqa tayanuvchi fanlar axborotlarga kompyuterlar yordamida ishlov berish jarayonlarini tahlil qilish uchun mantiq yutuqlaridan foydalanish imkonini beradigan metodlarni, shuningdek mantiqiy tip modellari asosida kompyuterning o'zida sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rganish imkonini beradigan metodlarni ishlab chiqmoqdalar. Bu metodlarning har xil turlari mavjud: formal tizimlar, avtomatlar, o'yin modellari va boshqalar. Metodning turi obyektning informatsion mazmunidan kelib chiqib tanlanadi. Mutaxassislarning fikricha, informatikaning taraqqiyoti uning matematik negizining rivojlanishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Huquqiy informatikaning texnik fanlar bilan aloqasi huquq fani va amaliyotining ehtiyojlari uchun har xil rusumdagi zamonaviy elektron hisoblash mashinalaridan faol foydalanish orqali amalga oshiriladi. O'z navbatida EHMdan foydalanish huquqiy informatikaning qiziqishlari sohasiga formal mantiq va matematika appa-

ratining jalb etilishiga asoslanadi, zero busiz huquq normalarini EHM xotirasiga kiritish oldidan formalizatsiya qilib bo'lmaydi.

Yuridik fanining har bir sohasi o'z bilish obyektining axborot modelini yaratishi lozim. Bu umumiy va huquqiy informatika usul va vositalaridan faol foydalanishni nazarda tutadi. Qonun hujjatlariga doir avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlarini tashkil etishda tarmoq yuridik fanlarida (fuqarolik huquqi, ma'muriy huquq va boshqalarda) mavjud bo'lgan normativ huquqiy hujjatlarning klassifikatorlaridan foydalanish zarur.

§3. Tizimlarni tahlil qilish metodi

Tizim – bu komponentlarining funksiyalariga bog'liq bo'lmagan ayrim umumiy funktsiyaning bajarilishi bilan birlashtirilgan o'zaro aloqador, nisbatan mustaqil elementlarning majmuidir. Tizim tushunchasi umumiy huquq nazariyasida va tarmoq yuridik fanlarida ancha keng qo'llanadi:

- huquq tizimi;
- huquqiy tartibga solish tizimi;
- davlat organlari tizimi;
- siyosiy tizim;
- dalillar tizimi (jinoyat, fuqarolik yoki xo'jalik ishlari bo'yicha).

Huquq tizimini o'rganishda uning barcha iyerarxik pog'onalarida «tizim» atamasi va tizimli tahlil metodlari qo'llaniladi. Bilishning ko'pgina xususiy metodlari negizida tizimli yondashuv yotadi. U empirik faktlarni umumlashtirishning usullaridan biri bo'lib, elementlarni bir butunga birlashtirish natijasida vujudga keladigan integrativ sifatlarni aniqlashga e'tiborni qaratish imkonini beradi.

Qonunni tizimli tahlil qilish metodologiyasi tizimni hosil qiluvchi barcha aloqa, omil va konstruksiyalarni aniqlash; bu aloqalarni maqbullashtirish, ya'ni qonunning sifati va samaradorligini yaxshilash; qonunning yaxlitligi va samaradorligini oshirishda har bir aloqaning roli va funksiyalarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Tizimli-komponentli aspekt tizim tarkibining o'rganilishini aks ettiradi. Bunda o'zaro ta'sirini tizimning yaxlitligi ta'minlaydigan komponentlar ajralib chiqadi.

Tizimli-tuzilmaviy aspekt tizim elementlarining ichki aloqalari va o'zaro ta'sirini o'rganishni nazarda tutadi. Tuzilma tizimning ichki shakli sifatida tushuniladi.

Tizimli-funksional aspekt ushbu tizimning komponentlari o'rtasida; komponentlar va tizim o'rtasida; tizim va u tarkibiga kiradigan boshqa tizim o'rtasidagi axborot-funksional bog'liqliklarni o'rganishni nazarda tutadi.

Tizimli-kommunikatsion aspekt tizimning atrof muhit bilan o'zaro ta'sirini o'rganishni va salbiy omillarni tahlil qilishni nazarda tutadi.

Tizim tushunchasi muhim normativ huquqiy hujjat – qonunga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Qonun – bu har xil vazifalarni bajaruvchi, qonunning yaxlitligi va barqarorligini ta'minlovchi har xil darajadagi va har xil xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro aloqa qiluvchi norma, prinsip va huquq tuzilmalarining yaxlit majmuidir.

Qonunning tuzilishida tizim hosil qiluvchi omillar vazifasini qonun konsepsiyasi, qonunning prinsiplari, boshqaruv konsepsiyasi, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarining in'ikosi bajaradi. Qonunda umumiy huquq nazariyasining ko'pgina muhim kategoriyalari – huquq subyekt, huquqiy tartibga solish mexanizmi, ijtimoiy va yuridik maqsadlar, ijtimoiy munosabatlar, huquqiy munosabatlar va boshqalardan foydalaniladi.

Amalda qonunning tizimliliği talablari ba'zan buziladi. Bu, masalan, huquq normalari va huquq hujjatlari o'rtasidagi ziddiyatlarda, ularning samarasizligida, elementlarning yaxlitligi va muvozanati prinsipining buzilishida o'z ifodasini topadi. Turli vaqtlarda va har xil holatlar munosabati bilan e'lon qilingan qonun hujjatlari ba'zan o'zaro mos kelmaydi. Bu qonunning qo'llanishi jarayonida qiyinchiliklar tug'diradi, qonunchilikning samaradorligini pasaytiradi. Bu esa normativ huquqiy hujjatlarni tizimga solish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy tizimlar

Ijtimoiy muhitda vujudga keluvchi va faoliyat ko'rsatuvchi tizimlar ijtimoiy tizimlar hisoblanadi. Iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnik tizimlar, boshqaruv tizimlari va ekologik tizimlar shular jumlasidan. Ularning asosiy komponentlari odamlar, shaxslar, katta va kichik ijtimoiy tabaqalar hamda guruhlardir. Ijtimoiy tizimlar ko'p sonli alohida elementlardan tashkil topadi. Bu elementlar ma'lum qonunlarga ko'ra o'zaro aloqa qiladi. Huquq o'zining regulyativ ta'siri bilan ijtimoiy tizimlarning barcha funksional komponentlarini – ularning maqsadlari, ijtimoiy funksiyalari, axborot oqimlari, boshqa tizimlar bilan aloqalari, maqsadlarga erishish usullari, bir marom-

da ishlashdan chekinishi, elementlar tarkibi va boshqa komponentlarini qamrab oladi.

Har qanday ijtimoiy organizm faol, rivojlanuvchi, o'zini o'zi tartibga soluvchi tizim hisoblanadi va tashqi sharoitlarga qator moslashishlar asosida faoliyat ko'rsatadi, o'z atrofidagi ijtimoiy va tabiiy muhit bilan aloqa qiladi.

Huquq tizimlarning o'lchamlarini qayd etibgina qolmay, ularning ish jarayonini ham tartibga soladi. Bu nuqtai nazardan ijtimoiy munosabat va aloqalar subyektlarining faoliyati, ularning tashqi va ichki muhitlardagi faol harakati huquq tizimining obyektini hisoblanadi, deb aytish mumkin. Huquq normalari ijtimoiy faoliyatning mazmuniga kirib, ijtimoiy tizimlarning tuzilishiga uyg'un qo'shiladilar, uning elementiga aylanadilar, uning faoliyati va progressiv rivojlanishini ta'minlaydilar.

Ijtimoiy tizimning sifat xususiyatlari quyidagilardan iborat: u ko'p omilli, ehtimol tutilgan tizim ko'rinishida bo'ladi; huquq tizimi faoliyati mexanizmining ratsional modelini yaratishda hisobga olinishi lozim bo'lgan spetsifik qonuniyatlar majmuiga tayanadi; huquqiy tartibga solishning maqsadlariga mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin bo'lgan o'ziga xos maqsadlarga ega bo'ladi; nafaqat huquqiy, balki boshqa ijtimoiy regulatorlar bilan bog'liq bo'ladiki, bularning barchasi huquqiy tartibga solish jarayonida hisobga olinishi lozim.

Murakkab dinamik tizim

Murakkab dinamik tizim tushunchasi informatika va kibernetika-da muhim rol o'ynaydi. Murakkab dinamik tizimlar ko'p sonli oddiy tizimlardan tashkil topadi. Bu oddiy tizimlarning har biri o'z navbatida mustaqil tizim (oddiy tizimchalar) hisoblanadi. Butun tizimning va alohida elementlarning holati har xil qonuniyatlarga ko'ra o'zgarishi mumkin bo'lgan bir yoki ko'p sonli parametrlarning miqdori bilan tavsiflanadi. Tizimning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi — jarayon deb ataladi. Tizimni parametrlariga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazish — boshqaruv deb ataladi. EHM, mehnat faoliyati bilan birlashtirilgan odamlar jamoasi, texnik va biologik tizimlar boshqaruv jarayonlari sodir bo'luvchi dinamik tizimlar hisoblanadi. Murakkab dinamik tizimning boshqa bir o'ziga xos xususiyati uning rivojlanishidir.

Barcha murakkab dinamik tizimlarda boshqaruv axborotlarni to'plash, tarqatish, saqlash va qayta ishlash, boshqaruv komandalarini ishlab chiqish va ularni ijro etuvchi organlarga taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

«Davlat – huquq» murakkab dinamik tizimi – bu ko'p maqsadli, polifunksional, polistrukturaviy, ko'p aspektli tizimdir; u yaxlit tizimli xususiyatlari, tarkibiy elementlari, ularning xususiyatlari va ular o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xilligi bilan farq qiladi. Uni tavsiflash bir nechta maxsus tillar yordamida amalga oshiriladi.

Normativ tizimlar

Jamiyatda juda ko'p ijtimoiy regulatorlar amal qiladi. Bular siyosiy normalar, axloq normalari, ommaviy axborot vositalari, davlat va huquqdir. Ularning barchasi ijtimoiy normativ tizimlarning turi (xili) hisoblanadi, ya'ni ularning tarkibiga har xil ijtimoiy normalar kiradi.

Kibernetik tizim

Kibernetik tizim deganda axborot jarayoni bilan birlashtirilgan jonli va jonsiz tabiat tizimchalari va elementlarining majmui tushuniladi. Ularning harakatlari qo'yilgan maqsadga muvofiq ravishda erishish uchun xizmat qiladi. Boshqaruv subyekti va obyekt hamda boshqaruv tizimining mavjudligi kibernetik tizim uchun xosdir.

II BOB. AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT TIZIMLARI

§1. Axborot tizimlari, axborot texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarining yaratilish va qo'llanish sohasi

Bu soha obyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi: axborot tizimlari va axborot texnologiyalari, ularni ta'minlash vositalari. «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunda «axborot tizimi» tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: «axborot tizimi – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari» (3-modda).

Axborot tizimlari jumlasiga har xil turdagi avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ham kiradi. Bu birinchi navbatda Internet, shuningdek, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (ABT), avtomatlashtirilgan ma'lumotlarga ishlov berish tizimlari, avtomatlashtirilgan ilmiy-texnik axborot tizimlari va sh.k., ma'lumot banklari, bilim bazalari, ekspert tizimlar, axborot-hisoblash tizimlari, axborot-telekommunikatsiya tizimlari va tarmoqlari, aloqa va telekommunikatsiya tizimlari hamda bu tizimlar va texnologiyalarni ta'minlash vositalaridir.

Asosiy texnik vositalar – hisoblash texnikasi vositalari, nusxa ko'chirish va ko'paytirish texnikasi, tashkiliy texnika, aloqa va telekommunikatsiya vositalari va boshq. Dasturiy vositalar – operatsion tizimlar, amaliy dasturlar, telekommunikatsiyalarning dasturiy vositalari, boshqa dasturiy vositalar. Lingvistik vositalar – lug'atlar, tezauruslar, klassifikatorlar va boshqa lingvistik vositalar. Tashkiliy-huquqiy vositalar – normativ huquqiy va huquqiy hujjatlar, normativ-texnik hujjatlar, nizomlar, ustavlar va lavozim yo'riqnomalari. Axborot texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarining tasnifi 1-rasmda keltirilgan.

Bu soha subyektlarini ikki guruhga ajratish mumkin: axborot tizimlari, axborot texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarining

ishlab chiqilishini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi subyektlar hamda sanab o'tilgan obyektlardan foydalanuvchi subyektlar. Axborot tizimlarining ishlab chiqilishini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi subyektlar sifatida buyurtmachilar va ishlab chiquvchilar qatnashadi. Bular – davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslar – tashkilot va korxonalar hamda mutaxassislardir. Axborot tizimlari, axborot texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalaridan foydalanuvchi subyektlar jumlasiga davlat hokimiyati organlari, ularning bo'linmalari, yuridik va jismoniy shaxslar kiradi.

Bu soha subyektlarining muhim yo'nalishlaridan biri hozirgi zamon informatsion jamiyati axborot infratuzilmasining dasturiy-texnik qismini shakllantirish va rivojlantirish bo'lishi lozim. Bu o'rinda axborot infratuzilmasi deganda shaxs, davlat va jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun axborot jarayonlari – axborotni ishlab chiqarish, to'plash, jamlash, saqlash, qidirish, tarqatish va iste'mol qilish jarayonlarining samarali va sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan hisoblash texnikasi, aloqa va telekommunikatsiya vositalari, shuningdek ommaviy axborot vositalari va axborot resurslarining tashkiliy yig'indisi tushuniladi.

Axborot infratuzilmasining dasturiy-texnik qismida hisoblash texnikasi, aloqa va telekommunikatsiya vositalarining yaratilishi va qo'llanishi, shuningdek, O'zbekistonda chegaralararo axborot tarmoqlari va Internetga chiqiladigan axborot tizimlarining yaratilishi va rivojlanishi bilan bog'liq tadbirlar o'z aksini topishi lozim. Jumladan, davlat quyidagi asosiy masalalar bo'yicha o'z pozitsiyasini belgilashi zarur: respublikada dasturiy-texnik vositalar – hisoblash texnikasi, aloqa va telekommunikatsiya vositalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni rivojlantirish, ularning jahon miqyosida raqobatbardoshligini ta'minlash; chet elda ishlab chiqarilgan hisoblash texnikasi, aloqa va telekommunikatsiya vositalarining O'zbekistonga kelishi va joriy qilinishini davlat manfaatlarini hisobga olgan holda ta'minlash; O'zbekistonda davlat budjeti, shaxsiy va xorijiy investitsiyalar hisobiga axborot tizimlarining yaratilishini respublika axborot xavfsizligining davlat tomonidan nazorat qilinishi sharti bilan tashkil etish; O'zbekistondagi axborot tizimlarining dunyo miqyosidagi hududlararo axborot tizimlari, birinchi navbatda Internet bilan integratsiyalashuvini ta'minlash.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, ularning tarmoqlari
<p>Ma'lumot banklari Ma'lumot bazalari Bilim bazalari Ekspert tizimlar Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari Avtomatlashtirilgan loyihalashtirish tizimlari Avtomatlashtirilgan ma'lumotlarga ishlov berish tizimlari Avtomatlashtirilgan ilmiy-texnik axborot tizimlari Axborot-hisoblash tizimlari Axborot tizimlari</p>
Texnik vositalar
<p>Hisoblash texnikasi vositalari Nusxa ko'chirish va ko'paytirish texnikasi Tashkiliy texnika Aloqa vositalari Telekommunikatsiya vositalari Boshqa texnik vositalar</p>
Dasturiy vositalar
<p>Operatsion tizimlar Amaliy dasturlar Boshqa dasturiy vositalar</p>
Lingvistik vositalar
<p>Lug'atlar Tezauruslar Klassifikatorlar Boshqa lingvistik vositalar</p>
Tashkiliy-huquqiy vositalar
<p>Nizom, ustav Funksiya va vaziflarni amalga oshirish tartibi Lavozim yo'riqnomalari Tizimdan foydalanish tartibi Normativ-texnik hujjatlar</p>
Texnologik ta'minot
<p>Axborot texnologiyalari Yo'riqnomalar, qoidalar</p>

1-rasm. Axborot texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarining tasnifi.

§2. Huquq tizimi va uning kichik tizimlari tushunchasi hamda ularning umumiy tavsifi

Huquq tizimi va uning kichik tizimlarini huquqiy informatika obyektlari sifatida ko'rib chiqishdan oldin mazkur yuridik tushunchalarga ta'rif berish hamda ularni tavsiflab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, adabiyotlarda bu masala yuzasidan bahslar hanuz davom etayotir.

“Huquq tizimi” atamasini umumiy tarzda ilk bor Y.B. Pashukanis tilga olganligini qayd etib o'tish, bizningcha, adolatdan bo'ladi. U huquq shaklining tarixiy rivojlanishi haqida gapirar ekan, huquq tushunchalari evolutsiyasining turli, shu jumladan oliy bosqichini ham ajratib o'tadi. “Rivojlanishning bu oliy bosqichi, — deb ko'rsatadi u, — ma'lum iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarga muvofiqdir. Shu bilan bir vaqtda, bu bosqich huquq tizimini nazariy jihatdan tugal yaxlit tizim sifatida aks ettiruvchi umumiy tushunchalar tizimining vujudga kelishi bilan tavsiflanadi”. Ammo keltirilgan qoida asosan huquq nazariyasining huquq tizimini alohida yuridik hodisa sifatida tavsiflovchi tushunchalariga taalluqli bo'lib, bu yerda yaxlit axborot tuzilmasi sifatidagi huquq tizimi haqida gap bormaydi.

So'zning axborot ma'nosida ishlatiluvchi “tizim” tushunchasini huquqshunoslikka D.A. Kerimov kiritgan. U 1960-yildayoq “avtomat, inson va jamiyat mutlaqo har xil tabiatga ega, ammo ularning har biri murakkab tuzilgan tizimga ega bo'lib, mazkur tizim faoliyatining ayrim axborot jarayonlari bir-biri bilan miqdoriy jihatdan ayniydir”, deb qayd etib o'tgan edi. Keyinchalik, tizimni o'rganishga doir ishlarni falsafiy-huquqiy nuqtai nazardan tushunib yetish jarayonida olim shu jumladan huquqiy hodisalarni bilishga tizimli yondashuv va bunda tizim tushunchalaridan foydalanish juda muhim nazariy ahamiyatga ega, chunki bu huquqning ichki birligini, uni tashkil etuvchi qismlarning uyg'un o'zaro ta'siri va aloqasini aniqlash imkonini beradi, degan xulosaga keldi. Bu munosabat bilan u huquqni tizimli tavsiflashning qator muammolarini ko'rib chiqdi va, jumladan, huquq tizimiga huquqning ma'lum qismlarini mazmun belgilariga qarab nisbatan erkin va mustaqil ishlaydigan tarkibiy jihatdan tartibga solingan yaxlit birlikka obyektiv birlashishi, deb ta'rif berdi. Huquq sohalari, institutlari va normalari misolida u huquq tizimining belgilarini ham

tavsiflab o'tdi. Mazkur belgilar jumlasiga olim huquqiy birlikning obyektivligini, huquqiy birlik qismlarining mazmun belgilariga qarab birlashganligini, huquq tizimining birligi va tarkibiy tartibga solinganligini, huquq tizimining nisbatan mustaqilligini va uning ishlashini kiritdi.

O'z vaqtida V.N. Kudryavsev yuridik fanining istiqbolli rivojlanishi nuqtai nazaridan katta tizimlar nazariyasi qoidalariga asoslangan huquqiy hodisalarning tahliliga tizimli yondashuvga jiddiy e'tibor berish lozimligini qayd etib o'tgan edi. U tizimni o'rganishga doir hozirgi zamon tasavvurlaridan kelib chiqib huquq sohasidagi funksional tizimlarni obyektiv ravishda tarkib topgan va o'z zimmlariga yuklangan funksiyalar tufayli mavjud bo'lgan tegishli ijtimoiy tizimlar sifatida ajratdi. V.N. Kudryavsev umuman jamiyat huquq tizimining alohida qismlarini: huquqiy ustqurmani, jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi davlat organlarining faoliyatini ("jinoyat adliyasi tizimi"), huquqiy tartibga solish va huquqiy ongni optimallashtirish nazariyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqdi. U o'zini o'zi boshqaruvchi huquq tizimlarining qator belgilarini: funksional huquq tizimida kichik tizimlar va elementlarning hamda axborot oqimlarining mavjudligini, to'g'ri va teskari aloqalar ta'sirini, huquq sohasi tizimlari bilan tashqi muhitning o'zaro ta'sirini va hokazolarni ta'riflab berdi.

Keyinchalik V.N. Kudryavsev, A.M. Vasilyev va V.P. Kazimirchuk huquqning keng ta'rifi hamda "huquq tizimi" tushunchasining genozisidan kelib chiqib jamiyatning huquq tizimini iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, ma'naviy, madaniy va boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqada o'rganishning muhimligini asoslab berdilar. Bu nuqtai nazardan ular mazkur ijtimoiy tizim tushunchasiga "huquq doktrinalari, normalari va institutlarini ham, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan huquqni tarkib toptirish va huquqni amalga oshirish jarayonlarini ham" kiritdilar. "Huquq tizimi" tushunchasini boshqa turdosh tushunchalardan ajratdilar, huquq tizimini statika va dinamikada ko'rsatdilar hamda uning tizimlilik, izchillik, kommunikativlik, huquq muassasalari va odamlarning faoliyati hamda ijtimoiy ziddiyatlar bilan aloqadorlik, samaradorlik singari xususiyatlarini yoritib berdilar.

N.V. Vitruk huquq sohasidagi tizimli tadqiqotlarni tahlildan o'tkazib, mohiyat e'tibori bilan barcha davlat va huquq hodisala-

riga o'zaro bog'langan va tizimlar hosil qiluvchi tizimlar deb qarash mumkin, degan xulosaga keldi. U murakkab dinamik tizimning kibernetik talqiniga asoslanib ijtimoiy-huquqiy sohadagi tizim tushunchasini yaxlit bir butunning o'zaro bog'liq bo'lgan va qo'yilgan maqsadiar yo'nalishida o'zaro ta'sirga kirishuvchi qismlari va elementlari majmui yoki yig'indisi deb ta'rifladi. Optimallashtirish nuqtai nazaridan olim huquq sohasidagi "huquqiy-ijtimoiy munosabatlar" va "huquqiy tartibga solish mexanizmi" singari murakkab yaxlit tizimlarni tavsiflab berdi. Bunda u mazkur o'zini o'zi boshqaruvchi tizimlarning qator belgilarini – ularda tuzilma, maqsadlar, axborot oqimlari, to'g'ri va teskari aloqalar hamda tartibga solish dasturlari mavjudligini qayd etdi.

Adabiyotlarda huquq tizimining boshqa tushunchalari ham taklif etiladi. Bunda asosan huquq normalari tizimi, huquqiy normalar va huquqiy munosabatlar, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatining o'zaro nisbati hamda sud organlarining funksiyalari ta'riflaridan kelib chiqiladi.

Umuman tizimlarning, shu jumladan huquq tizimi va uning kichik tizimlarining mazmun belgilarini o'rganish jarayonida shu narsa diqqatga sazovorki, ko'pgina mualliflar yaxlit tizimli tuzilmalar haqida gapirganda avvalambor o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sirga kirishuvchi kichik tizimlar va elementlar majmui ("yig'indisi", "to'plami" va h.k.)ni, qismlarning ma'lum belgilarga qarab birlashtirishini va boshqa shunga o'xshash holatlarni qayd etadilar. Natijada huquq sohasida turli tartibli (normativ, davlat-huquqiy, kibernetik, axborot va boshqa) tizimlardan iborat bo'lgan obyektiv tarkib topgan ijtimoiy tuzilmalar mavjudligi ayon bo'ladi; bu tizimlarni o'zaro bog'liq bo'lgan alohida kichik tizimlar va elementlarga ajratish mumkin. Ular ma'lum tarzda joylashgan va tartibga solingan bo'lib, muayyan vazifalarni bajaradilar, boshqaruv bosqichlari va funksiyalarini amalga oshiradilar hamda qo'yilgan maqsadlar sari harakat qiladilar. Huquq tizimi va uning kichik tizimlari mazmun-mohiyatining tavsifi ma'lum darajada mana shunday.

Huquqiy informatika huquq tizimi va uning kichik tizimlarini ta'riflash va tavsiflashda ana shunday yondashuvlardan foydalangani hamda ularni o'zining o'rganish obyekti sifatida ana shunday ko'rinishda ko'rib chiqadi. Ammo bunda u mazkur o'rganishga o'zining ba'zi bir tuzatishlarini ham kiritadi. Bu tuzatishlarning

mazmuni quyidagilardan iboratdir. Huquqiy informatika huquq tizimi va uning kichik tizimlariga tizimli axborot tuzilmalari, ya'ni ma'lum tarzda joylashgan va ma'lum maqsadlar yo'nalishida o'zaro ta'sirga kirishuvchi, asosiy o'ziga xos belgisi tizimli-axborot sifatlari va belgilarining mavjudligi bo'lgan qismlar, kichik tizimlar va elementlar to'plami deb qaraydi. Ya'ni huquqiy informatika foydalanuvchilarni qiziqitiruvchi har qanday axborotlar, har qanday ma'lumotlar va xabarlarini aks ettiruvchi har qanday huquqiy tuzilmalarni o'rganadi.

Tabiiyki, (huquq tizimining, uning kichik tizimlarining) har qanday huquqiy axborot tuzilmasini tahlildan o'tkazish jarayonida uning statistik va dinamik jihatlari ajratish mumkin, ammo ular bir-biridan ajralgan emas, balki bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, mazkur tuzilmalarning istalgan birini ko'rib chiqish jarayonida dastlab ularning qismlari, kichik tizimlari va elementlari majmuini tahlildan o'tkazish (tuzilmani statikada o'rganish) lozim. So'ngra o'rganish jarayonida mazkur qismlar, kichik tizimlar va elementlarning tashkiliy holati, ya'ni ularning tartibli ajratiladi (tuzilmani statikada o'rganish davom ettiriladi); keyin huquqiy axborot tuzilmasining o'zaro aloqalariga e'tibor qaratiladi (tuzilmani statika va dinamikada o'rganish); so'ngra qismlar, kichik tizimlar va elementlarning qo'yilgan maqsadlar yo'nalishidagi o'zaro ta'siri ko'rib chiqiladi (axborot tuzilmasini dinamikada o'rganish); shundan so'ng umumiylik, informativlik va boshqariluvchanlik singari sifat va belgilar bilan tavsiflanuvchi kichik tizimlar va elementlardan yaxlit huquqiy tuzilmani ajratish talab etiladi (tizimni statika va dinamikada tahlildan o'tkazish); va nihoyat, umuman huquq tizimidagi va uning kichik tizimlaridagi axborot jarayonlarining tashkil etilishini o'rganish lozim (tuzilmani dinamikada tavsiflash).

Bu muhim xossalarni huquqiy axborot tuzilmalariga xos emas. Ularni boshqa ijtimoiy tuzilmalar – iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, ma'naviy, madaniy va boshqa tuzilmalarni tahlildan o'tkazish jarayonida ham aniqlash mumkin. Ammo mazkur belgilarni ajratish va o'rganish yuristga voqelik haqidagi an'anaviy normativ-huquqiy tasavvurlar doirasidan chiqish, huquq tizimi axborot-boshqaruv ta'siriga bo'ysunadigan hodisa sifatida mavjud yoki mavjud emasligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Huquq sohasida

ma'lum kichik tizimlar va elementlarning mavjudligi, ularning o'ziga xos tarzda tartibga solinganligi va ishlash jarayonidagi o'zaro aloqalari, o'zaro ta'siri va izchilligi axborot tuzilmalarini farqlash, ularning tuzilishi, funksiyalari, aloqa kanallari, huquqiy va boshqa xil axborot oqimlarini tadqiq qilish va o'rganish imkonini beradi.

Axborot tuzilmalari (faqat huquq tizimigina emas, uning kichik tizimlari ham alohida tizimlar sifatida) ijtimoiy tuzilmalarning mu-rakkab turi ekanligi shubhasizdir. Huquqiy axborot tuzilmalari jami-yatning qismlari, ajralmas kichik tizimlari sifatida uning faoliyati va rivojlanishida o'ziga xos tirik organizmlar bo'lib xizmat qiladi. Bu tuzilmalarni davlat organlari, jamoat birlashmalari, huquq norma-lari, huquqiy munosabatlar subyektlarining xulq-atvori, huquqiy ta'sir ko'rsatish vositalari, huquqiy qarashlar hamda boshqa obyekt-lar va hodisalarning u yoki bu darajada muhim birlashmalari deb ta'riflash mumkin. Bunday birlashishning maqsadi huquq sohasi, huquq sohasidagi axborot ta'minoti va boshqaruv nazariyasi va amaliyotidagi real ahvol bilan mos keladi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, bu yerda global ijtimoiy-huquqiy tuzilmalar (huquq tizimi jamiyat tizimining bir qismi sifatida) hamda ularning turli kichik tizimlari, elementlari (aytaylik, prokuratura, sud, adliya, ichki ishlar organlari), huquqiy ong, huquqiy tartibga solish, huquq ijodkorligi, qonuniylik, huquq-tartibot, huquqiy madaniyat va huqu-qiy tarbiya mexanizmlari axborot tuzilmalari sifatida ishtirok etishi mumkin. Xo'jalik, moliya, mehnat, jamoa xo'jaligi, yer va boshqa ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning alohida mex-anizmlari muhim huquqiy axborot tuzilmalari hisoblanadi.

Tabiiyki, boshqa ijtimoiy tizimlar singari, huquqiy axborot tuzil-malariga ham alohida integrativ xususiyatlar xos bo'lib, ular maz-kur tuzilmalarning kichik tizimlari va elementlari majmuiga bog'liq emas. Masalan, (axborot tizimi sifatidagi) alohida huquq norma-sining informatsion amal qilish mexanizmining keng ma'lum bo'lgan modelini olaylik. Mazmunan bu tizim qator kichik tizimlar va elementlardan – mazkur normani qo'llovchi subyektning informat-sion ma'lumotlari to'plami sifatidagi huquq normasi, huquqiy mu-nosabatlar, subyektning xulq-atvori, sanksiyalar va hokazolardan tarkib topadi. Bu qismlarning har biri yaxlit bir butun huquqiy axborot tuzilmasini tashkil eta olmaydi. Biroq, dialektik yo'l bilan birlashgach, bu kichik tizimlar va elementlar alohida huquq nor-

masi miqyosida huquqiy-axborot tartibga solish mexanizmini tashkil etadi. Bu mexanizm huquqiy munosabatlarning tegishli subyektlari xulq-atvorini yo'naltirishga va ularni axborot jarayonlari asosida boshqarishga qodirdir.

Ko'rib chiqilayotgan tuzilma ichida axborot aloqalari va o'zaro ta'sirlarining mavjudligi (huquqning alohida normasi miqyosida huquqiy tartibga solish mexanizmi) mazkur tuzilma boshqa tuzilmalar bilan o'zaro ta'sirga kirishish jarayonida yaxlit (masalan, iqtisodiy yoki siyosiy yo'sindagi) axborot organizmi sifatida ishtirok etishini isbotlaydi. Huquqiy axborot tuzilmasi o'z kichik tizimlari va elementlariga faol ta'sir ko'rsatadi hamda ularni muayyan vazifalarni hal qilish jarayonida o'zgartiradi. Natijada alohida kichik tizimlar va elementlar o'zining regulyativ, axborot xususiyatlari va xossalarini o'zgartirib, yangi sifat xususiyatlariga ega bo'ladi (bizing holda huquqiy munosabatlar subyektlarining xulq-atvori vaqt o'tishi bilan soddalashishi yoki murakkablashishi, subyektlar majburiyatlarini bajarmagan taqdirda sanksiyalar miqdori o'zgarishi, huquqiy axborot oqimlari kamayishi yoki ko'payishi mumkin).

Huquqiy axborot tuzilmalari o'z kichik tizimlari va elementlari to'plamiga egadirlar. Huquqiy tuzilmalarning qismlari mexanik tarzda emas, balki ularning ichki tuzilishidan, mazkur axborot tuzilmalar tarkib topishi va rivojlanishining obyektiv qonuniyatlaridan kelib chiqib birlashgandir. Huquqiy voqelik sohasidagi axborot va boshqaruv nuqtai nazaridan bu davlat organlari, shu jumladan huquq muassasalari, huquq normalari, ijtimoiy munosabatlar, aloqa kanallari, huquqiy axborot va boshqalar bo'lib, ularning o'zaro ta'siri yaxlit huquqiy tuzilmani tashkil etadi. Huquq sohasidagi axborot ta'minoti va boshqaruvning nazariyasi hamda amaliyotida kichik tizimlarning keng doirasi ajratiladi – bular huquqni, huquqiy tartibga solish, huquqiy targ'ibot, huquqiy madaniyat mexanizmlarini qo'llovchi davlat hokimiyati, boshqaruvi, adliya va prokuratura organlari hamda boshqa obyektlardir. Bu holda qonun loyihalarini muhokamadan o'tkazish va qabul qilish, xo'jalik nizolarini hal qilish, sudda ishlarni ko'rib chiqish, huquqiy bilimlarni targ'ib qilish va boshqa shunga o'xshash jarayonlar ham kichik tizimlar va elementlar bo'lib xizmat qiladi.

O'rganilayotgan kichik tizimlar va elementlarning tarkibi huquqiy axborot tuzilmasining mazmunini tashkil etadi. Yaxlit tuzilma-

ning ijtimoiy va informatsion tabiati va yo'nalishi kichik tizimlar va elementlarning ichki tashkilotiga bog'liq bo'ladi. Masalan, huquqiy tartibga solish mexanizmining ijtimoiy va informatsion tabiati, uning maqsadlari, vazifalari, funksiyalari, "axborotga to'liqligi", axborot bilan ta'sir ko'rsatish va boshqarish usullari xo'jalik, ma'muriy, moliyaviy va boshqa munosabatlarni huquqiy tartibga solishning sohaviy mexanizmlari tarkibi va ichki tashkilotiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Huquqiy axborot tuzilmasining kichik tizimlari va elementlarida sodir bo'luvchi o'zgarishlar umuman mazkur tizimda va uning xossalari ham tegishli o'zgarishlar ro'y berishiga olib keladi, Natijada huquqiy axborot tuzilmasining kichik tizimlari va elementlari uning substansional, mazmun jihati, tuzilmaning ichki tashkiloti negizi bo'lib xizmat qiladi.

Tashkilot statik, qotib qolgan hodisa emas. U huquqiy axborot tuzilmasining tegishli qismlariga (pog'onalari, turlari, yo'nalishlariga qarab) u yoki bu shaklda ta'sir ko'rsatadi, ularni har xil tartibli munosabatlar bilan birlashtiradi, ularga ma'lum umumiylik baxsh etadi hamda yangi tizimli, informatsion va boshqa sifatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Tuzilmaning (huquq normalari, davlat organlarining huquqni qo'llash faoliyati, huquqiy-axborot ta'siri ko'rsatish va boshqalarning) nisbatan barqarorligi huquq va jamiyatning huquq tizimini rivojlantirish sohasida axborot bilan ta'minlashni muvofiq ravishda yo'lga qo'yish uchun katta ahamiyatga egadir. Huquqiy axborot tuzilmasining alohida kichik tizimlari va elementlarida sodir bo'luvchi o'zgarishlar (qonunchilikdagi qayta qurish, huquqni qo'llovchi boshqaruv, sud organlari ishining tashkilotidagi o'zgarishlar va hokazolar) uning tuzilishiga muntazam ta'sir ko'rsatadi. Ammo uning (siyosiy, konstitutsiyaviy, iqtisodiy) negizi barqaror bo'lib, huquqiy-axborot voqeligining yaxlitligini saqlab qoladi. Kichik tizimlar o'zaro ta'sirining barqaror aloqalari mavjud bo'lmaganida, huquqiy axborot tuzilmasi o'z zimmasiga yuklangan ijtimoiy maqsadlar, funksiyalar va vazifalarni samarali amalga oshira olmas edi.

Bu o'rinda barcha huquqiy axborot tuzilmalari, har qanday tizimlar va ularni tashkil etuvchi kichik tizimlar, elementlar singari, ma'lum tarzda joylashishini qayd etib o'tish lozim. Bu ularga ko'plab tuzilishlarga egalik xos ekanligini, bir tizimli huquqiy-axborot tuzilmalari bilan bir qatorda ko'p tizimli huquqiy-axborot

tuzilmalari ham mavjudligini anglatadi. Shuning uchun ham, masalan, alohida huquq normasi miqyosida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmiga nisbatan sodda, bir tizimli axborot tuzilmasi deb qarash mumkin. Ammo huquq instituti yoki sohasi miqyosida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmi ko'plab oddiy kichik tizimlar (tizimlar) — tegishli huquq normalari, huquqiy munosabatlar, subyektlar xulq-atvori, huquqiy axborot oqimlari va hokazolarni o'z ichiga oladi hamda ko'p tizimli axborot tuzilmasi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu yerda barcha ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmi ko'p tizimli tuzilmaning cho'qqisi bo'lib, u juda ko'p qismlardan – huquq normalari, institutlari, huquq sohalari, huquqiy ta'sir ko'rsatish vositalari, huquqiy munosabatlar, huquqiy-axborot ma'lumotlarining turlari hamda boshqa obyektlar, hodisalar va jarayonlardan tashkil topadi.

Ko'p tizimli tuzilmalarni boshqa huquqiy axborot tuzilmalari – huquqiy ong (individual, jamoaviy, ommaviy) mexanizmi, huquq ijodkorligi mexanizmi (mamlakat, avtonom respublika, o'lk, viloyat, vazirlik miqyosida), qonuniylik mexanizmi (prokuratura organlarining mamlakat, avtonom respublika, o'lk, viloyat, shahar miqyosida qonuniylikni mustahkamlash borasidagi faoliyati), huquq-tartibot mexanizmi (masalan, mamlakat IIV, o'lk, viloyat ichki ishlar boshqarmalari faoliyati doirasida) va boshqa tuzilmalar doirasida ham ko'rsatib berish mumkin.

Natijada yuridik nazariya va amaliyotda ijtimoiy hodisa va jarayonlarning ma'lum tizimini hosil qiluvchi yaxlit, huquqiy axborot tuzilmalarining ma'lum iyerarxiyasi vujudga keladi.

Tabiiyki, huquq sohasidagi axborot faoliyati ma'lum maqsadga ham ega bo'ladi. Zotan, maqsadsiz harakat mantiqsiz harakatdir. U yoki bu huquqiy axborot tuzilmalarining oldidagi xilma-xil maqsadlarni biron-bir umumiy maqsadlarga bog'lash juda ham qiyin. Shuning uchun ham biz umuman huquq tizimi hamda uning kichik tizimlarining ijtimoiy, huquqiy-axborot faoliyatining xususiyatini aks ettiruvchi va mohiyatan har xil omillar bilan belgilanuvchi maqsadlarning ayrim asosiy turlarini ajratib o'tishni lozim deb topdik. Bu o'rinda: huquq tizimining xo'jalik munosabatlari va boshqaruvni yangilash va rivojlantirishdan iborat bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini; huquq tizimining ijtimoiy tuzumni mustahkamlash-

dan, jamiyatni ijtimoiy rivojlantirish vazifalarining eng muvofiq ravishda hal qilinishiga yordam berishdan, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashdan iborat bo'lgan ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini; ishlaydigan qonunlar va qonun hujjatlarini ishlab chiqish, umumxalq muhokamasidan o'tkazish va qabul qilishdan (huquq ijodkorligi mexanizmining maqsadlaridan biri), odil sudlovni samarali amalga oshirishdan, jinoyatlarni tergov qilish va ochishdan (jinoyat adliyasi tizimining maqsadlaridan biri), huquqiy axborotlarni tezkorlik bilan tarqatishdan (huquqiy axborot umumdavlat tizimining maqsadlaridan biri) va hokazolardan iborat bo'lgan ijtimoiy-huquqiy maqsadlarni ajratish mumkin.

Huquqiy axborot tuzilmalarining ko'p maqsadli xususiyati tag'in shu bilan izohlanadiki, ularning asosida ma'lum yuridik, informatsion va boshqa vazifalarni hal qilish uchun yaxlit bir butunga birlashtirilgan turli kichik tizimlar va elementlarning faoliyati yotadi. Ularning ko'pchiligining (masalan, huquqni muhofaza qilish organlari va mansabdor shaxslarning) faoliyati qonunlar bilan tartibga solinadi. Ularning har birining oldiga ma'lum maqsadlarga erishishga qaratilgan vazifalar qo'yiladi. Bu maqsadlar bir-birini to'ldiradi va shu bilan bir vaqtda ularga har xil yo'nalish beradi. Ammo ular o'zining ijtimoiy tabiatiga ko'ra bir-biriga zid kelmaydi. Natijada huquqiy axborot tuzilmalari belgilangan maqsadlarga erishish munosabati bilan yuzaga keluvchi vazifalarni hal qilishga mo'ljallangan yaxlit mexanizmlar bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning ko'p sonli tuzilishi va funksiyalari maqsadlar tuzilmasi bilan o'zaro bog'liqdir. O'z navbatida, huquqiy axborot tuzilmalari turli kichik tizimlari va elementlarining maqsadlari bir-biri bilan quyidan yuqoriga qarab (masalan, individual huquqiy ong mexanizmidan jamiyatdagi ommaviy huquqiy ong mexanizmigacha) ma'lum tarzda bog'langandir. Bu ma'noda huquqiy axborot tuzilmalari maqsadlari majmui maqsadlarning ayrim iyerarxik "daraxti"ni hosil qiladi. Bu daraxt mazkur tuzilmalarning tashqi regulyativ-axborot ta'sirlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy axborot tuzilmalarining ko'pgina kichik tizimlari va elementlari (masalan, adliya, sud, prokuratura organlari) maqsadlar nuqtai nazaridan ikki vazifani bajarishi mumkin: yaxlit axborot tuzilmalari sifatida ular boshqa tuzilmalar tarkibiga (masalan, davlat apparatiga yoki yagona tizim sifatidagi jamiyatga) kiradilar va

shu bilan bir vaqtda, huquq tizimi va uning kichik tizimlarining qismlari sifatida huquqiy axborot yordamida ma'lum ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi mustaqil tuzilmalar hisoblanadilar.

Barcha huquqiy axborot tuzilmalarini yuqorida ko'rsatilgan tartibga solish funksiyalarini bajaruvchi, ya'ni tartibga solish maqsad va vazifalarini ishlab chiqish, zarur axborotni to'plash va qayta ishlash, zarur yuridik qarorlar qabul qilish, ularni ijrochilarga yetkazish, ularning bajarilishini nazorat qilishga qodir bo'lgan huquqiy-axborot ta'siri ko'rsatish, huquq ijodkorligi va huquqiy tarbiya subyektlari va obyektlariga ajratish mumkin. Huquqiy-axborot ta'siri subyektlari jumlasiga tegishli davlat hokimiyati, boshqaruv, sud, prokuratura organlari, jamoat tashkilotlari va mansabdor shaxslar kiradi. Axborot ta'siri subyekti huquq normalari va sanksiyalarni qo'llaydi, huquq maqsadlari, ko'rsatmalarini hamda boshqa huquqiy va nohuquqiy vositalarni amalga oshiradi. Bu ma'noda u boshqaruv funksiyasini bajaruvchi hamda xilma-xil obyektlarga ta'sir ko'rsatuvchi keng va sermazmun ijtimoiy-huquqiy birlik sifatida faoliyat ko'rsatadi. Axborot ta'siri obyekti – bu huquqiy munosabatlar subyektlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar, mutaxassislar, fuqarolar va boshqalarning xulq-atvoridir. Huquqiy tuzilmalar hamda ularning kichik tizimlari va elementlari ham axborot ta'siri obyektlari bo'lishi mumkin.

Huquqiy ta'sir subyektlari va obyektlari to'g'ri va teskari axborot aloqalari kanallari orqali bog'lanadilar. Bu kanallar vazifasini davlat xizmatchilari, ommaviy axborot vositalari, aloqa vositalari, mehnat jamoalari, fuqarolar va boshqalar bajaradi. To'g'ri axborot aloqalari kanallari ta'sir ko'rsatuvchi kichik tizimdan ta'sirni qabul qiluvchi kichik tizimga tomon, teskari axborot aloqalari kanallari esa – ta'sirni qabul qiluvchi kichik tizimdan ta'sir ko'rsatuvchi kichik tizimga tomon harakat qiladi. To'g'ri va teskari axborot aloqalari kanallari huquqiy axborot tuzilmalarining muhim tarkibiy komponentlari bo'lib, tuzilmalar ularsiz statik, harakatsiz holatda qolgan bo'lardilar.

Nihoyat, biz huquqiy axborot tuzilmalariga o'zini o'zi tartibga solish xos ekanligini yuqorida qayd etib o'tdik. Ko'rsatilgan kichik tizimlarning kanallari orqali muntazam o'zaro ta'sirga kirishish jarayonida u axborotni yig'ish, qayta ishlash va baholash, yuridik qarorlar qabul qilish, teskari axborot aloqasi va boshqa harakat-

larni amalga oshirish orqali huquqiy tuzilmalarning ma'lum sifatlarini saqlab qolishga qaratiladi. Fuqarolik jamiyati sharoitlarida bu o'zini o'zi tartibga solish keng doirada amalga oshiriladi. To'laqonli fuqarolik jamiyati turli ijtimoiy munosabatlarga keng miqyosda va samarali huquqiy-axborot ta'siri ko'rsatish uchun barcha zarur sharoitlar, vositalar va usullarga ega bo'ladi. Ammo bunda ijtimoiy hayot va amaliyot ma'lum cheklashlar belgilaydigan axborot bilan ta'minlashning obyektiv sharoitlari va imkoniyatlarini e'tiborga olish lozimdir.

Huquqiy axborot tuzilmalariga faoliyat va rivojlanishning ma'lum qonuniyatlari xosdir (bu ayniqsa global tizim – jamiyatning huquq tizimiga taalluqlidir). Mazkur qonuniyatlarda hodisalar o'rtasidagi aloqalarning obyektivligini tavsiflaydi. Hodisalar va jarayonlarga tizimli-axborot yondashish, yuridik nazariyaning hozirgi taraqqiyot bosqichida huquqni tizimli-axborot o'rganish jarayonida bularning barchasini e'tiborga olish va ulardan foydalanish lozim. Huquqiy axborot tuzilmalarida o'zini o'zi boshqarish ayni holda ijtimoiy hodisalarning stixiyali ravishda paydo bo'lishi va izdan chiqishiga qarshi qaratilgandir.

Boshqaruv jarayonida huquqiy tuzilmalar bir sifat holatidan boshqa sifat holatiga o'tadilar hamda ichki (maqsad va vazifalar qo'yish, tashkil etish, kommunikatsiyalarni aniqlash va h.k.) va tashqi (ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish va h.k.) funksiyalarni amalga oshiradilar. Birinchi holda axborot oqimlari tizimlar ichida aylanadi, binobarin, boshqaruv jarayonlari ijtimoiy-huquqiy birlik doirasida amalga oshiriladi. Ikkinchi holda huquqiy tuzilmalar tashqi muhit, ya'ni o'zini qurshagan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, huquqiy va boshqa tizimlar bilan bog'lanadi, ulardan signallar (axborot) oladilar hamda ularning tegishli ta'sirini his etadilar. O'z tomonidan ular tashqi muhitga ma'lum axborot ta'siri ko'rsatadilar.

Huquqiy axborot tuzilmalarining tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri realdir. Bu ko'p sonli axborot aloqalari va munosabatlariga ega bo'lgan huquqiy tuzilmalarda o'z ifodasini topadi. Ularni, barcha ijtimoiy jarayonlar singari, hisobga olish va matematik tahlildan o'tkazish juda ham qiyin. Bu huquqiy axborot tuzilmalarini boshqarishni boshqaruvning murakkab turiga aylantiradi hamda


uni informatika va kibernetika vositalari va usullari nuqtai nazari-dan optimallashtirish jarayonida qiyinchiliklar tug'diradi.

§3. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari

Umumiy va huquqiy informatikada axborot tizimlari muhim rol o'ynaydi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari (AAT) shular jumlasidandir.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi – bu axborotlarni kiritish, qidirish, joylashtirish va berish protseduralari bilan ta'minlangan axborotlarni saqlash joyidir. Axborot tizimidagi ma'lumotlar qat'iy tizimlashtirilgan va tartibga solingan bo'ladi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimining tuzilishini aloqalar zanjiri ko'rinishida ifoda etish mumkin(2-rasm).



2-rasm. Avtomatlashtirilgan axborot tizimi

1 – ma'lumotlar bazasi

2 – tizimga xizmat ko'rsatuvchi shaxslar

3 – texnik vositalar

4 – tizimdan foydalanuvchilar

To'g'ri chiziqlar – tizim ichidagi aloqalar

Axborot tizimlarining turkumlanishi 2-rasmda ko'rsatilgan.

Har qanday yo'nalishdagi axborot tizimining ishini ta'minlovchi jarayonlarni shartli ravishda bloklardan iborat sxema ko'rinishida ifoda etish mumkin:


tashqi yoki ichki manbalardan axborot kiritish;

kiritilgan axborotga ishlov berish va uni qulay ko'rinishda taqdim etish;

axborotni foydalanuvchilarga taqdim etish yoki boshqa tizimga o'tkazish uchun chiqarish.

Sankt-peterburglik olimlar jamoasi tomonidan axborot tizimi xususiyatlarining quyidagi sxemasi taklif qilingan:

har qanday axborot tizimi tahlil qilinishi, tizimlar tuzishning umumiy qoidalari asosida tuzilishi va boshqarilishi mumkin;
 axborot tizimi harakatchan bo'ladi va rivojlanib boradi;
 axborot tizimi ishlab chiqaruvchi mahsulot axborot bo'lib, uning asosida qarorlar qabul qilinadi;
 axborot tizimini axborotlarga ishlov berishning inson tomonidan boshqariladigan kompyuter tizimi sifatida qabul qilish lozim.



3-rasm. Axborot tizimlarini turkumlash

Hozirgi zamon axborot tizimlari juda tez ishlaydi va juda katta xotiraga ega. Ularning har biri bir vaqtning o'zida ko'p sonli mahalliy va uzoqda joylashgan terminallar bilan ishlay oladi. Buning natijasida axborot tizimi:

har xil ishlarni, eng avvalo ma'muriy, ilmiy, loyihalash va konstruktorlik ishlarini avtomatlashtiradi;

tizimdagi axborotlarni nazorat qilib boradi va ulardagi xatolarni bartaraf etadi;

tizimda saqlanayotgan axborotlarni muntazam yangilab boradi; foydalanuvchilarning topshiriqlarini tezlik bilan bajaradi; axborot resurslariga murojaat qiladi.

III BOB. HUQUQIY INFORMATIKADA MODELASHTIRISH METODI

§1. Modellashtirish metodi

Modellashtirish – bu bilvosita nazariy yoki amaliy bilish obyektining har xil modellarini yaratish va undan ilmiy ijodda foydalanish imkonini beruvchi ilmiy metoddir. Modellashtirish jarayonida ayrim yordamchi obyekt – modeldan foydalaniladi.

Matematik model – o'rganilayotgan obyekt asosiy xossalari ifodalovchi va u haqidagi ko'plab informatsiyani qulay shaklda tasvirlovchi sun'iy tizim.

Matematik modellashtirish vazifasi “mavjud olam”ni matematika tilida bayon etishdan iboratdir. Bu uning eng ahamiyatli xususiyatlari haqida ancha aniq tasavvurga ega bo'lish uchun imkon beradi va aytish mumkinki, bo'lajak hodisalarni bashoratlash mumkin bo'ladi. Bu holat esa ayni “matematik modellashtirish” terminini ifodalaydi.

Modelni o'rganish jarayonida obyektiv hodisa yoki jarayonning xususiyatlari haqida yangi ilmiy axborot berish qobiliyatiga ega. Bilish jarayonida foydalaniladigan model obyektiv voqelik bilan ma'lum, har safar maxsus qayd etiladigan va aniqlanadigan munosabatda bo'ladi. Modelni o'rganish jarayonida aniqlangan sifat va xususiyatlar so'ngra modellashtirilgan hodisaning o'ziga ko'chirib o'tkaziladi. Bu metodning asosida tabiiy fanlar sohasida ishlab chiqilgan o'xshashlik nazariyasi yotadi. Modelning vazifasi bilish obyektini elementlarga ajratish, uning ayrim muhim elementlarini ajratib olib, ularni formalizatsiya qilish va tizimli-strukturaviy tahlil tilida ifoda etishdan iborat.

Yurist uchun modellashtirish metodi – bu huquqiy tartibga solish va davlat boshqaruvi sohasida vujudga keladigan spetsifik muammolarni chuqur o'rganishning ilmiy va amaliy vositalaridir. Bu metoddan huquq normasining amal qilish mexanizmini o'rganishda foydalanilishi mumkin. Huquq normasining amal qilish mexanizmi deganda bu normaning talablarini uning bajarilishini ta'minlaydigan huquq subyektlari, jamoalar va jamiyatdagi ijtimoiy

tabaqalarga bilvosita o'tkazuvchi yuridik va ijtimoiy hodisalar, jarayonlar va omillar tushuniladi (4-rasm). Bu mexanizm huquqni qo'llash faoliyati sohasida ham amal qiladi. Uni shuningdek huquq normasi va ijtimoiy munosabatlarning mazkur turi o'rtasidagi sababiy aloqa sifatida ham talqin qilish mumkin.

Bugungi kunda yuridik fani sohasida quyidagi modellar yaratilgan va tahlildan o'tkazilgan:


huquqiy tartibga solish mexanizmining modellari;

huquq normalarining mantiqiy-matematik modellari;

jinoyatchilikning ahvoli, sabablari va dinamikasining kriminologik modellari;

statistik modellar.

Umumiy huquq nazariyasiga muvofiq ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solishning obyekti hisoblanadi. Tizimli yondashuvda bu qoida konkretlashtirilishi mumkin. Tizimli-kibernetik nuqtai nazardan o'zaro aloqador elementlarning yaxlit birligi sifatida tushuniladigan ayrim ijtimoiy tizim huquq normasi ta'sirining obyekti hisoblanadi, deb aytish mumkin. Buning natijasida «ijtimoiy munosabatlar» tushunchasini jiddiy operatsionalizatsiya qilishga muvofaq bo'linadi.



4-rasm. Huquq normasining amal qilish mexanizmini modellashtirish

Ijtimoiy tizim tushunchasiga miqdoriy aniqlik kiritish mumkin. Masalan, huquqiy tartibga solish va ijtimoiy boshqarish obyekti sifatidagi ishlab chiqarish jamoasi uchun jamoaning kattaligi, ishlab chiqarish tarmog'i, mehnat unumdorligi, hamjihatlik, axborotlar sohasidagi aloqalar tizimning parametrlari bo'lishi mumkin. Miqdoriy yondashuv nuqtai nazaridan tartibga solinuvchi ijtimoiy tizim miqdorlar majmui bilan ifoda etiladi:

$$Q = (q_1, q_2 \dots q_n),$$

bunda ularning har biri ma'lum miqdoriy yoki (ko'pincha) nomiqdoriy kattalikka ega bo'ladi¹.

Umumiy holatda q_i o'zgaruvchilar vaqtda o'zgaradi, ya'ni

$$Q(t) = q_1(t), q_2(t) \dots q_n(t)$$

Tartibga solinayotgan ijtimoiy tizim ayrim qismlarga – ijtimoiy tabaqalarga parchalanadi. O'rganilayotgan huquq normasi amal qiluvchi ayrim hududiy ijtimoiy tabaqa berilgan bo'lsin. U bir qator alohida guruhlariga parchalanadi. Bu alohida guruhlar yoshi, yashash joyi, kasbi va boshqa omillarga ko'ra turkumlanishi mumkin. Muhimi shuki, ularning har birida o'rganilayotgan normaning amal qilishi har xil namoyon bo'lishi mumkin. Agar bunday guruhlarning umumiy soni n ga teng bo'lsa, tartibga solinayotgan ijtimoiy tizim tegishli ko'pliklarning birlashmasi ko'rinishida ifoda etiladi:

$$P = U_{p_i} = U_1 \cap U_2 \cap U_3 \dots$$

Bunday ifoda tizimni formalizatsiya qilish uchun yo'l ochadi. Jumladan, u tasodifiy miqdorlar yig'indisi tarzida ifoda etilishi mumkin.

Huquq normasining amal qilish mexanizmining keyingi elementi ko'rib chiqilayotgan tizimga xos bo'lgan xulq-atvordir. Huquq xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ta'sir ko'rsatmaydi. Dastlab u boshqaruv obyektining o'ziga, ijtimoiy tizimga ta'sir ko'rsatadi, so'ngra ijtimoiy tizim izchil ijtimoiy xulq-atvorning ma'lum turini produtsiya qiladi. Tizimning harakati – bu uni tashkil etuvchi komponentlarning faoliyatidir. Ijtimoiy ishlab chiqarish, siyosat, jamiyatning ma'naviy hayoti, boshqaruv sohalaridagi faoliyat shular jumlasidan. Tashqi xulq-atvor odamlarning jismoniy xatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi yoki verbal (og'zaki) bo'ladi.

Tartibga solinayotgan ijtimoiy tizimning xulq-atvorini tahlil qilish jarayonida alohida individni emas, ko'plab ijtimoiy subyektlarni ko'rib chiqish mumkin. Boshqacha aytganda, ijtimoiy tabaqalar va ijtimoiy guruhlarning xulq-atvoriga huquqning ta'sirini o'rganish

¹ Shunday qilib, Q miqdor o'ziga xos vektor, ya'ni tartibga solingan miqdorlar majmuini tashkil etadi.

mumkin. Bunday yondashuv ehtimollik nazariyasi va matematik statistika metodlaridan foydalanish uchun juda qulay. Bunda katta yig'indilarning statistik qonuniyatlari va statistik xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Tahlilning bu bosqichida individlarning xulq-atvori ayrim statistik taqsimot tarzida tavsiflanishi, bunda tegishli xulq-atvor shakllari va ularning takrorlanish darajasi ko'rsatilishi lozim.

Huquq normasining amal qilish mexanizmining muhim elementi so'nggi to'g'ri to'rtburchakda ko'rsatilgan (4-rasm). Ayni holatda huquq normalari bilan himoya qilinadigan va qo'riqlanadigan ijtimoiy boylıklar haqida gap borayotir. Bu elementning mustaqil element sifatida ajratilishi mantiqan zarur. Shuni alohida qayd etish kerakki, ijtimoiy munosabatlarning mazkur doirasiga huquqiy ta'sir ko'rsatishning yakuniy, eng so'nggi obyektı shaxs, jamoa va ijtimoiy tabaqaning xulq-atvori emas, balki huquq bilan himoya qilinuvchi ijtimoiy boylıklar hisoblanadi.

Real ijtimoiy jarayonlarning matematik modellari modellarning alohida turi hisoblanadi.

✓ Ijtimoiy jarayonning matematik modeli – bu uning hozirgi zamon matematikasi usul va vositalari yordamida miqdoriy ifodalash mumkin bo'lgan jihatlarining ta'rifidir.

O'z shakli nuqtai nazaridan matematik model tenglama, tenglamalar va tengsizliklar sistemasi, formula, funksiya, to'plam, vektor va matritsa ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Matematik modellar avvalambor ijtimoiy-huquqiy statistikaning ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqalarni miqdoriy ta'riflab beradi. Ijtimoiy-huquqiy hodisalar va ijtimoiy sabablar, shuningdek ijtimoiy-demografik omillar (aholining tabiiy harakati, uning jins va yosh tuzilishidagi o'zgarishlar, urbanizatsiya, migratsiya jarayonlari va h.k.) o'rtasidagi statistik aloqalarni miqdoriy tavsiflovchi modellar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu munosabat bilan bir vaqtning o'zida ko'plab sababiy aloqalarning harakatini hisobga oladigan modellarning ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega. Bu vazifaga ko'p omilli matematik modellar xizmat qilishi mumkin. Real jarayonning shart-sharoitlari va omillari tegishli ravishda o'zgargan taqdirda qanday xulosa olish mumkin bo'lsa, omillarning uyg'unligini o'zgartirish yo'li bilan ham shunday xulosalar olish mumkin.

Modellashtirishning induktiv usuli ma'lum metodika bo'yicha

to'plangan empirik ma'lumotlarning statistik umumlashtirilishiga tayanadi. Ular tegishli ishlovdan o'tkazilganidan so'ng ayrim funktsiya yoki egri chiziq bilan approksimatsiya qilinadi. Bu funktsiyaga o'rganilayotgan o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikning matematik modeli sifatida qaraladi.

Ko'pgina tadqiqotchilar murakkab ijtimoiy tizimning to'liq modelini tuzib bo'lmasligini qayd etadilar. Makromodellashtirish konsepsiyasi birinchi o'ringa chiqadi. Makromodellar prinsipi bosh vazifaning hal qilinishini xususiy vazifani hal qilishga almashtirishni nazarda tutadi: tizimning favqulodda murakkab mexanizmidan ayrim aloqa va munosabatlarga ajratib olinadi.

Ba'zan «matematik model» atamasi ancha keng ma'noda ham tushuniladi. Jumladan, Iqtisodiyot, sotsiologiya, demografiya va boshqa fanlardagi ma'lum vazifalarni hal qilish uchun qo'llanadigan matematik nazariya ana shu atama bilan belgilanadi. «Iqtisodiy-matematik model» atamasiga qiyosan yangi – «ijtimoiy-matematik model» atamasini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Matematik modellashtirishni statistik kuzatish va eksperimentga o'xshatish noto'g'ri. Masalan, huquq normasining u yoki bu varianti statistik materialda tekshirib ko'rilishi mumkin. Ammo bu modellashtirish emas, balki statistik kuzatishdir. Matematik modellashtirish kibernetik modellashtirishdan farq qiladi. Kibernetik model axborotlarni boshqarish va uzatish jarayonlari haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

Barcha shart-sharoitlarda matematik model va sotsiologik ma'lumotlarning uyg'un aloqasi topilishi lozim. Matematik apparat hamda uning yordamida o'rganiladigan ijtimoiy hodisalar izomorfizmining mavjudligi jiddiy holat hisoblanadi. Davlat va huquqiy tartibga solish jarayonining matematik modellarini ishlab chiqish katta qiziqish uyg'otadi.

Blron-bir ijtimoiy-huquqiy hodisaning matematik modeli tuzilganidan so'ng ishning ikkinchi bosqichi boshlanadi. Bu bosqich mazkur modeldan kelib chiquvchi barcha oqibatlarni aniqlashdan iborat. Har xil matematik operatsiyalardan foydalanib modelni yangi ko'rinishga keltirish mumkin.

Agar model boshlang'ich statistik materialga muvofiq kelmasa, yangi model tuziladi; u yana qo'shimcha statistik ma'lumotlarni jalb qilish yo'lli bilan tekshirib ko'riladi va h.k. Bu jarayon aniq mos keluvchi model topilmagunicha takrorlanaveradi.

Matematik modellashtirish har xil konstruksiyalar, masalan, normaning yuridik aspekti asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu holda normaning dispozitsiyasi, gipotezasi va sanksiyasi singari yuridik elementlar modellashtiriladi. Biroq boshqacha yondashuv qo'llanishi ham mumkin. Matematik modellashtirish uchun ijtimoiy jarayonlar asos qilib olinishi va huquq normasining ijtimoiy jihatlari, masalan, uning amal qilishining informatsion mexanizmi modellashtirilishi mumkin. Nihoyat, bir vaqtning o'zida huquq normasining ham yuridik, ham ijtimoiy aspektlarini hisobga oluvchi modellar taklif qilinishi mumkin.

Matematik modellashtirish «modellar to'plami» prinsipini hisobga oladi. Huquq normasining amal qilish mexanizmi o'ta murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu mexanizmning turli pog'onalariga har xil murakkablik darajasi xos bo'ladi. Binobarin, bundan huquq mexanizmining barcha ko'rinishlari va barcha pog'onalarini miqdoriy va strukturaviy tavsiflab berishga qodir bitta modelni tuzishning iloji yo'q, degan xulosa kelib chiqadi. Faqat huquq normasining amal qilish mexanizmining ayrim aspektlari va muhim jihatlari aks ettiruvchi modellargina tuzilishi mumkin.

Huquq normasining amal qilish mexanizmini matematik modellashtirishning dastlabki sharti uning elementlarini tizimli tahlil qilish hisoblanadi. Tizimli yondashuv obyektini tarkibiy elementlarga ajratish, ko'rsatilgan mexanizmning ichki tuzilishini o'rganish bilan bevosita bog'liq. Jumladan, yo'l-transport hodisalarining soni boshqa teng sharoitlarda harakatning intensivligiga ham bog'liq bo'ladi. Harakat qancha katta bo'lsa, haydovchilarning noto'g'ri va nomuvofiq harakatlari ham shuncha ko'p bo'ladi. Van Jils (Gollandiya) maxsus velosiped yo'lagi bo'lmagan ikki harakat yo'nalishli yo'llardagi harakatning intensivligi bilan yo'l-transport hodisalarining soni o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni e'lon qildi:

$$S = 2,86 + 0,40P,$$

bu yerda S – 1 mln. avtomobil-kilometr harakatga to'g'ri keladigan hodisalar soni; P – harakatning intensivligi (sutkasiga ming avtomobil). Moskovits (AQSH) darajali bog'liqlikni taklif etadi:

$$S = 0,000124P_0^{0,128},$$

bu yerda P_0 – bir sutkadagi harakatning o'rtacha intensivligi.

R. Smith (Angliya) o'lim bilan tugagan yo'l-transport hodisalarining yillik soni (D), ro'yxatga olingan avtomobillar soni (V) va aholining soni (P) o'rtasida quyidagi bog'liqlikni aniqladi:

$$D = 0,0003 (VP^2)^{1/3}.$$

Mazkur model bo'yicha hisob-kitoblarni 36 mamlakatning statistik ma'lumotlariga taqqoslash ko'rsatilgan bog'liqlikni tasdiqladi. Ayrim chekinishlar alohida mamlakatlarning xususiyatlari bilan izohlanadi.

Mantiqiy modellar

Informatika hozirgi zamon formal mantiq'i va mantiqiy xulosalarni tahlil qilish chambarchas bog'liq. Mantiqiy modellardan fikr-mulohazalarni modellashtirish, avtomatika sxemalarini mantiqiy tavsiflash va translyatorlarni yaratishda foydalaniladi. Shundan so'ng bu modellardagi axborotlarga ishlov berish algoritmlari, yaratilgan modeldagi axborotlarni belgilarda ifodalashning muayyan turlari ishlab chiqiladi.

Mantiqiy modellashtirishga imitatsion modellashtirish yaqin turadi – real obyektlarda, bu obyektlarning hisoblash mashinalarida qo'llanadigan modellarida sodir bo'luvchi jarayonlarni aks ettirishning maxsus usullari yaratiladi va ulardan foydalaniladi.

Nazariya shuningdek grafik va verbal modellarni ham farqlaydi.

§2. Formalizatsiya metodi

Formalizatsiya – bu huquqiy hodisaning mazmunini uning shaklini tahlil qilish orqali aniqlash va aniqlashtirishdir. Formalizatsiya tushunchasi shakl tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ana shu tushunchadan kelib chiqqan. Formalizatsiya metodi huquqiy hodisalarning shaklini ajratishga asoslanadi. Ma'lum formalizatsiya darajasi huquq tizimining o'ziga, huquq normalariga va huquqiy munosabatlarga ham xosdir.

Huquq formal tizim hisoblanadi. Bu terminologiyaning umumiyli-gi, tushunchalarning aniqligi, qonun hujjatlarida normativ ta'riflardan keng foydalanilishiga doir talablarda o'z ifodasini topadi.

Bu formalizatsiyaning birinchi pog'onasi bo'lib, u vujudga keluvchi barcha vazifalarni hal qilish uchun asos yaratmaydi.

Umumiy huquq nazariyasida «huquq normalarini formalizatsiya qilish» deb atalgan yo'nalish mavjud. Huquq normasini formalizatsiya qilish – bu uning mantiqiy tuzilishini aniqlash demakdir. Buning uchun eng avvalo matematik va deontik tildan foydalanish talab etiladi.

Huquqiy informatikada empirik ma'lumotlarni formalizatsiya qilish vositalari vazifasini:

matematik metodlar, ramzlar va standartlashtirilgan belgilar;
mantiq, shu jumladan matematik mantiq usullari;
maxsus kodlar (axborotlarni kodlashtirish);
ijtimoiy mezonlash, statistik metodlar bajaradi.

Formalizatsiyadan huquqiy axborotlarni EHM xotirasiga kiritishda foydalaniladi. Axborot dastlab formal ko'rinishda taqdim etilishi va kodlashtirilishi lozim. Sun'iy intellekt g'oyalarini qo'llash maqsadida yuridik bilimlar bazalarini tashkil etishda freymlar tili deb ataladigan maxsus tildan foydalaniladi.

Informatikada formal tizim tushunchasi ishlab chiqilgan va qo'llaniladi. Formal tizim – bu boshlang'ich obyektlarni va yangi obyektlar qurish qoidalarini tavsiflash yo'li bilan obyektlar to'plamini yuklovchi belgilar modelidir. Obyektlar deganda vaziyatlar, holatlar, har xil tizim va tuzilmalarning belgilardagi ya grafik ifodalari tushuniladi.

Formal grammatikalar nazariyasi informatika uchun prinsipial ahamiyatga ega. Formal grammatikalar dasturlashtirish tillarini tavsiflash va translyatorlar, ya'ni vositachi tillarni tuzishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

§3. Algoritm tushunchasi

Algoritm – bu ushbu turdagi barcha vazifalarni hal qilish uchun qat'iy harakatlar tartibi, operatsiyalarning izchilligi haqidagi aniq qoidalar majmuidir. EHM u yoki bu algoritmgaga asoslangan dastur bo'yicha ishlaydi.

Algoritm tushunchasi informatikada muhim o'rin tutadi. Bu uning fundamental tushunchasidir. Shu bilan birga, algoritmlar nazariyasi matematik mantiqning bo'limi hisoblanadi.

Huquqni qo'llash algoritmidan har bir shart-sharoit «ha» – «yo'q» prinsipiga ko'ra mantiqiy taqqoslash operatsiyasi vositasida tekshirib ko'riladi.

Kriminalistikada jinoyat ishlarini tergov qilish va alohida tergov harakatlarini amalga oshirish algoritmlari ishlab chiqilgan. Tergov qilishning umumiy algoritmini va xususiy metodikalarni farqlash lozim. Har bir tergov harakati o'z algoritmiga, demak, algoritmlar iyerarxiyasida o'z o'rniga egadir.

Har qaysi algoritm boshlang'ich ma'lumotlarga nisbatan qo'llanadi va natijalar beradi. Algoritmning ishlash jarayonida har xil oraliq ma'lumotlar paydo bo'ladi. Shuning uchun algoritmlar ishlashi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning turlari ko'rsatilishi lozim.

Algoritm bosqichlarining ketma-ketligi bir xil bo'lishi lozim. Navbatdagi bosqichni tanlashda o'zboshimchalikka yo'l qo'yilmaydi. Dastlabki va oxirgi bosqichlar albatta qayd etilishi kerak.

Informatikada algoritmlarning ikki yirik turkumi farq qilinadi: hisoblash algoritmlari, axborot algoritmlari.

Hisoblash algoritmlari nisbatan oddiy ma'lumotlar (sonlar, matritsalar) bilan ishlaydi.

Axborot algoritmlari katta hajmli axborotlar bilan ishlaydigan protseduralar (masalan, ma'lum belgilarga javob beradigan son yoki so'zni qidirish) majmuidan tashkil topadi.

Hisoblash mashinasining tilida berilgan komandalar ketma-ketligida yuklangan algoritm mashina dasturi deb ataladi. Mashina dasturining komandasi – bu EHMning elementar ko'rsatmasi bo'lib, uni mashina avtomatik ravishda, biron-bir qo'shimcha ko'rsatma va tushuntirishlarsiz bajaradi.

Huquqiy protseduralarni tartibga soluvchi normativ hujjatlarda ko'plab har xil algoritmlar mavjud bo'ladi. Huquq ijodkorligi qarorlar majmuini qabul qilishdan iborat izchil jarayondir. Bu algoritmni umumiy algoritm deb atash mumkin. Huquq ijodkorligi jarayoni quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1-bosqich. Qonun chiqarish tashabbusi huquq subyekti tomonidan kiritilgan qonun loyihasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga kelib tushishi.

2-bosqich. Qonun chiqarish tashabbusi tartibida kiritilgan qonun loyihasining dastlabki ko'rib chiqilishi.

3-bosqich. Qonun loyihasining birinchi o'qishda ko'rilishi.

4-bosqich. Qonun loyihasining ikkinchi o'qishda ko'rilishi.

5-bosqich. Qonun loyihasining uchinchi o'qishda ko'rilishi.

6-bosqich. Qonunning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasidan o'tishi.

7-bosqich. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qaytargan qonunning qayta ko'rib chiqilishi.

8-bosqich. Qonunning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko'rib chiqilishi.

9-bosqich. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaytargan qonunning qayta ko'rib chiqilishi.

Huquq ijodkorligi jarayonining har bir bosqichida maqbul qaror qabul qilish uchun yetarli axborotlar mavjud bo'lishi kerak.

Qonun hujjatlari matnlariga algoritmik tipdagi – muayyan sohadagi yuridik protseduralarni aniq va izchil tavsiflaydigan norma-larning kiritilishi huquqiy hujjatlarning samaradorligini oshirishning muhim shartidir.

Algoritmik xususiyatga ega norma va protseduralar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining reglamentida belgilangan. Bular quyidagi algoritmlardir:

qonun loyihalarini kiritish tartibi;

qonun loyihalarining ko'rib chiqilishi va qabul qilinishi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qaytargan qonun-larning qayta ko'rilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaytargan qonunlarning qayta ko'rilishi;

Konstitutsiya qoidalarini qayta ko'rish haqidagi takliflarning ko'rib chiqilishi;

ovoz berish va qaror qabul qilish tartibi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarini ko'rib chiqish tartibi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarini qayta ko'rib chiqish tartibi va boshqalar.

Sud ekspertizasida algoritm – bu harakatlarni ma'lum sharoit-larda ekspert oldiga qo'yilgan masalaning hal qilinishini ta'minlaydigan ketma-ketlikda maqbullashtirish dasturidir.

IV BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUN HUJJATLARIDA AXBOROT TUSHUNCHASI

§1. Axborotning jamiyat hayotidagi o‘rni

Axborot materiya, energiya, zamon va makon singari olamning fundamental asoslaridan biri hisoblanadi. U materiyaning in'ikos, tuzilish va xilma-xillik singari xususiyatlari bilan bog'liq. Axborot moddiy tarqatuvchi – jismoniy obyekt, boshqa energetik substrat yoki ijtimoiy va psixologik jarayonlardan tashqarida mavjud bo'la olmaydi.

Axborotning borliqdagi shakli harakatdir. U jismoniy yoki ijtimoiy muhitda muntazam harakat qilib, odamlarning o'zaro muomala va aloqa qilishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Inson voqelikni axborot modellari va tizimlarining iyerarxiyasi shaklida ifoda etadi.

Axborot tushunchasining negiziga «ifodalangan xilma-xillik» xususiyati qo'yilishi lozim. Kalit sifatida olingan axborot ma'lum qulfni ochish imkonini beradi. Yerdan uzatiladigan radiosignallarda ifoda etilgan axborot kosmik kemaning dvigatelini ishga tushiradi va uni boshqa orbitaga o'tkazadi. Biologik molekulaning tuzilishiga muhrlangan axborot tirik hujayraga yangi to'qimalar hosil qilish yoki organizmga kirgan mikroblarni o'ldirish uchun ma'lum oqsillar ishlab chiqarish imkonini beradi.

Axborot fenomeniga har xil ilmiy yondashuvlar mavjud. Ularni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axborot – bu atrof muhitdagi obyektlar va hodisalar hamda ularning noaniqligi darajasini kamaytiradigan xususiyatlari va munosabatlari to'g'risidagi ma'lumotlar (xabarlar)dir.

Uzatish va qayta ishlash uchun yaroqli shaklda taqdim etilgan foydalaniluvchi ma'lumotlar axborot hisoblanadi, deb aytish mumkin. Axborot:

obyektiv (ongga bog'liq bo'lmagan holda) mavjud bo'ladi va moddiy tuzilmalar, shuningdek inson ongining ajralmas xususiyati (atributi) hisoblanadi;

nafaqat son, balki sifat jihatiga ham ega bo'ladi;

materiya, ong va jamiyat harakatining har xil tur va shakllari uchun sifat jihatidan har xil bo'ladi.

Axborotni tavsiflaganda uning to'liqligi, o'z vaqtida olingani, aniqligi, to'g'riligi, foydaliligi va qimmatini haqida gapiriladi.

To'g'ri qaror qabul qilish uchun minimal, ammo yetarli ma'lumotlar majmuidan iborat axborot to'liq axborot bo'ladi.

Vaqt o'lchovini hisobga olgan holda qaror ishlab chiqarishda hisobga olinishi mumkin bo'lgan axborot vaqtida olingan axborot hisoblanadi.

Axborotning aniqligi ifoda etilgan o'lchovning yaqinlik darajasi hamda mazkur o'lchovning asl ma'nosi bilan belgilanadi.

Axborotning to'g'riligi – bu uning real mavjud bo'lgan obyektlarni zarur darajada aniqlik bilan ifoda eta olish xususiyatidir.

Axborotning foydaliligi undan u yoki bu sohada foydalanish xususiyatlari bilan belgilanadi.

Axborotning qimmatini – uning sifatining kompleks ko'rsatkichi, muayyan sohada qaror qabul qilish uchun yaroqlik mezonidir.

Pragmatik axborot nazariyasi uning muayyan foydalanuvchi uchun qimmatligi muammolarini o'rganadi. Semantik axborot nazariyasi axborotning mazmunligi va harakatchanligini, uning mazmuni va ma'nosini o'rganadi.

Har qanday jamiyatda axborot quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

integrativ vazifa – jamiyat a'zolari va ijtimoiy tabaqalarni jipslash-tirish;

kommunikativ vazifa – o'zaro muomala va til topishish;

instrumental vazifa – ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etishda ishtirok etish;

ma'rifiy vazifa – tabiat, jamiyat va tafakkurning obyektiv qonuniyatlarini o'rnatish.

Jamiyat – bu qator erkin tizimchalardan tuzilgan yaxlit ko'p omilli tizimdir. U axborotga ega bo'lish, undan foydalanish, uni saqlash va uzatish vositalarining mavjudligi bilan mustahkamlanadi. To'g'ridan-to'g'ri aloqalar uchun haddan tashqari katta bo'lgan jamiyatda bunday vositalar vazifasini matbuot, kitoblar, radio, telefon aloqasi, telegraf, pochta va boshqalar bajaradi.

Kishilik taraqqiyoti tarixida bir nechta informatsion inqiloblar sodir bo'lgan. Birinchi inqilob o'zaro muomala va aloqa vositasi

sifatida tilning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Til bundan 25 ming yil muqaddam vujudga kelgan. Bugungi kunda jahonda qariyb 3 mingta til mavjud.

Ikkinchi inqilob – yozuv va matbaachilikning ixtiro qilinishi bo'lib, bu bilimlarni tarqatishda sifat va son jihatidan katta sakrashga olib keldi.

Uchinchi inqilob telegraf, telefon va radioning ixtiro qilinishi bilan bog'liq.

To'rtinchi inqilob (XX asming 50-70- yillari) kompyuter texnologiyalarining ishlab chiqilishi bilan bog'liq. Mikroprotessorlar va integral sxemalar negizida kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari va ma'lumot uzatish tizimlari yaratildi.

Axborot iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnik faoliyat, boshqaruv faoliyati va boshqa faoliyat jarayonida yaratiladi va shundan so'ng u informatsion jarayonga kiritiladi. Ishlab chiqarilgan axborot moddiy-buyum shakliga solinadi.

Axborot yaratish jarayoni ikki shaklda amalga oshiriladi:

— axborot ishlab chiqarish mazkur subyekt, idora, jamoa, ishlab chiqarish bo'g'inining mustaqil vazifasi hisoblanadi. Bunga ommaviy axborot vositalarining faoliyati misol bo'la oladi;

— axborot ishlab chiqarish asosiy jarayonni kuzatib borish va uni bog'lashdan iborat qo'shimcha vazifani bajaradi. Bunga ijtimoiy ishlab chiqarishning har qanday shakli misol bo'la oladi.

Huquqiy axborotlar huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyati jarayonida yaratiladi.

60- yillardan o'tiboran axborot xizmatlari bozori vujudga kela boshladi. Ularning muhim turlaridan biri axborot bazalarini taqdim o'tish hisoblanadi. 70- yillarning o'rtalaridan boshlab foydalanuvchidan olisdagi ma'lumotlar bazalaridan o'zaro aloqa vositasida axborot qidirish axborot xizmatlarining yetakchi turiga aylandi.

80- yillarning o'rtalarigacha bu bozorda yetakchi o'rinni AQSH egallab keldi. 80- yillarning o'rtalaridan AQShga Yaponiya va G'arbly Yevropa mamlakatlari yetib ola boshladi.

Bugungi kunda quyidagi axborot turlari eng muhim o'rin tutadi:

— birja va moliya axborotlari - qimmatbaho qog'ozlarning kotirovkalari, valyuta kurslari, hisob stavkalari, tovarlar va sarmoyalar bozori, investitsiyalar, narxlar;

— tijorat axborotlari – kompaniyalar va firmalar, korporatsiyalar,

ularning ish yo'nalishlari, mahsulotlari va narxlari, moliyaviy ahvoli, aloqalari, bitimlari va rahbarlari haqidagi axborotlar, iqtisodiyot va biznes sohasidagi yangiliklar.

Axborot ko'pincha tovarga qiyoslanishiga qaramay, u tovar hisoblanmaydi. Fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq, «mulk» va «tovar» tushunchalari mulkiy huquqqa kiradi. Axborot «mulk» toifasiga kirmaydi. U oldi-sotdi yo'li bilan ayirboshlashga mo'ljallanmagan. Shuning uchun ham tovar ishlab chiqarish qonunlarini axborotga joriy etish mumkin emas.

Amerikalik olim N. Viner axborotga tovar sifatida yondashish uning noto'g'ri tushunilishiga olib kelishini ko'rsatib o'tgan. Axborotni tovar ishlab chiqarish qonunlariga bo'ysunadigan informatsion nashrlar (kitoblar, davriy nashrlar) bilan aralashtirib bo'lmaydi.

Axborot jarayonlari matematika tilida bayon etilishi mumkin. Tarqatish axborotning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.


Informatika mutaxassislari tomonidan jamiyatda axborotlarning son jihatidan ortib borishi qonuni o'rnatilgan bo'lib, u quyidagi eksponensial funksiya ko'rinishiga ega:

$$Y = e^x.$$

Mazkur funksiyaning grafigi 4-rasmda keltirilgan.

1800-yildan boshlab axborotlar hajmi har 50 yilda, 1950-yildan – har 10, 1970-yildan – har 5, 1990-yildan – har yili ikki baravar ortib borgan.

Axborotlar sonining jadal o'sishi sekinlashmaydi. Bu inson faoliyati ko'lamining muntazam kengayib borishi natijasida, asosan Yer yuzasi, osti va atmosferasi, okeanlar, koinot, mikroolam va boshqalarni o'rganish jarayonida olinadigan axborotlar (ma'lumotlar) hisobiga sodir bo'ladi.



5 - rasm. Jamiyatda axborotlar sonining o'sib borishi

Turli mamlakatlarda axborotlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi shunga olib keldiki, axborot masalalari huquq va qonun hujjatlarida o'z ifodasini topa boshladi. Ayrim qonun hujjatlarida axborotga ta'rif ham berib o'tilgan. Uning oshkoralik prinsiplari, axborot olish imkoniyatlari, shuningdek kompyuter axborotlarining haqiqiyliги prezumpsiyasi belgilab qo'yilgan. Axborot olish huquqiga inson va fuqaroning qonunan qo'riqlanadigan tabiiy va ajralmas huquqi sifatida qaralgan.

Jumladan, AQShda 1967 yili «Axborot erkinligi to'g'risida», 1974 yili – «Shaxsni qo'riqlash to'g'risida» (shaxsiy ma'lumotlarning huquqiy rejimini tartibga soladi) Qonunlar, shartli ravishda «Hukumat kun yorug'ida» deb nomlangan Qonun, 1978 yili – «Fosh qiluvchilar to'g'risida» Qonun qabul qilingan. «Axborot erasidagi huquqlar to'g'risidagi qonun loyihasi» (1990) – AQSH federal hukumatining axborot olishni ta'minlash prinsiplari haqidagi hujjati bo'lib, u federal hukumatning barcha idoralari, ma'muriyat va xususiy tarmoq tomonidan axborotlar sohasidagi siyosatni amalga oshirishda qo'llash uchun majburiy hisoblanadi. Unda umum foydalanadigan axborotlar milliy boylik bo'lib, ular jamiyat manfaatlarida ko'paytirilishi va saqlanishi lozimligi e'tirof etilgan.

AQSH Adliya vazirligi 1978 yili chop etgan jinoyat kodeksida «kompyuter jinoyati» tushunchasi uch toifaga ajratilgan:

1) kompyuterni suiste'mol qilish – foyda olish maqsadida kompyuterdan foydalangan holda boshqa shaxslarga zarar yetkazgan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan qator qilmishlar;

2) jinoyatni sodir etishda kompyuterdan to'g'ridan-to'g'ri noqonuniy foydalanish;

3) muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kompyuter texnologiyasini bilish talab etiladigan har qanday noqonuniy qilmish.

Fransiyaning 1978 yil 6 yanvarda qabul qilingan «Informatika, kartotekalar va erkinliklar to'g'risida»gi Qonunida fuqarolarning shaxsiy axborotlarni avtomatlashtirilgan yo'sinda qayta ishlash sohasidagi huquqlari belgilangan. Haq-huquqlar mufassal tartibga solingan va kafolatlar o'rnatilgan. Informatika va erkinliklar Milliy komissiyasi davlat idoralari va fuqarolar shaxsiy axborotlarga avtomatlashtirilgan yo'sinda ishlov berishda qonun qoidalariga amal qilishlarini nazorat qiladi. 1978 yil 17 iyulda qabul qilingan «Boshqaruv organlari va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlarni

yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi qonun»da boshqaruv hujjatlaridan (dosye, dokladlar, tadqiqotlar, bayonnomalar, statistik materiallar, farmoyishlar, yo'riqnomalar va boshqalardan) foydalanishning huquqiy tartibi o'rnatilgan.

70- yillarda G'arbiy Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida va AQShda axborotlarni muhofaza qilish to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Shu bilan bir vaqtda, xalqaro axborot huquqining tegishli normalari ham yaratildi. 1985-yili Kanadada «Axborot olish to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

§2. Ijtimoiy axborot tushunchasi

Jamiyatda aylanuvchi barcha turdagi axborotlarni ijtimoiy axborot deb atash mumkin. U siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa turdagi axborotlarni o'z ichiga oladi. Unga nisbatan «intellektual axborot» atamasini ham qo'llash mumkin.

Ijtimoiy axborotning mazmuni «manfaat», «faollik», «ehtiyoj» va boshqa shunga o'xshash tushunchalar orqali ochiladi. Ijtimoiy axborot – bu keng ma'noda tushuniladigan ijtimoiy jarayonlar va munosabatlar haqidagi ma'lumotlardir. Ijtimoiy axborotning quyidagi turlari farqlanadi.

qo'llanish sohasiga qarab: ommaviy axborot; huquqiy axborot; ilmiy-texnik axborot; siyosiy axborot; statistik axborot; favqulodda vaziyatlar haqidagi axborot; shaxs haqidagi axborot (shaxsiy ma'lumotlar).

Axborot olish rejimlariga qarab: ochiq (cheklashsiz) axborot; olish cheklangan axborot; yopiq axborot; davlat siri; sir tutilgan axborot; tijorat siri; kasbiy sir; xizmat siri.

Axborot tarqatuvchining turiga qarab: qog'ozda; mashina o'qiydigan tarqatuvchilarda; ekrandagi tasvir ko'rinishida; EHM xotirasida; aloqa kanallari orqali uzatiladigan axborot; boshqa tarqatuvchilardagi axborot.

Yuksak ahamiyatli axborotlarning asosiy manbai fandır. Faning intellektual salohiyati uning foydalanishdagi har bir birlamchi ilmiy axborotga nisbatan yangi ilmiy axborot ishlab chiqarish qobiliyati bilan belgilanadi.

Funksional vazifasiga qarab axborot quyidagicha ajratilishi mumkin.

Siyosiy axborot – siyosiy munosabatlarning statika va dinamikasi, davlatning siyosiy yo'nalishi, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining faoliyati, siyosiy arboblarning imiji, jamiyat siyosiy tizimining barcha elementlari haqidagi axborotlar. Uning tur xili – tashqi siyosiy axborot – davlatning tashqi siyosiy kursi, tashqi siyosiy aksiyalar, mojarolar, xalqaro munosabatlarning ahvoli haqidagi axborotlardir. Shu bilan birga, bir vaqtning o'zida ham siyosiy bo'lgan, ya'ni «ikki tomonlama bo'ysunadigan» siyosiy axborotlar ham mavjud. Bunga davlat tili to'g'risidagi (4-modda), O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlarda ishtiroki to'g'risidagi (17-modda) konstitutsiyaviy normalar misol bo'lishi mumkin. Siyosat sohasidagi axborot oqimlari tartibga solinmagan bo'lib, ko'p jihatdan xaotik xususiyatga egadir. Siyosiy tizimni axborot bilan ta'minlash qonun chiqaruvchi organlar (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi)ni ham, jamoat birlashmalarini ham, siyosiy partiyalarni ham, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini ham qamrab olishi lozim.

Iqtisodiy axborot jamiyatda sodir bo'luvchi ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini aks ettiradi. Bozor iqtisodiyotining asosiy tushunchalaridan biri – narx iqtisodiy jarayonlarning ahvoli haqidagi axborotlarning tarqatuvchisi hisoblanadi. Biznesning axborotlashtirilishi natijasida bugungi kunda bitimlar kompyuter tarmoqlarida tuzilayotir.

Mazkur axborot turining qonuniy ta'rifi zarurdir. Iqtisodiy axborot – bu iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarni aks ettiruvchi ma'lumotlar majmuidir; u moliyaviy siyosat, pul-kredit siyosati, bozor iqtisodiyoti tuzilmalarining vujudga kelishi, xususiylashtirish, yer islohotining borishi, monopoliyadan chiqarishning darajasi, bankrotliklar soni va shu kabilami tavsiflovchi yig'ma ko'rsatkichlar ko'rinishida taqdim etiladi.

Ko'chmas mulk haqidagi axborotlar ham iqtisodiy axborotlar jumlasiga kiradi. «Ko'chmas mulkka egalik huquqi va ko'chmas mulkka doir bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida»gi qonunga muvofiq ko'chmas mulkning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi ko'chmas mulkka egalik huquqi mavjudligining yagona dalli hisoblanadi. Ro'yxatga olingan ko'chmas mulkka egalik huquqi ustidan berilgan shikoyatlar faqat sud tartibida hal qilinishi mumkin.

Shaxsiy hayotga doir axborotlar. «Shaxsiy hayot» atamasi

fuqarolik jamiyati konsepsiyasidan kelib chiqadi. Shaxsning shaxsiy hayoti haqidagi axborotlar tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida belgilangan bo'lib, unga muvofiq hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

«Shaxsiy hayot» tushunchasi insonning davlat, jamoat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan nazorat qilinishi mumkin bo'lmagan alohida oilaviy, maishiy, shaxsiy va intim munosabatlar sohasidagi turmush faoliyati sifatida talqin qilinadi. U insonning kasbiy, yuridik, tibbiy, pedagogik va boshqa sohalardagi faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda kasbiy, tibbiy sir, advokatlik, tergov sirlari tushunchalari qo'llaniladi.

«Shaxsiy hayot haqidagi axborotlar» tushunchasi tarkibiga fuqarolar haqidagi axborotlar («shaxsiy ma'lumotlar») ham kiradi.

Ilmiy-texnik axborotlar. Ilmiy-texnik axborotlar – bu ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, loyihalash-texnologiya, ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyat jarayonida qo'lga kiritilgan mahalliy va chet el fan, texnika va ishlab chiqarish yutuqlari haqidagi ommaviy e'lon qilingan ma'lumotlardir. Mazkur axborotlar intellektual ijodiy mehnatning mahsuli bo'lib, intellektual mulkiy huquqning obyektini tashkil etadi.

Hujjatlashtirilgan axborot – moddiy tarqatuvchida ramzlar, harflar va raqamlar ko'rinishida qayd etilgan, rasmiy rekvizitlarga ega bo'lgan axborotlardir. Hujjatlashtirilgan axborotlar jumlasiga yuridik hujjatlar, sud qarorlari, statistik ma'lumotlar, ishlab chiqarish, siyosiy, yuridik va boshqa faoliyat jarayonida yaratiladigan axborotlar kiradi.

Mashinada o'qiladigan hujjatlar hujjatlashtirilgan axborotning alohida turini tashkil etadi. Ular EHM xotirasiga joylashtirilgan bo'lib, dasturiy-apparat majmui yordamida o'qiladi va oddiy hujjatlar qatori yuridik kuchga ega bo'ladi.

Xizmat va tijorat axborotlari (sirlari). O'zbekiston Respublikasi FK 98-moddasida xizmat va tijorat axborotlari (sirlari)ga shunday ta'rif berilgan: «Fuqarolik qonun hujjatlari xizmat yoki tijorat siri bo'lgan axborotni, basharti axborot uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli haqiqiy yoki nisbiy tijorat qimmatiga ega bo'lgan, qonun yo'li bilan undan erkin bahramand bo'lish mumkin bo'lmagan

hamda axborot egasi uning maxfiylikini saqlashga doir chora ko'rgan hollarda himoya etadi». Demak xizmat yoki tijorat sirlarini tashkil etuvchi axborotlar ushbu Kodeks va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan usullarda himoya qilinadi.

Sir tutilgan axborotlar yopiq axborotlarning bir turi hisoblanadi. Ular jumlasiga O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq olish cheklangan hujjatlashtirilgan axborotlar kiradi. Sir tutilgan axborotlarga shaxsiy ma'lumotlar va shaxsiy hayot haqidagi axborotlar misol bo'lishi mumkin.

Davlat sirlari mavjud bo'lgan axborotlar (davlat sirlari) harbiy, strategik va o'ta muhim iqtisodiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ularning rejimi «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi 1993-yil 7-may qonunida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida davlat sirlarini oshkor qilish(162 - modda), davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish(163 - modda) singari tarkiblar nazarda tutilgan.

Fuqarolar haqidagi axborotlar (shaxsiy ma'lumotlar) – shaxsning jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, ijtimoiy holati, millati, siyosiy, falsafiy va diniy qarashlari, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga mansubligi, jismoniy va ruhiy sog'lig'i, jamg'arma banklaridagi omonatlari, tasarrufidagi mol-mulki haqidagi va boshqa ma'lumotlar.

Shaxs haqidagi axborotlarning asosiy elementlari: tug'ilgan sanasi va joyi, yashash manzili, ma'lumoti, oilaviy ahvoli, sog'lig'i.

Kompyuter axborotlari. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida elektron hisoblash mashinasi, EHM tizimi yoki tarmog'idagi axborotlar kompyuter axborotlari hisoblanishi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida kompyuter jinoyatlarining uch turi farqlangan: kompyuter axborotlaridan noqonuniy foydalanish, EHM uchun zararli dasturlarni ishlab chiqish va tarqatish, EHM, EHM tizimi yoki tarmog'idan foydalanish qoidalarini buzish. Bundan tashqari, JKda kompyuter jinoyatlarining kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib o'zlashtirish yoki ras-trata yo'li bilan talon-toroj qilish (167-modda 3-qism «g» bandi), kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib fribgarlik (168-modda 3-qism « g » bandi), kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirib sodir etilgan o'g'rilik (169-modda 3-qism «b» bandi), axborotlashtirish qoidalarini buzish (174-modda), qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish (191-modda),

raqobatchini obro'sizlantirish (192-modda) singari tarkiblar nazarda tutilgan.

Informatikada «elektron axborot» atamasi sinonim sifatida qo'llaniladi. Elektron axborotlar deganda EHMda qayta ishlash maqsadida mashinada o'qiladigan tarqatuvchilarda qayd etiladigan va tarqatiladigan barcha axborot turlari tushuniladi. Elektron axborotlar jumlasiga normativ huquqiy hujjatlar, bildirgichlar, jurnallar, gazetalar va bosma ko'rinishda chiqadigan boshqa nashrlar hamda faqat elektron shaklda yaratiladigan nashrlar va axborot massivlari (jurnallar, ma'lumotlar bazalari, uskunalarining qaydlari va h.k.) kiradi. Asosiy tarqatuvchilar vazifasini magnit lentalar va kompakt-disklar bajaradi.

Sanab o'tilgan axborot turlari davlat faoliyatini optimal tashkil etish uchun muhim ahamiyatga egadir. Jamiyatda ijtimoiy axborotlarning boshqa turlari: sotsiologik, statistik axborotlar, davlat organlarining rasmiy axborotlari va boshqa axborotlar ham uchraydi.

§3. Huquqiy axborot tushunchasi

«Axborot» va «huquqiy axborot» tushunchalari huquqiy axborotlar milliy tizimini barpo etish dasturida markaziy o'rinni egallaydi. Ularni o'rganish qonuniylik va huquq-tartibotning mustahkamlanishi, axborotlarga doir qonun hujjatlarining takomillashishi bilan bevosita bog'liq.

70- yillargacha «axborot» atamasi umumiy huquq nazariyasida ham, tarmoq yuridik fanlarida ham, qonun hujjatlarida ham qo'llanmagan. Uning «ma'lumotlar», «materiallar», «xabarlar» singari muqobillari qo'llanib kelingan. Biroq 60- yillarning boshidan e'tiboran jahonda huquqiy kibernetika bo'yicha tadqiqotlar rivojlana boshladi va qonun hujjatlariga doir dastlabki axborot-qidiruv tizimlari ishlab chiqildi. Axborot va huquqiy axborot tushunchalari aynan shu tadqiqotlarga nisbatan qo'llana boshlandi. Huquqiy axborotlarning nazariy masalalarini ishlab chiqish borasidagi dastlabki urinishlar ham aynan shu davrda amalga oshirildi.

Chunonchi, A.B. Vengerov huquqiy axborotlarning ikki turini ajratadi. Birinchidan, normativ huquqiy hujjatlar ifoda etilgan axborotlar. «Bu axborotlar preskriptiv (farmoyish) xususiyatiga ega bo'ladi. Ular birlamchi axborotlar hisoblanadi, ma'lum tuzilishga

ega bo'ladi va o'z adresatlarining xatti-harakatlaridagi xilma-xillikni cheklash vazifasini bajaradi. Bu axborotlarning o'ziga xos sifatleri – belgilangan qabul qilish protseduralari, tegishli ravishda tushunishning majburiyligi, nazarda tutilgan foydalanish usullari va hokazolar ularni huquqiy axborotlar jumlasiga kiritadi».

Ikkinchidan, muallif hujjatli axborot-qidiruv tizimi taqdim etuvchi yuridik hujjatlar haqidagi axborotlarni ham huquqiy axborotlar qatoriga qo'shadi. Ular ikkilamchi axborotlar hisoblanadi. Bu axborotlarda normativ hujjatlar, ularning qismlari, hujjatlarning tizimga birlashtirilishi, ular e'lon qilingan manbalar haqida ma'lumotlar ifoda etilgan bo'lishi mumkin. «Huquqiy axborotlar bu ma'noda har xil darajadagi hujjatlar (shu jumladan sud va xo'jalik sudi amaliyoti), yuridik doktrinani qamrab oladi va huquqiy-axborot faoliyati haqida huquq sohasidagi yangi yo'nalish sifatida gapirish imkonini beradi».

Huquqiy kibernetika va informatikaning salafaridan biri S.S. Moskvina huquqiy axborotni yanada keng tushunadi. Uning fikricha, «huquqiy axborot ijtimoiy axborotlarning tur xili bo'lib, siyosiy axborot bilan chambarchas bog'liq». Huquqiy axborotlarni «ijtimoiy amaliyotda foydalaniluvchi jamiyat hayotining huquqiy sohasi, unda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlar haqidagi bilimlar, ma'lumotlar va xabarlar sifatida ta'riflash mumkin». S.S. Moskvinning fikricha, huquqiy axborotlar «umum majburiy xususiyatga ega qonun-qoidalar haqidagi bilimlar, ma'lumotlar va xabarlar»ni ham (huquqiy axborotlarning bu jihatiga asosiy e'tibor beriladi), «huquq ijodkorligi, huquq normalarini qo'llash amaliyoti, ilmiy tadqiqotlarning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar»ni ham o'z ichiga oladi.

Huquqiy axborot tushunchasiga asosan 70-yillarda hukm surgan boshqaruv va kibernetika nazariyasi g'oyalari nuqtai nazardan qarab kelindi.

90-yillarda «axborot» va «huquqiy axborot» umumiy huquq nazariyasining kategoriyasi darajasiga ko'tarildi. «Axborot» kategoriyasidan kelib chiqqan «axborot jarayonlari», «axborotlar sohasidagi munosabatlar», «axborot tizimlari va resurslari» singari tushunchalar nazariy tadqiqotlarda faol ishtirok eta boshladi.

So'nggi yillardagi qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlarning tahlili ma'lum qonuniyat mavjudligini: respublika qonunlari,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa huquqiy hujjatlarda «axborot» atamasi tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotganligini ko'rsatadi.

Huquqning ayrim sohalarida axborot haqidagi yangi tushunchalar, masalan, xizmat va tijorat sirlari tushunchasi (O'zbekiston Respublikasi FK 98-moddasi) qo'llangan. O'zbekiston Respublikasi JK respublika qonun hujjatlariga axborotlashtirish sohasidagi jinoyatlar tushunchasini kiritgan (JK 174-moddasi).

Yuqorida aytilganlarni xulosa qilib huquqiy axborotlarga huquq sohasida sodir bo'luvchi faktlar, hodisalar, predmetlar va shaxslar haqidagi turli manbalarda ifoda etilgan, davlat va jamiyat tomonidan huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash va muhofaza qilish faoliyati vazifalarini hal qilish, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun foydalaniluvchi ma'lumotlar (xabarlar) deb ta'rif berish mumkin.

Huquqiy axborotlar avvalambor huquq ijodkorligi jarayonida vujudga keladi. Huquqiy faollikni ifoda etishning huquq normalarini talqin qilish va huquq amaliyoti (masalan, sud amaliyoti)ni umumlashtirish singari shakllari huquqiy axborotlarning manbai hisoblanadi. Mantiqiy va sistematik talqin qilish qo'shimcha axborotlar beradi. Huquq amaliyotini umumlashtirish jarayonida yangi axborotlar atamalar va tushunchalarni izohlash, jinoyat-huquqiy, fuqaroviy-huquqiy va sud amaliyotining boshqa sohalaridagi tipik vaziyatlarni tahlil qilish hisobiga vujudga keladi.

Axborot yaratish jarayoni huquqni qo'llash faoliyatida davom etadi. Konstitutsiyaviy, fuqaroviy, xo'jalik yoki jinoiy sud ish yurituv jarayonida huquqiy axborotlarning alohida turi – sud dalillari yaratiladi. Ular qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu faoliyat natijasida qabul qilingan qaror haqidagi axborotlar ifoda etilgan protsessual hujjatlar (qaror, hukm, ajrim) yaratiladi.

Huquq normalari o'z holicha huquqiy axborotlar hisoblanmasligini nazarda tutish lozim. Huquq avvalambor ijtimoiy boshqaruv vositasidir. Huquq normalari xabar (ma'lumot) shaklida axborot tizimlariga kiritilganidan keyingina axborot tusini oladi.

Huquqiy-axborot kanalida huquq normalarining moddiy tarqatuvchilari vazifasini odatda tegishli huquq normalari chop etiladigan bosma nashrlar bajaradi. Biroq huquq normalari aloqa kanallari

(jumladan, radio yoki televideniye) orqali og'zaki uzatilishi ham mumkin. Barcha holatlarda inson ongi va xotirasida huquqiy axborotlar kanalining hamma texnik bo'g'inlari «birlashadi».

Huquqiy axborotlar rasmiy va hujjatli xususiyatga ega bo'ladi.

Huquqiy axborotlar shubhasiz to'g'ri bo'lishi lozim. Biroq bu atama mazkur holatda spetsifik ma'noda tushuniladi. Normativ huquqiy hujjatlarning shubhasiz to'g'riligi — bu mavjud qonun matnining dastlabki (autentik) matn, namuna («etalon»)ga mosligidir. «Shubhasiz to'g'rilik» atamasi bilan bir qatorda «muvofiqlik» atamasi ham qo'llanishi mumkin. Bu yerda «haqiqiylik» atamasi noo'rindir. Uni huquqni qo'llash faoliyati sohasida ishning amaliy jihatlarini aniqlash natijalarini tavsiflash uchun qo'llash maqsadga muvofiq.

Normativ huquqiy axborotlarning tizimliliği — bu ayrim «kristallashtiruvchi» boshqaruv markazi atrofida turkumlangan normativ huquqiy hujjatlar (yoki normalar)ning majmuidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi butun huquq tizimi uchun shunday markaz hisoblanadi.

Ayrim respublika qonunlarida huquqiy axborotlar rejimi masalasi qisman ko'rib chiqilgan. Quyidagi hujjatlar:

davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining huquqiy maqomini, shuningdek fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilovchi qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlar;

davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati haqidagi axborotlar ifoda etilgan hujjatlarni olish cheklangan axborotlar jumlasiga kiritish man etiladi.

«Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, maxfiylashtirilishi fuqaroning shaxsiy xavfsizligiga tahdid soladigan axborot davlat sirlariga mansub deb topilishi mumkin emas.

Huquqiy axborotlarni ikki katta turkum — normativ va nonormativ huquqiy axborotlarga ajratish mumkin.

Normativ huquqiy axborotlar

Bu axborot turi huquq normalari, institutlari, sanksiyalar, huquqiy javobgarlikning shakllari va turlari haqidagi axborotlar (ma'lumotlar, xabarlar)ga taalluqlidir. Normativ huquqiy axborotlar to'rt miqyosda taqdim etilishi mumkin:

1. Xalqaro-huquqiy axborotlar – bu xalqaro shartnoma, bitim va konvensiyalarda ifoda etilgan, xalqlar, xalqaro tashkilotlarning o'zaro aloqalarini, shuningdek inson huquq va erkinliklariga doir munosabatlarni ifoda etuvchi ma'lumotlardir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasiga muvofiq, O'zbekistonning tashqi siyosati xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalariga asoslanadi. Binobarin, huquqiy axborotlarning avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlari (AAIT)da qayta ishlanishi lozim bo'lgan hujjatlar va normalar soni ancha kengayadi.

2. Respublika miqyosidagi huquqiy axborotlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, respublika konstitutsiyaviy qonunlari, respublika qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa normativ hujjatlardagi axborotlarni o'z ichiga oladi.

Axborotlar massiviga sud amaliyoti hujjatlari:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudining qarorlari; qonun hujjatlarining qo'llanishi masalalari yuzasidan tushuntirishlar;

sud amaliyotining sharhlari;

eng murakkab ishlar bo'yicha rasmiy e'lon qilingan qarorlar ham kiradi.

Amaldagi axborot tizimlari O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan idoraviy huquqiy hujjatlarning katta qismini ham o'z ichiga oladi.

3. Viloyat (mintaqa) miqyosidagi huquqiy axborotlar jumlasiga vakillik organlarining hujjatlari, ijro etuvchi hokimiyat organlarining hujjatlari, sud hokimiyati organlarining hujjatlari kiradi.

4. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining hujjatlari mahalliy vakillik organlari, mahalliy ma'muriyat hamda hududiy o'zini o'zi boshqaruv organlarining hujjatlarini o'z ichiga oladi.

Nonormativ huquqiy axborotlar

Mazkur axborotlar turi huquqni qo'llash va muhofaza qilish, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish, xo'jalik ishlarini asosli hal qilish vazifalariga xizmat qiladi. Bunday huquqiy axborotlardan fuqarolar va barcha jamoat tuzilmalarini huquq sohasidagi dolzarb hodisalar, holatlar va muammolar haqida muntazam xabardor qilib borish uchun foydalaniladi.

Nonnormativ huquqiy axborotlarning quyidagi tuzilmasini taklif qilish mumkin.

1. qonuniylik va huquq-tartibotning ahvoli haqidagi axborotlar (huquq sohasida teskari aloqa prinsipini amalga oshiradi):

Inson huquqlari bo'yicha vakilning hisobotlari, O'zbekiston Respublikasining o'z xalqaro majburiyatlarini bajarishi haqidagi rasmiy ma'lumotlar va inson huquqlari bo'yicha maxsus komissiyalarning materiallarida ifoda etilgan inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilinishiga doir axborotlar;

ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan maqolalarda, huquqni qo'llash va muhofaza qilish organlarining davriy nashrlarida ifoda etilgan prokurorlik nazoratining samaradorligi, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish shakllari va usullari, qonuniylikni tiklash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar haqidagi axborotlar;

fuqaroviy-huquqiy axborotlar – fuqaroviy-huquqiy munosabatlar, fuqarolik jarayoni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari, turli mulk shakllari va boshqa mulkiy huquqlar, shartnoma va boshqa majburiyatlarning amalga oshirilishi haqidagi axborotlar;

ijro etuvchi hokimiyat organlarining ma'muriy faoliyati hamda bu faoliyat jarayonida boshqaruv organlari va fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarga doir ma'muriy-huquqiy axborotlar.

2. Inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining ahvoli va ularga rioya qilinishi haqidagi axborotlar.

3. Ommaviy axborot vositalarida ifoda etilgan jamiyatning huquqiy hayoti haqidagi axborotlar.

4. Jinoyatchilik (ma'muriy huquqbuzarlik)ning ahvoli, uning dinamikasi va ogohlantirish choralari to'g'risidagi axborotlar.

5. Fuqarolarning shikoyat va arizalari.

6. Imtiyozlar haqidagi axborotlar.

7. Muayyan ishlarning tergov qilinishi va sudda ko'rilishi bilan bog'liq axborotlar:

jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarida ifoda etilgan axborotlar; hukm va qarorlarning nusxalari, sudlanganlik haqidagi ma'lumotnomalar;

jinoyatni isbotlash hamda jinoyat sodir etgan shaxs yoki bir guruh shaxslarni identifikatsiya qilishda foydalaniladigan kriminalistik axborotlar;

jinoyatni va ayblanuvchining aybini isbotlash (yoki uni oqlash) uchun sud ekspertizasini o'tkazishda foydalaniladigan sud-ekspertiza axborotlari;

jinoyiy jazoga tortiladigan qilmishlar sodir etgan va odil sudlovdan qochib yashiringan shaxslarni aniqlash va qidirish bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarining amalga oshirilishi va natijalarini ifoda etuvchi tezkor-qidiruv axborotlari, shuningdek boshqa ma'lumot va materiallar.

Nonormativ huquqiy axborotlarning huquqiy rejimi – bu ularning ochiqlik darajasi, ishlab chiqarish va foydalanish, hujjatlashtirish, olish, saqlash, himoya qilish tartibini, shuningdek mulk va egalik masalalarini belgilovchi yuridik jihatdan o'rnatilgan qoidalaridir.

Jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvida dalil-isbot tarqasida foydalaniladigan axborotlarning huquqiy rejimi tegishli jihatdan jinoyat-, fuqarolik- va xo'jalik-protsessual qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Umum foydalanadigan, yo olish cheklangan nonormativ axborotlar farqlanadi. Axborotlarni olish cheklangan axborotlar toifasiga mansub deb topish rejimi va tartibi ular ishlab chiqariladigan va amal qiladigan yuridik muassasaning rahbari tomonidan o'rnatiladi. Qonuniylikka rioya etilishi va axborotlarning himoya qilinishi uchun javobgarlik ularning egasi bo'lgan yuridik muassasa zimmasiga yuklanadi.

Nonormativ huquqiy axborotlar tijorat aylanishi obyekt bo'lishi mumkin emas, ular pulsiz asosda tarqatilishi lozim.

Nonormativ huquqiy axborot resurslarining egasi davlat hisoblanadi. Ularga egalik huquqi sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Yuridik muassasalar nonormativ huquqiy axborot resurslarini bevosita tezkor boshqaradi, yuritadi va tasarruf qiladi.

Huquq sohasidagi vazifalarni hal qilishga mo'ljallangan ijodiy ishlovlar, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflari, prinsipial jihatdan yangi axborot texnologiyalari belgilangan tartibda intellektual mulk obyektlari deb topilishi mumkin.

Axborot tizimlari va tarmoqlarining alohida elementlari (texnik vositalar, aloqa vositalari va boshqa mulkiy obyektlar ko'rinishidagi mulkiy komplekslar; ma'lumotlar bazalari, EHM uchun dasturlar)

turli yuridik muassasalarga egalik huquqida tegishli bo'lishi mumkin. Nonnormativ huquqiy axborot resurslari, ma'lumotlar banklari va tizimlarining egasi o'z vakolati doirasida axborotlarni qayta ishlash, himoya qilish va ulardan foydalanish qoidalarini belgilaydi, nonnormativ huquqiy axborotlardan nusxa ko'chirish va tarqatish shartlarini o'rnatadi.

Fuqarolar yuridik muassasalar ixtiyoridagi nonnormativ huquqiy axborotlar (ma'lumotnomalar, hukmlar va qarorlarning nusxalari, statistik ma'lumotlar va boshqalar)ni olishga haqlidirlar. Bunday axborotlarni olish uchun asoslar ko'rsatilgan arizalar berilishi lozim. Fuqarolar ko'rsatilgan axborotlardan yuridik muassasa doirasida tanishishga haqlidirlar.

Xalqaro bitimlar, normalar va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga muvofiq fuqarolar xalqaro va milliy tizimlar hamda axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan tegishli axborot xizmatlari tomonidan o'rnatiladigan shartlarda huquqiy (normativ va nonnormativ) axborotlarni olishga haqlidirlar.

Yuridik muassasalar nonnormativ huquqiy axborotlar olish uchun murojaat qilgan fuqarolarning talablarini qondirishlari lozim. Talab qilingan axborotning maxfiyligini isbotlash majburiyati tegishli muassasa zimmasiga yuklanadi.

Har bir fuqaro va boshqa subyektlar yuridik muassasadan har qanday turdagi va miqyosdagi ma'lumotlar: mazkur muassasaning aniq nomi, uning rahbarlari, jinoyat, fuqarolik yoki xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish vaqti va tartibi, boshqa yuridik muassasalar, shu jumladan markaziy va mintaqaviy yuridik muassasalar haqida xuddi shunday ma'lumotlarni olishga haqlidirlar.

Yuridik muassasalar o'zlari joylashgan hududdagi qonuniylik, huquq-tartibot, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilinishining ahvoli haqida, shu jumladan ommaviy axborot vositalari orqali aholi va jamoatchilikka muntazam xabar berib borishlari lozim.

§4. Axborotlar sohasidagi munosabatlar

«Axborotlar sohasidagi munosabatlar» tushunchasi alohida individlar, ularning jamoa va birlashmalari, korxonalar, davlat organlari va muassasalari o'rtasidagi axborot ishlab chiqarish, uni tarqatish va undan foydalanish sohasidagi obyektiv aloqalarni ifoda etadi.

«Axborotlar sohasidagi munosabatlar» atamasi 1993-yil 23-mayda qabul qilingan MDHga a'zo davlatlar Parlamentlararo Assambleyasining «Parlamentlararo Assambleyaga a'zo davlatlarda axborotlar sohasidagi munosabatlarni tartibga solish qoidalari to'g'risida»gi tavsiya xususiyatiga ega bo'lgan qonun hujjatida belgilab qo'yilgan. U ayrim MDH mamlakatlarining qonun hujjatlarida ham qo'llanadi.

Axborotlar sohasidagi munosabatlar axborot faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Axborot faoliyati axborot ishlab chiqarish, axborot xizmatlari ko'rsatish va axborot mahsullarini tayyorlash bilan bog'liq ijtimoiy ishlab chiqarish sohasidan iboratdir. Bu faoliyat jarayonida har xil axborot sohasidagi munosabatlar vujudga keladi. Ularning subyektlari – jamoat va davlat tuzilmalari, jismoniy va yuridik shaxslar, korxonalar, firmalar, fuqarolarning birlashmalari, butun davlatdir. Axborotlar sohasidagi munosabatlarning maxsus subyektlari yuridik shaxslar sifatida ro'yxatga olingan axborot agentliklari hisoblanadi. Ular axborot tarqatish bilan shug'ullanadi.

Axborotlar sohasidagi munosabatlarning subyektlari har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida, ammo qonunda belgilangan doirada axborot olish (ishlab chiqarish, qo'lga kiritish), undan foydalanish, uni tarqatish va saqlashga haqidirlar.

Axborotlar sohasidagi munosabatlarning subyektlari:

axborotlardan qonun yoki shartnoma (bitim)ga muvofiq foydalanishlari;

barcha foydalanuvchi va fuqarolarga qonun yoki bitimda nazarda tutilgan shartlarda axborotlardan foydalanish imkoniyatini berishlari;

axborotlarni muvofiq ahvolda va belgilangan muddat mobaynida saqlashlari;

axborot haqidagi qonunlar buzilgan taqdirda yetkazilgan zarar uchun tovon to'lashlari shart.

Axborotlar sohasidagi huquqiy munosabatlarning obyekti huquqiy axborot bo'lib, ularni quyidagicha turkumlash mumkin.

1. Respublika davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi axborot sohasidagi munosabatlar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Devoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'zlari ishlab chiqaradigan axborotlarni bir-birlari bilan almashishlari shart.

Axborotlar sohasidagi munosabatlar konstitutsiyaviy-huquqiy sohada ham vujudga keladi. Jumladan, Moldova Konstitutsiyasining 104-moddasiga binoan Hukumat Parlament va uning komissiyalariga zarur axborot va hujjatlarni taqdim etadi.

2. Fuqarolar va ularning birlashmalari o'rtasida vujudga keladigan axborotlar sohasidagi munosabatlar. Axborotlar sohasidagi munosabatlar fuqaro va davlat organi o'rtasida vujudga kelishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikaning barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

3. Boshqa huquq subyektlari ishtirokidagi axborotlar sohasidagi munosabatlar. Bu, masalan, ommaviy axborot ishlab chiqarish va undan foydalanishda bir tomondan davlat va ommaviy axborot vositalari o'rtasida, ommaviy axborot vositalarining har xil turlari o'rtasida va ommaviy axborot vositalari o'rtasida, ikkinchi tomondan esa – jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlardir.

Jamiyatda obyektiv mavjud bo'lgan va rivojlanib boruvchi axborotlar sohasidagi munosabatlar alohida axborot normalari bilan tartibga solinadi.

Axborot normalari axborotlar sohasidagi munosabatlarning xususiyatidan kelib chiqib axborot ishlab chiqarish, tarqatish va undan foydalanishda huquq subyektlarining huquqlari, burchlari va javobgarligini tartibga soladi. Bunday normalar bilan tartibga solingan axborotlar sohasidagi munosabatlar huquqiy munosabatlarga aylanadi. Masalan, konstitutsiyaviy qonun hujjatlari miqyosida negiz xususiyatiga ega bo'lgan axborot normalari amal qiladi (bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29, 30 va boshqa moddalari).

Shu narsa e'tiborga molikki, normativ hujjatlarga huquq va siyosat sohasini axborotlashtirish jarayonlariga taalluqli bo'lgan normalar ham kiritilmoqda. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida»gi qonunning 25-moddasiga binoan saylov kuni tashviqot yuritish, yuqori axborot markazlaridan quyi axborot markazlariga biron-bir ma'lumot uzatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bir qator ma'muriy qonun hujjatlarida davlat organlarining axborotlar sohasidagi maqomini, axborot olish va uzatishdagi huquq va majburiyatlar, bu normalarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari va tartibini o'rnatuvchi yoki ularga aniqlik kirituvchi axborot-huquqiy normalar mavjud.

Xalqaro huquq hujjatlarida ham juda ko'p huquqiy normalarga duch kelish mumkin. Masalan, Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasining 19-moddasida belgilangan normaga muvofiq har bir odam har qanday vositalar bilan va davlat chegaralaridan qat'iy nazar erkin axborot qidirish, olish va tarqatishga haqlidir.

Harbiy-siyosiy sohada nazorat qilish va o'zaro tekshirish tartibini tartibga soladigan axborot normalari o'rnatiladi. Bundan davlatlar o'rtnasidagi ishonch darajasini oshirish maqsadi ko'zlanadi.

Alohida axborot-huquqiy normalar «tematik» normativ hujjatlarga ham kiritilgan. Masalan, bunday normalar ekologik, demografik qonun hujjatlari, fan-texnika taraqqiyoti haqidagi qonun hujjatlari va boshqa tarmoq qonun hujjatlarida mavjud¹.


Axborot normalarini quyidagicha turkumlash mumkin: konstitutsiyaviy axborot normalari – umumiy mazmunga ega axborot qoidalari, insonning axborot olish huquqi, uni amalga oshirish kafolatlari va mexanizmlarini o'rnatuvchi axborot normalari. Amal qilish sohasiga qarab universal, mintaqaviy va partikulyar axborot normalari; yuridik kuchiga qarab – imperativ va dispozitiv axborot normalari; huquq tizimidagi funksiyalariga qarab – moddiy va protsessual axborot normalari; yaratish usuli va mavjudlik shakliga (manbasiga) qarab – shartnomaviy, xalqaro axborot normalari hamda xalqaro tashkilotlarning qarorlari farqlanadi.

¹ Axborot normasi tushunchasini kengaytirish mumkin emas. **Chunonchi**, ma'lum axborot «yuki»ga ega bo'lsa-da, o'zining ichki tabiatiga ko'ra boshqa huquqiy tartibga solish sohasiga mansub bo'lgan huquq normalari axborot normalari hisoblanmaydi.

§5. Huquqiy tartibga solish mexanizmidagi axborot jarayonlari

Axborot jarayonlari – bu tabiiy, texnik yoki ijtimoiy muhitda axborot tarqatish jarayonlaridir. Axborot jarayonlari ijtimoiy iyerarxiyaning barcha pog'onalarida:

- butun jamiyatda;
- katta ijtimoiy tabaqa va ijtimoiy guruhlarda;
- kichik ijtimoiy tabaqa va mehnat jamoalarida;
- alohida shaxs va uning inditsidual ongida (informatsion-psixologik jarayonlar) sodir bo'ladi.



6-rasm. Axborot jarayonining blok - sxemasi

Axborot o'z manbalardan iste'molchi (foydalanuvchi) sari harakat qiladi. Axborot jarayonlarini tavsiflash uchun informatikada «axborot kanali» atamasi qo'llanadi. Axborot kanali biologik, ijtimoiy, texnik (radio, televideniye) va psixologik jarayonlar (axborotlarni idrok etish, eslab qolish va ifoda qilish)ni o'zida mujassamlashtiradi. Murakkab telekommunikatsiya tarmoqlari va fizik maydonlar (elektromagnit maydonlar, radioto'lqinlar) axborot kanallari vazifasini bajaradi.

Axborotni uzatish va idrok etish jarayonlari ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmidagi ham mavjud. Bunga davlat va huquq tizimi haqidagi ommaviy axborotlarning izchil oqimlarini yaratuvchi ommaviy axborot vositalari (radio, televideniye, gazeta va jurnallar)ning faoliyati misol bo'la oladi.

Huquqiy axborotlarni idrok etish jarayonlariga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

huquqiy axborotlarga bo'lgan ehtiyoj – bu huquq normalari va

qoidalari, muhim qonun hujjatlari va tartib-qoidalar haqidagi ma'lumotlarni olish va ulardan amalda foydalanish zaruratining shaxs tomonidan anglab yetilishidir;

huquqiy axborotlarga nisbatan qiziqish – bu avvalambor mazkur jamiyatda mavjud axborot oqimidan biron-bir huquqiy axborotning ajratib olinishidir. Huquqiy axborotlarga nisbatan qiziqish teranlik, kenglik, ixtisoslashganlik kabi mezonlar bilan tavsiflanadi;

shaxsning ijtimoiy-madaniy saviyasi. Bu omil shaxsning ma'lum madaniy qadriyatlar majmuiga ega ekanligini tavsiflaydi. Huquqiy madaniyat mana shu qadriyatlarning elementi hisoblanadi. Huquqiy madaniyat shaxsning siyosiy, huquqiy va boshqa ijtimoiy axborotlar «maydoni»dagi ishtiroki darajasini ifoda etadi.

Axborotlarni tarqatish ba'zan axborot sohasidagi to'siqlarni yengib o'tish zarurati bilan bog'liq bo'ladi.

1. Texnik to'siqlar. O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonuniga muvofiq radio va tele-dasturlarni qabul qilishga xalaqit beradigan sun'iy to'siqlarning yaratilishi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga binoan javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Industrial shovqinlar (ya'ni xo'jalik faoliyati jarayonida texnik uskunalardan foydalanishda vujudga keladigan sun'iy shovqinlar) ham texnik to'siqlar bo'lishi mumkin.

2. Bilmaslik (bexabarlik) to'sig'i. Foydalanuvchi o'ziga zarur axborotlar amalda mavjudligini bilmaydi.

3. Aloqa to'sig'i. Foydalanuvchi o'ziga zarur axborotlarning mavjudligini biladi, ammo ularni olish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Buning sababi har xil bo'lishi mumkin. Mutaxassislar, muassasalar va mamlakatlar o'rtasida aloqalarning yo'qligi, axborotlarning ochiq-oydin yoki oshkora keng tarqalishini istamaslik shular jumlasidan.

4. Til bilan bog'liq to'siq. Axborotni olish imkoniyati mavjud, ammo u foydalanuvchi bilmaydigan tilda yozilgan. Bu holda u mazkur hujjatdan bosh tortadi.

Huquqiy axborotlarning tarqatilishi ba'zan ortiqchalik bilan ham bog'liq bo'ladi. Huquqiy axborotlarning ijobiy ortiqchaligidan butun kommunikatsiya jarayonini maqbullashtirish maqsadi ko'zlanadi. Ijobiy ortiqchalik ommaviy axborot vositalari tomonidan ham qo'lianadi (aholi yaxshi o'zlashtirishi uchun o'ziga xos vaziyatlar

qayta-qayta takrorlanadi). Qonun chiqaruvchi ijobiy ortiqchalikdan normativ hujjatlarning idrok etilishi darajasini oshirish uchun foydalanadi.

Informatika qoidalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bevosita bog'liq bo'lgan ko'pgina asosiy qonunlarda mazkur muammoga bevosita daxldor bo'lgan konstitutsiyaviy norma va qoidalarning ifoda etilishi maqsadga muvofiqdir.

Salbiy ortiqchalik axborot jarayonining maromini buzadi. U o'ziga xos «to'siq» yoki «shovqin» vazifasini bajaradi. Ma'muriy-buyruqbozlik sharoitlarida qabul qilingan ko'pgina qonun hujjatlariga xos bo'lgan deklarativ norma va qoidalar shular jumlasidandir. Deklarativ qonun va normalarning xususiyati shundaki, ular amalga oshirish mexanizmiga ega emas. Bunday qonunlar tartibga solish va o'zini o'zi tartibga solish funksiyasini bajarmaydi va shuning uchun ham salbiy ortiqchadir.

Normativ huquqiy hujjatlarni tayyorlash saviyasining yuqoriligi salbiy ortiqchalikni yengish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Axborotlarni ma'lum asosiy tushunchalar kiritish, deklarativ qoidalarni bartaraf etish, hujjat konsepsiyasini chuqur ishlab chiqish yo'li bilan tuzish mumkin. Normativ matniga mazkur hujjatni tavsiflovchi prinsiplarning kiritilishi ham samarali bo'lishi mumkin.

Axborot-kommunikatsiya jarayonining so'nggi bo'g'ini – axborotlardan qaror qabul qilish (hukm chiqarish, qonun loyahasini ishlab chiqish, yuridik hujjat tuzish va h.k.) uchun foydalanishdir. Moddiy resurslardan foydalanishdan farqli o'laroq, axborotlardan foydalanish ularning yo'qolishiga (yoki o'zgarishiga) olib kelmaydi. Bu axborotlardan qayta-qayta foydalanish imkonini beradi.

Axborotlardan foydalanish quyidagilarni o'z ichiga oladi: axborotni idrok etish; uning shubhasiz to'g'riligini baholash, mantiqiy va kasbiy yuridik tahlildan o'tkazish, undan mantiqiy – induktiv (xususiydan umumiygacha) va deduktiv (umumiydan xususiygacha) xulosalar chiqarish uchun foydalanish; qaror qabul qilish (jinoyat, fuqarolik, xo'jalik ishi bo'yicha).

§6. Huquq sohasidagi axborot jarayonlari

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, huquq sohasida boshqaruv, tartibga solish, huquq ijodkorligi, qonuniylik, huquq-tartibot, huquqiy tarbiya jarayonlari va boshqa jarayonlar bir-biri bilan cham-

barchas bog'liq bo'ladi. Axborot bu yerda muhim atribut vazifasini bajaradi. Jamiyatning huquq tizimi o'z komponentlari va tashqi muhitga aynan axborot yordamida samarali ta'sir ko'rsatish, yuzaga keluvchi ijtimoiy-huquqiy vazifalarni hal qilish va odamlarning xulq-atvorini tartibga solishga qodir.

V.V. Glazirin bilan V.I. Nikitinskiyning fikricha, ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir ko'rsatish jarayoni qator funksiyalarni bajarish orqali amalga oshiriladi: boshqariluvchi jarayonga ta'sir ko'rsatishning huquqiy vazifasini aniqlash; yuridik muammoni o'rganish va unga tashxis qo'yish; asosiy maqsadlar va vazifalarni aniqlash; yuridik muammoning yechimini izlash; normativ-huquqiy hujjat qabul qilish; uni amalga oshirish; normativ-huquqiy qarorning bajarilishini nazorat qilish va uning samaradorligini baholash shular jumlasidandir. O.A. Gavrilov bu qoidani rivojlantirib, jamiyatdagi huquqiy ta'sir ko'rsatish sistemasi doirasida norma ijodkorligi blokini, maqsadlarni belgilash tizimi va maqsadlar majmui, huquq normalari va institutlari, axborot kichik tizimi, huquqni qo'llash, munosabatlar gomeostazi ustidan nazorat qilish, tartibga solish obyekti va mahsuldorlikni ajratadi. Bizningcha, bunday yondashuvlarni muammoni axborot tahlilidan o'tkazish yo'li bilan to'ldirish mumkin.

Bu nuqtai nazardan ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatish jarayoniga axborot ahamiyatiga molik funksiyalar majmuini: huquq sohasida tartibga solish maqsadlarini belgilash; keluvchi huquqiy va boshqa axborotlarni olish hamda idrok etish, uni ro'yxatdan o'tkazish, saqlash va qayta ishlash; ma'lum yuridik qaror, hujjat qabul qilish; ijtimoiy-huquqiy axborotni berish va undan foydalanishni amalga oshirish deb qarash mumkin. Bunda chinakam axborot faqat huquq normalari hamda ularning amal qilishi haqidagi ma'lumotlarga emas, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarning o'zaro ta'siri haqidagi ma'lumotlarga, qonun chiqaruvchi organlar, korxonalar, birlashmalar, fuqarolar va boshqalarning faoliyati haqidagi ma'lum yuridik ma'lumotlarga ham taalluqli bo'lishini qayd etib o'tish kerak.

Jamiyatning huquq tizimi va uning kichik tizimlarida aylanuvchi axborot ijtimoiy axborot hisoblanadi. U materiya harakatining ijtimoiy shakli hamda uning huquq sohasida va tegishli yuridik faoliyat sohaslarida ishlatiluvchi boshqa barcha shakllari haqidagi

ma'lum bilimlar va ma'lumotlar sifatida ishtirok etadi. Bu holda biz unga shunchaki huquqiy, normativ axborot deb emas (garchi axborot qidirish, qonun chiqarish vazifalari va boshqa vazifalar munosabati bilan uni alohida ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da), so'zning keng ma'nosidagi ijtimoiy-huquqiy axborot deb qaraymiz, ya'ni jamiyatning huquq tizimi va uning kichik tizimlarida aylanuvchi hamda yuridik organlar va idoralar xodimlarining ongi orqali o'tuvchi barcha (huquqiy, statistik, iqtisodiy, siyosiy va boshqa) axborot turlarini o'rganamiz*.

Ko'rib chiqilayotgan axborot turining mazmun-mohiyati shundan iboratki, u bilan ishlaydigan subyektlar va obyektlar ma'lum jamoa, millat va shaxslar guruhiga mansub bo'lgan odamlar (huquq normasini qo'llovchi yoki unga rioya qiluvchi, fuqarolar, u yoki bu yuridik organning xizmatchilari, rahbarlari va h.k.)dir. Bu nuqtai nazardan huquq sohasida ishlatiluvchi axborot ijtimoiy axborot bo'lib, xalq irodasini hamda odamlarning talablari va manfaatlarini aks ettiradi. Huquq sohasida axborot oqimlari o'z holicha mavjud bo'lmaydi, ular iqtisodiy munosabatlar tizimi va bazi hodisalar bilan belgilanadi. Shu bilan birga, bu oqimlar mazkur munosabatlar va hodisalarning rivojlanishiga teskari ta'sir ko'rsatadi. Huquq sohasida aylanuvchi axborotlar ham barcha axborot turlari uchun umumiy bo'lgan vosila va usullar yordamida yig'ilishi, qayta ishlanishi va ishlatilishi, EHM va boshqa axborot texnikasi yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Axborot pozitsiyalaridan turib huquqiy ta'sir ko'rsatish ijtimoiy mehnat jarayonining tabiatidan kelib chiquvchi alohida funksiyadir. Huquqiy ta'sir ko'rsatish ijtimoiy tushuncha bo'lib, odamlarning xulq-atvori, ularning qilmishlari, harakatlari, o'zaro munosabatlari uning obyektini tashkil etadi. Uni axborot asosida amalga oshirish avvalambor muayyan huquqiy ma'lumotning bo'lishini nazarda tutadi. Bu nuqtai nazardan huquqiy ta'sir ko'rsatish jarayonining axborot jarayoni sifatidagi mazmun-mohiyati shu bilan tavsiflanadiki, tartibga solish subyekti o'z faoliyatini amalga oshirishdan oldin o'z oldiga obyektning xulq-atvorini tartibga solishni maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsad uning manfaatlarini amalga oshirishda

* Tabiiyki, bunday yondashuvda ijtimoiy- huquqiy axborot tushunchasi mazmuniga biz huquq normasida va u bilan bog'liq hodisalarda ifodalangan barcha ma'lumotlarni kirituvchi huquqiy, normativ axborot tushunchasidan ancha kengdir.

ijtimoiy tizimning vazifalarini belgilab beradi. U mavjud axborotlar-ga asoslangan bo'lib, tartibga solish nuqtai nazaridan maqbul normativ hujjatlarni ishlab chiqish, qonuniylikni buzish hollariga barham berish, huquq-tartibotni mustahkamlash, aholining huqu-qiy ongini o'stirish va hokazolarga taalluqli bo'lgan qator kichik maqsadlarga tabaqalanishi mumkin.

Shundan so'ng qo'yilgan maqsadga muvofiq huquqiy ta'sir ko'rsatish subyektiga turli manbalardan to'g'ri aloqa kanallari orqali ijtimoiy tizim, boshqaruv obyekti, tashqi va ichki yo'sindagi salbiy ta'sirlar haqida axborotlar, bilimlar, xabarlar va ma'lumotlar kelib turadi. Mazkur subyekt (aytaylik, o'z miqyosida bozor munosabatlarini tartibga solish masalalari bilan shug'ullanayotgan viloyat ma'muriyati) uchun bu zarur huquq normalari (biznesga doir qonun hujjatlari), ta'sir ko'rsatish obyektining rivojlanish tendensiyalari (viloyatda aksiyadorlik jamiyatlari va firmalar tashkil etilishi, ularning qonunga muvofiq ishlashi, olgan foydasi miqdori va h.k.) haqidagi axborotlar bo'lishi mumkin. Axborot olish (yig'ish) shuningdek boshqaruv obyektida ham amalga oshiriladi.

Huquqiy ta'sir ko'rsatish subyektiga (masalan, fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmida davlat arbitri) olingan axborotlarni idrok etadi va idrok etilayotgan obyektning ma'lum mazmun modelini (xo'jalik yuritish sohasidagi nizoning ishtirokchilari bo'lgan korxonalarining huquqiy xulq-atvori modelini) tuzadi. Shundan keyin huquqiy ta'sir ko'rsatish subyektiga (davlat arbitri) mazkur modelni (korxonalar huquqiy xulq-atvorining barcha holatlarini, ularning yuqori organlarga murojaatlarini, bir-biriga qilayotgan da'volarining xususiyatini va boshqa holatlarni) o'rganadi, tahlildan o'tkazadi va baholaydi. Natijada u huquqiy tartibga solish uchun foydali va qimmatli axborotni keraksiz axborotlardan ajratib oladi (ish uchun muhim bo'lgan materiallar, faktlar, ma'lumotlarni yig'ib, keraksiz axborotlarni chetga suradi).

Shundan so'ng huquqiy ta'sir ko'rsatish subyektiga (masalan, jinoyat adliyasi tizimidagi prokuratura organi) to'plangan axborotlarni daftarlar, papkalar, hisob kartochkalari va boshqa hujjatlarda ro'yxatdan o'tkazadi yoki qayd etadi.

Axborotni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, demografiyaga doir va boshqa ma'lumotlar ma'lum tarqatuvchilarda (perfokartalar, hujjatlar, hisob daftarlari, dalolatnom-

alar va boshqalarda) kelgusi axborot-tahlil ishlari uchun qulay bo'lgan shaklda mustahkamlanadi. Huquq sohasidagi axborotlar asosiy qo'lda ro'yxatdan o'tkaziladi. Shu bilan bir vaqtda, bunda informatikaning maxsus texnika vositalaridan ham foydalaniladi.

Ijtimoiy-huquqiy axborotni ro'yxatdan o'tkazishga doir munosabatlar, boshqa axborot munosabatlari singari, ijtimoiy xususiyatga egadir. "Axborotni ro'yxatdan o'tkazish jarayonini u yoki bu tarzda tashkil qilish, - deb qayd etadi A.B. Vengerov, - u yoki bu tartib ma'lum ijtimoiy manfaatlarni aks ettiradi va huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Bu yerda gap avvalambor barcha axborotlar asosida yotuvchi birlamchi yoki boshlang'ich axborotlarni ro'yxatdan o'tkazish, bu axborotlarning sifati, haqqoniyligi, to'liqligi, aniqligi, o'z vaqtida olinganligi hamda undan kelgusida foydalanish haqida borayotir".

Tartibga solish uchun to'plangan axborotlar asosan huquqiy ta'sir ko'rsatish subyektida saqlanadi. Saqlash hozirgi zamon hisoblash texnikasi (EHM, terminallar, perforatsion texnika va boshqa texnika vositalari) yordamida amalga oshirilishi mumkin. To'plangan axborotlar huquqiy ta'sir ko'rsatish obyektida saqlanishi ham mumkin.

Shundan so'ng huquqiy ta'sir ko'rsatish subyektini (masalan, huquq ijodkorligi funksiyalarini amalga oshirayotgan davlat hokimiyati organlari huquq ijodkorligi mexanizmida) olingan (aytaylik, ta'sir ko'rsatish obyektida xo'jalik qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti haqidagi) axborotlarni qayta ishlaydi. Axborotlarni qayta ishlash izchil jarayon bo'lib, natijada ularning mazmuni oluvchiga (ayni holda qonun chiqaruvchiga ma'lum qaror qabul qilish uchun) taqdim etish uchun muvofiq shakl kasb etadi.

Huquq sohasida ko'pgina hollarda axborotga qo'lda ishlov beriladi. Masalan, jinoyatlarni tergov qilish mexanizmida birlamchi va ikkilamchi axborotlarni olish, ularni tahlildan o'tkazish, qayta tuzish muammolari va boshqa muammolarni tergovchi hamda prokuror hal qiladi. Ular axborotlarni mantiqiy, evristik va boshqa nuqtai nazarlardan qayta tuzadi.

Ma'lum hollarda huquq sohasida axborotlarni qayta ishlash va tahlildan o'tkazish vazifalari elektron-hisoblash texnikasi va boshqa moslamalar yordamida hal qilinadi. Shuning uchun ham axborotlarni qayta ishlash axborotning yuridik sohada amal qilish jara-

yonini emas, faqat axborotni qayta tuzish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni, masalan, birlamchi (boshlang'ich) axborotdan zarur ikkilamchi axborotni hosil qilishni – axborotni ijtimoiy boshqaruv tizimi oldidagi vazifalarga muvofiq tahlildan o'tkazish va qayta tuzishni o'z ichiga oladi, deb xulosa chiqarish mumkin.

Huquqiy ta'sir ko'rsatish subyekti qayta ishlangan va puxta tahlildan o'tkazilgan axborot asosida u yoki bu qarorni qabul qiladi (alohida hollarda bunday bo'lmasligi ham mumkin).

Qaror huquqiy ta'sir ko'rsatish subyektining boshqariluvchi obyektlar uchun majburiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lum xulq-atvor modelini tanlashi demakdir. Unda subyekt o'z axborot-bilish faoliyati jarayonida olgan eng qimmat bilimlar aks etadi va faqat joriy yuridik faoliyatga (uning maqsadi, huquqiy vazifani hal qilishdagi imkoniyatlari, resurslari va boshqalarga) emas, uning kelgusida rivojlanishiga ham taalluqli bo'ladi. Huquq sohasida qabul qilinuvchi qarorlar yo'nalishi jihatidan bir xil bo'lmaydi. Masalan, huquqiy ong mexanizmida ular fuqarolarda huquq haqida to'g'ri qarashlarning shakllanishiga, huquq ijodkorligi mexanizmida – normativ hujjatlarning loyihalarini tayyorlashga, huquqiy tartibga solish mexanizmida – huquq normalari amal qiluvchi shaxslar doirasini aniqlashga va hokazolarga tegishlidir. Qarorlarning axborot mazmuni ham har xil. Masalan, agar bu normativ-huquqiy hujjat bo'lsa, u muqaddima, asosiy qoidalar yoki muqaddimasiz moddalardan tashkil topadi; agar bu, aytaylik, prokuratura organining ish rejasi bo'lsa, u umumiy va asosiy qismlardan, tashkiliy masalalar ro'yxatidan, kadrlar bilan ta'minlash masalalari va boshqa masalalardan tashkil topadi.

Huquqiy ta'sir ko'rsatish subyekti qabul qilingan qarorni to'g'ri aloqa kanallari orqali obyektga uzatadi.

Huquq sohasida axborot uzatish tizimi bizningcha axborot manbalaridan (aytaylik, ma'lum jinoyatni qonunga asosan tergov qilayotgan tergovchi), axborotni qabul qiluvchilardan (aytaylik, tergovchi jinoyatni qanday tergov qilayotgani ustidan nazoratni amalga oshiruvchi va tergovchi o'zi olib borayotgan tergov ishlari haqida muntazam xabar berib turuvchi prokuror) hamda axborot manbalari bilan axborotni qabul qiluvchilarni bog'lovchi aloqa kanallaridan tashkil topadi.

Axborot manbai aloqa kanali orqali axborotni uzatishi, axborot

ni qabul qiluvchi esa bu axborotni idrok etishi va uni baholashi lozim.

Huquq sohasida axborotdan foydalanish deganda axborotni huquqiy ta'sir ko'rsatish subyektidan (aytaylik, huquqiy tartibga solish mexanizmidagi davlat organidan) to'g'ri aloqa kanllari (pochta) orqali olib o'tish tushuniladi. Bunda obyektga boshqariluvchi ta'sir ko'rsatiladi, uning xulq-atvori zarur tomonga o'zgaradi (davlat organi biron-bir sanksiya bilan obyektga ta'sir ko'rsatadi va amaldagi huquqiy munosabatlar subyektlarining xulq-atvorini o'zgartiradi). Subyekt bilan obyektning axborot sohasidagi o'zaro aloqasi jarayonida shuni nazarda tutish kerakki, har qanday ishlatiluvchi axborot, agar uning mazmuni ta'sir ko'rsatish obyektining maqsad va vazifalariga mos kelsa, juda katta samara beradi; mavjud axborot va ma'lumotlarning ta'sir kuchi obyekt ixtiyorida mavjud faktlar soniga ma'lum darajada mutanosib bo'ladi; ishlatiluvchi axborotlarda ziddiyatli faktlar bo'lmasa, ularning ishonchlilik darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi; avval olingan ma'lumotlarga zid faktlar ifodalangan axborotlar birlamchi faktlarga bo'lgan ishonchni ma'lum darajada yo'qqa chiqaradi; axborotlarda ifodalangan faktlardan qat'iy mantiqiy izchillikda foydalanilsa, bunday axborotlarning samaradorligi oshadi.

Huquqiy ta'sir ko'rsatish obyektidan subyektga teskari aloqa kanallari orqali axborotlarning ta'siri haqida ma'lumotlar kelib turadi va yuqorida zikr etilgan tartibga solish jarayoni qayta-qayta (huquqiy ta'sir ko'rsatish subyekti o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarga erishmagunicha) takrorlanaveradi.

Huquqiy ta'sir ko'rsatish va huquqiy tartibga solish jarayonlari ularda ijtimoiy-huquqiy axborotlar muntazam aylanishi natijasida uzluksiz tus oladi. Huquqiy ta'sir ko'rsatishning u yoki bu subyekti huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari, mansabdor shaxslar va boshqalarning xulq-atvoriga muntazam ta'sir ko'rsatish imkoniyatini qo'lga kiritadi, chunonchi unga huquqiy ta'sir ko'rsatishning obyektiv talablari, uni qiziqitiruvchi huquqiy tuzilmalarning faoliyati, huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari turdosh maqsadlarga erishganligi haqidagi va boshqa ma'lumotlar uzluksiz kelib turadi; haqqoniy ma'lumotlar to'planadi, idrok etiladi va qayta ishlanadi hamda ularning asosida muayyan qarorlar, ko'rsatmalar chiqarilib, ta'sir ko'rsatish obyektidagi ijrochilarga beriladi, ular esa o'z

zimmalariga yuklangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida huquqiy tartibga solish va boshqarishning o'rnatilgan dasturlarining bajarilishini ta'minlaydi.

Shuning uchun ham huquqiy ta'sir ko'rsatish sikli, har qanday boshqaruv sikli singari, axborotni yig'ish va qayta ishlashdan boshlanib, axborotni olish bilan yakunlanadi, bu axborot yangi boshqaruv sikli uchun asos bo'lib xizmat qiladi, deb xulosa chiqarish mumkin.

Ammo bu holda ijtimoiy-huquqiy axborot har narsaga qodir degan tasavvur tug'ilmasligi kerak. Bizning nazarimizda, huquq sohasida axborot keng, ammo cheklangan vazifalar majmuini bajaradi. U umuman huquq tizimi komponentlarining, shuningdek huquq tizimi shart-sharoitlarining o'zaro ta'siri va o'zaro aloqasi shakli hisoblanadi; huquq sohasidagi barcha tartibga solish va boshqarish pog'onalari va funksiyalariga xizmat ko'rsatadi, boshqarish usullari va vositalari haqidagi ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi, huquq tizimining u yoki bu xulq-atvor variantini tanlashini, uning yangi holatga o'tishini va belgilangan maqsad sari intilishini belgilovchi sabab hisoblanadi.

Shunga qaramay, huquqiy ta'sir ko'rsatish va huquq sohasida boshqarish jarayonini faqat huquqiy tuzilmalardagi axborot jarayonlari bilangina bog'lamaslik lozim. U juda boy mazmunga ega. Huquqiy munosabatlarning ishtirokchilariga, muayyan odamlarga va hokazolarga huquqiy-boshqaruv vositalari yordamida ta'sir ko'rsatish bu ular zarur ijtimoiy-huquqiy axborotni berish akti emas, balki huquqiy munosabatlarning muayyan subyektlari, alohida shaxslarning o'zaro aloqasidan iborat murakkab ijtimoiy va psixologik jarayondir. U huquqiy va boshqa xil axborot tushunchasi bilan qamrab olinmaydigan omillarni o'z ichiga oladi. Burch, mas'uliyat hissi, iroda, talablar, manfaatlar, axloq va qadr-qimmat shular jumlasidandir.

Huquqiy ta'sir ko'rsatish aktlarini amalga oshirishda ijtimoiy-huquqiy axborot boshqaruv ta'siri ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Huquq sohasida axborot berish o'ziga xos huquqiy ta'sir ko'rsatishdek bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu huquq sohasida ta'sir ko'rsatish jarayonining jihatlaridan biri, xolos. Masalan, bir ijtimoiy-huquqiy axborot huquqiy munosabatiarning turli ishtirokchilariga har xil ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, tartibga

solish va boshqarish jarayonida faqat ijtimoiy-huquqiy axborotgina ta'sir ko'rsatmaydi, huquqiy munosabatlarning bir ishtirokchisi ikkinchi ishtirokchiga ta'sir ko'rsatadi va bunda turli ijtimoiy-huquqiy ma'lumotlardan foydalanadi.

Shu bilan bir vaqtda, ijtimoiy-huquqiy axborot huquqiy ta'sir ko'rsatish jarayonining turli bosqichlarida har xil rol o'ynaydi. Huquqiy ta'sir ko'rsatishning bir bosqichida ijtimoiy-huquqiy axborot hajmi, uning turlari, qo'shimcha, yangi yuridik ma'lumotlar olish imkoniyati muhim bo'lsa, ikkinchi bosqichda axborotni berish va uning harakati, uchinchi bosqichda esa – ijtimoiy-huquqiy ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardan foydalanish imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bozor munosabatlarini huquqiy tartibga solish maqsadlari va dasturlarini ishlab chiqishda hozirgi zamon huquq fani va amaliyoti haqida ma'lumotlardan qancha ko'p foydalanilsa, huquqiy tartibga solishning maqsadlari va dasturlari shuncha aniq va obyektiv ta'riflanadi, ijtimoiy munosabatlarga, bu munosabatlarning alohida ishtirokchilari xulq-atvoriga huquqiy ta'sir ko'rsatish jarayoni uchun ular shu darajada muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-huquqiy rivojlanish talablarini aniqlash va ta'sir ko'rsatish obyektida yuzaga kelgan yuridik vaziyatni baholashda huquqiy va boshqa axborotlarning sifati, soni va turlari, yuzaga keluvchi barcha masalalarni baholashga, keyinchalik esa – zarur yuridik hujjatlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga kompleks, tizimli yondashish imkoniyatlari katta ahamiyatga egadir.

Huquqiy ta'sir ko'rsatishning o'zaro aloqalarini aniqlash, huquqiy tuzilmani ishga solish bosqichida avvalambor huquqiy tartibga solish obyektlari va subyektlarining aloqalarini tavsiflovchi ijtimoiy-huquqiy ma'lumotlarning barcha oqimlari hamda mazkur tuzilma va uning qismlarining ish natijalariga, huquqiy ta'sir ko'rsatishning samaradorligini baholashga doir ma'lumotlar muhim ahamiyatga egadir.

Axborot-tahlil faoliyati (huquqiy va boshqa ma'lumotlarni yig'ish, ularni qayta ishlash, turkumlash va h.k.) jarayonida va qarorlarning, ya'ni normativ-huquqiy hujjatlar, tavsiyalar va hokazolarning loyihalarini ishlab chiqishda ijtimoiy-huquqiy axborotlarning tartibga solish imkoniyatlari katta rol o'ynaydi. Bu imkoniyatlar ularning ifodalanish shakliga bog'liq bo'ladi.

Qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishga doir tashkiliy-amaliy faoliyatda axborotlarni tez, o'z vaqtida uzatish, ularning maqbulligi, to'liqligi, haqqoniyliги va boshqa jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

Huquqiy ta'sir ko'rsatish jarayoni uchun axborot ikki yoqlama yo'nalishga egadir. Bir tomondan, hozirgi vaqtda huquqiy tartibga solish ijtimoiy-huquqiy axborotlarning juda katta hajmi bilan ta'minlangan, mamlakatda bugungi kunda yuz minglab normativ-huquqiy hujjatlar va idoraviy hujjatlar amal qiladi, bu hujjatlarning soni jamiyatdagi hujjat aylanishi hajmining umumiy o'sishi bilan birga kundan-kunga ortib bormoqda.

Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa munosabatlarning murakkablashishiga qarab ijtimoiy-huquqiy va boshqa ma'lumotlar hajmining ortishi jamiyatda huquqiy ta'sir ko'rsatish vazifalarini amalga oshirishda ma'lum qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Huquq ijodkorligi, huquqiy tarbiya vazifalarini va boshqa vazifalarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi davlat organlari qayta ishlashi lozim bo'lgan ijtimoiy-huquqiy axborotlar hajmi tobora ortib borayotir. Shu bilan bir vaqtda, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, binobarin, huquqiy aloqalar soni ham ortib bormoqda.

Ikkinchi tomondan, ijtimoiy-huquqiy axborotlar hajmining, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlar hajmining ortishiga qarab huquq sohasida huquqiy ta'sir ko'rsatishni takomillashtirish va muvofiqlashtirish (hozirgi zamon informatika, kibernetika vosita va usullari, huquqiy-axborot tizimlaridan foydalangan holda) imkoniyatlari ham ortib borayotir. Yangi qonuniyatlar, tushunchalar, prinsiplar va usullarni bilishning qimmatini shundaki, u huquqiy tartibga solish, huquq ijodkorligi, huquq-tartibot, huquqiy madaniyat doirasida sodir bo'luvchi jarayonlarga huquqiy ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini ochadi.

Jamiyatning huquq tizimi va uning kichik tizimlari muayyan ijtimoiy vazifalarni hal qilishi uchun huquqiy ta'sir ko'rsatish subyektlarini zarur huquqiy va boshqa axborotlar bilan ta'minlash zarur. Ko'rib chiqilgan subyektlarning har biri faqat o'ziga kerak bo'lgan axborot hajmi, muayyan yo'nalishdagi ma'lumotlar bilan ta'minlanishi lozim. Bu qator omillarga: ijtimoiy-huquqiy ta'sir ko'rsatish subyektlari va obyektlarining xususiyatiga, huquqiy munosabatlar subyektlari xulq-atvorining xilma-xilligiga, huquqiy

tuzilmalarda amalga oshiriluvchi boshqaruvning bosqichlari soniga, huquqiy ta'sir ko'rsatishning u yoki bu sohasini boshqarish jarayonining davomiyligiga, qabul qilinuvchi yuridik qarorlarning xususiyati va muhimligiga, huquq tizimiga tashqi muhitning ta'siri darajasiga, huquq normalari buzilishining ehtimol tutilgan variantlariga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Qonunchilik sohasida axborot qidirish tizimlarini ishlab chiqishga doir materiallarning tahlili jumladan axborotlar hajmi va xilmaxilligi, oqimlar harakati, zarur ma'lumotlarning berilishi vaqti turli huquq tizimlarida har xil ekanligini ko'rsatadi. Biroq, shunga qaramay, ijtimoiy-huquqiy axborotlarni tashkil etishning umumiy qoidalarini keltirib chiqarish mumkin. Ular bir qator masalalarni, ya'ni: huquqiy tuzilmalarni ishga solishga mo'ljallangan ijtimoiy-huquqiy axborotlar bilan qanday mutaxassislar ishlashi; huquq sohasida boshqaruv maqsadlari va dasturini aniqlash uchun qanday boshlang'ich axborotlar kerakligi; ijtimoiy va ijtimoiy-huquqiy rivojlanish talablarini aniqlashga doir axborotlar qanday va qaysi vositalar yordamida o'rganilishi hamda huquqiy ta'sir ko'rsatishning o'zaro aloqalari qanday axborot asosida tahlil qilinishi; huquqiy tuzilmalarda muayyan qarorlar qabul qilish uchun qanday axborot zarurligi; bu qarorlar qanday rasmiylashtirilishi va huquqiy ta'sir ko'rsatish obyektlari o'tiboriga qanday yetkazilishi; huquq sohasidagi boshqaruv natijalari qay tarzda aniqlanishi; huquqiy tuzilmalarning ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun nima qilish kerakligi masalalarini hal qilishni nazarda tutadi.

Ko'rib chiqilgan umumiy qoidalar nuqtai nazaridan axborot huquq sohasida bir qator vazifalarni bajaradi. Birinchidan, u huquqiy mexanizmlarning barcha tarkibiy qismlarini o'zaro bog'laydi, ularni jamiyatning huquq tizimi bilan birlashtiradi, huquqiy tuzilmalarni tashqi muhitga, tashqariga olib chiqadi. Ikkinchidan, axborot huquqiy ta'sir ko'rsatishning barcha bosqichlariga xizmat ko'rsatadi va huquqiy tuzilmalarga qo'yilgan maqsadlar yo'nalishida harakat qilish imkonini beradi. Uchinchidan, axborot yordamida huquqiy tuzilmalarda dasturni barqarorlashtirish va bajarish prinsiplari amalga oshiriladi.

V BOB. HUQUQ SOHASINI AXBOROTLASHTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI

§1. Axborotlashtirish tushunchasi

«Axborotlashtirish» atamasi huquq fani va amaliyotiga 80- va 90- yillar oralig'ida kirib keldi va tez orada yangi fan yo'nalishining ramzi sifatida e'tibor qozondi.

O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunining 1-moddasida ushbu qonun axborot majmui faoliyatining iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini, uning O'zbekiston Respublikasida tutgan o'rni va ahamiyatini belgilashi, axborot egalari va axborotdan foydalanuvchilar bo'lmish davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi ko'rsatib o'tilgan.

Axborot jarayonlarini intensivatsiya qilishning asosiy vositalari: ma'lumotlarni uzatish tezligini tinimsiz oshirib borish; uzatilayotgan axborotlar hajmini ko'paytirish va ularni qayta ishlashni tezlashtirish; teskari aloqalardan yanada to'laqonli foydalanish; axborot jarayonlarining texnik jihozlanish darajasini oshirish hisoblanadi.

Axborotlashtirish – bu resurslarning an'anaviy turlari – materiya va energiyani almashtirish, axborotni resurslarning uchinchi turiga aylantirish jarayoni bo'lib, fan-texnika inqilobining yangi bosqichidir.

Axborotlashtirish jarayoniga har xil pozitsiyadan turib qaraladi. Uni jamiyatning har bir a'zosiga zarur bo'lgan axborot madaniyatini tarqatish jarayoni sifatida ham¹, tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar yaratish orqali axborot resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirish jarayoni sifatida ham talqin qilish mumkin.

¹ Axborot madaniyati – axborot texnologiyalarini egallash va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish darajasi.

«Axborotlashtirish» atamasini «kompyuterlashtirish» atamasidan farqlay bilish zarur. Kompyuterlashtirishda asosiy e'tibor axborotlarni qayta ishlash natijalarini tezkor olish va ularni jamlashni ta'minlaydigan texnik bazani rivojlantirish va joriy etishga qaratiladi. Kompyuterlashtirishning asosiy shakllari:

kompyuter tizimlari va tarmoqlarini, vazifasiga ko'ra har xil bo'lgan avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini (AAT) barpo etish; shaxsiy EHM negizida avtomatlashtirilgan ish joylarini tashkil etish;

tashkiliy boshqaruv va qarorlar qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimlarini barpo etish;

iqtisod, siyosat va ijtimoiy sohalarda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini rivojlantirish.

Axborotlar sohasi rivojlangan mamlakatlarda axborotlashtirish jarayoni rejali xususiyatga ega. Bu jihatdan AQSH tajribasi e'tiborga molik. 1993-yili AQSH prezidenti B. Klinton o'z ma'muriyati mamlakatda Milliy axborot infratuzilmasi va supermagistralini (National Information Infrastructure) barpo etish niyatida ekanligini ma'lum qildi.

Milliy axborot infratuzilmasi «hukumat faoliyatining samaradorligini oshirish», «Qo'shma Shtatlar tomonidan jahonda fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi peshqadamlikni saqlab qolish»ga qaratilgan dastur sifatida talqin qilinadi.

Milliy axborot infratuzilmasining negizini o'ta tez ishlaydigan ma'lumot uzatish tarmog'i («axborot supermagistrali») tashkil etadi. U foydalanuvchilarni axborot va xizmatlarning manbalari – axborot markazlari, kutubxonalar, o'quv yurtlari, tibbiy muassasalar va shu kabilar bilan bog'laydi. Mazkur tarmoq kamida masofadan turib ta'lim berish, teletibbiyot va tibbiy diagnostika, jamoat axborot byurolari va kutubxonalardan foydalanish vazifalarining hal qilinishini ta'minlashi lozim.

Jamiyat va davlat tuzilmalarini axborotlashtirishning mufassal dasturlari G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham ishlab chiqilgan¹.

O'zbekistonda axborotlashtirishning qonuniy asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonuni hamda uning negizida chiqarilgan boshqa normativ hujjatlar xiz-

¹ Yevropa Kengashining axborot texnologiyalari va huquq biyicha ekspertlar qo'mitasi tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatayotir.

mat qiladi. Mazkur qonunga muvofiq, davlatning axborotlashtirish sohasidagi siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

davlat va jamoat organlarining, fuqarolarning, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini har tomonlama qondirish;

axborotni bir tartibga solish, standartlashtirish, yagona axborot maydoni yaratish hamda respublika jahon axborot hamjamiyatiga kirishi uchun sharoit yaratish;

republikada yaratilayotgan va chetdan keltirilayotgan texnik, dasturiy va texnologik axborot vositalari hamda resurslarini sertifikatlash;

rivojlangan, ishlash bobida mukammal va ishonchli axborot infrastrukturasi yaratish;

axborotlashtirishning texnik asoslarini tarkib toptirishda respublikaning suveren huquqlari va mintaqaviy tuzilmalarning manfaatlariga rioya etish, axborot tizimlarini tashkil etish va amal qilish jarayonida ularning o'zaro hamjihat harakat qilishlarini yo'lga qo'yish;

republikadagi ishlab chiqarish, boshqaruv, ilmiy va ijtimoiy sohalarda elektronika, hisoblash texnikasi va aloqa vositalarining yangi namunalarini yaratish hamda joriy etish;

axborotlashtirishning bir yerda haddan ziyod quyuqlashuvi va axborot sohasida yakkahokimlik qilinishining oldini olish asosida axborotlashtirishni jadal rivojlantirish, axborot jarayonlarini davlat tomonidan markazlashtirilgan tartibda pul bilan ta'minlash va idora etish usullaridan tashkilotlarning mustaqilligiga va tadbirkorligiga o'tish uchun shart-sharoitlar yaratish;

axborotlashtirish dasturi uchun davlat tasarrufida bo'lmagan mablag'larni jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish;

ustivor va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan axborot tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy rag'batlantirish va imtiyozlar tizimini, shuningdek boshqa chora tadbirlarni ishlab chiqish hamda joriy etish;

axborot resurslarini yaratish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlariga rioya etish maqsadida axborotlarni hamda ularni qayta ishlash vositalarini himoya qilish yo'llarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;

davlat axborot resurslarining asralishi, jamg'arilishi va ulardan samarali foydalanilishini ta'minlash;

axborotlashtirishning jamiyat rivojiga ta'sirini o'rganish va baholash.

Umumiy va huquqiy informatika oldida prinsipial muhim vazifa – axborotlashtirish vazifalarini hal qilishda davlat va xususiy kompaniyalar nisbati masalasi bo'yicha optimal pozitsiya ishlab chiqish vazifasi paydo bo'ldi. Funktsiyalarning real taqsimoti quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi lozim edi:

davlat: qonuniy negizning ishlab chiqilishi; butun huquqiy axborotlashtirish tizimining zarur darajadagi yaxlitligini ta'minlaydigan standartlarning (axborotlarning sifatiga nisbatan talablarning klassifikatorlari va shu kabilarning) ishlab chiqilishi; davlat hokimiyati organlari uchun huquqiy axborotlarning spetsifik tizimlarini barpo etish bilan bog'liq alohida loyihalar bo'yicha ishlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

nodavlat kompaniyalari: zarur kompyuter texnologiyalarini yaratish va rivojlantirish; axborot banklarini yaratish va yuritish; yakuuniy foydalanuvchilarning axborot resurslaridan real foydalanishlarini ta'minlash bo'yicha ishlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunining 4-moddasiga muvofiq, respublikaning axborot majmui davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning axborot tizimlaridan tashkil topadi. Jismoniy shaxslarning axborot tizimlari o'z mablag'lari hisobiga tashkil etiladi va ular tomonidan belgilangan tartibda ruxsatnoma olingan taqdirdagina ishlatiladi.

Davlat tasarrufida bo'lmagan axborot tizimlari o'z muassislarining mablag'lari hisobiga tashkil etiladi va ular tomonidan axborot mahsulotlari yaratish va xizmatlarini tashkil etish uchun foydalaniladi. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilab berilgan huquqlari va majburiyatlariga muvofiq holda axborotlashtirish sohasida huquqiy munosabatlarning subyektlari sifatida ish ko'radilar. Axborot davlat organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyat mahsuli sifatida moddiy yoki intellektual mulk obyekti bo'lishi mumkin. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar axborotlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadigan mulkiy huquqqa egadirlar (9-modda). Davlat tasarrufida

bo'lmagan axborot tizimlarida ishlov beriladigan axborotlar ushbu axborotlar tizimi Axborot tizimlari davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan va uning egasi axborotga ishlov berish uchun ruxsatnoma olgan hollardagina qo'riqlanadi. Ishlov berishdan ko'zlangan maqsad va xizmat ko'rsatish qoidalari ruxsatnomada ko'rsatib o'tiladi¹.

Jamiyatning axborotlar sohasidagi salohiyatini faollashtirish maqsadida axborotlar infratuzilmasi – axborotlarni qayta ishlash va tahlil qilish markazlari, axborot almashish va telekommunikatsiya kanallari, aloqa tarmoqlari, axborotlarni himoya qilish tizimlari va vositalarining majmui tashkil etiladi. Jamoat tashkilotlari va davlat organlarida maqsadi jamiyat a'zolari va ularning birlashmalarining axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo'lgan alohida tashkiliy tuzilmalar faoliyat ko'rsatadi. Bular axborot agentliklari, ommaviy axborot vositalari, axborot xizmatlari ko'rsatuvchi reklama va savdo tashkilotlaridir.

Axborot resurslari axborotlar infratuzilmasining eng muhim komponenti hisoblanadi. Mazkur atamaga «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunda ancha keng o'rin berilgan. Qonun mazkur tushunchadan har tomonlama foydalanish asosiga qurilgan bo'lib, axborot resurslarini alohida hujjatlar va hujjatlarning alohida masivlari, axborot tizimlari – kutubxonalar, arxivlar, ma'lumotlar banklari, boshqa axborot tizimlaridagi hujjatlar massivlari sifatida ta'riflaydi. Axborot resurslari axborot mahsullari yaratishning negizi hisoblanadi².

«Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunda davlat axborot tizimlarining to'rt turkumi belgilangan:

- respublika axborot tizimlari;
- hududiy axborot tizimlari;
- tarmoq axborot tizimlari;
- mahalliy axborot tizimlari va shoxobchalari.

Davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar davlat axborot resurslarini

¹ Davlat manbalaridan qonuniy asosda olingan axborotlardan hosila axborotlarni yaratish uchun foydalanilishi mumkin.

² Axborot mahsuli – ijtimoiy muhitda tarqatish uchun shakllantirilgan ma'lumotlar majmui. Axborot mahsuli moddiy tarqatuvchida dasturlar, hujjatlar, dasturiy-apparat vositalari va shu kabi ko'rinishlarda qayd etilishi mumkin.

shakllantirish va ulardan foydalanish uchun mas'ul organ va tashkilotlarga belgilangan tartibda hujjatlashtirilgan axborotlarni taqdim etishlari shart.

Davlat mulki bo'lgan axborot resurslarini shakllantirish va ularni foydalanuvchilarga berish ishlarini tashkil etish ana shunday axborot resurslariga doir ishlarni bajarishi lozim bo'lgan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari zimmasiga yuklatiladi. Davlat mulki qatoriga qo'shilishi mumkin bo'lgan axborot turlari va axborot resurslarining tarkibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini belgilaydi.

Huquqiy axborot resurslari:

huquqni qo'llash va muhofaza qilish faoliyatini amalga oshirish va hujjatlashtirish;

fuqarolar, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari, o'zini o'zi boshqarish organlari, xususiy tashkilotlar va boshqa subyektlardan axborotlar olish;

huquqiy nonormativ axborotlarning avtomatlashtirilgan ma'lumotlar tizimlari, tarmoqlari, banklari va bazalarini tashkil etish;

sud ekspertizasi muassasalari va tashkilotlarida kriminalistik, sud-ekspertiza va boshqa axborotlarni ishlab chiqarish yo'li bilan vujudga keltiriladi.

Bugungi kunda bir qator olimlar tomonidan axborot jamiyatining nazariy modeli ishlab chiqilgan. U texnik va ijtimoiy fanlar namoyandalarining e'tiborini ma'lum darajada qozonishga muvaffaq bo'lgan. Mazkur olimlarning fikricha, axborot jamiyati quyidagi jihatlari bilan tavsiflanadi:

axborot inqirozi muammosi hal qilinadi;

axborotning boshqa resurslardan ustuvorligi ta'minlanadi;

jamiyat negizini eng yangi axborot texnika va texnologiyalari yordamida bilimlarni avtomatlashtirilgan yo'sinda jamg'arish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish tashkil etadi;

axborot texnologiyalari global xususiyat kasb etadi;

butun kishilik taraqqiyotining yagona axborot maydoni vujudga keltiriladi, informatika vositalari yordamida har bir inson butun jahondagi axborot resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi;

ko'pgina ishlovchilar axborotlar, ayniqsa, ularning eng oliy shakli – bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo'ladi;

kishilik taraqqiyoti va evolutsiyasining barcha bosqichlariga doir axborotlarni o'z ichiga olgan global kompyuter xotirasi vujudga keltiriladi;

iqtisodiy bilimlar va texnologik axborotlarga asoslangan informatsion iqtisodiyot rivojlanadi.

Axborot jamiyati konsepsiyasi fan va amaliyot sohasining e'tiborini qozondi. Shu bilan birga, unga baho berishda ma'lum darajada ehtiyotkorlik talab etiladi. Qator ilmiy maqolalarda axborot jamiyati va axborot texnologiyalarining ahamiyatini haddan tashqari oshirib ko'rsatish (absolyutlashtirish) kuzatiladi.

Ilmiy futurologiya bo'lajak ijtimoiy taraqqiyotning konsepsiyalari haqidagi ma'lumotlarni olishni nazarda tutadi. Ular jumlasiga: postindustrial jamiyat; posttotalitar jamiyat; aralash jamiyat konsepsiyalarini kiritish mumkin.

Jumladan, «aralash jamiyat» – bu har xil ijtimoiy kuchlar va ularning tuzilmalari o'rtasidagi aloqalarning xususiyati jihatidan prinsipial farq qiladigan yangi ijtimoiy tuzum shaklidir. Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda kapitalizmdan ham, «sotsializm»dan ham tubdan farq qiladigan yangi ijtimoiy tuzumlar vujudga keladi. Bu ijtimoiy taraqqiyotning yangi, zamonaviy shaklidir. Ta'bir joiz bo'lsa, bu «postkapitalistik» yoki «postsotsialistik» jamiyatdir.

Aralash jamiyatning negizida avvalambor har xil xo'jalik yuritish shakllari – iqtisodiyotning xususiy, jamoaviy va davlat tarmoqlarining rivojlanishi, raqobatlashishi, o'zaro aloqa qilishi va uzviy bog'lanishi yotadi. Ijtimoiy sohada ijtimoiy-sinfy tabaqalanish sekina asta zaiflashib boradi, ijtimoiy-professional tipga o'rin bo'shatadi va h.k.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tipi mulkchilik shakllari, boyliklarning taqsimlanishi va ijtimoiy tuzilma bilan belgilanadi. Metodologik nuqtai nazardan axborot jamiyatini barpo etish konsepsiyasi futurologik konsepsiyalar bilan aniq muvofiqlashtirilishi lozim. Bu uning ijtimoiy-iqtisodiy tabiatini tushunishga yordam beradi. Bunday muvofiqlashtirish mavjud emas, bu esa mazkur konsepsiyaning pozitsiyasini beixtiyor zaiflashtiradi.

§2. Huquq sohasini axborotlashtirish borasidagi davlat siyosatining vazifalari

O'zbekistonda jamiyat hayotining huquq sohasini axborotlashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Davlat nodavlat tuzilmalarning ishtirokida hokimiyat va boshqaruv organlarining faoliyatiga eng yangi axborot texnologiyalari, kompyuter tizimlari va tarmoqlari, avtomatlashtirilgan ish joylari, ekspert va maslahat tizimlarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini izchil amalga oshirmoqda.

Bu sohadagi davlat siyosatining yakuniy maqsadi O'zbekistonda huquqiy axborotlarning umummilliy avtomatlashtirilgan tizimini tashkil etishdan iborat. U butun O'zbekiston hududini, barcha viloyatlarni qamrab olishi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, huquqni muhofaza qilish organlari hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada yuqori darajaga ko'tarishi lozim. Hisob-kitoblarga qaraganda, yuridik faoliyatning ayrim sohaslarida axborotlashtirish yuristlar mehnatining unumdorligini 3-4 baravar ko'paytirish imkonini beradi.

Davlatning axborotlashtirish sohasidagi siyosatini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi organlar, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va viloyatlarning ijro etuvchi hokimiyat organlarini o'z ichiga oluvchi organlar tizimi tomonidan ta'minlanadi. Mazkur faoliyatda markazdagi va joylardagi deyarli barcha davlat organlari ishtirok etayotir.

Huquq sohasini axborotlashtirishning normativ negizini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmonlari tashkil etadi. O'zbekistonni huquqiy axborotlashtirish konsepsiyasida axborotlashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab qo'yilgan. Bular:

- huquq ijodkorligini axborotlashtirish;
- huquqni qo'llash faoliyatini axborotlashtirish;
- huquqni muhofaza qilish faoliyatini axborotlashtirish;
- huquqiy ta'lim va tarbiya berish sohasini axborotlashtirish;
- axborotlashtirish jarayonlarini huquqiy ta'minlash.

Ammo bu konsepsiya mazkur sohani normativ-huquqiy tartibga solishdagi barcha muammolarni hal qilmadi. Unda tashkiliy-huquqiy masalalarga minimal o'rin berilgan edi. Bu kamchilik huquqiy axborotlashtirish sohasidagi dasturlarning amalga oshirilishi natijasida bartaraf etildi. Bunda:

O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati organlari;
O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari;
O'zbekiston Respublikasi viloyatlarining davlat hokimiyati organlarini huquqiy axborotlashtirish dasturlarini ishlab chiqish nazarda tutiidi.

O'zbekistonning huquq sohasini axborotlashtirish siyosatining aniq metodologik asoslarini yaratish fan va amaliyotning muhim vazifasidir. Bunda butun Huquqiy axborotlar umummilliy tizimining o'zagini tashkil qiluvchi global avtomatlashtirilgan tizimlarni barpo etish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Huquqiy axborotlarning avtomatlashtirilgan tizimlari ijtimoiy-texnik tizimlar turkumiga mansubdir. Ularda ijtimoiy va texnik o'lchovlar sintez qilinadi. Texnik tizimlar ko'lamining oshirilishi inson omili ro'ining kuchayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, tizimlarning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Axborotlashtirish faqat yuridik texnologiyalarning samaradorligi, huquq ijodkorligi va huquqni amalga oshirish sohasiga emas, balki huquqiy munosabatlarning mohiyatiga ham ta'sir qiladi. Elektron bitim, elektron nashr, elektron birja, elektron savdo, elektron moliyaviy hisob-kitoblar tizimi, elektron arxiv va boshqa shunga o'xshash tushunchalarning roli tobora ortib bormoqda.

«Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonunda elektron raqamli imzoni amalga joriy etish nazarda tutilgan. Avtomatlashtirilgan, axborot va telekommunikatsiya tizimlari yordamida ishlab chiqiladigan, uzatiladigan va saqlanadigan hujjatning yuridik kuchi ma'lum sharoitlarda yuridik kuchga ega bo'lgan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonuniga binoan bitimlar tuzishda boshqa vositalar bilan bir qatorda qonunda belgilangan hollarda va tartibda elektron raqamli imzodan ham foydalanilishi mumkin.

Elektron raqamli imzo maxsus dasturiy-axborot kompleksi yordamida hujjatning ma'lumotlari va rekvizitlarining originalligini hamda uning muayyan shaxs tomonidan imzolanganligini ishonchli tasdiqlaydi.

Mavjud huquqiy axborotlashtirish konsepsiyasi bilan bir qatorda, O'zbekistonning huquq tizimini axborotlashtirishning ko'p jihatli

konsepsiyasi ham ishlab chiqilishi lozim. Unda fuqarolarga normativ huquqiy hujjatlar haqida axborot berishning barcha vositalari va amalda mavjud usullari hisobga olinishi zarur. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlar haqidagi axborotlarni erkin olish huquqi:

qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlarni ochiq matbuotda belgilangan tartibda e'lon qilish yo'li bilan;

normativ huquqiy axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tarqatishga ixtisoslashgan tashkilot va xizmatlar orqali;

fuqarolarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga bevosita daxldor idoraviy normativ hujjatlarni chiqaruvchi davlat organlaridan axborot olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekistonning huquq sohasini axborotlashtirishning ko'p jihatli konsepsiyasi (kompyuterlashtirishdan tashqari) quyidagi omillarni hisobga oladi:

ommaviy axborot vositalarining faoliyati;

kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash vazifalari, ta'lim va huquqiy informatika asoslarini o'qitish masalalari;

huquqiy axborotlarning rasmiy manbalarining samaradorligini oshirish;

davlat va xususiy tashkilotlarning huquqiy axborotlar sohasidagi faoliyatida muvozanatga erishish;

maslahat va ekspert tizimlarini tashkil etish;


sun'iy intellekt va intellektual texnologiyalar g'oyalariidan axborotlashtirishning asosiy yo'nalishi sifatida foydalanish;

axborotlashtirish maqsadlari uchun zamonaviy matematik usullar va vositalardan foydalanish.

Bunday konsepsiyani huquqiy informatikaning ilmiy va amaliy masalalarini hal qilishda faol ishtirok etayotgan yuridik va texnik fanlar vakillarining ancha yirik jamoasi ishlab chiqishi mumkin.

Ko'p jihatli konsepsiyaning mazmuni 6-rasmda ifoda etilgan.

Ko'p jihatli konsepsiya ommaviy axborot vositalarining faoliyatini ham qamrab olishi lozim. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari uch asosiy vazifani bajarmoqda: jamiyatni axborot bilan ta'minlamoqda, ma'lum ijtimoiy qarashlarni ifoda etmoqda, ma'fkuraviy ta'sir ko'rsatmoqda.



7 - rasm. Huquq tizimini axborotlashtirishning ko'p jihatli konsepsiyasi

Gazeta, jurnal, kino, televideniye, radio singari axborot manbalari juda katta taraqqiyotga erishganligi hozirgi zamon jamiyatidagi turmushning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur vositalar jahon axborot-kommunikatsiya tarmoqlariga birlashtirilgan bo'lib, butun dunyodagi juda ko'p odamlarning psixologiyasiga favqulodda kuchli ta'sir ko'rsatayotir.

So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborotlar sohasidagi faoliyati yanada kengaydi. Davlat va huquq masalari ularda muntazam yoritila boshlandi. Yangi qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlar haqida ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlanmoqda. Ularning tematik rang-barangligi ham ortdi. Ularda O'zbekiston huquqining barcha tarmoqlari qamrab olingan. Xullas, ommaviy axborot vositalari huquqiy madaniyatni tarqatishning qudratli manbaidir.

Yuridik muassasalar, ularning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslar tahriرياتlar va axborot agentliklarining so'rovlariga binoan,

shuningdek matbuot konferensiyalari o'tkazish, ma'lumotlar va statistik materiallarni yuborish yo'li bilan hamda boshqa shakllarda ommaviy axborot vositalariga o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumotlar taqdim etadilar.

Huquqiy axborotlarni olish tartibi ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasiga muvofiq, fuqarolarning shaxsiy hayotiga tegishli ma'lumotlardan foydalanilishi mumkin emas. Yuridik muassasalar ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy turmush faktlari va hodisalarini yoritish ishida faol ishtirok etadilar.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: so'nggi yillarda qonunchilikning rivojlanishi ommaviy axborot vositalarining huquq sohasidagi faoliyatining normativ negizini yaratib berdi. Shu bilan birga, mazkur qonun hujjatlari mukammal emas, ular tartibga keltirilishi va qat'iy tizimga solinishi lozim.

Ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborotlar sohasidagi funksiyalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Axborot funksiyasi: jamiyatning turli ijtimoiy tabaqalari va ijtimoiy guruhlariga axborot berish; yangi qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlarning tayyorlanishi va qabul qilinishi haqida xabarlar berish.

2. Operativ funktsiya: davlatning muhim huquqiy hujjatlariga nisbatan jamiyatning munosabatini aniqlash.

3. Muvofiqlashtirish funktsiyasi: ko'pchilik fuqarolar va ijtimoiy tabaqalarda huquqiy qadriyatlar modellarining birligini o'rnatish.

4. Mafkuraviy funktsiya: har bir fuqaro va butun jamiyatda yuksak darajadagi huquqiy ongni tarbiyalash, qonuniylik va huquq-tartibot g'oyalarini targ'ib qilish; qonun hujjatlari, institutlari va normalarini ilmiy-amaliy talqin qilish amaliyotini tarqatish; huquq ijod qilish, huquqni qo'llash va muhofaza qilish organlarining faoliyatini yoritib borish.

Ko'rib chiqilayotgan sohada hal qilinmagan masalalar juda ham ko'p. Yaqin vaqt ichida quyidagi vazifalarni hal qilish zarur:

ommaviy axborot vositalari faoliyati masalalarini yanada puxta tartibga solish;

ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston huquqi (konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoyat huquqi va boshqalar)ning har xil institut va normalari teng hajmda yoritilishiga erishish;

tahliliy asosni yanada kuchaytirish – ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi davlat va huquq haqida umumiy tasavvur berish, turli ijtimoiy tabaqalarning huquqiy ongini o‘stirishdan iborat ekanligini nazarda tutish;

materiallar taqdim etishning yuksak madaniyatiga erishish; barcha ommaviy axborot vositalarida davlat va huquq haqidagi ma’lumotlarning muntazam va tizimli oqimlarini tashkil etish.

Ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborotlar tarqatish sohasidagi faoliyati rasmiy e’lon qilish bilan to’ldirilishi lozim.

Normativ hujjatlarni rasmiy e’lon qilish – muhim axborot kanallaridan biridir.

§3. O‘zbekiston Respublikasi hamda MDHga a’zo davlatlarning yagona huquqiy-axborot maydonini yaratish

O‘zbekiston Respublikasi va boshqa MDH mamlakatlarining yagona axborot-huquqiy maydonini yaratish O‘zbekistonning huquq sohasini axborotlashtirish borasidagi davlat siyosatining muhim amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yagona huquqiy-axborot maydoni bu davlat hamda axborotlar sohasidagi munosabatlarning boshqa subyektlari tomonidan vujudga keltiriladigan tashkiliy va uslubiy jihatdan o‘zaro bog‘langan axborot resurslari tizimidir. Axborot jamiyatida fuqarolar va huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari o‘zlarini qiziqtirgan har qanday axborotlarni erkin olishlari, saqlashlari, ishlab chiqarishlari, tarqatishlari, almashishlari va foydalanishlari mumkin. Huquqiy axborotlar umummilliy tizimini barpo etish fan va texnikaning oliy yutuqlari, mavjud kommunikatsiya va aloqa vositalarini integratsiya qilish, har xil huquqiy axborotlar tizimlarini jalb etish, shuningdek sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi.

«Axborot maydoni» va «huquqiy-axborot maydoni» tushunchalarining mazmuni «integratsiya», «muvofiqlik», «birlik» va boshqa tushunchalar orqali yaxshiroq ochiladi.

Har xil miqyosdagi axborot markazlari va xizmatlarini integratsiya qilish:

yangi dasturiy-apparat vositalari va telekommunikatsiya tizimlarini;

har xil miqyosdagi axborot-tahlil shoxobchalarini;

axborot ta'minoti va lingvistik ta'minotni birlashtirish va rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Abonentlarning ko'pligi va ular O'zbekistonning turli hududlarida joylashganligini e'tiborga olib, axborotlarni tartibga solish va kodlashning yagona qoidalari, shuningdek axborot tillarini tanlash va ulardan foydalanishga yagona metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur.

O'zbekiston miqyosida yagona huquqiy-axborot maydonini yaratish zarurligi respublika hududida ko'plab axborot markazlari va tarmoqlari faoliyat ko'rsatishi bilan belgilanadi. Avvalambor bu umumiy ahamiyatga molik respublika va hududiy axborot markazlaridir.

Mamlakatda tashkil etiladigan ma'lumotlar bazalarining soni taxminan bir necha o'n mingtaga yetadi. Ular jumlasiga faktografik, dokumentografik, to'liq matnli va boshqa turdagi ma'lumotlar bazalari kiradi. Viloyatlarda ko'p sonli hududiy axborot markazlari va xizmatlari tashkil etiladi. Bu yerda ikki yo'nalishda faoliyat ko'rsatish zarur:

1) idoraviy va milliy miqyosdagi barcha huquqiy axborot markazlari va xizmatlarini integratsiya qilish;

2) mintaqaviy miqyosda tashkil etilgan markaz va xizmatlarni integratsiya qilish, ya'ni bu o'rinda mintaqalararo hamkorlik haqida gap boradi.

MDHga a'zo davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning kengayishi va chuqurlashishiga har bir mamlakatning huquqiy hujjatlari haqidagi tezkor, to'liq va to'g'ri ma'lumotlarning mavjud emasligi to'sqinlik qilib turibdi. Milliy qonunchiliklarning jadal o'sishi, ular o'rtasida tuzilgan ko'p tomonlama va ikki tomonlama bitimlar sonining ko'payib borayotgani, shuningdek milliy qonunchiliklarning rivojlanishi bilan bog'liq obyektiv qiyinchiliklar bu muammoni yanada murakkablashtirmoqda.

MDHga a'zo davlatlarning qonunchiliklarini yaqinlashtirish, hamkorlikning huquqiy negizini takomillashtirish uchun o'zaro axborot almashish dasturida Hamdo'stlik mamlakatlarida qabul qilingan davlat siyosatining iqtisodiy, moliyaviy va boshqa sohalariga taal-

luqli normativ hujjatlar haqidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida olib turish imkoniyati nazarda tutilgan. Bu maqsadda davlatlararo huquqiy axborot tizimi tashkil etilishi lozim.

1994-yil 21-oktabrda qabul qilingan huquqiy axborotlar almashish to'g'risidagi bitim MDHga a'zo davlatlar o'rtasida maxsus ishlab chiqilgan tematik ro'yxat doirasida axborot almashish tartibini belgilaydi. Ko'p tomonlama bitimlarning integratsiyalashtirilgan ma'lumotlar bazasi tashkil etiladi. Har bir tomon axborotlarning to'liqligi, aniqligi, to'g'riligi va o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgar bo'ladi.

Yagona huquqiy-axborot maydonini yaratish huquqiy-axborot resurslarida «tartib o'rnatish»ni talab qiladi. Buning uchun ularni muntazam ravishda, qat'iy tartibga solib borish, saqlash, to'ldirish va foydalanishga yaroqli holatda bo'lishini ta'minlash zarur. Man-tiqiy-semantik vositalar ham barcha tashkil etiladigan tizimlar uchun yagona bo'lishi lozim.

Strategik vazifa – MDH yagona huquqiy-axborot maydonini yaratishdan iborat. Yagona axborot maydoni har bir davlat o'z manfaatlarida, shuningdek ikki tomonlama va ko'p tomonlama axborot almashish, shu jumladan ulardan birga foydalanish shart-larida axborot almashish manfaatlarida vujudga keltiradigan, tashkiliy va uslubiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan tizimdan iborat bo'ladi.

1994-yil 18-martda Hamdo'stlikka a'zo davlatlarning Parlament-lararo Assambleyasi «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida davlatlararo huquqiy axborotlar tizimini tashkil etish to'g'risida» qaror qabul qildi.

1994-yil 28-oktabrda Parlamentlararo Assambleya Kengashi-ning qarori (№ 54) bilan Davlatlararo huquqiy axborot almashish tizimi konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya Tizimning vazifalari va tuzilmasini huquqiy rasmiylashtiradi, uni tashkil etishning asosiy prinsiplarini ifoda etadi.

Tizim – MDH avtomatlashtirilgan axborot almashish tizimi (MDH AAAT)ning bir qismidir.

MDH AAAT umumiy tizim bo'lib, barcha turdagi axborotlarni qamrab oladi. AAATning axborot negizini ma'muriy-boshqaruv axborotlari, huquqiy, iqtisodiy-statistik, iqtisodiy-jug'rofiy, ilmiy-texnik axborotlar va ommaviy axborot vositalarining xabarlarini tashkil etadi.

Tizim MDHga a'zo daviatlarning milliy huquqiy axborot tizimlarini tashkil etish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Ularning vazifalari jumlasiga normativ huquqiy hujjatlarning etalon banklarini tashkil etish va yuritish kiradi.

MDHga a'zo daviatlarning yagona huquqiy axborot maydonini vujudga keltirish jarayoni tugallangani yo'q. Huquqiy axborotlar milliy tizimlarini yaratish jarayoni ham davom etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari ana shu masalaga bag'ishlangan. Huquqiy axborotlar sohasidagi hamkorlik to'g'risida ikki tomonlama bitimlar tuzish amaliyoti rivojlanib bormoqda. Yagona huquqiy-axborot maydonini yaratish strategiyasining vazifalari doirasida tavsiya xususiyatiga ega bo'lgan bir nechta qonun hujjatlarini, shu jumladan «MDHga a'zo davlatlarning ommaviy axborotlar sohasidagi hamkorligi to'g'risida»gi normativ hujjatni qabul qilish zarur. Bunday hujjatni qabul qilish bir MDH davlatining davriy matbuot nashrlari, televizion va radio dasturlari boshqa davlatlarning hududida o'zaro asosda, hech qanday kamsitish va noqonuniy cheklashlarsiz keng tarqatilishiga, ommaviy axborot vositalari tahririyatlari va muxbirlari butun Hamdo'stlik hududida ishlashlari uchun xavfsiz va qulay shart-sharoitlar yaratishga yordam berishi lozim.

§4. O'zbekistonning jahon axborot maydoniga kirishi muammosi

Jahon axborot maydonini yaratish kishilik taraqqiyotining hozirgi bosqichida insoniyat oldida turgan ulkan vazifalardan biridir. Xalqaro huquqiy axborotlar maydoni ana shu jahon axborot maydonining bir qismi bo'lishi lozim. Xalqaro kompyuter tarmoqlari jahonning deyarli barcha mamlakatlarini qamrab olishi zarur. Bu jahon iqtisodiyoti, siyosati, biznesi, ijtimoiy munosabatlar, shartnomalar tuzish, to'lovlarni amalga oshirish va boshqa sohalarda yangi imkoniyatlar ochadi.

Xalqaro kompyuter tarmoqlarining tashkil etilishi milliy tizimlarni takomillashtirish zarurati bilan bog'liq. Ko'pgina rivojlangan mam-

laktalarda axborot texnologiyalari sohasida ortda qolish qaytmas jarayonga aylanishi mumkinligiga ishonch kuchayib borayotir.

O'zbekistonda axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi umumiy inqiroz va axborot inqirozi sharoitlarida kechmoqda. O'zbekistonda axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi:

axborot texnologiyalari, aloqa va telekommunikatsiya vositalari taraqqiyotidan ortda qolganligi;

mamlakatda telefonlashtirish yetarli darajada zich emasligi;

milliy axborot qonun hujjatlari taraqqiyotdan ortda qolganligi, bir qator muhim qonunlar hanuz qabul qilinmaganligi, amalga joriy etilgan qonunlar esa ko'pincha bajarilmasligi;

jamiyat a'zolari huquqiy-axborot madaniyatining pastligi;

O'zbekistonning jahon axborot hamjamiyatiga qo'shilishi masalalariga davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va omamaviy axborot vositalari tomonidan yetarli darajada e'tibor berilmasligi bilan farq qiladi.

O'zbekiston eng yangi axborot texnologiyalari sohasida rivojlangan g'arb mamlakatlaridan hatto optimistik baholashlar bo'yicha ham 25-30 yilga ortda qolgan. Jumladan, informatika vositalarini ishlab chiqarish hajmlari, EHM texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va axborot uzatish tizimlari bo'yicha O'zbekiston AQShdan 4-5 baravar ortdadir.

O'zbekistonning jahon axborot maydoniga kirishi konsepsiyasini shakllantirish negizida xalqaro tarmoq tushunchasi yotadi.

Xalqaro tarmoq - bu komponentlari bir nechta mamlakatda joylashgan kompyuter tarmog'idir. Bunday tarmoqlar ilmiy tadqiqotlarni axborotlar bilan ta'minlash, iqtisodiy va texnologik vazifalarni hal qilish uchun tashkil etiladi.

Jahondagi ilg'or mamlakatlarning axborot yig'ish, qayta ishlash va uzatish yagona jahon uyali axborot tarmog'ining zamonaviy telekommunikatsion aloqa vositalari kommutatsiya kanallariga ega davlat aloqasi, yo'ldoshli aloqa tizimlari, yer osti aloqa tizimlari, ko'chma va statsionar obyektlarga ega radioaloqa hamda hujjatlar almashish tizimlaridan foydalanadi. Bugungi kunda barpo etilayotgan va muvaffaqiyatli ish olib borayotgan jahon tijorat va bank tarmoqlarida global yo'ldoshli tizimlar, EHM tarmoqlari, xalqaro

aloqa tizimlari va teleradioaloqa tarmoqlaridan keng foydalanilmoqda.

Internet muhim xalqaro kompyuter tarmog'i hisoblanadi. Internet jahon kompyuter tarmog'i davrimizning buyuk yutuqlaridan biridir. Bugungi kunda Internet, uning ilovalari va texnologiyalari ko'pgina mamlakatlarning iqtisodiyoti mudofaa qobiliyatiga ta'sir ko'rsatmoqda, ularning rivojlanishining muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda, tijorat va savdo-sotiqning o'sishiga yordam bermoqda.

Internet global tarmog'i jahonning 200 dan ortiq mamlakatini birlashtirgan. Mazkur tarmoq faqat milliy miqyosdagi (AQSH va Kanada) infratuzilmalar bilan emas, Yevropaning shunday kontinental infratuzilmalari bilan ham ta'minlanadi.

Internet bir necha pog'onada faoliyat ko'rsatadi. Quyi pog'ona alohida tarmoq xizmatlari ko'rsatuvchilar bilan bog'liq va:

transport muhitini;

dasturiy-apparat vositalarini;


tarmoqning samarali ishlashini ta'minlaydigan personalni;

tarmoqni o'z navbatida Internetning qolgan tarmoqlari bilan bog'laydigan boshqa (milliy yoki transmilliy) tarmoqlar bilan bog'lovchi kanal sig'implarini o'z ichiga oladi.

Internetning tarixi 10 yil muqaddam boshlangan, O'zbekiston segmenti bugungi kunda jadal rivojlanish bosqichini boshdan kechimoqda.

Internet tarmog'iga o'z axborotlarini AQSHning quyidagi ilmiy tashkilotlari taqdim etgan: Korneliyadagi AQSH yuridik axborotlar instituti; Indiana shtati universitetining huquq maktabi, Kolumbiya universitetining yuridik resurslari, Sidney universiteti huquq maktabining arxivi. Internetdan informatsion rivojlangan mamlakatlarning qonun hujjatlari ham o'rin olgan.

G'arbiy Yevropaning barcha parlamentlari Internetga ulangan. Bugungi kunda O'zbekistonning ayrim yuridik organlari va muassasalari (Oliy Majlis, Adliya vazirligi va boshqalar) ham Internetga ulanmoqdalar. Bunday hollarda foydalanilishi mumkin bo'lgan axborotlar jumlasiga AQSH Kongressining kutubxonasida, boshqa mamlakatlar parlamentlarining kutubxonalarida saqlanayotgan yuridik hujjatlar kiradi.



8-rasm. Internet xalqaro tarmog'ining blok-sxemasi
MHT – mahalliy hisoblash tarmog'i

Interpol (xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti)ning kompyuter tarmog'i ham global ahamiyatga molikdir. U 190 ga yaqin mamlakatning politsiya organlari va muassasalarini qamrab olgan bo'lib, maqsadi butun jahon politsiya organlarining tezkor faoliyatini hamda jinoyatlarni ochish va tergov qilish ishlarini axborot bilan ta'minlashdan iborat. Interpolning kompyuter tarmog'i xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashning ancha samarali vositasi hisoblanadi.

Interpolning kartotekasi uch bo'limdan iborat: alohida jinoyatlar haqidagi ma'lumotlar dosyesi; fotosuratlar va o'n barmoqli dakti-lokartalar to'plami; xalqaro xususiyatga ega jinoyatlar ro'yxatga olingan hujjatlar.

Interpolning telekommunikatsiya tarmog'i uch bo'g'inli tuzilishga ega. Birinchi bo'g'in 190 ta Milliy Markaziy Byuro va 14 ta kichik byuroni o'z ichiga olgan. Ikkinchi bo'g'in mintaqaviy stansiyalarni o'z ichiga oladi. Bu stansiyalar o'z mintaqalari uchun ma'lumotlar to'playdi va uzatadi. Uchinchi bo'g'in Lionda joylashgan markaziy stansiyaning o'z ichiga oladi. Bu stansiya turli mintaqalardan keladigan axborotlar oqimini nazorat qiladi va muayyan milliy markaziy byurolarga mintaqaviy stansiyalar orqali axborot uzatib turadi.

AQSH Kongressi tomonidan Jahon huquqiy axborotlar kompyuter tarmog'i (JLIN) loyihasi ishlab chiqildi. Uning vazifasi bar-

cha daviatlarning normativ hujjatlari massivlarini birlashtirish va ulardan foydalanish imkoniyatini yaratishdan iborat. Huquqiy axborotlar milliy fondi tushunchasi shakllanmoqda. O'zbekistonning huquqiy axborotlar milliy fondi vazifasini Adliya vazirligining Huquqiy axborotlar ilmiy markazi bajaradi.

Jahon va xalqaro kompyuter tarmoqlarining tashkil etilishi mu-rakkab huquqiy masalalarni hal qilish zarurati bilan bog'liq. «Xalqaro axborot almashishda ishtirok etish to'g'risida»gi Qonun ana shu muammoga bag'ishlangan. U xalqaro axborot almashish – O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi orqali axborot mah-sullarini uzatish va olish, shuningdek axborot xizmatlari ko'rsatishni tartibga soladi. Mazkur qonun shuningdek O'zbekiston Respubli-kasining davlat axborot resurslarini to'ldirish uchun respublika hududiga olib kiriladigan hujjatlashtirilgan axborotlarning (shu jum-ladan sotib olinadigan hujjatlashtirilgan axborotlarning) tarkibini aniqlash tartibini hamda ularni sotib olish tartibini ham belgilaydi.

Xalqaro axborot almashish sohasida monopolistik faoliyat va g'irrom raqobatga yo'l qo'ymaslik va buning oldini olish respublika monopoliyaga qarshi organi tomonidan O'zbekiston Respublikas-ining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Xalqaro axborot almashish natijasida olingan noto'g'ri (yolg'on) xorijiy hujjatlash-tirilgan axborotlarni O'zbekiston Respublikasi hududida tarqatilish-iga yo'l qo'yilmaydi.

Axborot tizimlarini xalqaro axborot almashish vositalari tarkibiga kiritish mazkur axborot tizimlari xalqaro kodga ega bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Xalqaro axborot almashish vositalari tarkibiga davlat axborot tizimlarini kiritish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat texnik komissiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hukumat aloqasi xizmatining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

§5. Davlatning axborotlar sohasidagi siyosati

«Axborotlashtirish» tushunchasidan boshqa yaqin tushuncha - «davlatning axborotlar sohasidagi siyosati» tushunchasini farqlay bilish zarur. Garchi ular o'zaro yaqin bo'lsa-da, bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Davlatning axborotlar sohasidagi siyosati davlat ichki va tashqi siyosatining bir qismidir. Mazkur siyosat axborot oqimlarini hamda axborotlar sohasidagi har xil davlat, jamoat, xususiy tuzilma va tashkilotlarning faoliyatini tartibga solishni nazarda tutadi. Biroq axborotlar sohasidagi siyosatning katta konstruktiv potentsiali hali o'zining munosib bahosini olgani va zarur darajada amalga tatbiq etilgani yo'q. Davlatning axborotlar sohasidagi konsepsiyasini va uni faollashtirish chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish bu sohada-gi asosiy muammo hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston davlatning axborotlar sohasidagi rasman belgilangan siyosatiga ega emas.

Davlatning axborotlar sohasidagi siyosatining asosiy yo'nalishlari va usullari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning axborot olishlarini ta'minlash;
- axborotlar sohasidagi faoliyatning moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy, huquqiy va ilmiy asoslarini mustahkamlash;
- axborotlardan samarali foydalanilishini ta'minlash;
- axborot xavfsizligini ta'minlash;
- milliy axborot resurslarining muntazam yangilanib va boyitilib borishi hamda saqlanishiga yordam berish;
- axborotlarni himoya qilishning umumiy tizimini tashkil etish;
- axborotlar sohasida xalqaro hamkorlikka yo'l ochish.

Davlatning axborotlar sohasidagi siyosati umumiy, shuningdek maxsus vakolatli davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Davlatning axborotlar sohasidagi siyosati, ko'rsatib o'tilgan maqsadlardan tashqari, quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam berishi lozim:

ijtimoiy munosabatlar tizimini isloh qilish vazifalarini hal qilish, O'zbekiston jamiyatining integratsiyalashish darajasini kuchaytirishda jamiyat va davlatning axborotlar sohasidagi muassasa va organlari faoliyatining o'rni va ahamiyatini oshirish;

davlat, jamoat va xususiy axborot tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularning o'zaro hamkorligini ta'minlashning maqbul shakllarini rivojlantirish, davlatning axborotlar sohasidagi va axborotlashtirish sohasidagi siyosatlarining o'zaro aloqasi va ta'sirini o'rnatish, davlatning ko'rsatib o'tilgan sohalardagi siyosatlarini qat'iy chegaralab qo'yish;

ijtimoiy ahamiyatga molik sohalarda axborotlarning yaratilishi

va tarqatilishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, axborotlashtirish ta'sirida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni prognostik baholashni tashkil etish;

ta'lim sohasidagi yangi texnologiyalarni rag'batlantirish;

axborot jamiyatini yaratish jarayonida tug'iladigan yetuk muam-molarning muhokama qilinishi va hal etilishiga yordam berish.

Ommaviy axborot vositalari va siyosiy axborotlarning boshqa manbalari jamiyatga mamlakat va jahonda sodir bo'layotgan vo-qea-hodisalar haqida o'z vaqtida va to'g'ri axborot berib borilishi-ni ta'minlashlari zarur. Bunda yolg'on siyosiy axborotlarning ber-ilishi, ommaviy axborot vositalaridan bir tomonlama partiyaviy manfaatlarda foydalanilishi qat'iy istisno etilishi lozim. Axborotlar sohasidagi siyosatning muhim maqsadlaridan biri ommaviy axborot vositalarining monopoliyalashtirilishi tendensiyalarini yengishdan iborat bo'lishi kerak. Davlatning islohotchilik siyosatiga qarshi bo'lgan siyosiy guruhlar, partiyalar va harakatlarning mafkuraviy faoliyatiga o'z vaqtida javob qaytarish zarur.

Ma'naviy-huquqiy sohada bu siyosat qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, jamiyatning huquqiy hayotidagi bar-cha e'tiborga molik hodisalar haqida fuqarolarga to'liq axborot berib borilishini ta'minlashi lozim. Ommaviy axborot vositalarida bolalik va o'smirlilikning ma'naviy manfaatlarining himoya qilinishi ta'minlanishi zarur.

O'zbekiston jamiyati turmushining ma'naviy va huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida jinoyatchilikni dastlabki bos-qichida ogohlantirish tizimni zudlik bilan tiklash, uning samarador-ligini oshirish uchun huquqiy axborotlarni tartibga solishga ki-rishish talab etiladi. Axloqiy mavzulardagi ko'rsatuv va eshittirish-lar sonini oshirish hamda ularning sifatini yaxshilash lozim. Diniy mavzudagi ko'rsatuv va eshittirishlarning ma'naviy potensialidan foydalanish zarur.

Normativ-huquqiy sohada: jahon andozalariga mos keladigan axborotlar va axborotlashtirish to'g'risidagi izchil demokratik qonun hujjatlarini ishlab chiqish, «Huquqiy axborotlar to'g'risida»gi Qonunni tayyorlash va qabul qilish; ko'rib chiqilayotgan sohada huquqni qo'llash amaliyotini mustahkamlash; tarqatilayotgan huquqiy axborot-larning soni va sifatini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu ayniqsa xususiy kompyuter firmalari tomonidan tarqatiladigan qonun huj-jatlari va boshqa normativ hujjatlarning matnlariga tegishli.

VI BOB. AXBOROT XAVFSIZLIGI SOHASIDAGI MUNOSABATLARNING HUQUQIY MASALALARI

§1. Axborot xavfsizligi

Jamiyatni ma'lumot va bilimlar bilan ta'minlash borasidagi muhim vazifalarni bajarish bilan birga, axborot unga ma'lum darajada zarar yetkazishi ham mumkin. Bu axborot xavfsizligi muammosini vujudga keltiradi. Mazkur muammoning ikki jihati farq qilinadi: salbiy axborotlarning yo'lini to'sish; axborotlarning o'zini himoya qilish. Informatika va axborot texnologiyalari har bir mamlakatning milliy xavfsizligini ta'minlashning samarali vositalari hisoblanadi.

Axborotlashtirish salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqardi – axborotlardan ruxsatsiz va g'ayriqonuniy foydalanish bilan bog'liq yangi jinoyat turlari (kompyuter jinoyatlari) paydo bo'ldi. Kompyuter viruslari, «mantiqiy bombalar», axborot tarmoqlariga «elektron pul o'g'irligi»ni sodir etish maqsadida kirish imkonini beruvchi dasturlar, pornografiyani tarqatish, «elektron» josuslik shular jumlasidandir.

Sifatli va shubhasiz to'g'ri axborotlarni tanlab olish, ya'ni axborotlar muhitini «ifloslanish»dan saqlash muammosi ham mavjud.

Umumiy xavfsizlikning huquqiy masalalari O'zbekiston Respublikasining «Xavfsizlik to'g'risida»gi Qonunida ko'rib chiqilgan¹. Qonunda shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari mustahkamlangan, xavfsizlik tizimi va uning funksiyalari belgilangan, xavfsizlikni ta'minlash organlarini tashkil etish va ularning faoliyatini moddiy ta'minlash, shuningdek bu organlar faoliyatining qonuniyligini nazorat qilish tartibi o'rnatilgan.

Xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holatidir. Xavfsizlikning asosiy obyektlari jumlasiga: shaxs – uning huquq va erkinliklari; jamiyat – uning moddiy va ma'naviy boyliklari; davlat – uning konstitutsiyaviy tuzumi, mustaqilligi va hududiy

¹ Axborot xavfsizligiga tahdid – jamiyatdagi axborot muhitining faoliyati va rivojlanishiga xavf soluvchi omil yoki bunday omillar majmui.

yaxlitligi kiradi. Xavfsizlikni ta'minlashning asosiy subyekti davlat hisoblanadi. U mazkur sohadagi o'z funksiyalarini qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari orqali amalga oshiradi.

Davlat amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida har bir fuqaroning xavfsizligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lgan respublika fuqarolariga davlat himoyasi va homiyligi kafolatlanadi.

Axborot xavfsizligi – bu axborot muhitining himoyalanganlik holati bo'lib, u mazkur muhitni vujudga keltirish, undan foydalanish va uning rivojlanishini ta'minlaydi. Axborot xavfsizligi davlat xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlik, jamoat, mudofaa xavfsizligi, ekologik xavfsizlik va boshqa turdagi xavfsizliklar bilan bir qatorda davlatning hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Axborotlarni saqlash, ularning o'g'irlanishi yoki yo'q qilinishi-ning oldini olishning tashkiliy, huquqiy va texnik choralari axborotlarni himoya qilish vositalari hisoblanadi. Axborotlarni himoya qilishning yuridik va texnik vositalari farq qilinadi.

Axborot xavfsizligi salbiy axborotlardan himoya qilish elementini o'z ichiga oladi. Bu element jamiyatda amal qiladi, zero mamlakatdagi ma'naviy-psixologik muhitda televideniye, radio, matbuot, axborot va reklama agentliklarining ahamiyati tobora ortib borayotgan sharoitlarda jamiyat va alohida ijtimoiy tabaqalar ongiga ommaviy axborot vositalarining ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari ham kengayadi. Har xil salbiy axborotlarning tarqatilishiga qarshi kurash, shu jumladan huquqiy vositalar hamda huquqiy taqiqlar belgilash yo'li bilan ham amalga oshirilishi lozim. Boshqa tomondan, «axborot xavfsizligi» tushunchasi «axborot» tushunchasining o'ziga ham tegishlidir.

Informatsion-psixologik xavfsizlik – bu axborotlar ta'sirida vujudga keladigan xavf-xatarlarning oldini olish yoki ularni qaytarishdir. Yoxud, ta'bir joiz bo'lsa, bu tavakkalchilikning informatsion-psixologik omillarini minimallashtirishdir.

Axborotlarni himoya qilish deganda qonunda obyekt xavfsizligining ma'lum holati yoki darajasiga erishishga qaratilgan har qanday aktiv yoki passiv harakat nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasining qonun chiqarish amaliyotida birinchi marta axborotlarni himoya qilishning shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashni nazarda tutuvchi maqsadlari belgilangan. Bunda

axborotlarni himoya qilish deganda axborotlarning maxfiyligi va sir tutilishini ta'minlashgina emas, balki axborot egasiga zarar yetishining oldini olish uchun zarur choralar ko'rish ham tushuniladi. Nazorat O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

Foydalanish cheklangan axborotlarga ishlov beruvchi tashkilotlar ularning himoyalanihini ta'minlaydigan maxsus xizmatlar tashkil etadilar. Axborot resurslarining egasi yoki u vakolat bergan shaxslar axborotlarni himoya qilish talablarining bajarilishini nazorat qilish, bu talablar buzilgan taqdirda axborotlarga ishlov berilishini taqiqlash yoki to'xtatishga haqlidirlar.

Hujjatlashtirilgan axborotlarning mulkdori yoki egasi axborot tizimlaridagi o'z axborotlarini himoya qilish normalari va talablari to'g'ri bajarilayotganiga baho berishni so'rab davlat hokimiyati organlariga murojaat qilishga haqlidir. Bu organlar axborotlarni va tekshirish natijalarini sir tutish shartlariga rioya qiladilar.

«Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunning 20-moddasida quyidagi qoidalar belgilangan.

1. Axborot resurslari va axborot tizimlari, agar ular bilan g'ayriqonuniy munosabatda bo'lish natijasida axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdorlariga, egalariga yoxud boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslarga zarar yetkazilishi mumkin bo'lsa, muhofaza qilinishi kerak.

2. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini ta'minlashi shart.

3. Axborot resurslari va axborot tizimlari muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi ularning mulkdorlari, egalari tomonidan mustaqil belgilanadi.

4. Davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Axborotlarni himoya qilishning texnik vositalari parollar va kriptografik himoya vositalarini o'z ichiga oladi.

Axborotlarni himoya qilishning texnik vositalari odatda ma'muriy chora-tadbirlar bilan birga qo'llanadi. Ular jumlasiga tegishli max-

fiylik rejimi, o'tkazish rejimi va ichki rejimni o'rnatish, xavfsizlik xizmatini tashkil etish, xodimlarni o'qitib-o'rgatish va ularga yo'l-yo'riqlar ko'rsatish kiradi.

Axborotlarni qo'riqlashning texnik vositalari elektromexanik, akustik sig'imli, radiotexnik va magnitometrik vositalarni o'z ichiga oladi.

Kriptografik himoya choralari axborotlarni shunday shifrlash imkonini beradiki, ularning mazmuni bilan faqat maxsus axborot (kalit) yordamida tanishish mumkin bo'ladi. Mutaxassislarning fikricha, axborotlarni kriptografik shifrlash ularni himoya qilishning eng samarali va ishonchli vositasidir.

Tabiiy ofatlar, noqulay tashqi muhit, halokatlar, siyosiy beqarorlik, dasturdagi xatolar va nosozliklar, kompyuter jinoyatchiligi axborot xavfsizligiga potensial xavf solishi mumkin. Xavf-xatarning xususiyatlaridan kelib chiqib, unga qarshilik ko'rsatishning har xil choralari tanlanadi.

Hozirgi zamon sharoitlarida xalqaro munosabatlarda axborot urushi tushunchasi vujudga kelgan. Axborot urushi deganda axborotdan qurol sifatida faol foydalanuvchi ikki yoki undan ortiq davlatlarning bir-biriga dushmanona qarshi turishi tushuniladi.

§2. Axborotga doir huquqiy munosabatlar obyektlarini axborot sohasidagi tahdidlardan himoya qilishning huquqiy asosi

O'zbekiston Respublikasining «Xavfsizlik to'g'risida»gi Qonuni-da xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining himoyalanganlik holati sifatida belgilangan. Hayotiy muhim manfaatlar qonun chiqaruvchi tomonidan qondirilishi shaxs, jamiyat va davlatning mavjudligi hamda progressiv rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydigan ehtiyojlarning yig'indisi sifatida, xavfsizlikka tahdid esa – shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf soladigan shart-sharoitlar va omillarning yig'indisi sifatida belgilangan. Va nihoyat, xavfsizlikni ta'minlash – bu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirish hamda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga qilinayotgan tahdidlarga mos ravishda, tahdidlarni aniqlash va oldini olishga

qaratilgan iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa turdagi chora-tadbirlar tizimidir.

Oldin tilga olib o'tilganidek, «Xalqaro axborot almashishda ishtirok etish to'g'risida»gi Qonunda axborot xavfsizligi tushunchasiga jamiyat axborot muhitining fuqarolar, tashkilotlar va davlat manfaatlarida shakllantirilishi, qo'llanilishi va rivojlantirilishini ta'minlaydigan uning himoyalanganlik holati deb ta'rif beriladi.

«Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, axborot sohasini himoya qilishning maqsadlari quyidagilardan iborat :

axborotning chiqib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, buzilishi va qal-bakilashtirilishining oldini olish;

shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish;

axborotni ruxsatsiz yo'q qilish, modifikatsiyalash (qayta ishlash), buzish, undan nusxa olish, uni blokirovka qilishga qaratilgan xatti-harakatlarning oldini olish; axborot resurslari va axborot tizimlariga noqonuniy aralashishning boshqa xil shakllarining oldini olish, hujjatlashtirilgan axborotlarning mulkchilik obyekti sifatidagi huquqiy rejimini ta'minlash;

fuqarolarning axborot tizimlaridagi shaxsiy sirlarini saqlash va shaxsiy ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish;

davlat sirini hamda hujjatlashtirilgan axborotlarning maxfiyligini qonun hujjatlariga muvofiq saqlash;

axborot jarayonlarida hamda axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va qo'llashda subyektlarning huquqlarini ta'minlash.

Axborotlar sohasidagi axborot xavfsizligini axborot xavfsizligi Doktrinasi hamda bu sohadagi qonun hujjatlari normalarini hisobga olgan holda qiyosiy tahlil qilish natijasida axborot sohasidagi obyektlarni huquqiy himoya qilish (axborot sohasini huquqiy ta'minlash)ning uch asosiy yo'nalishini ajratish mumkin.

1. Birinchi yo'nalish. Fuqarolar va tashkilotlarning sha'ni, qadr-qimmati va ishbilarmonlik obro'yini; shaxsning ma'naviyati va intellektual rivojlanish darajasini; axloqiy va estetik ideallarini; jamiyatning barqarorligi va barqaror rivojlanishini; davlatning axborot erkinligi va yaxlitligini zararli, xavfli va sifatsiz axborotlar, shubhasiz yolg'on axborotlar va dezinformatsiyalarning xavfidan,

shaxsning hayoti, jamiyat va davlatning rivojlanishi uchun xavf-xatarlar to'g'risidagi axborotlarning yashirilishidan, axborotni tarqatish tartibining buzilishidan himoya qilish.

2. Ikkinchi yo'nalish. Eng avvalo, foydalanish cheklangan axborotlar va axborot resurslarini (barcha turdagi sirlar, shu jumladan shaxsiy sirlarni), shuningdek axborot tizimlari, axborot texnologiyalari, aloqa va teiekommunikatsiya vositalarini begona shaxslarning ruxsatsiz va qonunga zid tahdidlaridan himoya qilish.

3. Uchinchi yo'nalish. Shaxsning axborotlar sohasidagi huquq va erkinliklarini (axborot ishlab chiqarish, tarqatish, qidirish, olish, berish va undan foydalanish huquqi; intellektual mulkka ega bo'iish huquqi; axborot resurslari va hujjatlashtirilgan axborotlarga, axborot tizimlari va texnologiyalariga egalik qilish huquqlari) axborotlashtirish sharoitlarida himoya qilish. Bularni quyida batafsil ko'rib chiqamiz.

§3. Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini sifatsiz axborotlarning ta'siridan, axborot tarqatish tartibining buzilishidan himoya qilish

Axborot xavfsizligini huquqiy ta'minlashning birinchi yo'nalishining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi huquqiy normalari tashkil etadi.

«67-modda.Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibla javobgardirlar.

Senzuraga yo'l qo'yilmaydi».

Qonun chiqaruvchi shuni nazarda tutadiki, ommaviy axborotning erkinligi va senzuraning man etilishi shubhasiz to'g'ri, hozirjavob, obyektiv, ya'ni sifatli axborotlarni yaratish va tarqatish imkoniyatini beradi, bu zararli va xavfli axborotlarning tarqatilishini istisno etishi lozim (birinchi yo'nalishning mazmuniga qarang). Axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan, ommaviy axborot institutini shakllantirishda aynan shunday talablar qo'llanishi, ushbu institut doirasida normativ huquqiy hujjatlarni tayyorlashda ham bu talablar hisobga olinishi lozim.

«Insonlarning hayoti va sog'lig'iga xavf soladigan holatlar va shart-sharoitlarni yashirgan mansabdor shaxslar qonunga muvofiq

javobgarlikka tortiladi». Bu norma shaxs va jamiyatni xavfli axborotlarning yashirilishidan himoya qiladi.

«Ijtimoiy, irqiy, milliy yoki diniy adovat qo'zg'atadigan tashviqot yoki targ'ibotlarga yo'l qo'yilmaydi. Ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy ustunlik yoki til ustunligini tashviqot qilish man etiladi».

Bu ham to'g'ridan-to'g'ri harakat normasi bo'lib, u shaxs va jamiyatni aniq, ko'rsatilgan turdagi zararli va xavfli axborotlardan himoya qiladi.

Sifatsiz axborotlarni tarqatganlik, axborot tarqatish tartibini buzganlik uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalarida nazarda tutilgan. Bular: tuhmat (139-modda), haqorat qilish (140-modda), urushni targ'ib qilish (150-modda), milliy, irqiy yoki diniy adovat qo'zg'atish (156-modda), O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilishga da'vat etish (159-modda), axborotlashtirish qoidalarini buzish (174-modda), qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish (191-modda), pornografik narsalarni tayyorlash yoki tarqatish (130-modda), raqobatchini obro'sizlantirish (192-modda), atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish (194-modda).

Ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik normalari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilanmagan. Bu, masalan,

— saylov va referendumlarni tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarni e'lon qilishning belgilangan tartibini buzish;

— referendumlarni o'tkazish paytida telenamoyish va (yoki) radioeshit-tirishlarni o'tkazuvchi tashkilotlarning kanallarida va davriy bosma nashrlari-da saylovoldi targ'iboti va targ'ibot o'tkazish qoidalarini buzish;

— imzosiz targ'ibot materiallarini tayyorlash yoki tarqatish;

— saylov va referendumlarni tayyorlash va o'tkazish uchun mablag'iarning tushishi va sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlar va hisobotlarni taqdim etmaslik yoki e'lon qilmaslik;

— ovoz berish natijalari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etmaslik. Axborotdan foydalanish qoidalarini buzish(155-modda).

«Axborot tizimidan foydalanish maqsadida unga ruxsatsiz kirib olishda ifodalangan axborot va axborot tizimlaridan foydalanish qoidalarini buzish;

Axborot tizimlarining ishini buzishga olib kelgan xuddi shunday

huquq-buzarlik, xuddi shuningdek, kirish cheklangan axborot tizimlarini axborot-hisoblash tarmoqlariga ulash chog'ida tegishli himoya choralarini ko'rmaganlik;

Yuridik va jismoniy shaxslarning axborot tizimlarini xalqaro axborot tarmoqlariga qonunga xilof ravishda ulash, bu tarmoqlarga tegishli himoya choralarini ko'rmadan ulanish, xuddi shuningdek ulardan ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda olish;

O'zganing elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturi yoki ma'lumotlar bazasini o'z nomidan chiqarish yoxud qonunga xilof ravishda undan nusxa olish yoki bunday asarlarni tarqatish», Reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (178¹-modda)

«Reklamaga taalluqli ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga belgilangan muddatda taqdim etmaganlik, shuningdek reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishini tugatish haqidagi ko'rsatmalarni o'z muddatida bajarmaganlik;

Noto'g'ri reklama berganlik, tashqi reklamani joylashtirish tartibiga rioya etmaganlik yoki aksilreklama berishdan bosh tortganlik», Ommaviy axborot vositalari mahsulotlarini qonunga xilof ravishda tayyorlash va tarqatish (218-modda)

«Ommaviy axborot vositalarining mahsulotlarini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazmasdan yoki ularni chiqarishni yoxud nashr etishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin qonunga xilof ravishda tayyorlash va tarqatish».

Axborot xavfsizligini huquqiy ta'minlashning birinchi yo'nalishini ko'rib chiqishni yakunlar ekanmiz, sifatsiz axborotlarning ta'siridan himoya qilish asosan ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonun hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi normalarida belgilanganligiga e'tiborni qaratmoqchimiz.

§4. Axborot, axborot resurslari va axborot tizimlarini begona shaxslarning ruxsatsiz va qonunga zid ta'sirlari tahdididan huquqiy himoya qilish

Axborot xavfsizligi ikkinchi yo'nalishining huquqiy asosini quyidagi axborotga doir konstitutsiyaviy normalar tashkil etadi. «29-modda.

1. ...Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratil-

gan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

2. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin».

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi shaxsiy sir, shaxsiy axborotlar va xususiy shaxslarga doir ma'lumotlarni begona shaxslarning aralashuvi-dan himoya qiladi. «27-modda».

1. Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga araiashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

2. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas».

Bunda har qanday fuqaro to'g'risidagi axborotlarni uning roziligisiz to'plash barchaga to'g'ridan-to'g'ri man etiladi. «Shaxsning shaxsiy hayoti to'g'risidagi axborotlarni uning roziligisiz to'plash, saqlash, ulardan foydalanish va ulami tarqatishga yo'l qo'yilmaydi».

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida shuningdek boshqa xil axborotlarni har qanday fuqarodan uning roziligisiz olish yoki avval taqdim etilgan axborotlardan voz kechishga ishonitirish ham man etiladi.

Axborot, axborot resurslari va axborot tizimlarini uchinchi shaxslarning qonunga zid aralashuvidan himoya qilishni ta'minlaydigan, konstitutsiyaviy normalarning mazmunini rivojlantiradigan normalarning asosiy tizim hosil qiladigan to'plami «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunda belgilangan.

«Axborotlarni himoya qilish.

1. Qonunga zid muomalada bo'lish uning egasi, sohibi, undan foydalanuvchi va boshqa shaxsga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday hujjatlashtirilgan axborot himoya qilinishi lozim.

Axborotlarni himoya qilish rejimi:

davlat sirlari jumlasiga kiritilgan ma'lumotlarga nisbatan – vakolatli organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Davlat siri to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq;

hujjatlashtirilgan maxfiy axborotlarga nisbatan – axborot resurslarining egasi yoki vakolatli shaxs tomonidan ushbu Qonunga asosan;

shaxsga doir ma'lumotlarga nisbatan – respublika qonuni bilan belgilanadi».

Maxfiy axborotlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

fuqaroning shaxsini aniqlash imkonini beradigan, uning shaxsiy hayotiga tegishli holatlar va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar (shaxsiy ma'lumotlar), qonunda belgilangan holatlarda ommaviy axborot vositalarida tarqatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar bundan mustasno;

tergov va sudda ishni ko'rish sirlarini tashkil etadigan ma'lumotlar;

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va qonunlariga muvofiq davlat hokimiyati organlari tomonidan foydalanish cheklangan xizmatga doir ma'lumotlar (vrachlik, notariat, advokatlik sirlari, yozishmalar, telefonda so'zlashuvlar, pochta jo'natmalari, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlar sirlari va h.k.);

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va qonunlariga muvofiq davlat hokimiyati organlari tomonidan foydalanish cheklangan, tijorat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar (tijorat sirlari);

kashfiyot, foydali model yoki ishlab chiqarish namunasining mohiyati haqidagi ma'lumotlar, ular to'g'risidagi axborotlar rasman e'lon qilingunga qadar.

2. Himoya qilinishi lozim bo'lgan axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish uchun mas'ul davlat hokimiyati organlari va tashkilotlar, shuningdek foydalanish cheklangan axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish uchun axborot tizimlari va axborot texnologiyalarini ishlab chiqadigan va qo'llaydigan idora va tashkilotlar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladilar.

3. Nodavlat tuzilmalarda axborotlarni himoya qilishga bo'lgan talablarning bajarilishi va maxsus dasturiy-texnik himoya vositalaridan foydalanilishini nazorat qilish, shuningdek foydalanish cheklangan axborotlarni qayta ishlaydigan axborot tizimlarini himoya qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarning ko'rilishini ta'minlash davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. Davlat mulki hisoblangan, foydalanish cheklangan axborotlarni qayta ishlaydigan tashkilotlar axborotlarni himoya qilishni ta'minlaydigan maxsus xizmatlar tashkil etadilar.

5. Axborot resurslarining egasi yoki u vakolat bergan shaxslar axborotni himoya qilishga bo'lgan talablarning bajarilishini nazorat qilish, bu talablar bajarilmagan taqdirda axborotlarni qayta ishlashni taqiqlash yoki to'xtatib qo'yishga haqlidir.

6. Hujjatlashtirilgan axborotlarning egasi yoki sohibi axborot tizimlaridagi o'z axborotlarini himoya qilish norma va talablarining to'g'ri bajarilayotganini baholashni so'rab davlat hokimiyati organlariga murojaat qilishga haqlidir. Tegishli organlar O'zbekiston Respublikasining Hukumati tomonidan belgilanadi. Bu organlar axborotlarni va tekshiruv natijalarini sir tutish shartlariga amal qiladilar».

«Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunda axborotlarni himoya qilish sohasidagi subyektlarning huquq va majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

« Axborotlarni himoya qilish sohasidagi subyektlarning huquq va majburiyatlari.

1. Hujjatlar, hujjatlar to'plami va axborot tizimlarining egasi yoki u vakolat bergan shaxslar foydalanuvchiga axborotlarni taqdim etish vaqti, joyi va mas'ul mansabdor shaxslarning ko'rsatgan holda, unga axborotlarni taqdim etish hamda zarur protseduralar tartibini belgilaydilar va foydalanuvchilarning axborotlardan foydalanish shartlarini ta'minlaydilar.

2. Hujjatlar, hujjatlar to'plami va axborot tizimlarining sohibi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq axborotlarning himoyalash darajasini ta'minlaydi.

3. Sertifikatlashtirilmagan axborot tizimlari va ularni ta'minlash vositalaridan foydalanilishi bilan bog'liq tavakkalchilik bu tizim va vositalarning egasi (sohibi) zimmasiga tushadi. Sertifikatlashtirilmagan tizimdan olingan axborotlardan foydalanish bilan bog'liq tavakkalchilik axborotlardan foydalanuvchining zimmasiga tushadi.

4. Hujjatlar, hujjatlar to'plami va axborot tizimlarining egasi o'z axborot resurslari va tizimlarini himoyalash chora-tadbirlarining yetarililigini tahlildan o'tkazishni so'rab, shuningdek maslahatlar olish uchun axborot tizimlari va axborot resurslarini himoyalash vositalarini sertifikatlashni amalga oshiradigan tashkilotlarga murojaat qilishi mumkin.

5. Hujjatlar, hujjatlar to'plami va axborot tizimlarining sohibi barcha axborotlarni himoya qilish rejimining buzilish holatlari to'g'risida axborot resurslari va (yoki) axborot tizimlarining egasiga xabar berishi shart».

Qonunda axborot jarayonlari va axborotlashtirish sohasidagi subyektlarning huquqlarini himoya qilish nazarda tutilgan.

«Axborot jarayonlari va axborotlashtirish sohasidagi subyektlarning huquqlarini himoya qilish.

1. Axborot resurslarini shakllantirish, axborot resurslaridan foydalanish, axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanish sohasidagi subyektlarning huquqlarini himoya qilish g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish, qoidabuzarlarni javobgarlikka tortish, subyektlarning buzilgan huquqlarini tiklash va yetkazilgan zararning o'rnini qoplash maqsadlarida amalga oshiriladi.

2. Ko'rsatilgan sohadagi subyektlarning huquqlarini himoya qilish sud, xo'jalik sudi va hakamlar sudi tomonidan, huquqbuzarliklarning xususiyati va yetkazilgan zarardan kelib chiqib amalga oshiriladi.

3. Hujjatlashtirilgan axborotlar bilan ishlashdagi huquqbuzarliklar uchun davlat hokimiyati organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish, axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarini yaratish va ulardan foydalanish sohasidagi ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilish va nizoll vaziyatlarni ko'rib chiqish uchun muvaqqat va muntazam hakamlilik sudlari tashkil etilishi mumkin.

Hakamlilik sudi tomonlar o'rtasidagi nizolar va bahslarni hakamlilik sudlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi.

4. Axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish, axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarini yaratish va ulardan foydalanish sohasidagi xalqaro norma va qoidalarni buzganlik uchun davlat hokimiyati organlari, tashkilotlar va fuqarolar chet el firmalari va boshqa hamkorlar bilan O'zbekiston Respublikasi imzolagan xalqaro bitimlardan kelib chiqib tuzgan shartnomalariga muvofiq javobgar bo'ladilar».

Axborot xavfsizligining bu yo'nalishidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining moddalaridagi normalar bilan tartibga solinadi: fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish (142-modda), xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish (143-modda), kompyuter axborotlaridan qonunga zid ravishda foydalanish, EHM uchun zararli dasturlarni yaratish, ulardan foydalanish va ularni tarqatish, EHMdan, EHM tizimidan yoki ularning tarmog'idan foydalanish qoidalarini buzish (174-modda).

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan normalarga «Saylovlar va referendumga doir bosma materiallarni qasddan yo'q qilish» kiritilishi mumkin.

Umuman olganda, axborot xavfsizligini huquqiy ta'minlashning bu yo'nalishi masalalari shartli ravishda ochiq axborotlarni himoya qilish hamda foydalanish cheklangan axborotlarni himoya qilishga bo'linadi.

Ochiq axborotlar hujjatlashtirilgan axborotlar instituti normalari bilan himoya qilinadi.

Foydalanish cheklangan axborotlarni himoya qilish davlat sirlari instituti, tijorat sirlari instituti, shaxsiy ma'lumotlar instituti normalari hamda boshqa turdagi sirlarning normalari bilan tartibga solinadi.

§5. Axborotlashtirish sharoitlarida axborot sohasidagi huquq va erkiniyklarni himoya qilish

Uchinchi yo'nalish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi axborot xavfsizligiga tahdidlardan quyidagi huquq va erkinliklarni himoya qiladi. «29-modda.2. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega».

«35-modda. Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega».

«29-modda.1. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega».

«42-modda. 1. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi,

madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.2. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi».

Konstitutsiyaviy normalarning alohida qoidalari «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunda rivojlantiriladi.

«Axborot resurslaridagi axborotlardan foydalanish huquqini amalga oshirish.

1. Foydalanuvchilar – fuqarolar, davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlari, tashkilotlar va jamoat uyushmalari – davlat axborot resurslaridan foydalanishda teng huquqqa ega bo'ladilar va bu resurslarning egasi oldida o'zlari so'rayotgan axborotlarni olish zaruratini asoslashga majbur emaslar. Foydalanish cheklangan axborotlar bundan mustasno...

2. Axborot resurslarining sohiblari qonun hujjatlari, ko'rsatilgan organlar va tashkilotlarning ustavlari, ular haqidagi nizomlar, shuningdek axborot bilan ta'minlash xizmatlari ko'rsatish haqidagi shartnomalarga muvofiq foydalanuvchilar (iste'molchilar)ni axborot resurslaridagi axborotlar bilan ta'minlaydilar...»

«Axborotdan foydalanish huquqlarini himoya qilish.

1. Ochiq axborotlardan foydalanish imkoniyatini bermaslik yoki foydalanuvchilarga atayin noto'g'ri axborot berganlik ustidan sudga shikoyat bilan murojaat qilish mumkin. Tashkilotlar o'rtasida tuzilgan axborot yetkazib berish va oldi-sotdi shartnomalari hamda axborot resurslari almashishning boshqa shakllari bo'yicha olingan majburiyatlarni bajarmaslik yoki muvofiq ravishda bajarmaslik holatlari xo'jalik sudida ko'rib chiqiladi.

Barcha hollarda axborotdan foydalanish imkoniyati berilmagan shaxslar hamda noto'g'ri axborot olgan shaxslar o'zlariga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqlidir.

2. Sud axborotning foydalanish cheklangan axborotlar toifasiga asossiz kiritilganligi haqidagi nizolarni, foydalanuvchilarga axborot taqdim etish asossiz rad etilgan hollarda yoki foydalanuvchilarning boshqa huquqlari buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash haqidagi da'volarni ko'rib chiqadi.

3. Axborotdan foydalanishni qonunga zid ravishda cheklash va axborotlarni himoya qilish rejimini buzishda aybdor davlat hokimiyati organlari va tashkilotlarning xizmatchilari jinoyat, fuqarolik va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar».

Axborotga doir huquq va erkinliklarni himoya qilish intellektual mulk instituti, hujjatlashtirilgan axborot instituti hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va Fuqarolik kodeksi normalari bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi normalarga misollar: tuhmat (139-modda), haqorat qilish (140-modda), fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish (142-modda), xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlar sir saqlanishi tartibini buzish (143-modda), vijdon erkinligini buzish (145-modda), mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish (149-modda), farzandlikka olish sirini oshkor qilish (125-modda).

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga kiritilishi kerak bo'lgan normalarga misollar: O'zbekiston Respublikasi fuqarosining o'z saylov huquqidan foydalanishi yoki saylov komissiyasining ishiga to'sqinlik qilish; nomzod haqida yolg'on ma'lumotlar tarqatish; saylov komissiyasi (referendumni o'tkazish komissiyasi) a'zosi, kuzatuvchisi yoki chet ellik (xalqaro) kuzatuvchining huquqlarini buzish; fuqarolarning saylovchilar ro'yxati bilan tanishish huquqini buzish; ommaviy axborot vositalari orqali saylovoldi targ'ibotini o'tkazish shartlarini buzish; imzosiz targ'ibot materiallarini tayyorlash yoki tarqatish .

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksidagi normalarga misollar: ma'naviy zararni qoplash (umumiy qoidalar (1021-modda), ma'naviy zarami qoplash usuli va miqdori (1022 - modda)), shaxsning sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish (100 - modda), oshkor etilmagan axborotni muhfaza qilish huquqi (1095 - modda), oshkor etilmagan axborotdan noqonuniy foydalanganlik uchun javobgarlik (1096 - modda), oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqining boshqa shaxsga o'tishi (1097-modda).

§6. Axborot xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning tuzilmasi

Axborot xavfsizligining huquqiy masalalarini ko'rib chiqishni yakunlar ekanmiz, axborot xavfsizligiga axborot huquqi tizimini o'rganish va shakllantirish, bu sohadagi normalar va huquqiy normativ hujjatlarni tayyorlash va takomillashtirish aspekti yoki

rakursi, deb qarash mumkinligini qayd etib o'tmoqchimiz. Axborot xavfsizligi sohasida o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalaridan foydalanib, qonun chiqaruvchi hamda axborot huquqi sohasini o'rganuvchi tadqiqotchi axborot sohasida axborot xavfsizligini huquqiy himoya qilish vosita va mexanizmlarini takomillashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bu esa axborot sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning sifati va samaradorligini yanada oshiradi.

Axborot sohasini himoya qilishning asosiy yo'nalishlari
<p>Axborotga doir huquq va erkinliklarni himoya qilish Ommaviy axborot vositalari instituti Hujjatlashtirilgan axborot instituti O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi normalari</p>
Shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini zararli, xavfli va sifatsiz axborotlar ta'siridan himoya qilish
<p>Hujjatlashtirilgan axborot instituti Davlat sirlari instituti Tijorat sirlari instituti Shaxsiy ma'lumotlar instituti Boshqa turdagi sirlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi normalari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi normalari</p>
Axborot, axborot resurslari va axborot tizimlarini begona shaxslarning qonunga zid ta'siridan himoya qilish
<p>Intellectual mulk institutlari Hujjatlashtirilgan axborot instituti O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi normalari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi normalari</p>

9-rasm. Axborot sohasini himoya qilishning asosiy yo'nalishlari.

Shuning uchun ham axborot xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish tuzilmasi axborotga doir qonun huj-

jatlarining tuzilmasini deyarli takrorlaydi va axborot xavfsizligi ta-lablaridan kelib chiqib, huquqiy tartibga solish obyektlarining himoy-alanganligi masalalariga e'tiborni qaratadi. Natijada axborot so-hasini himoya qilishning asosiy yo'nalishlari hamda normativ qoi-dalari yordamida ularning axborot xavfsizligini huquqiy ta'minlash masalasi hal qilinadigan axborotga doir qonun hujjatlari institutlar-ining ayrim modelini tuzish mumkin (9-rasm).

Axborot xavfsizligini huquqiy tartibga solish axborot sohasi subyektlari faoliyatining barcha yo'nalishlarini qamrab oladigan axborotga doir huquqiy munosabatlar negizida shakllanadi. Ular axborot sohasining barcha sohalarini hamda huquqiy munosabat-larning barcha subyektlari va obyektlarini qamrab oladi.

Axborot xavfsizligi sohasidagi huquqiy munosabatlarning obyekt-lari – bu jamiyatdagi shaxsning ma'naviyati, axloqi va intellektu-alligi, uning axborot sohasidagi huquq va erkinliklari; jamiyatdagi demokratik tuzum, bilim va ma'naviy qadriyatlar; davlatning kon-stitutsiyaviy tuzumi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligidir.

Axborot xavfsizligi sohasidagi huquqiy munosabatlarning sub-yektlari esa – bu shaxs, davlat, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sudlov hokimiyatlari organlari, xavfsizlikni ta'minlash tizimi, O'zbekiston Respublikasining Xavfsizlik kengashi, fuqarolardir.

Bu sohadagi subyektlarning xatti-harakatlari qonunlar va boshqa qonun hujjatlari bilan, ularning huquqiy munosabatlar obyektlarin-ing himoyalan-ganligini ta'minlashga qaratilgan huquq va majburi-yatlarini amalga oshirish tartibida belgilanadi.

Subyektlarning huquq va erkinliklari huquqiy munosabatlar obyektlarini himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash ustidan nazorat o'rnatish tartibida subyektlarning xatti-harakatlari qoidalarini o'rnatadigan qonunlar va boshqa huquqiy normativ hujjatlarning normalari bilan belgilanadi. Shu yerning o'zida fuqarolar, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish tartibida axborotga doir huquq va erkinliklarga cheklovlar joriy etiladi. Huquq normalarini shakllantirish, huquq va majburiyatlarni belgilashda konstitutsiyaviy, ma'muriy va fuqarolik huquqi usullari qo'llanadi.

Axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik: shaxs, jamiyat va davlatning ma'naviyati va axloqini sifatsiz, yolg'on axborot-lar va dezinformatsiyaning ta'siridan himoya qilish; axborotlashtirish sharoitlarida shaxsni himoya qilish; axborot va axborot resurslarini

ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish tartibida belgilanadi (huquqiy-fuqarolik, ma'muriy-huquqiy, jinoyiy-huquqiy javobgarlik). Hududlararo axborot tizimlari, shu jumladan Internet muhitidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik o'rnatish xususiyatlari axborot, axborot texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarining o'ziga xosliklari va yuridik xususiyatlariga asoslanadi.

Shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari axborot sohasining har bir sohasida ishlab chiqilishi va joriy etilishi lozim.

Axborotni izlash, olish va iste'mol qilish sohasi.

1. Huquqiy munosabatlar obyektlari: fuqaro, jamiyat va davlatning ma'naviyati va axloqi (noto'g'ri, yolg'on va zararli axborotlarning ta'siridan); inson va fuqaroning axborotga doir huquq va erkinliklari (axborotni olish va undan foydalanish huquqi); fuqaroning sha'ni va qadr-qimmatini (noto'g'ri axborotlarning yaratilishi va tarqatilishi yoki u haqdagi shaxsiy axborotlarning ruxsatsiz tarqatilishi munosabati bilan).

Huquqiy munosabatlar subyektlari: inson va fuqaro, axborot iste'molchisi, tahririyat.

2. Boshlang'ich yoki hosila axborotlarni yaratish (ishlab chiqarish)sohasi.

Huquqiy munosabatlar obyektlari: axborot intellektual mulk sifatida; hujjatlashtirilgan axborot intellektual va buyumli mulk sifatida.

Huquqiy munosabatlar subyektlari: inson va fuqaro, mualliflar, mutlaq huquqlardan foydalanuvchilar, noshirlar, axborot iste'molchilari, davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqaruv organlari, axborot xavfsizligi obyektlarini himoya qilishni ta'minlash organlari va tizimlari.

3. Axborot resurslarini shakllantirish, axborot mahsullarini tayyorlash va foydalanuvchilarga axborot xizmatlarini ko'rsatish sohasi.

Huquqiy munosabatlar obyektlari: mualliflik va axborot resurslariga egalik huquqi; yetkazuvchilarning barcha turlaridagi, shu jumladan foydalanish cheklangan axborotlar bo'lgan axborot resurslari.

Huquqiy munosabatlar subyektlari: inson va fuqaro, muallif, foydalanuvchi, iste'molchi, axborotning erkin aylanishi ishtirokchilari.

4. Axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarini yaratish va qo'llash sohasi.

Huquqiy munosabatlar obyektlari: avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklari, boshqa axborot texnologiyalari, bu obyektlarni ta'minlash vositalari.

Bunda eng avvalo quyidagilar himoya qilinishi lozim:

axborot tizimlari va texnologiyalari hamda ularni ta'minlash vositalari mualliflari va egalarning huquqlari;

mashinali axborot yetkazuvchilar, masalan, elektron raqamli imzo vositalari;

avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va ularning tarmoqlari tarkibidagi ma'lumotlar (bilimlar) bazalari ruxsatsiz foydalanishdan;

EHM va ularning tarmoqlari tarkibidagi dasturiy vositalar, axborot tizimlari va ularning tarmoqlarini ruxsatsiz kirishdan;

axborot texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalari.

Huquqiy munosabatlar subyektlari: yaratuvchilar, ishlab chiqaruvchilar, buyurtmachilar, ijrochilar.

§7. Axborot texnologiyalariga oid huquqbuzarlik va unga qarshi kurash yo'llari

Respublikada elektron ommaviy axborot vositlari, xususan, tele-radio va kabelli ko'rsatuv tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-iyuldagi № 236-sonli qaroriga ko'ra O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi Qonuniga binoan axborot texnologiyalari bilan bog'liq sohalar ham litsenziyalashtiriladi. Litsenziyalashdan maqsad, bu sohada turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklarning kelib chiqishini oldini olish, sodir etilgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashni ta'minlashdan iborat.

Axborot texnologiyalari egalari yoki mulkdorlarining huquqlari asosan fuqarolik qonunchiligi, xususan, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadi. Axborot texnologiyalari sohasida ham huquqbuzarlikning fuqarolik, ma'muriy va jinoiy turlari mavjud.

Ma'lumki, huquqbuzarlikni sodir etishdan asosiy maqsad mavjud axborot texnologiyasini qo'lga kiritib, uning egasi bo'lish yoki iqtisodiy daromad qilishdir. Har qanday obyektдан qonunchilikka ko'ra faqat shartnoma tuzgan holda foydalanish lozim. Shartnoma

bu sohada huquqiy vosita bo'lib, huquq egasining manfaatlarini oldindan himoya qilish kafolatini beradi.

Huquq egasi bilan shartnoma tuzmagan holda obyektlardan foydalangan taqdirda qoidabuzar huquq egasiga yetkazilgan zarar-ning o'rnini, shu jumladan boy berilgan foydani qoplashi lozim. Huquq egasi qoidabuzardan o'zi ko'rgan zarar o'rniga uning qoidabuzarlik oqibatida olgan daromadlarini ham undirib olishga haqli. Axborot texnologiyalarining egasi muallif deb tan olinadi. Asardan mualliflik shartnomasida nazarda tutilmagan usulda yoki bunday shartnomaning amal qilishi to'xtaganidan keyin foydalanish asardan shartnoma tuzmagan holda foydalanish deb hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 1081-moddasiga ko'ra turdosh huquqlardan foydalanish to'g'risidagi shartnomani bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan yoxud asardan shartnoma tuzmagan holda g'ayriqonuniy ravishda foydalangan shaxs shartnomani bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik to'g'risida umumiy qoidalarga muvofiq javobgar bo'ladi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi huquqbuzarlikning yana bir ko'rinishi bu - axborot xavfsizligi obyektlariga xavfli ta'sir o'tkazish - axborot, programma-matematik, tashkiliy-huquqiy va jismoniy usullar ko'rinishidan iborat bo'lishi mumkin.

Axborot ko'rinishida huquqbuzarlikning ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

axborot almashuvida manziliga yetkazib berish va darhollik tartibining buzilishi;

axborotni noqonuniy yig'ish va foydalanish;

axborot resurslariga ruxsatsiz kirish;

axborot bilan manipulatsiya (axborotni yashirish yoki noto'g'ri talqin qilish, dezinformatsiya);

axborot sistemalaridagi ma'lumotlarni noqonuniy ko'chirish;

fuqarolar, tashkilotlar va davlat manfaatiga qarama-qarshi bo'lgan pozitsiyalarda turib ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

kutubxona, arxiv, ma'lumot banklari va bazalaridan axborotlarni o'g'irlash;

axborotlarni qayta ishlash texnologiyalarini buzish.

O'zbekiston Respublikasi «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonunida (11.12.2003 y.) ham elektron raqamli imzo yopiq kaliti

egasining javobgarligi belgilangan. Ya'ni, elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasi o'ziga yukiatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi oqibatida elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan ruxsatsiz tarzda foydalanish tufayli yetkazilgan zarar uchun tegishli elektron raqamli imzo ochiq kalitining foydalanuvchisi oldida javobgar bo'ladi.

Hayotga tadbir etilishi ko'zda tutilayotgan yuqoridagi qonun asosan iqtisodiyotni boshqarish, ya'ni, biznes ishlarining tezkor tarzda hal etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida turli huquqbuzarliklarning oldini olishni ham ko'zda tutadi.

Ma'lumki, axborot texnologiyalaridan eng keng tarqalgani bu Internet hisoblanadi. Bugungi kunda jahon hamjamiyati axborot texnologiyalarini himoya qilishda katta to'siq va muammolarga duch kelayapti. Ayniqsa, kompyuter texnologiyalarini himoya qilish, bu sohadagi qaroqchilikka qarshi kurash dolzarb bo'lib bormoqda. EHM uchun dastur ishlab chiqaruvchilar Assotsiatsiyasining ma'lumotlariga qaraganda bugungi kunda kompyuter qaroqchiligi Xitoyda 96 foiz, Rossiya Federatsiyasida 89 foiz, Germaniyada 3 foiz, AQShda 27 foiz, Bolgariyada 93 foizni tashkil etadi¹. Kompyuter qaroqchiligini oldini olish mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishga ham olib keladi. Tadqiqot ishining bir necha joyida kompyuter texnologiyalarini ishlab chiqish va uni sotish natijasida rivojlangan mamlakatlar qancha daromad olayotgani eslatib o'tilgani bejiz emas. Bugungi kunda respublikamizda ham mavjud bo'lgan bunday huquqbuzarlikka qarshi kurash zaruriyati mavjud. Amaldagi qonunchilikda hali bu soha huquqbuzarligiga qarshi normalar yetarlicha o'rnatilgan emas. Ayrim qonunlarda, xususan, O'zbekiston Jinoyat kodeksining 167-moddasi 3-qismida kompyuter texnikasi yordamida kamomad qilish yoki o'zlashtirish, 168-modda 3-qismida kompyuter texnikasi yordamida firibgarlik qilish, 169-modda 3-qismida kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirib o'g'irlik qilish, 174-moddada axborotlashtirish qoidalarini buzish, 191-moddada axborotni qonunsiz to'plash, oshkor qilish yoki undan foydalanish, 192-moddada raqobatchini diskreditatsiya qilish kabi normalarda tegishli tushunchalar berilgan.

Axborot texnologiyalarini biznesda qo'llash jarayonida yuzaga keladigan qonunsiz yoki ruxsatsiz munosabatlarga qarshi kurashni

¹ Kriminalistik-1998, N-10, 685-689 str.

ta'minlash maqsadida amaldagi soha qonunchiligiga tegishli o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Bevosita zamonaviy biznesga daxldor bo'lgan «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonunni qabul qilishdan tashqari «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi, «Elektron savdo to'g'risida»gi, «Elektron davlat boshqaruvi to'g'risida»gi, «Elektron shartnoma to'g'risida»gi Qonunlarning qabul qilinishi ham muhim hisoblanadi. Birinchidan, bunday qonunlar biznesga oid munosabatlar, ayniqsa, xalqaro munosabatlarni tartibga solish, ikkinchidan bu sohadagi axborot texnologiyalarini yaratishni yanada kengaytiradi, uchinchidan bunday obyektlar savdosini yanada kengaytiradi va katta daromadlar keltiradi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab xorijiy mutaxassislar axborot texnologiyalari sohasida jinoyatchilikning xavfli tomonlari va salbiy oqibatlarini bartaraf qilishga katta e'tibor qarata boshladilar.

Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini muhofaza qilish maqsadida amaldagi jinoyat qonunchiligi bazasi mustahkamlandi. Masalan, 1986-yilda AQSH Kongressi tomonidan «Kompyuterlar yordamida amalga oshiriladigan firibgarlik va suiiste'molliklar to'g'risida»gi Qonun, 1990-yil Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan «Kompyuterlardagi suiiste'molliklar to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi¹. Bu mamlakatlarda ushbu sohadagi qonunlarning qabul qilinishi kompyuter, axborot texnologiyalariga oid jinoyatchilikning kamayishi, umuman olganda, uni nazorat qilish tizimini shakllantirishga olib keldi. Nazarimizda respublikamizdagi mavjud shu soha qonunchiligi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib takomillashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Axborot texnologiyalari mulkdori va egalari qoidabuzardan quyidagilarni talab qilishga haqli:

huquqni tan olish;

huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uni buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish;

olinmay qolgan foyda bilan birga keltirilgan zararni qoplash;
huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish.

¹ V.S.Komissarov. «Prestupleniye v sfere kompyuternoy informatsii: ponyatiye i otvetstvennost». Yuridicheskaya mir. №2, str.10

Fuqarolik huquqida belgilangan talablarni bajarmaydigan jismoniy va yuridik shaxslar huquq buzuvchilar deb tan olinadi.

Sudlar qonunchilikda belgilanganidek javobgar yoki huquq buzilishiga yetarli asos bor deb tanilgan shaxslarga ma'lum harakatlarni tayyorlash, foydalanish, sotish, ijaraga berish, chetdan keltirish, shuningdek qonunsiz ishlab chiqilgan deb taxmin qilina-yotgan asarlar nusxalarini savdoga kiritish maqsadida egalik qilish, saqlab turish, sodir etishni taqiqlash haqida qaror chiqarish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1097-moddasida oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqining boshqa shaxsga o'tishi tartibi ham belgilangan.

Ma'lumki, axborot texnologiyalari bilan ishlaydigan elektron aloqa vositalari axborotlar manbai yoki ommaviy axborot vositasi sifatida reklama bilan ham shug'ullanib keladilar. Nazarimizda, axborot texnologiyalariga asoslangan reklama faoliyati ham huquqiy jihatdan qayta ko'rib chiqilishi kerak. Reklamadan o'zgalaming foydalanishini zamon talabi va bozor qonunliyatlarini asosida mustahkamlash zarur. Reklamani tayyorlash, tarqatish va undan foydalanishdan kelib chiqadigan munosabatlar doirasi litsenziyada rasmiylashtiriladi. Litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlari ro'yxati esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan.

Axborot texnologiyalaridan biznesning turli ko'rinishi - u bilan savdo qilish, uni ijaraga berish, unda reklamada foylanash kabilar va boshqa faoliyatlarda huquqiy munosatlarni tartibga solib borishda doimiy ravishda qonunchilik takomillashtirib borilishi lozim.

§8. Axborot texnologiyalarida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari

Jahon tajribasidan ma'lumki, davlat axborot infrastrukturasi rivojlanishi jamiyat va davlatning hamma jabhalarini, jumladan, odamlarning dunyoqarashini va ularning mehnat, ijtimoiy va siyosiy hayotda ishtirok etishi shartlarini o'zgartirib, jamiyat rivojlanishini tezlashtiradi. Har-xil axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan sistemalar va ma'lumotlar bazasi davlat strukturalarini, iqtisodiyotni va mamlakat mudofaasini boshqarishning ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Bugungi kunda xalqaro maydonda iqtisodiy va axborot potensialining o'rnini va unga bo'lgan talabi oshib bormoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ko'pgina qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Bu davlatning axborot infrastrukturasi shakllanishida ijobiy rol o'ynadi.

Shunga qaramasdan ko'plab qo'llanilayotgan axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va uzatish tizimlaridan foydalanishda himoya va kirishni cheklash vositalaridan minimal holda foydalanilmoqda. Bunda milliy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi ma'lumotlarning chiqib ketish va davlat axborot maydoniga kirib kelish xavfi o'sib boradi.

Ayrim davlatlar, halqaro uyushmalar va transnatsional korporatsiyalarning siyosiy va iqtisodiy foydalarini ko'zlagan maqsadda milliy axborot va telekommunikatsion sistemalarining faoliyat ko'rsatishlarida o'z shartlarini o'tkazib qo'yish bo'yicha geopolitik urinishlarida ko'rinib turibdi. Asosan, O'zbekistonning suveren davlat sifatida rivojlanishidagi, uning geopolitik o'rnini, xarbiy siyosatidagi, iqtisodiy islohotlaridagi, ilmiy izlanishlarining yo'nalishlaridagi jarayonlar bo'yicha ma'lumotlarni yig'ishga qaratilgan. Bundan tashqari iqtisodiy, moliya, savdo, tabiiy-xom ashyo va texnologiyalar masalalari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ishga ham qiziqish ortib bormoqda. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, davlat muassasalari, korxonalari va tashkilotlarining halqaro hamkorliklarining kengayib borishi davlat sirlarining chiqib ketishi xavfini ham oshirib boradi.

Mustaqillik yillari respublikamiz axborot hududida chet el ommaviy axborot vositalari ko'rsatuvlari va eshittirishlari oshib, tarqatilayotgan davriy nashrlarining miqdorlari, har xil chet el jamg'armalari va tashkilotlari soni ko'paydi. Respublika axborot jabhasi milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi kanallardan biriga aylandi.

Milliy xavfsizlikning axborot sohasidagi asosiy yo'nalishlaridan biri axborot olishda va undan foydalanishda inson va fuqarolarning konstitutsion huquqlariga rioya qilish, jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini, milliy an'analarini, davlatning madaniy va ilmiy potensialini saqlash va rivojlantirish, mahalliy va xalqaro hamjamiyatga davlat siyosati bo'yicha haqqoniy ma'lumotlarni yetkazish

bilan bog'liq bo'lgan O'zbekistonning davlat siyosatini va ichki hamda xalqaro hayotdagi xodisalar bo'yicha davlat mavqeini informatsion jihatdan ta'minlash hisoblanadi.

Zamonaviy axborot bozorini shakllantirishda axborot xavfsizligi muammolari alohida o'rin egallaydi. Axborot xavfsizligi – shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini shakllanishi va rivojlantirishni ta'minlovchi axborot jabhasi himoyasining holati.

Bu ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotda bozor munosabatlariga o'tish, ko'plab axborot yaratib, undan foydalanuvchi mahalliy va chet el tijorat tuzilmalarining va axborotlashtirish hamda axborotni himoyalash vositalarining paydo bo'lishi, axborot mahsulotining tovar munosabatlari sistemasiga kiritilishi;

axborotlashtirish vositalari va axborotni himoyalash vositalarini ishlab chiquvchi mahalliy tarmoqlarning og'ir ahvoldaligi;

O'zbekiston axborot infrastrukturasi rivojlantirishda chet el davlatlari bilan yaqinlashishning kengayib borishi;

axborotlashtirish sohasida, jumladan, axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazaning yetarli darajada emasligi;

axborotlashtirish vositalari bozori faoliyati va rivojlanishi bo'yicha jarayonlarda davlat rolining pasayishi;

davlat boshqaruvida va moliya-kredit sohasida axborot himoyalangan ma'lumotlar bilan ishlovchi va ularni uzatuvchi chet el texnik va programma vositalaridan keng foydalanish;

ochiq aloqa kanallari, jumladan, tarmoqlar va kompyuter vositalari orqali o'tuvchi ma'lumotlar hajmining o'sishi;

global axborot sistemalari va tarmoqlariga ulanayotgan O'zbekistonlik foydalanuvchilarning ko'payib borishi;

kompyuter jinoyatlarining, ayniqsa moliya-kredit sohasida ushbu jinoyatlarning kuchayishi.

Axborot xavfsizligi obyektlarida quyidagilar bo'lishi mumkin:

saqlash formalari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, davlat siri va olish cheklangan tijorat siri va boshqa oshkor qilib bo'lmaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot mahsulotlari;

har xil daraja va ko'rsatkichli axborot sistemalarini o'z ichiga olgan, axborot mahsulotlarini qayta ishlash, tarqatish va ulardan

foydalanish sistemalari, axborot resurslari (kutubxonalar, arxivlar, ma'lumotlar bazalari va banklari), axborot texnologiyalari, axborotni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va uzatishning tartib va jarayonlari, ilmiy-texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar;

axborotni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish, saqlash, uzatish markazlarini, vositalari va texnologiyalarini, jumladan, axborot almashish tarmoqlari va telekommunikatsiyalar, avtomatlashtirilgan va telekommunikatsiyalashtirilgan sistema va tarmoqlarini hamda axborot himoyalash sistema va vositalarining ishlashini ta'minlovchi mexanizmlar;

fuqarolarning, yuridik shaxslar va davlatning axborot olish, tarqatish va foydalanish, yashirin (konfidensial) axborotlarni va intellektual mulkni himoya qilish huquqi.

Axborot xavfsizligi tashqi va ichki manbalardan iborat bo'lishi mumkin. Tashqi manbalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

global axborot monitoringi olib borish, axborot tarqatish va foydalanish bo'yicha chet el davlatlari siyosatining amalga oshirishi;

chet el maxsus va josuslik xizmatlarining faoliyati;

chet el siyosiy va iqtisodiy doiralarning faoliyati;

xalqaro guruhlar, tuzulmalar va alohida shaxslarning jinoy xarakterlari;

tabiiy ofatlar va fojialar.

Ichki manbalar: siyosiy, iqtisodiy va jamoat tashkilotlarining, alohida shaxslar yoki guruhlarning axborot yig'ish, tarqatish va foydalanish sohasidagi noqonuniy faoliyatlari;

axborot sohasida fuqarolar va tashkilotlar huquqlarining buzilishiga olib keluvchi davlat strukturalarining noqonuniy harakatlari;

axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatish bo'yicha belgilangan tartibni buzish;

axborot sistemalarini yaratuvchilarning, ularga xizmat ko'rsatuvchilarning va foydalanuvchilarning atayin qilgan harakatlari va ko'zda tutilmagan xatolari;

axborot sistemalarining programma-apparat vositalarining bazaviy texnologiyalarini yaratish, sinash va ishlab chiqish bo'yicha mahalliy sanoatning qoloqligi;

axborot va telekommunikatsion sistemalarda texnik vositalarning ishdan chiqishi va programmaviy ta'minotning uzilib turishi.

Axborot xavfsizligini ta'minlashda bir qator ma'ium bo'lgan usullardan ham qo'llaniladi. Bu usullar xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladigan standartlardan iborat.¹ Bu standartlarni qo'llash axborot texnologiyalarida axborot xavfsizligini ta'minlashga olib keladi.

Ayni vaqtda axborot xavfsizligini ta'minlashda quyidagi usullardan ham keng foydalaniladi.

a) programma-matematik usullar: programma mahsulotlari hujjatlarida ko'rsatilmagan vazifalarni bajaruvchi xususiyatlarni ushbu mahsulotlarga kiritish;

axborot tizimlari yoki ularning himoya sistemalarining normal ishlashiga yo'l qo'ymaydigan programmalarni ishlab chiqish va tarqatish;

axborot sistemalaridagi ma'lumotlarni yo'q qilish.

b) tashkiliy-huquqiy usullar: axborot yo'nalishidagi qonunchilik talablarini bajarmaslik va ushbu yo'nalishdagi zarur me'yoriy-huquqiy qonunlarning qabul qilinishining cho'zilishi;

fuqarolar va tashkilotlar uchun muhim ma'lumotlari bor bo'lgan hujjatlarni olishda noqonuniy cheklash;

takomillashmagan yoki eski axborot texnologiyalarini va axborot vositalarini sotib olish.

v) jismoniy usullar: Axborot va aloqa vositalarini yo'q qilish, ishdan chiqarish, ularga radioelektiron bosim o'tkazish yoki buzish;

kompyuter yoki boshqa axborot saqlash manbaalarini va vositalarini yo'q qilish, ishdan chiqarish, buzish yoki o'g'irlash;

axborotning programma va apparat kalitlarini hamda kriptografik himoya vositalarini o'g'irlash;

xodimlarga ta'sir o'tkazish;

axborot sistemalarining «kasallangan» komponentlarini yetkazib berish;

texnik kanallar orqali chiqib ketayotgan axborotni yig'ish;

texnik vositalarda va xonalarda axborotni ushlab qoladigan elektron vositalarni o'rnatish;

ma'lumotlarni uzatish va aloqa tarmoqlarida axborotlarni ushlab qolish, deshifrovka qilish va yolg'on ma'lumotlarni uzatish;

parol-kalit tizimlariga ta'sir o'tkazish.

¹Informatsionnie texnologii v biznese. Ensiklopediya. Piter.2002, 747 str.

Axborot xavfsizligiga qilinadigan tajovuzlarning oldini olish va yo'q qilishda huquqiy, programma-texnik va tashkiliy-iqtisodiy usullarni qo'llash katta samara beradi.

Huquqiy usullar jamiyatda axborot munosabatlarini tartibga soluvchi, axborot xavfsizligini ta'minlovchi kompleks me'yoriy-uslubiy hujjatlarni va me'yoriy-huquqiy aktlarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Programma-texnik usullar bilan qayta ishlanayotgan axborotning ruxsatsiz olishga qo'ymaslik yo'li bilan uning chiqib ketishining oldini olishni, ma'lumotlarning buzilishiga, yo'q bo'lishiga, o'zgarishiga yoki axborot vositalarining ishini to'xtab qolishiga olib keluvchi maxsus ta'sirlarning oldini olishni, programma va apparatlarga solingan moslamalarni aniqlashni, texnik usullar bilan ma'lumotlarni ushlab qolishning oldini olishni, aloqa kanallari orqali uzatishda ma'lumotlarni ximoya qilish vositalarini, jumladan kriptografiyani qo'llashni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy-iqtisodiy usullar maxfiy va yashirin ma'lumotlarni himoya qilish tizimini yaratishni va faoliyat ko'rsatishini ta'minlashni, ushbu tizimlarni axborot xavfsizligi talablari bo'yicha sertifikatlashni, axborot xavfsizligi sohasidagi faoliyatni litsenziyalashni, ma'lumotlarni himoyalash usullarini va vositalarini standartlashtirishni, himoya qilingan axborot sistemalarida xodimlar harakatlarini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Ushbu usullar ichida axborot xavfsizligini ta'minlashda band bo'lgan va javobgar xodimlarni iqtisodiy rag'batlantirish va ma'naviy qo'llab-quvvatlash muhim o'rin egallaydi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan axborot xavfsizligi obyektlari, xavflar, uslublar va vositalar barcha hududiy va davlat darajasidagi davlat tizimlari bilan birga axborot bozorining boshqa subyektlari uchun umumiydir. Ayniqsa, iqtisodiyotimizga kirib kelayotgan axborot texnologiyalarida xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiyotni barqaror ushlab turish shartlaridan biridir.

Shu bilan birga, yuqorida qayd etilganidek, har bir yo'nalishlarda axborot xavfsizligining ta'minlanishi o'zgacha xususiyatlarga ega bo'lib, birinchi navbatda belgilangan vazifalarning bajarilishi xususiyatiga, axborot xavfsizligining har bir sohasiga xos bo'lgan bo'sh elementlar va bo'g'inlar borligiga bog'liq.

Shuning uchun faoliyatning har bir yo'nalishida ishni maxsus

tashkillashtirish, axborot xavfsizligi holatiga ta'sir qiluvchi o'zga omillarni hisobga olgan holda uni ta'minlash, shakl va usullaridan foydalanish talab qilinadi.

Siyosiy yo'nalishda jiddiy xavfga uchrashi mumkin bo'lgan soha va tarmoqlar quyidagilardan iborat:

mahalliy va chet el ommaviy axborot vositalari (nashriyotlar, radio, televideniye, telekommunikatsion tizimlar yordamida tarqatiladigan elektron davriy nashrlar) ta'sirida shakllanayotgan aholining turli guruhlarining umumiy fikrlari va siyosiy qarashlari; vaqtida axborot bilan ta'minlanishga bog'liq bo'lgan siyosiy, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimi;

siyosiy tashkilotlar, partiyalar, birlashmalar va harakatlarning ommaviy axborot vositalari orqali O'zbekiston Konstitutsiyasida tasdiqlangan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy yo'nalishdagi o'z dasturlarini bema'lol ifoda qilish huquqlari;

davlat hokimiyati va boshqaruvining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotni ommaviy axborot vositalari, matbuot-markazlari, jamoatchilik bilan aloqa markazlari va shunga o'xshashlar orqali aholiga doimiy axborot berish tizimi;

jamiyat fikrini aniqlash, o'rganish va tahlil qilish tizimlarini o'z ichiga oluvchi jamoat fikrini shakllantirish tizimi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida axborot bozorining bir bo'lagi bo'lgan axborot xizmatlarining faoliyati doirasi quyidagilardan tashkil topishi mumkin:

ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda siyosiy hayotdagi hamma subyektlarning konstitutsiyaviy majburiyat va huquqlarini amalga oshirishda ularning munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilikni, huquqiy va tashkiliy tizimlarni ishlab chiqish va doimiy rivojlantirish;

davlat ommaviy axborot vositalarini, jamiyat fikrini o'rganish tizimlarini boshqaruv organlarining jamiyat bilan aloqa xizmatlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

boshqaruv organlari, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining faoliyatiga axborot-targ'ibot aralashuvga, aholiga nisbatan yomon niyatda axborot-ruhiy ta'sirga qarshi qaratilgan axborot siyosatini ishlab chiqish va olib borish.

Iqtisodiy yo'nalishda jiddiy xavfga uchrashi mumkin bo'lgan sohalarga esa quyidagilarni sanab o'tsa bo'ladi:

davlat statistika tizimi;

xususiy shakldagi hamma xo'jalik subyektlarining tijorat faoliyati, xizmat va tovarlarning iste'mol xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar manbalari;

moliya, birja, soliq, bojxona ma'lumotlarini, davlat va tijorat tashkilotlarining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarini yig'ish va ularni qayta ishlash tizimi;

Davlat statistika hisobotining axborot-hisoblash sistemasi uning axborot resurslariga har qanday ruxsatsiz kirishlardan yetarli himoyalangan bo'lishi kerak. Shu jumladan, asosiy e'tibor ma'lumotlarning ilk manbaalariga va ayrim umumlashtirilgan ma'lumotlarga qaratilishi kerak.

Tijorat faoliyati, xizmat va tovarlarning iste'mol xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ma'lumot yashirgan yoki yolg'on axborot bergan manbaalarining javobgarligini belgilab beruvchi qonunlarning yo'qligi xo'jalik obyektlarining normal faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, sirlı bo'lgan tijorat ma'lumotni tarqatish natijasida davlat va tijorat tashkilotlariga sezilarli darajada talofot yetkazilishi mumkin.

Axborot xavfsizligi nuqtai nazarıdan oldindan bilib yoki bilmay ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalariga shikast yetkazish, ruxsatsiz ularga kirish imkoniyatlarini yaratuvchi ma'lumotlarni o'g'irlash va buzish harakatlari moliya, birja, soliq, bojxona ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash sistemalariga asosiy xavf hisoblanadi.

Iqtisodiyotning normal faoliyat olib borishiga kompyuter sistema va tarmoqlaridan foydalangan holda kriminal shaxslar tomonidan sodir etilayotgan kompyuter jinoyatlari jiddiy xavf tug'diradi. Axborot xavfsizligini ta'minlashda standart usul va vositalardan foydalanish bilan birga quyidagi yo'nalishlarga ko'proq e'tibor beriladi:

axborot almashuvi, yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish va o'g'irlash, bilib turib noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatish, tijorat sirlarini ovoza qilish bo'yicha, konfidensial ma'lumotlarni chiqarib yuborganlik uchun javobgarliklarni o'z ichiga oluvchi, axborot sistemalarida ishlash tamoyillarini o'rnatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

rivojlanishni ro'y-rost, to'liq, aniq tahlil qiluvchi va istiqbolni belgilovchi ma'lumotlarga boshqaruv hokimiyatlari e'tibor va talab-

larini hisobga olgan holda davlat statistikasi ishini to'ldiruvchi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash sistemalarini yaratish;

moliya va tijorat ma'lumotlari bo'yicha maxsus himoya qilish vositalarini yaratish va rivojlantirish;

iqtisodiyotga hos bo'lgan axborot xavfsizligi talablarini hisobga olgan holda, axborot faoliyati texnologiyalarini va xo'jalik, moliya, ishlab chiqarish va boshqa iqtisodiy tizimlarni rivojlantirish bo'yicha kompleks tashkiliy texnik tadbirlarni ishlab chiqish;

iqtisodiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatishda qatnashuvchi xodimlarni tayyorlash tizimini yaratish va rivojlantirish.

Huquq-tartibot yo'nalishida asosiy muhim axborot xavfsizligi obyektlariga o'z faoliyatida maxsus va tezkor-xizmat xarakteriga ega ma'lumotlardan foydalanuvchi ichki ishlar boshqarmalari, adliya boshqarmalari va tashkilotlari, prokuratura, sud, ushbu tizimlarning axborot markazlari va boshqa bo'linmalarining (jumladan joylardagi boshqaruv organlari) axborot resurslari kiradi. Huquq-tartibot yo'nalishidagi obyektlarga asosiy xavf tug'diruvchi tashqi manbalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

jinoiy va poraxo'r guruhlarning va alohida shaxslarning josuslik faoliyatining hamma turlari, jumladan axborot-texnik ta'sir;

jinoiy tashkilotlar tomonidan huquq-tartibot kuchlarining vazifalari va rejalarini, texnik ta'minlanganligini, maxsus bo'linmalar va ichki ishlar organlarining dislokatsiya joylarini oshkor etuvchi ma'lumotlarni yig'ishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi;

ichki ishlar organlari va huquq-tartibot yo'nalishidagi boshqa obyektlarning axborot resurslariga cheklanmagan holda kirishga intilayotgan jismoniy tijorat tashkilotlarining faoliyati.

Asosiy xavf tug'diruvchi ichki manbalar quyidagilardan tashkil topishi mumkin: kartoteka va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasida saqlanadigan va jinoyatlarni ochish va tekshiruv ishlarini olib borishda foydalaniladigan ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish reglamentining buzilishi;

huquq-tartibot yo'nalishida axborot almashuvining qonuniy va me'yoriy tartibga solinishidagi kamchiliklar;

tezkor-qidiruv, ma'lumot berish, kriminalistik va statistik xarakterga ega ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlashda yagona usullarning (metodologiya) yo'qligi;

texnik vositalardagi kamchiliklar va axborot hamda telekommunikatsiya tizimlarining dasturiy ta'minotlaridagi uzilishlar;

kartoteka va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasida bevosita band bo'lgan xodimlarning ataylab qilgan xarakatlari va xatolari.

Axborot xavfsizligi talablarini ta'minlashga, byudjet mablag'larini birlashtirish va tejashga, iqtisodiy va moliyaviy tahlil bo'yicha vazifalarni bajarishga, soliq, ijtimoiy ta'minot xizmatlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan axborot tashkilotlarining e'tiborli yo'nalishlaridan biri-bu maxsus hududiy-taqsimlangan avtomatlashgan axborot tizimi ko'rinishidagi shaxsiy ma'lumotlar, ko'chmas mulk axborotlari, tezkor-qidiruv, ma'lumot berish, sud materiallarini o'z ichiga oluvchi birlashtirilgan va himoyalangan ko'p tizimli tizimni yaratishdan iborat. Axborot sohasida bunday tizimni yaratishni, markazning viloyatlar bilan kelishilgan holda, faoliyat olib borish tizimini ishlab chiqishdan boshlash mumkin. Fan va texnika ham axborot xavfsizligi tushunchasida nozik yo'nalishlardan hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi asosiy xavf tug'diruvchi obyektlar:

hudud va davlatning ilmiy-texnikaviy, texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan fundamental va amaliy ilmiy izlanishlar natijalari;

patentlanmagan, yashirin (konfidensial) statusiga ega bo'lmagan, shuning uchun amaldagi qonunchilikka to'g'ri kelmaydigan va chet elga sotilishi yoki berib yuborilishi mumkin bo'lgan texnologiyalar, nou-xau, sanoat namunalari, modellar va eksperimental jihozlar;

huquqiy himoyalaniishiga qaramasdan o'g'irlanishi va noqonuniy tarqatilishi yoki foydalanilishi mumkin bo'lgan intellektual mulk (kashfiyotlar, patentlar, sanoat namunalari, programma maxsulotlari va boshqalar) mahsulotlari bo'lishi mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan fan va texnika yo'nalishidagi axborot xavfsizligi obyektlariga xavf tug'dirayotgan manbalar o'ziga xos va global xarakterga ega bo'lgani uchun turiligi, solishtirish qiyinligi bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun fan, texnika va texnologiya yo'nalishidagi axborot xavfsizligi obyektlari himoyasini tashkil qilish qiyin. Joylardagi axborot strukturalari ilmiy va intellektual potensialni noqonuniy o'zlashtirish yoki foydalanishning oldini olish maqsadida, ilmiy, texnik va texnologik mahsulotlarni noqonuniy tarqatish yoki foydalanish bo'yicha har bir konkret holatga o'z

tavsiyalarini ishlab chiqish sistemasini tashkillashtirish va hududiy huquqiy xujjatlarni ishlab chiqishi bilan yordam berishi mumkin.

§9. Axborotni himoya qilishning kriptografik usullari

Axborotni uning mazmunini begona shaxs o'qishini istisno qiladigan tarzda o'zgartirish yo'li bilan himoya qilish muammosi insonni qadim zamonlardan beri o'ylantirib keladi. So'nggi yillarda axborot xavfsizligiga qo'yiladigan talablar jiddiy o'zgardi. Ma'lumotlarga ishlov berishning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanishga o'tilgunga qadar axborot xavfsizligi faqat fizik va ma'muriy chora-tadbirlar yordamida ta'minlanar edi. Kompyuterlar paydo bo'lishi bilan ma'lumotlar yozilgan fayllarni va dasturlarni himoya qilishning avtomatik vositalaridan foydalanishga zarurat tug'ildi. Avtomatik himoya vositalari rivojlanishining keyingi bosqichi ma'lumotlarga ishlov berishning taqsimlangan tizimlari va kompyuter tarmoqlari paydo bo'lishi bilan bog'liq. Mazkur tizimlarda va tarmoqlarda tarmoq xavfsizligi vositalaridan eng avvalo tarmoqlar orqali uzatiluvchi ma'lumotlarni himoya qilish uchun foydalaniladi.

Axborotni himoya qilish kriptografik usullari – axborotni shifrlash, kodlashtirish yoki boshqacha tarzda o'zgartirish maxsus metodlari. Bunday o'zgartirish natijasida, agar kriptogramma kaliti kiritilib, axborot asl holatiga qaytarilmasa, uning mazmuni bilan tanishish mumkin bo'lmaydi. Axborotni himoya qilish kriptografik usuli eng ishonchli himoya usuli hisoblanadi, chunki ayni holda axborotga kirish emas, balki axborotning o'zi qo'riqlanadi. Mazkur himoya usuli dasturlar yoki dasturlar paketi ko'rinishida amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon kriptografiyasi quyidagi yirik bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- Simmetrik kriptografik tizimlar
- Ochiq kalitli kriptografik tizimlar
- Elektron imzo
- Kalitlarni boshqarish

Ma'lumotlarni kriptografik berkitish jarayoni dastur yordamida ham, apparat yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Apparat

yordamida amalga oshirish ancha qimmat turadi, lekin u nisbatan samarali, sodda bo'lib, axborotni ishonchli himoyalash imkonini beradi. Dastur yordamida amalga oshirish ham foydalanishda qulay. Hozirgi axborotni himoya qilish kriptografik tizimlariga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

— shifrlangan ma'lumot faqat kalit kiritilgan holdagina o'qilishi lozim;

— shifrlangan ma'lumotning muayyan qismiga qarab foydalanilgan shifrlash kalitini aniqlash uchun zarur amallar mumkin bo'lgan kalitlar umumiy miqdoridan kam bo'lmasligi kerak;

— shifrlash algoritmini bilish himoyaning ishonchligiga ta'sir etmasligi kerak;

— kalitni ozgina o'zgartirish, hatto ayni bir kalit qo'llangan holda ham, shifrlangan ma'lumot ko'rinishi jiddiy o'zgarishiga olib kelishi lozim;

— shifrlash algoritmining tarkibiy qismlari o'zgarmas bo'lishi kerak;

— shifrlash jarayonida ma'lumotga kiritiladigan qo'shimcha bitlar shifrlangan matnda to'liq va ishonchli berkitilishi lozim;

— shifrlangan matn uzunligi asosiy matn uzunligiga teng bo'lishi kerak;

— shifrlash jarayonida ketma-ket qo'llaniladigan kalitlar o'rtasida sodda va oson aniqlanadigan bog'liqliklar bo'lmasligi kerak;

— mumkin bo'lgan kalitlar to'plamidan istalgan kalit axborotni ishonchli himoya qilishni ta'minlashi lozim;

— algoritm himoyani dasturda ham, apparatda ham amalga oshirish imkonini berishi, bunda kalit uzunligining o'zgarishi shifrlash axboroti sifatining yomonlashuviga olib kelmasligi kerak.

Simmetrik kriptografik tizimlar. Simmetrik shifrlash algoritmlari bu shunday shifrlash algoritmlariki, ularda shifrlash va shifrdan chiqarish uchun ayni bir kalitdan foydalaniladi yoki shifrdan chiqarish kaliti shifrlash kalitidan oson yasalishi mumkin. (Shifrlash – o'zgartirish jarayoni: asosiy matn (u ochiq matn deb ham ataladi) shifrlangan matnga aylantiriladi, shifrdan chiqarish – shifrlashga teskari jarayon. Kalit yordamida shifrlangan matn asosiy matnga aylantiriladi.)

Simmetrik kriptografik tizimlarda mavjud kriptografik usullar rang-barangligini quyidagi o'zgartirish turlariga bog'lash mumkin:

- o'rin almashtirish;
- joyini o'zgartirish;
- analitik o'zgartirish;
- murakkab o'zgartirish.

Murakkab o'zgartirish – shifrlanayotgan matn qismiga (blokiga) nisbatan qo'llaniladigan asosiy o'zgartirish usullarining muayyan ketma-ketligi. Murakkab o'zgartirish amaliyotda «sof» o'zgartirishning muayyan turlariga qaraganda ko'proq uchraydi, chunki u axborotni ancha ishonchli himoya qilish imkonini beradi.

Ochiq kalitli tizimlar. Ochiq kalitli tizimlarda ikkita kalit – ochiq va yopiq kalitlar qo'llaniladi. Ular bir-biri bilan matematik bog'liq. Axborot ochiq kalit yordamida shifrlanadi va faqat ma'lumotni oluvchiga ma'lum bo'lgan yopiq kalit yordamida shifrdan chiqariladi.

Kriptografik tizimlar qanchalik murakkab va ishonchli bo'lmasin, kalitlarning taqsimlanishi muammosi ulardan amalda foydalanishda zaif bo'g'in bo'lib qolayotir. Axborot tizimining ikki subyekti o'rtasida maxfiy axborot almashish uchun ulardan biri kalitni muayyan tarzda shakllantirishi va maxfiy usulda ikkinchi subyektga uzatishi lozim. Ya'ni umumiy holda kalitni uzatish uchun yana bir kriptografik tizimdan foydalanishga to'g'ri keladi. Mazkur muammoni hal qilish uchun klassik va zamonaviy algebrada olingan natijalar asosida ochiq kalitli tizimlar taklif qilindi. Axborot ishonchli himoya qilinishini ta'minlash uchun ochiq kalitli tizimlarga ikkita muhim talab qo'yiladi:

1. Asosiy matn shunday o'zgartirilishi kerakki, ochiq kalit yordamida uni tiklashning iloji bo'lmasin.

2. Ochiq kalit yordamida hozirgi texnologik darajada yopiq kalitni aniqlashning ham iloji bo'lmasin. Bunda shifr ochilishi og'irlik darajasining quyi chegarasi aniq belgilanishi lozim.

Ochiq kalitli shifrlash algoritmlari hozirgi axborot tizimlarida keng qo'llanilmoqda. Chunonchi, RSA algoritmi ochiq tizimlar uchun jahon miqyosida rasmiy standartga aylandi. Umuman olganda, hozirda taklif qilinayotgan barcha ochiq kalitli kriptografik tizimlar qaytmas o'zgartirishlarning quyidagi turlaridan biriga tayanadi:

- katta sonlarni oddiy ko'paytuvchilarga bo'lish;
- pirovard maydondagi logarifmni hisoblash;
- algebraik tenglamalarning ildizlarini hisoblash.

An'anaviy kriptografiya ta'minlovchi xavfsizlik bir necha omillarga bog'liq.

Birinchidan, uzatilayotgan shifrlangan axborotni kalitsiz shifrdan chiqarish mumkin bo'lmasligi uchun kriptografik algoritm ancha kuchli bo'lishi kerak. Ikkinchidan, uzatilayotgan axborotning xavfsizligi algoritmning maxfiyligiga emas, balki kalitning maxfiyligiga bog'liq bo'lishi lozim. Zaif bo'g'inlarga yo'l qo'ymaslik uchun algoritm mutaxassislar tomonidan puxta tahlil qilinishi kerak. Uchinchidan, algoritm shunday bo'lishi kerakki, ayni kalit yordamida shifrlashda olingan ancha ko'p juftlar (shifrlangan ma'lumot, shifrlanmagan ma'lumot)ni bilgan holda ham kalitni bilib olishning iloji bo'lmasin.

Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ochiq kalitli kriptografik tizim algoritmlaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

1. Uzatilayotgan va saqlanayotgan ma'lumotlarni himoya qilish mustaqil vositalari sifatida.

2. Kalitlarni taqsimlash vositalari sifatida.

Ochiq kalitli algoritmlar an'anaviy kriptografik tizimlarga qaraganda ko'proq mehnat sarfini talab qiladi. Shu sababli amalda axborot tarzidagi hajmi uncha katta bo'lmagan kalitlarni ochiq kalit yordamida taqsimlash, so'ngra oddiy algoritmlar yordamida katta axborot oqimlari almashish maqsadga muvofiqdir. Ochiq kalitli tizim – RSA tizimi eng ko'p tarqalgan kriptografik tizimlardan biri. 1977-yilda ishlab chiqilgan RSA kriptografik tizimi uning mualliflari - Rivest, Shamir va Adelman nomi bilan atalgan. RSA nosimmetrik, ya'ni shifrlash va shifrdan chiqarishda turli kalitlarni qo'llovchi algoritmdir. Foydalanuvchilar ikkita kalitga ega bo'ladilar va o'z ochiq kalitini keng tarqatishlari mumkin. Shu sababli RSA algoritmi banklarning kompyuter tarmoqlarida, ayniqsa, uzoqda joylashgan mijozlar bilan ishlashda ko'p qo'llaniladi.

Elektron imzo. Matnga ulanadigan imzoning elektron o'zgartirilishi elektron imzo tizimi deb ataladi. Mazkur tizim matnni boshqa foydalanuvchi olganida, ma'lumotning muallifi va haqiqiyiligini tekshirib ko'rish imkonini beradi.

Ma'lumotlarni autentifikatsiya qilish muammosi nimadan iborat? Autentifikatsiya – axborot qonuniy manbadan olingani va oluvchining haqiqiyiligini tasdiqlash. Bitta muayyan xabar uzatilgan holda autentifikatsiya xabarni kerakli odam olganini va xabar

belgilangan manbadan olinganini kafolati shi lozim. Aloqa bog'lashda ikki jihatni e'tiborga olish kerak. Birinchidan, bog'lanishni initsializatsiya qilishda servis ikkala ishtirokchi ham talab etilgan ishtirokchilar bo'lishini kafolatlashi lozim. Ikkinchidan, servis bog'lanishga uchinchi tomon niqoblangan holda ta'sir ko'rsata olmasligini kafolatlashi kerak. Oddiy xat yoki hujjat oxirida ijrochi yoki mas'ul shaxs odatda o'z imzosini qo'yadi.

Bundan odatda ikki maqsad ko'zlanadi. Birinchidan, oluvchi imzoni o'zida mavjud namunaga solishtirib, xatning haqiqiyiligiga ishonch hosil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ikkinchidan, shaxsiy imzo hujjat muallifi haqiqiyiligining huquqiy kafili bo'lib xizmat qiladi. So'nggi jihat turli savdo bitimlari, ishonchnomalar, vasiyatnomalar tuzish, majburiyatlar olishda ayniqsa muhimdir. Ammo hujjatlarning elektron shakllari va ularga ishlov berish vositalari keng tarqalishi bilan qog'ozsiz hujjatlarning haqiqiyiligini va ularning mualliflarini aniqlash muammosi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etdi. Ochiq kalitli kriptografik tizimlar mavjud barcha ustunliklariga qaramay, ma'lumotlarni autentifikatsiya qilish imkonini bermaydi. Shu sababli autentifikatsiya vositalari kompleksda va kriptografik algoritmlar bilan birga qo'llanilishi lozim.

Kalitlarni boshqarish. Bu axborotga ishlov berish tizimining kalitlar tuzish va ularni foydalanuvchilar o'rtasida taqsimlashdan iborat jarayonidir. Kriptografik metodlardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari – maxfiy axborotni aloqa kanallari orqali uzatish, uzatilayotgan ma'lumotlarning haqiqiyiligini aniqlash, axborotni tashuvchilarda shifrlangan holda saqlash.

Muayyan axborot tizimiga mos keladigan kriptografik tizimni tanlashdan tashqari, yana bir muhim muammo bu kalitlarni boshqarish muammosidir. Kriptografik tizim qanchalik murakkab va ishonchli bo'lmasin, u kalitlardan foydalanishga asoslanadi. Agar ikki foydalanuvchi o'rtasida maxfiy axborot almashishni ta'minlash uchun kalitlar almashish jarayoni uncha murakkab bo'lmasa, o'nlab, yuzlab foydalanuvchilar ishlaydigan axborot tizimida kalitlarni boshqarish juda og'ir ish. Kalitli axborot deganda axborot tizimida amal qiluvchi barcha kalitlar majmui tushuniladi. Agar kalitli axborotni ishonchli boshqarish ta'minlangan bo'lmasa, uni egallab olgan yovuz niyatli shaxs barcha axborotdan cheklanmagan tarzda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kalitlarni

boshqarish axborot jarayoni bo'lib, u uchta tarkibiy qismdan iborat:

- kalitlarni bir yerga jamlash;
- kalitlarni to'plash;
- kalitlarni taqsimlash.

Kriptografik usullardan foydalanish. Axborotni himoya qilish usullaridan foydalanish muammosi ikki jihatga ega:

— kriptografik algoritmlardan foydalanish vositalarini ishlab chiqish;

— mazkur vositalardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish.

Ko'rib chiqilgan kriptografik usullarning har biridan yo apparat usulida, yo dasturiy usulda foydalanish mumkin. Dasturiy usulning o'ziga xosligi shundan iboratki, barcha kriptografik o'zgartirish usullari formal bo'lib, ularni algoritmik taomil ko'rinishida ifodalash mumkin. Apparat usulida barcha shifrlash va shifrdan chiqarish taomillarini maxsus elektron sxemalar bajaradi. Murakkab usullarni qo'llaydigan modullar ayniqsa ko'p tarqalgan. Chet el shifrlash vositalarining aksariyati AQShda ishlab chiqilgan DES standartiga asoslangan. So'nggi yillarda murakkab shifrlash vositalari – dasturiy-apparat vositalari paydo bo'la boshladi. Bu holda kompyuterda o'ziga xos «kriptografik qo'sh protsessor» — kriptografik amallarni bajarishga mo'ljallangan hisoblash moslamasi qo'llaniladi. Bunday moslama uchun dasturiy ta'minlash vositalarini o'zgartirish yo'li bilan muayyan shifrlash usulini tanlash mumkin. Mazkur usul dasturiy va apparat usullarining barcha ustun jihatlarini o'zida birlashtiradi.

Shunday qilib, muayyan axborot tizimi uchun kriptografik himoya usulidan foydalanish turini tanlash uning o'ziga xos xususiyatlariga ko'p jihatdan bog'liq va axborotni himoya qilish tizimiga qo'yiladigan talablarni har tomonlama tahlil qilishga tayanishi lozim.

VII BOB. HUQUQIY INFORMATIKANING METODOLOGIK ASOSLARI

§1. Informatika va sun'iy intellekt muammosi

Huquqiy informatikaning metodologiyasi foydalaniladigan vositalarning xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Hozirgi bosqichda sun'iy intellekt borasidagi tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega. Informatika va hisoblash texnikasining kelajagiga doir ko'pgina muhim masalalar aynan shu yerda hal qilinadi, fanlararo tadqiqotlarning eng yangi usullaridan foydalaniladi.

Intellekt va intellektual tizim – bu dunyo (uning bir qismi)ni modeillashtiruvchi qudratli tizimlardir.

Sun'iy intellekt – bu zamonaviy EHMlarda amalga oshiriladigan va insonning real intellekti, uning fikrlash faoliyati, psixikasi xususiyatlari, ya'ni avval jamlangan axborotlar asosida maqsadga muvofiq qarorni tanlash qobiliyatini modellashtirish uchun mo'ljallangan sun'iy yaratilgan tizimdir. EHM ma'lum sharoitlarda matematik nazariyalarni isbotlash, she'r va matnlar to'qish, mashinada tarjima qilish, avtomatik referatlar tuzish, murakkab axborotlarni qidirish va boshqa shunga o'xshash ishlarni amalga oshirishga qodir. Sun'iy intellekt muammosi – kishilik tarixida insoniyat oldida turgan eng murakkab ilmiy-amaliy muammolardan biridir. Hozirgi vaqtda bu informatika va hisoblash texnikasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishidir.

Sun'iy intellektga doir tadqiqotlarda olti asosiy yo'nalish ajralib chiqdi.

1. Bilimlarni istifoda etish.
2. Bilimlarni manipulatsiya qilish.
3. Muloqot qilish.
4. Axborotlarni idrok etish.
5. Intellektual tizimni u avval duch kelmagan vazifalarni hal qilishga o'rgatish.
6. Normativ, situativ va maqsadga muvofiq xulq-atvor model-larini yaratish.

<p>Generatsiya datchiklar abonentlik shoxobchalari monitoring</p> <p>Kommunikatsiya muhit kanallar axborot manbai axborot qabul qiluvchi</p> <p>Idrok etish ovozni (nutqni) idrok etish matnni (tasvirni) idrok etish taktil idrok etish ta'mni idrok etish hidni idrok etish</p> <p>Tanib olish nutqni matnni tasvirni taktil sezgilarni ta'm sifatlarini</p> <p>hidni</p> <p>Tanib olingan signallarni tushunish belgili ifodalarning tushunariligi tushunish darajalari tushunarlilik mezonlari</p> <p>Bilimlarni taqdim etish turkumlash tizimlari semantik tarmoqlar freymlar mahsullar</p> <p>Saqlash semantik bosqich mantiqiy bosqich</p>	<p>Axborot qidirish jismoniy bosqich formal relevantlik jismoniy olish</p> <p>Mantiqiy xulosa chiqarish induktiv deduktiv induktiv-deduktiv</p> <p>Prognoz qilish obyektiv qonuniyatlarni hisobga olish subyektiv omillarni hisobga olish maqsadni shakllantirish</p> <p>Qarorlar qabul qilish ko'plab muqobilar o'raidan tanlash boshqaruv komandasini ishlab chiqish</p> <p>Harakatlarni amalga oshirish boshqaruv obyektiga moddiy-energetik ta'sir ko'rsatish komandaning bajarilishini nazorat qilish</p> <p>Harakatlarni tushuntirish o'zaro aloqaning dialogli mexanizmlari o'zaro tushunish mexanizmlari</p> <p>O'qitib-o'rgatish tushunish jarayonidagi aniqlashlar ostensiv aniqlashlar verbal aniqlashlar kontekstual aniqlashlar sistematik o'qib-o'rganishdagi aniqlashlar ilmiy bilish darajasidagi aniqlashlar tushunchalarni o'rgatish harakatlarni o'rgatish</p>
---	--

Sun'iy intellektga doir tadqiqotlarda quyidagi metodlar majmuidan foydalaniladi: matematik mantiq metodlari, freymilar tili, matematik va amaliy lingvistika metodlari; bilish mexanizmini o'rganuvchi kognitiv psixologiya metodlari va h.k.

Sun'iy intellekt nazariyasida «dunyo modeli» tushunchasi amal qiladi. Jumladan, yuristning ongida aks etgan dunyo modeli quyidagi asosiy qismlardan tashkil topadi:

huquqiy tartibga solish obyektlari;

huquqiy tartibga solishning maxsus obyektlari;

huquqiy tartibga solishning umumiy modellari;

huquqiy tartibga solishning maxsus modellari.

O'zbekiston Respublikasining huquqi va qonunchiligiga to'liq asos bilan murakkab intellektual tizimlar sifatida qarash mumkin. Qonun matnining birligiga to'g'ri keladigan yuridik axborotlarning zichligi juda katta bo'ladi. Jamiyat faoliyatining eng muhim sohalari – siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va boshqalarni tartibga solishning murakkab muammolarini o'z ichiga olgan konstitutsiyaviy qonunlar alohida turkumni tashkil etadi. Huquqiy tartibga solishning murakkabligi avvalambor shu bilan aniqlanadiki, ushbu sohada boshqaruv yo'li bilan ta'sir ko'rsatishning obyekti bo'lib o'z sifat o'lchamlariga ko'ra xilma-xil bo'lgan hodisalar va murakkab inson omili mavjud bo'lgan ijtimoiy jarayonlar ishtirok etadi. Yuristning fikrlash faoliyatiga yuksak saviyadagi intellektuallik, ixtisoslashish va professionalizm xos bo'ladi.

Intellektual tizimlarga ichki talqinga va tuzilishga egalik, bog'liqlik va faollik singari xususiyatlarga ega bilimlar bazasining mavjudligi xosdir. Har qanday ijtimoiy axborot intellektual xususiyatga ega bo'ladi. Informatikada «intellektualizatsiya», «intellektual tizim», «intellektual texnologiya», «intellektual interfeys» tushunchalari hamda EHMni «gumanizatsiya qilish» va intellektual mashinalarning beshinchi avlodini yaratishning boshqa vositalari paydo bo'ldi. Huquq sohasidagi avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ham intellektual tabiatga ega.

Huquq sohasidagi materiallar hajman shu qadar katta va mazmunan shu qadar murakkabki, intellektual, shu jumladan ekspert tizimlarini yaratish nafaqat mumkin, balki zarur hamdir. Intellektual tizimlar va texnologiyalar qonun hujjatlari sohasiga ham kirib kelayotir.

Bir qator mamlakatlarda davlat va huquq sohasiga intellektual texnologiyalar va tizimlarni joriy etishning maxsus dasturlari qabul qilingan. Jumladan, Yaponiyaning Bosh politsiya boshqarmasida maslahat punktlariga voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammolari bo'yicha yordam ko'rsatish tizimi, yirik iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilish tizimi va boshqa shunga o'xshash tizimlar ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaqtda huquq sohasida intellektual texnologiyalardan foydalanishning quyidagi asosiy yo'nalishlari vujudga kelgan.

Ekspert tizimlarini yaratish. 70-chi yillarning o'rtalarida sun'iy intellektga doir tadqiqotlarda «ekspert tizimlari» deb nomlangan istiqbolli yo'nalish shakllandi. Ekspert tizimi – bu tegishli soha mutaxassislarining professional ma'lumotlariga asoslangan inson tomonidan boshqariladigan kompleks bo'lib, u ichki mantiqqa ega va ko'rib chiqilayotgan muammoning mazmuniga ko'ra qarorlarni ishlab chiqishga qodir.

Ekspert tizimlarining quyidagi turlari farq qilinadi:

1) maqsadi ma'lumotlardan vaziyatlarning tavsiflarini chiqarib olishdan iborat bo'lgan integratsion tizimlar;

2) maqsadi diagnostik qo'yishdan iborat bo'lgan diagnostik tizimlar;

3) maqsadi biron-bir obyektни loyihalashdan iborat bo'lgan loyihalash tizimlari;

4) maqsadi harakatlarni turli senariylar bo'yicha taqsimlashdan iborat bo'lgan rejalashtirish tizimlari;

5) turli vaziyatlarni taqqoslash uchun xizmat qiluvchi monitoring tizimlari;

6) maqsadi avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlarini yaratishdan iborat bo'lgan ta'lim tizimlari;

7) maqsadi o'rganilayotgan jarayonning kechishini nazorat qilishdan iborat bo'lgan nazorat tizimlari.

Intellektual EHMLarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular ma'lumotlar bazalaridan emas, balki bilim bazalaridan foydalanadi. Voqelikni bilishning tajribada tekshirib ko'rilgan natijasi bilim hisoblanadi. Huquq sohasiga tatbiqan bilim – bu insoniyat tomonidan to'plangan instinktlar, faktlar, prinsiplar va huquqiy bilishning boshqa obyektlaridir. Shuning uchun ham, ma'lumotlar bazasidan farqli o'laroq, bilimlar bazasidan hujjatlar, kitoblar,

maqolalar va hisobotlarda ifoda etilgan ma'lumotlar o'rin oladi.

Ekspert tizimi yuristlar – odatda huquqning biron-bir sohasi mutaxassislari – tomonidan tuziladi va faqat bir sohada yuridik vazifalarni hal qilish jarayonida yordamchi sifatida faoliyat ko'rsatish uchun mo'ljallanadi. Bunday tizimlardan odatda o'z vakolatlari doirasiga kirmaydigan vazifalar bilan to'qnash keladigan amaliyotchi-yuristlar foydalanadi.

Dastlabki eng sodda intellektual tizimlar sobiq SSSRda 60- va 70- yillarda yaratilgan. Bunday tizimlar EHM yordamida murakkab faktlarning tarkiblarini tasniflash imkonini bergan. 60- yillarda huquqni qo'llash sohasini modellashtirish masalalari akademik V.N. Kudryavsevning diqqat markazida bo'lgan. V.N. Kudryavsev turli yuridik qoidalar, institutlar, alohida normalar birgalikda va ayri holda ko'plab har xil algoritmlarga ega ekanligini qayd etadi. Ammo ular haddan tashqari umumiy xususiyatga ega. Shunga qaramay, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni tasniflash jarayonini tartibga soluvchi dasturlar yaratilishi mumkin. 1970-yili N.V. Kudryavsev vazifasi jinoyatlarni tasniflashda huquq normalarining qo'llanilishi jarayonining evristik xususiyatlarini o'rganishdan iborat bo'lgan psixologik eksperiment o'tkazdi. Eksperiment natijasida ko'pgina holatlarda vazifalarning yechimi ikki qismdan: vazifaning tipini aniqlash algoritmini tuzish va undan foydalanish hamda algoritmdan so'zning o'z ma'nosida foydalanishdan iborat ekanligi aniqlandi. Vazifaning tipini aniqlashning maqsadi yechimni qaysi sohadan izlash zarurligini taxminan aniqlashdan iborat. Unga muvofiq tasniflashning asosiy algoritmi ham qayta tuziladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, huquq ijodkorligida kompyuter va intellektual texnologiyalardan foydalanish bu jarayonni yanada yuqori darajaga olib chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga qonun hujjatlarini yaratish juda murakkab ijodiy jarayon ekanligi ham hisobga olinishi lozim. Bu jarayonni to'liq algoritmlashtirib bo'lmaydi. Kompyuter qonun loyihasini «yaratish»ga qodir emas.

Qonun loyihalarini yaratish murakkab vazifa bo'lib, uni hal qilish jarayonida inson tafakkurining oliy ijodiy funksiyalari amalga oshiriladi. Maqbul qonun loyihalarini yaratish uchun EHMDan samarali foydalanish imkoniyatining yo'qligi qator omillar bilan izohla-

nadi. Qonun loyihasi, alohida institut va alohida huquq normasi miqyosida ijtimoiy va huquqiy reallikni muntazam bilish va umumlashtirish jarayonlarini kompyuterda modellashtirib bo'lmashligi shular jumlasidandir. Shuningdek har bir huquq normasi yaratish va modellashtirishning o'z algoritmini talab etishini ham nazarda tutish lozim.

§2. Informatika va kibernetika

Informatikaning rivojlanishi boshqa, unga yaqin soha – kibernetikaning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Huquqqa tatbiqan bu o'rinda huquqiy kibernetika haqida gap borishi lozim.

60- va 70- yillarda kibernetika jadal rivojlandi. Kibernetik va axborotlar sohasidagi g'oyalar bir-biriga bog'liq holda ko'rib chiqildi. Bunda informatika g'oyalari kibernetika g'oyalari va metodlariga nisbatan bo'ysunuvchi holatni egalladi.

70- yillarning oxirida informatika mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. Bu kibernetikaning o'rni va ahamiyatining ma'lum darajada kamayishiga olib keldi. Bugungi kunga kelib boshqa bir tendensiya ko'zga tashlandi: ayrim mutaxassislar kibernetikaga informatikaning bir qismi sifatida qaray boshladilarki, bu prinsipial noto'g'ridir.

Jonli va jonsiz tabiatning murakkab tizimlaridagi boshqaruv prinsiplarining birligini aniqlashda amerikalik olim Norbert Viner va uning izdoshlarining xizmatlari katta bo'ldi. Viner tartibga solishning keng mantiqiy-funksional talqinini berdi va uni kibernetika deb nomladi. Bunga asoslari Platon, Amper, Maksvell, Vishnegradskiy, Lyapunov va boshqa olimlarning asarlarida yaratilgan teskari aloqa klassik nazariyasi negiz bo'lib xizmat qildi¹.

Shu asno texnik, biologik va ijtimoiy tizimlardagi boshqaruv muammosi to'liq qo'yildi va uni chuqur, har tomonlama o'rganishga kirishildi.

Akademik A.I. Berg kibernetikani mantiq va matematikaning nazariy poydevoriga hamda avtomatlashtirish va axborot-mantiqiy mashinalar vositalaridan foydalanishga asoslangan har qanday murakkab dinamik tizimlar bilan optimal boshqarish haqidagi fan sifatida ta'rifladi.

¹ Shu bilan birga N. Viner kibernetika sistematik tavsifini bermadi.

Rus olimi A.N. Kolmogorov tasodifiy ketma-ketliklarni interpolyatsiya va ekstrapolyatsiya qilish haqidagi matematik nazariyani yaratdi va intellektual tizimlar haqidagi bir qator fundamental qoidalarni asoslab berdi. V.M. Glushkov kibernetikaga «murakkab boshqarish tizimlaridagi axborotlarni o'zgartirishning umumiy qonunlari to'g'risidagi» fan sifatida qaradi.

Bunda boshqaruv va axborot o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Har qanday boshqaruv tizimiga axborotlar aloqalari obyektiv ravishda xosdir. Ijtimoiy boshqarishning axborot modeli qo'yilgan vazifalarning hal qilinishi bilan bog'liq bo'lgan axborot oqimlari majmuini aks ettiradi. Axborot parametrlarining normativ tartibda mustahkamlanishi yirik qonun hujjatlari va boshqa huquqiy hujjatlarning muhim xususiyatidir. Masalan, xalqaro-huquqiy hujjatlarda – bu xalqaro huquq subyektlarining xulq-atvori va faoliyati ustidan nazorat qilish, inspeksiya va o'zaro tekshiruv choralari qo'llashdan iborat.

Akademik A.I. Berg tomonidan kibernetikaga berilgan ta'rifdan kelib chiqib huquqiy kibernetika – bu davlat va huquq sohasidagi boshqarish va tartibga solish jarayonlarining xususiyatlarini matematika, mantiq va modellashtirish negizida o'rganuvchi fan sohasi deb aytish mumkin.

Informatika va kibernetika – bu har xil fanlardir. Binobarin, huquqiy informatika va huquqiy kibernetika ham har xil fan sohalari hisoblanadi.

Shunday qilib, umumiy va huquqiy kibernetika «o'z yuzi»ni to'liq saqlab qoladi. Huquqiy kibernetikaning ilmiy-amaliy bilimning mustaqil sohasi sifatidagi maqomi tiklanishi lozim.

Huquqiy kibernetikaning tuzilishida quyidagi muammolarni ajratish mumkin:

- 1) «boshqarish» va «tartibga solish» tushunchalarining huquqiy aspektlari;
- 2) huquqiy tartibga solishning samaradorligi va maqbulligi;
- 3) tartibga solish tizimlarining barqarorligi;
- 4) huquq sohasidagi boshqaruv tizimlari;
- 5) adaptatsiya jarayonlari;
- 6) tizimli tahlil va matematik modellashtirish;
- 7) situatsion boshqaruv.

Bularning barchasi yuridik kadrlarni tayyorlash va huquqiy

kibernetikani alohida boshqarish vositasi sifatida shakllantirishda hisobga olinishi lozim.

70- yillarda yuridik sohada avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish jarayoni ABT (avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari)ni yaratish bilan bog'liq konsepsiyalarning ta'siri ostida bo'ldi. ABT – bu ijtimoiy boshqaruvni tashkil etish shakli bo'lib, uning mazmuni boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotlar to'plash va ularni qayta ishlashning samaradorligini oshirish maqsadida EHM-dan faol foydalanishdan iborat. ABT konsepsiyasi yuridik sohaga katta ta'sir ko'rsatdi. IIV, Prokuratura, Adliya va Oliy Sudning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari tashkil etila boshlandi.

Biroq avtomatlashtirilgan tizimlar o'tmishda va hozirgi kundagi konstruksiyasiga ko'ra boshqaruv tizimlari hisoblanmaydi. Mohiyat e'tibori bilan ular axborot xususiyatiga ega. Zotan, axborotlarni to'plash, dastlabki ishlov berish, saqlash va qidirish bosqichlaridan so'ng ularni tahlil qilish, sintez qilish va eng muhimi - qaror qabul qilish bosqichlari keladi. Aynan shu bosqichlar ABT konsepsiyasida qamrab olinmagan.

Shunday qilib, «ABT» kategoriyasining keng talqini o'zining kamchiliklarini namoyon eta boshladi. Bugungi kunda ABT va boshqa ayrim yaqin tizimlarning chegaralanishi tendensiyasi kuza-tilmoqda.

ABT so'zning asl ma'nosida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish yoki tahlil – sintez asosida bunday qarorlarning muhim jihatlarni shakllantirishga mo'ljallangan; bunda iqtisodiy-matematik va ijtimoiy-matematik metodlardan keng foydalaniladi.

ABTga yaqin turadigan yangi avlod tizimlarini avtomatlashtirilgan axborot ta'minoti tizimlari (AATT) deb atash to'g'ri bo'ladi.

70-80-chi yillarda huquqni qo'llash organlarini axborotlashtirish konsepsiyasi jiddiy o'zgardi. Amaliy ishlovlardan «ABT» atamasi yo'qola boshladi. Uning o'rniga Prokuratura, Adliya avtomatlashtirilgan axborot ta'minoti tizimlari, IIV Axborot-hisoblash tarmoqlari singari yangi tushunchalar kirib keldi.

Boshqaruvning asosiy kategoriyalari va qonuniari

Kibernetikaning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat. Xususiyl, avtonom tizimchalar to'plamidan tashkil topgan murakkab tizimlar

boshqaruv organi (bloki)siz ishlay olmaydi; bunday organsiz mazkur tizimlar disfunktsiya xususiyatini kasb etadi. Oxir natijada ular buziladi va mustaqil obyekt sifatida mavjud bo'lmay qoladi. Boshqaruv tizimlarini loyihalashning asosida subyekt obyektidan nima istashi, ya'ni qanday maqsadni ko'zlashi haqidagi axborotlar yotadi. Aynan shu axborotlar obyekt va boshqaruv tizimini birlashtiradi. Maqsadlarni belgilash jarayoni boshqaruv protsedurasidan oldin keladi va uni jiddiy darajada shakllantiradi. Boshqarish va tartibga solishning quyidagi tipik usullari mavjud:

boshqarilayotgan obyektning yuklangan parametrlardan chetga og'ishini to'g'rilash yo'li bilan;

shovqinlarni kompensatsiya qilish orqali;

shovqinlarni bartaraf etish orqali.

N. Viner va boshqa olimlar boshqaruv va axborot tushunchalari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatib berdilar. Har qanday boshqaruv to'g'ri va teskari aloqa kanallarida aylanadigan axborotlarni to'plash, qayta ishlash va foydalanishga asoslanadi.

Axborot resurslari bilan ishlash:

ularni mamlakatning turli mintaqalarida joylashtirish;

axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash, shu jumladan ularning tipologiyasini yaratish;

ehtiyojlarga muvofiq axborotlarning tarqatilishini tashkil etish;

axborot resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashni o'z ichiga oladi.

Huquqiy axborotlar uchun quyidagi kibernetika qonunlari metodologik ahamiyatga ega.

Murakkab dinamik tizimlarni optimal boshqarish qonuni. Mazkur qonunga muvofiq har qanday murakkab dinamik tizimni boshqarish optimal, ya'ni ayrim mezonlarga ko'ra eng maqbul bo'lishi lozim.

Zarur xilma-xillik qonuni. Boshqaruvchi tizimning xilma-xilligi boshqarilayotgan tizimning xilma-xilligiga mos kelishi kerak. «Xilma-xillikni faqat xilma-xillikkina yo'q qilishi mumkin» (Eshbi).

Ichki va tashqi regulyatorlarning uyg'unligi qonuni. Murakkab dinamik tizimni faqat tashqi va ichki regulyatorlarning uyg'unligida samarali boshqarish mumkin.

O'zini o'zi boshqarish qonuni. Murakkab dinamik tizimni faqat

boshqaruvchi blokda ichki regulyatorlar ustunlik qilgan taqdirda samarali boshqarish mumkin.

Boshqaruv obyektiga regulatorning yaqinlashish qonuni. Boshqaruvchi tizim boshqariluvchi tizimga maksimal darajada yaqin bo'lgan taqdirdagina boshqaruv samarali bo'ladi.

Boshqaruv subyeksi va objekti o'rtasidagi korrelyativ muvofiqlik qonuni.

Kibernetika va informatika uchun quyidagi tushunchalar prinsipial ahamiyatga ega.

Birinchi tushunchalar qatori. Boshqaruv, boshqaruv tizimi, boshqaruv subyeksi, boshqaruv objekti, boshqaruv algoritmi, tizim, tuzilma.

Ikkinchi tushunchalar qatori. Maqsad, maqsadni ko'zlash, ehtiyoj, manfaat, samaradorlik, samaradorlik va maqbullikning mezonlari va ko'rsatkichlari.

Uchinchi tushunchalar qatori. Axborot, axborotlar oqimi, to'g'ri va teskari aloqa.

Boshqaruv tushunchasi

Bu tushuncha umumiy va huquqiy kibernetikadagi markaziy tushunchadir. Boshqaruv deganda boshqariluvchi obyektning barcha eng muhim xususiyatlarini saqlab qolish uchun unga (o'zaro bog'langan elementlarning murakkab tizimiga) izchil sistematik ta'sir ko'rsatish tushuniladi.

Davlat va huquq haqidagi fan bilan kibernetika o'rtasida uzviy aloqa mavjud. U davlat va huquq ijtimoiy boshqaruv quroli ekanligidan kelib chiqadi. Huquq uchun boshqaruv funksiyasi universal superfunksiya hisoblanadi. U ikki asosiy kichik funksiya: regulyativ va himoya funksiyalarida amalga oshiriladi.

Huquqiy kibernetika o'zining kelgusi rivojlanishida «boshqaruv» tushunchasini va unga yaqin «tartibga solish» tushunchasini har tomonlama ishlab chiqishga e'tibor berishi lozim. O'zbekistonning amaldagi huquqi «boshqaruv» atamasidan voz kechgani yo'q. Avvalambor u O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida faol qo'llaniladi.

O'zbekistonning iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazish avvalambor boshqaruv shakl va usullarini, shu jumladan uning asosiy xo'jalik bo'g'ini – ishlab chiqarish korxonasi miqyosida axborotlar bilan ta'minlash shakl va usullarini o'rganishni talab

etadi. Bundan tashqari, bozorga o'tish davlatning regulyativ funksiyadan to'liq bosh tortishini bildirmaydi.

Optimallik muammosi

«Optimallik» kategoriyasi nazariy kibernetikaning asosiy kategoriyalaridan biridir. U samaradorlik tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Huquq (huquq normasi) amal qilishining samaradorligi bu uning ijtimoiy munosabatlarga, ijtimoiy subyektlarning funksiyalari va xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatish o'lchovidir. U avvalambor jamiyatda yuridik normalarning talablarini individlar va ijtimoiy tabaqalarning real xulq-atvoriga o'tkazish natijasida sodir bo'ladigan ijobiy o'zgarishlarda namoyon bo'ladi.

Samaradorlik son va sifat aspektlarida o'lchanadi. Sifat aspektini huquqiy tartibga solish maqsadiga erishilishining o'zi tavsiflaydi. Miqdoriy baholash birinchi yaqinlashishda quyidagi ayirma ko'rinishida ifoda etilishi mumkin:

$$\Delta = |\Delta_1 - \Delta_0|,$$

bu yerda: Δ_1 – huquq normasi mazkur ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishidan oldin bu norma maqsadi holatining (parametrlarining) miqdoriy tavsifi;

Δ_0 – bu maqsadning ta'sir ko'rsatilganidan keyingi holatining miqdoriy tavsifi;

Δ – maqsadning holatlaridagi miqdoriy o'zgarishning o'sishi (ayirmasi), ya'ni samara miqdori.

Optimal boshqaruv deganda ushbu tizimdagi samaradorlikning eng maqbul miqdorini ta'minlaydigan boshqaruv ta'sirlarining yig'indisi tushuniladi. «Optimum», «optimal boshqaruv», «optimallashtirish» tushunchalari faoliyat natijalarini emas, balki «boshqaruv ro'llari» ning ayrim izlangan holatini tavsiflaydi.

Huquq normasini optimallashtirish samaradorlikning o'sishini ta'minlaydi. Huquq normasining optimalligi – bu uning mazkur sharoitlardagi maksimal samaradorligidir.

Huquq normasining amal qilish mexanizmini tavsiflash uchun «optimallik» tushunchasidan foydalanish bu tushunchaning kibernetika va boshqaruv nazariyasidagi mazmunidan kelib chiqishi lozim. Yuridik fani biron-bir mustaqil tushunchani ishlab chiqishi shart emas.

Huquq normasini optimallashtirishga qonun va normativ qoidalarni shakllantirishning obyektiv qonuniyatlarini yanada chuqur bilish hamda normaning tuzilishini takomillashtirish, axborot oqimlarini yo'lga solish, sanksiyaning amal qilishi oldidagi to'siqlarni bartaraf etish orqali erishiladi.

Optimallik darajaga ham, intensivlikka ham ega emas. Chunonchi, ma'lum normani «ko'proq darajada optimal» yoki «kamroq darajada optimal» deb baholab bo'lmaydi. Darajalilik huquqning optimalligiga emas, samaradorligiga xosdir.

Gomeostatika

Gomeostatika – bu kibernetika va avtomatik tartibga solish tizimlari nazariyasi negizida vujudga kelgan ilmiy yo'nalish.

Murakkab tizimlar u yoki bu darajada gomeostatikdir – ularning har biri o'z hayotiy muhim parametrlariga ega bo'lib, bu parametrlar ma'lum chegaralarda qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Tartibga solish mexanizmining barqarorligi haqidagi tasavvur dastlab kibernetikada vujudga kelgan. Shu bilan birga u ijtimoiy boshqaruv va ijtimoiy tartibga solish sohasiga ham amal qiladi hamda tartibga solish atributi sifatida turli ijtimoiy fanlarda rivojlantiradi. Avtoregulyatsion tizim sifatida qaraluvchi har qanday davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy va boshqa siyosati ichki va tashqi tipik funksiyalar orqali munosabatlarni o'zaro muvozanatga keltirishi bilan tavsiflanadi. Jamiyat, davlat, jamoa yoki alohida shaxsning siyosati faqat unda mavjud bo'lgan gomeostazis bilan belgilanib qolmay, gomeostazisga erishish maqsadini ham ko'zlaydi.

Barqarorlik (gomeostazis) huquq normasi mexanizmining muhim jihati va miqdoriy tavsifi ham hisoblanadi. Ijtimoiy boshqaruv ancha keng yondashuvni, ya'ni tartibga solish muammosini ham, transformatsiya – tizimning yangi holatga, yangi ish sharoitlariga o'tishi muammosini ham o'rganishni talab qiladi. Huquqiy tartibga solish jarayonlarining gomeostatik xususiyati, huquq normasining amal qilish mexanizmining barqarorligi va turg'unligi huquq tizimining konservativ jihatlari birinchi o'ringa chiqishi va bunga urg'u berilishini bildirmaydi. Huquq va huquqiy tartibga solish jarayonlarining barqarorligi bu yerda boshqaruv tizimining rivojlanishi va bir sifat darajasidan boshqa sifat darajasiga o'tishi mavjud emas-

ligini ham anglatmaydi. Davlat qonunlarning qat'iy bajarilishini talab qilish, sanksiyalar qo'llash, ijtimoiy munosabatlarning yangi, yanada mahsuldor shakllarini o'rnatish orqali o'z fuqarolari yashaydigan muhitni optimallashtiradi. Bu ma'noda huquq normasi mexanizmining barqarorligi jamiyat va davlat rivojlanish jarayonining o'ziga xos dialektik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi va bu rivojlanish jarayonida muntaзам ravishda yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanib boradi.

§3. Ijtimoiy kibernetika g'oyalari

Kibernetikaning ijtimoiy aspekti o'ta muhim ahamiyatga ega. Bu haqda birinchi bo'lib N. Viner o'zining «Kibernetika va jamiyat» kitobida aytgan.

Ijtimoiy boshqaruv sohasiga quyidagi jihatlar xosdir.

1. Odamlar, jamoalar, katta va kichik guruhlar, tabaqalar boshqaruv obyektlari hisoblanadi.

2. Bunga muvofiq iqtisod, siyosat, ijtimoiy, ekologik va demografik jarayonlar ijtimoiy boshqaruv sohasini tashkil etadi.

3. Huquqiy tartibga solish obyektlari aniq ehtimoliy-statistik xususiyatga ega.

4. Ijtimoiy jamoalarga xos bo'lgan ma'muriy-qo'mondonlik usullari, ijtimoiy-psixologik usullar, bozor qonunlari, iqtisodiy va ma'naviy rag'batlantirish, tarbiyalash, tavsiyalar berish, taqiqlash, ishontirish, majburlash va boshqa shunga o'xshash spetsifik regulyatorlarning mavjudligi.

5. Mazmuni boshqariluvchi obyektning ma'lum talablari, andoza-lar, namunalar va sxemalarga moslashtirishdan iborat bo'lgan adaptiv metodlar.

6. Odamlar ongi va xulq-atvoriga psixologik ta'sir ko'rsatilishi.

7. Inson faoliyatining ongli, izchil xususiyatga ega ekanligi.

Ammo kibernetikaning «klassik» apparatida faoliyati inson intellektining murakkab harakati, uyushgan odamlar jamoalari va yirik ijtimoiy guruhlarning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-tashkiliy tizimlar va obyektlarda sodir bo'luvchi boshqaruv va tartibga solish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari kam aks ettirilgan. Jonli va ijtimoiy obyektlarning ayrim texnik moslamalarga funksional o'xshashligi bizni ijtimoiy hodisalar – psixika, tashqi

va ichki dunyoning modellari, adaptatsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tushunib yetishga yaqinlashtirmaydi.

Shuning uchun ham vazifasi odamlarning jamoalarida sodir bo'luvchi boshqaruv va tartibga solish spetsifik jarayonlarini modellashtirishdan iborat bo'lgan «ijtimoiy kibernetika»ni shakllantirish g'oyasi e'tiborga molikdir.

O'z vazifalariga erishish uchun ijtimoiy kibernetika quyidagi metodlardan foydalanadi.

Refleksiv boshqarish nazariyasining metodlari. Refleksiv jarayonlar – bu ijtimoiy subyektlarning o'zaro hamkorlik yoki kurash sharoitlarida bir-birini aks ettirish jarayonlaridir. Bu jarayonlarning xususiyatlarini hisobga olish va ularni modellashtirish nizoli vaziyatlarda ayniqsa muhimdir. Ijtimoiy boshqaruvning murakkab vazifalarini hal qilishda refleksiv jarayonlar va ulardan amalda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, refleksiv o'yinlar nazariyasining ayrim xulosalari va natijalari informatikaning ham e'tiborini tortadi, chunki bu fanda ham ba'zan o'yinlar va ehtimol tutilgan qonuniyatlar nazariyasi asosida maqbul strategiyani tanlash talab etiladigan har xil nizoli vaziyatlar vujudga keladi. Har xil protsessual manfaatlar vakillarining munosabatlari, aloqalari va o'zaro ta'sirlari murakkab tizimini tashkil etuvchi jinoyat protsessi bunga misol bo'lishi mumkin. Aynan shu holat nizoli vaziyatlarni modellashtirish uchun obyektiv shart-sharoitlar yaratadi.

Situatsion boshqaruv nazariyasining metodlari. Situatsion boshqaruv nazariyasi murakkab texnik va iqtisodiy tizimlarda boshqaruv vazifalarini hal qilish quroli sifatida vujudga kelgan. Bunday tizimlarning ko'pchiligining harakatini tenglama yoki tenglamalar sistemasi tilida ifoda etib bo'lmaydi. Boshqaruv ta'siri muayyan vaziyatlarga tatbiqan shakllanadi. «Boshqaruv komandalari» «ro'yxat» bilan beriladi. Har bir komanda tartibga solinayotgan obyektning muayyan holatidan kelib chiqib beriladi. Xuddi shunday vaziyat mohiyat e'tibori bilan huquqiy tartibga solishda ham uchraydi.

Huquq tizimida o'ziga xos senariylar almashishi jarayoni sodir bo'ladi. Bir normativ vaziyat boshqa normativ vaziyatga o'tadi. Bir amaliy tarkibning boshqa amaliy tarkibga o'tishi va dinamikasining ma'lum qonuniyatlari va qoidalari mavjud bo'lsa kerak. Masalan, asosiy tarkibni detallashtirish, favqulodda holatlar va hodisalarni

aniqlash, muayyan huquqiy munosabatdan obyektning chiqib ketishi, yangi subyektning paydo bo'lishi, dastlabki asosiy holatning o'zgarishi, uning barham topishi, yuridik amal qilishning tarkibi, ayrim hodisaning amalga oshirilishi va h.k. Yakuniy hisobda yuridik semiotik til amaliy vaziyatlar, huquq subyektlari va obyektlari hamda yuridik amal qilishlarning qat'iy tavsifini berishi lozim.

Qonunda tavsiflangan har bir amaliy vaziyatning o'zgarishi bilan «komanda»ning o'zgarishi – huquq yoki majburiyatlar bog'lanadi. Komandalar semiotik tilda tavsiflanishi mumkin va lozim. Bu – huquqning vujudga kelishi, huquqning saqlab qo'iniishi, huquqning tenglashtirilishi, uning bekor qilinishi va h.k. Aftidan, huquqlargina emas, boshqa yuridik modalliklar – majburiyatlar va taqiqlar ham dinamik tavsiflanishi lozim.

Situatsion boshqarish nazariyasi nuqtai nazaridan huquqiy tartibga solishning muayyan sohalaridagi huquqlar, burchlar va taqiqlarning muayyan mazmuni ham semiotik yuridik tilda tavsiflanishi lozimidligiga e'tibor berish muhimdir. Boshqacha aytganda, nima taqiqlanishi, nima ruxsat etilishi va subyektlarning burchlari qat'iy belgilanishi lozim. Binobarin, «komandalar»ning o'zi konkretlashtirilishi kerak. Taklif etilayotgan yondashuvning barcha nazariy va amaliy natijalarini prognoz qilish hozir juda qiyin. Faqat ayrim oqibatlarnigina oldindan ko'ra bilish mumkin. Situatsion boshqarish nazariyasining qo'llanilishi amaliy tarkiblar bilan normalarda qayd etilgan «komandalar» tizimi o'rtasidagi aloqalarning detalashtirilgan tipologiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Adaptiv boshqarish metodlari. Adaptiv boshqarish nazariyasi boshqariluvchi obyektning o'zgaruvchanligi omillarini hisobga olishga va bunga muvofiq boshqaruv ta'sirlari ko'rsatish tizimini muntazam o'zgartirish zarurligiga asoslanadi. Ko'pgina obyektlarga informatsion xususiyat — noaniqlik xosdir. Bu ayniqsa ijtimoiy tizimlarga tegishli. Ushbu huquqiy tartibga solish va boshqarish tizimi amal qiladigan barcha individlarning parametrlari va xulq-atvori haqida yetarli ma'lumotlar ko'pincha mavjud bo'lmaydi.

Adaptiv boshqarish tizimida noaniqlik elementlarining mavjudligi va zarur axborotlarning yo'qligi o'tish jarayonlarining jiddiy ko'payishiga olib keladi. Tizim bir emas, ko'plab obyektlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Boshqaruv ta'siri ko'rsatilishi va maqsadga

erishilishi vaqtda ancha farq qilishi mumkin. Ba'zan maqsadga qay darajada erishilgan, unga umuman erishilganmi, degan savol noaniq bo'lib qoladi.

Adaptiv model o'z amal qilish sohasiga ega. Bu soha «huquq — ijtimoiy munosabatlar» tizimidagi boshqaruv bo'g'inidir. Mazkur modelda quyidagi tushunchalardan foydalanish lozim: huquqning amal qilishining ijtimoiy mexanizmi; huquq haqidagi axborotlarning katta va kichik ijtimoiy tabaqalar muhitida tarqatilishi jarayoni; teskari aloqa; ijtimoiy aloqa qilish mexanizmi.

Subyektlar massasiga muayyan normaning ta'siri shunga olib keladiki, boshqaruvchi tizimda huquqiy qoidalarning mazkur kompleksining barcha talablariga aholining moslashishi, huquq normalarini, ularning qimmati va adolatlilik darajasini bilish va baholash fenomeni vujudga keladi. Tabiiyki, huquqiy tartibga solish amalda adaptiv boshqarish nazariyasida mufassal tahlil qilinuvchi ommaviy ta'lim berish va adaptatsiya jarayonlarini hisobga olishi lozim. Uning talablari va qoidalaridan qonun hujjatlarini amalga kiritish vaqti va muddatlariga tegishli ayrim amaliy xulosalar kelib chiqadi. Vaqtlar va muddatlar shunday bo'lishi kerakki, tegishli subyektlar normativ axborotlarni olish va o'zlashtirishga ulgurishlari lozim.

Bayon etilayotgan nazariya huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlariga boshqa jihatdan ham yaqin: unda boshqarilayotgan obyektни identifikatsiya metodi bilan o'rganish protsedurasiga katta e'tibor beriladi. Boshqaruv ta'siri ko'rsatish jarayonida obyekt haqida yetishmayotgan axborotlar to'planadi va uning kelib tushishiga qarab boshqaruv qarorining xususiyati takomillashtirilib boriladi. Bu yerda huquqni qo'llash sohasiga o'xshashlik ko'zga tashlanadi, zero huquqni qo'llash jarayonida axborotlar aniqlangan holatlardan kelib chiqib qarorni dalillash va shakllantirish yo'li bilan olinadi.

Tabiiyki, bayon etilgan fikr-mulohazalar umumiy huquq nazariyasining faqat ayrim muammolarining kibernetika g'oyalaridan foydalanish asosida ishlab chiqilishiga tegishlidir.

VIII BOB. HUQUQNI QO‘LLASH VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI AXBOROTLASHTIRISH

§1. Huquqni qo‘llash va huquqni muhofaza qilish faoliyatini axborotlashtirish vazifalari

Huquqni qo‘llash – bu vakolatli organlarning ushbu (muayyan) holatda yuridik normalarni amalga oshirish borasidagi maxsus tashkil qilingan harakatlardan iborat davlat-hokimiyat faoliyatidir. Bu yuridik faoliyatning asosiy shakllaridan biri bo‘lib, uning mazmuni pozitiv huquq talablarini uning subyektlarining real xulq-atvoriga o‘tkazishdan iborat. Bunda umumiy huquqiy tartibga solish individual huquqiy tartibga solish bilan almashtiriladi.

Huquqni qo‘llash faoliyatini uning subyektlariga qarab turkumlash mumkin. Huquqni qo‘llash faoliyatining asosiy subyekti – sud. Sud huquqni qo‘llash faoliyatini adliya yo‘li bilan amalga oshiradi. Boshqa subyektlar – prokuratura organlari, IIV (har biri o‘z vakolatlari doirasida), ijro etuvchi hokimiyat organlari (vazirlar, qo‘mitalar), shuningdek barcha miqyosdagi mansabdor shaxslar o‘z burchlarini ado etish jarayonida huquqni qo‘llash faoliyatini amalga oshiradilar¹.

Huquqni qo‘llash faoliyati axborot ishlarining alohida turi – yuridik isbotlash bilan bog‘liq. Yuridik isbotlash – bu huquq subyektlarining ishning asl holatlarini aniqlashga qaratilgan faoliyatidir. Yuridik isbotlash jarayoni axborotlarning alohida turi – dalillarga asoslanadi. Yuridik isbotlash – o‘ziga xos axborot jarayonidir.

Huquqni qo‘llash faoliyatini axborotlar bilan ta‘minlashni optimallashtirish masalalariga bir qator normativ hujjatlar bag‘ishlangan. Avvalambor bu JPKning jinoyat ishlarini tergov qilish va ko‘rib

¹ Huquqni qo‘llash faoliyatining mexanizmi Huquq normalarining talablarini amalga oshirish subyektlari, davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va yuridik normalarning talablarini bajaruvchi boshqa individlarning bir qator elementlarini (tizimchalarini) o‘z ichiga oladi.

chiqishda dalillarni to'plash va baholash masalalarini (so'roq qilish, tintuv qilish, ko'zdan kechirish, tergov eksperimenti o'tkazish va boshqa shunga o'xshash protseduralar tartibini) tartibga soluvchi tegishli moddalaridir.

Axborotlashtirish – huquqni qo'llash organlari barcha faoliyat sohaslarini texnik jihatdan qayta jihozlashning asosiy vositalaridan biridir. Huquqni muhofaza qilish va huquqni qo'llash organlarini axborot bilan ta'minlash maqsadida mahalliy tizimlar tashkil etiladi (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Sudi, O'zbekiston Respublikasining Oliy Sudi, O'zbekiston Respublikasining Oliy Xo'jalik Sudi, Prokuratura organlari tizimi, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligida). Mazkur tizimlarning ma'lumotlar bazalarida har bir organning faoliyat sohasiga mos keluvchi juda ko'p nonormativ axborotlar jamlanadi.

Ko'rib chiqilayotgan sohada o'ziga xos axborot munosabatlari amal qiladi. Bu avvalambor gorizontal munosabatlardir (masalan, ikki idoraning axborot markazlari o'rtasidagi munosabatlar).

Axborot ishlab chiqarish va undan foydalanish bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar huquqni qo'llash sohasidagi axborot munosabatlarining subyektlari hisoblanadi. Ma'lum sharoitlarda fuqarolar ham bu sohaning subyektlari bo'lishi mumkin. Bu o'rinda IIV axborot markazlari to'playdigan shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq holatlar nazarda tutilmoqda. Manfaatdor shaxslar bu ma'lumotlar va ularning nazorat qilinishi bilan tanishishga haqlidir. Militsiya o'z zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarish uchun: korxonalar, tashkilot, muassasa va fuqarolardan axborotlarni beminnat olishga haqli, qonunda maxsus tartib o'rnatilgan hollar bundan mustasnodir.

Sud tizimini axborotlashtirish

Sud dalillarini tahlil qilish va baholash sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ancha cheklanganligini ham hisobga olish zarur. Yuridik faktlarning to'g'riligini aniqlash juda qiyin, formalizatsiya qilib bo'lmaydigan protseduradir. Faktlarga doir ma'lumotlar turli manbalarda: ishi ko'rib chiqilayotgan shaxslarning tushuntirish xatlari (arizalari)da; har xil hujjatlarda; guvohlarning ko'rgazmalarida; ekspertlarning xulosalarida va boshqa manbalarda bo'ladi.

Bu muammo 1967-yilda mashhur kriminalist A.A. Eysman tomonidan o'rganilgan. U tizimli yondashuv vosita va usullaridan, ehtimollik nazariyasi va axborot nazariyasidan foydalanib sudda isbotlash algoritmlarini tuzdi. Isbotlashning besh tipik algoritmi ko'rib chiqildi. Ularning har biri sxema ko'rinishida ifoda etildi. Muallif dalillar va ashyoviy dalillarni miqdoriy ifoda etish juda ham qiyin degan xulosaga keldi. Alohida jinoyat turlarini tergov qilish amaliyotini sifat jihatidan chuqur tahlil qilmasdan faktlarning ahamiyatini bahoiash uchun qanday statistik ma'lumotlar lozimligi haqida hukm chiqarib bo'lmaydi¹.

O'zbekiston Respublikasini huquqiy axborotlashtirish Konsepsiyasi va Dasturining asosiy qoidalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudida axborotlashtirishning borishini tahlil qilish yangi axborot texnologiyalarini joriy etishning uch asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi:

Oliy Sudning huquqiy axborotlari bilan foydalanuvchilar (huquqni muhofaza qilish organlari, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolar)ning keng tanishishi uchun imkoniyat yaratish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining sudda ishni ko'rish va ish yuritish faoliyatini takomillashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi apparatining ishida zamonaviy (qog'ozsiz) texnologiyalarga o'tish.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining ixtiyorida mavjud dasturlar paketi quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

1) tekshirilayotgan shikoyatning ko'rilishi va uni hal qilish muddatlarini nazorat qilish;

2) viloyat va tuman sudlariga yuborilgan topshiriq xatlarning bajarilishini hamda so'ralgan sud hujjatlari nusxalarining olinishini nazorat qilish;

3) shikoyatlar yuzasidan statistik hisobot olish. Qabul qilingan namunadagi statistik kartochkalar mintaqalar, ish toifalari, ijrochilarga qarab qayta ishlanadi. Bu shikoyatlar bilan ishlashni to'liq tahlil qilish va sud faoliyatini baholash (alohida mintaqada har oyda, chorakda, yarim yillikda, yilda) imkonini beradi;

¹ Dalillar va ashyoviy dalillar ko'pincha haddan tashqari individual xususiyatga ega bo'ladi.

4) EHMda saqlanuvchi shablonlardan foydalanib yuboriluvchi hujjatlarni tayyorlash muddatlarini qisqartirish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlarining banki foydalanuvchilarga zarur axborotlarni kiritish, saqlash, aktuallashtirish va berish uchun mo'ljallangan.

Plenum qarorlarining matnlari, ularga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar ma'lumotlar bankida to'liq hajmda mavjud. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi» AATT uch o'zaro bog'liq mahalliy tarmoq va bir nechta avtonom EHMdan tashkil topgan.

Birinchi bosqichda sud kollegiyalarining kotibiyatlari va sud tarkiblarining kanselyariyalaridagi ish joylari, shuningdek Oliy Sudning ma'lumotlar xizmati va qabulxonasi; ikkinchi bosqichda – keluvchi, ketuvchi va sud arxivlarida saqlanuvchi hujjatlarni hisobga olish avtomatlashtirildi.

Mahalliy tarmoq qabul qilingan qarorlar va topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish, kadrlarni hisobga olish, ish haqini hisob-kitob qilish, moddiy qimmatliklarni hisobga olish vazifalarini hal qilish uchun tashkil etiladi va avtonom avtomatlashtirilgan ish joylarining (AIJ) ishlab chiqilishini nazarda tutadi.

Hozirgi zamon tasavvurlariga ko'ra, sud amaliyoti huquqning manbalaridan biri hisoblanadi¹. Sud pretsedentlari haqidagi ma'lumotlar ham EHMga kiritilishi mumkin.

Oliy Majlis mahkamasining huquq boshqarmasi tomonidan huquqni qo'llash amaliyotining ma'lumotlar bazasini tashkil etish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Ma'lumotlar bazasi:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Sudi;

xo'jalik sudlari;

umumiy yurisdiksiya sudlari;

inson huquqlari bo'yicha Yevropa Sudi;

boshqa xalqaro sudlar (Gaaga Sudi va h.k.);

xalqaro xo'jalik sudlari;

hakamlar sudlari;

prokuror nazorati;

inson huquqlari bo'yicha Vakilning faoliyatiga doir ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim.

¹ Bu normalar ko'pincha yordamchi xususiyatga ega. Huquq normasi singari, sud pretsedenti ham formalizatsiya qilinishi mumkin.

Axborotlarni taqdim etish shakllari:
ish bo'yicha hujjatlarning paketlari;
qarorlarning matnlari (qator hollarda yashash manzillari, ishtirokchilarning familiyalari va boshqa shunga o'xshash ma'lumotlarsiz e'lon qilishga tayyorlangan matnlar);

qabul qilingan qarorning qisqacha mazmuni (rezume);
o'zaro bog'liq bo'lgan qarorlar.

Boshqaruv vazifalarini hal qilishda EHMdan foydalanish katta samara beradi. Bu sohada EHM mehnat sarfini va boshqaruv hujjatlarini qidirishga sarflanadigan vaqtni ancha qisqartirish imkonini beradi.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

boshqaruv siklining oborotini tezlashtirish;
boshqaruvning bir nechta vazifalari haqidagi axborotlarni saqlash;
axborotlarni tezlik bilan berish;
ma'lumotlarni ommaviy qayta ishlash;
model doirasida rejalashtirish va hal qilish;
ish natijalarini muntazam ro'yxatdan o'tkazib borish.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida «Kadrlar» avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishlab chiqilgan. «Kadrlar» AATdan foydalanish kompyuter bilan dialogda:

kadrlar tarkibiga doir axborotlarni jamlash va tahlil qilish;
belgili xizmat muddatini o'taganligi, navbatdagi unvonlarning berilishi va pensiyaga chiqilishi bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish;

kadrlarga doir hujjatlarni tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish uchun EHM xotirasida saqlanayotgan axborotlardan foydalanish;
shaxsiy ishlar bo'yicha va kadrlar bilan ishlashni tartibga solish masalalariga doir axborotlarni saqlash va ulardan foydalanish;
kadrlar bilan ishlashning ahvolini kadrlar bo'limlari rahbarlari tomonidan samarali nazorat qilish imkonini beradi.

AAT quyidagi vazifalarni hal qiladi:

hujjatlarni belgilar va raqamlar ko'rinishida kompyuterga kiritish, sintaksik va mantiqiy nazorat qilish;

hujjatlarni kompyuterga kiritishning har xil shakllaridan foydalanish;

bir yoki bir nechta rekvizitlar majmui bo'yicha hujjatlarni qidirish;

berilgan qidirish topshirig'idan kelib chiqib axborotlar bilan ma'lum ketma-ketlikda yoki to'g'ridan-to'g'ri tanishish;

iteratsion usuldan foydalanish;

olingan axborotlarni videoterminal ekraniga alohida birlamchi hujjatlar ko'rinishida erkin shaklda (so'rovnomaga ko'rinishida), rekvizitlarning erkin majmui bo'yicha birlamchi hujjatlar ro'yxati shaklida (jadval ko'rinishida) va statistik ma'lumotlar shaklida chiqarish.

§2. Jinoyat ishlarini tergov qilishni kompyuterlashtirish

Jinoyat ishlarini tergov qilish – bu dalillarni to'plash va tahlil qilish, sodir etilgan jinoyatni rekonstruksiya qilish va ayblanuvchining aybini isbotlash bo'yicha kriminalistik faoliyatdir. Kriminalistik faoliyat davlatning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri – jinoyatchilikka qarshi kurash vazifasini hal qilish bilan bevosita bog'liq. Jinoyatlarni tergov qilish jinoyat protsessining bir bosqichi bo'lib, unda surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan protsessual harakatlar amalga oshiriladi.

Jinoyatlarni fosh qilish va tergov qilishning ilmiy asoslari kriminalistikada o'rganiladi; u to'rt bo'limdan tashkil topgan: jinoyatlarni fosh qilish va tergov qilishning umumiy nazariyasi, kriminalistik taktika, kriminalistik metodika, kriminalistik texnika.

Kriminalistikada kompyuter texnologiyalaridan foydalanish inson faoliyatining mazkur sohasida to'planadigan va foydalaniladigan axborotlarning xususiyatlariga tayanadi. Jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida axborotlar jinoyat dalillarini baholash shaklida tahlil qilinadi¹.

1967-yilda protsessualist A.I. Trusov o'sha davr uchun g'alati bo'lgan qoidani ta'riflab berdi: sud ishi bo'yicha dalillashga axborot jarayoni, ya'ni ishni sudda ko'rish vazifalarini hal qilish maqsadida axborotlarni olish, saqlash, berish va qayta ishlash jarayoni sifatida qarash mumkin.

V.A. Obrazsov sud dalillarini (axborotlarini) turkumlash tartibini ishlab chiqdi:

¹ Qonunchilikda dalillarni erkin baholash prinsipi amal qiladi. Binobarin, biron-bir dalil o'kidandan belgilangan kuchga ega bo'lmaydi.

bilinayotgan hodisalarning turlariga qarab: jinoyatlar haqida axborotlar – bilinayotgan boshqa hodisalar haqida axborotlar; mazmuniga qarab: shubhasiz to'g'ri axborot – dezinformatsiya; hajmiga qarab: to'liq — to'liqsiz;

ifoda shakliga qarab: ideal (psixologik) – moddiy-qayd etilgan; jismoniy tabiatiga qarab: ko'riluvchi, tinglanuvchi, tatib ko'riluvchi, seziluvchi, hidlanuvchi;

maxfiylik darajasiga qarab: umum foydalanadigan – foydalanish cheklangan;

foydalanish rejimiga qarab: ochiq — yopiq;

idrok etish darajasiga qarab: yaqqol – yashirin;

taqdim etish shakliga qarab: verbal, harfli-belgili, grafik, raqamli, magnitli yozuv, boshqa xil;

axborot tarqatuvchilarning turiga qarab: shaxsiy, predmetli, hujjatli;

axborot manbasining turiga qarab: birlamchi manbalardan olingan axborot – hosila axborot.

Huquqiy informatikada mustaqil yo'nalish vujudga kelgan bo'lib, uning maqsadi tergov sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdan iborat. Ilmiy kriminalistikada «tergovni kompyuterlash-tirish» atamasi amal qiladi (A.K. Karaxanyan taklif qilgan).

Tergov sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1) axborot-qidirish tizimlari va ma'lumotlar banklarini avtomatlashtirish;

2) jinoyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va indentifikatsiya qilish avtomatlashtirilgan tizimlarini tashkil etish;

3) tergovchining faoliyatini rejalashtirish va hisobga olish avtomatlashtirilgan tizimlarini tashkil etish;

4) boshqa yo'nalishlar.

Kompyuter:

metodik axborotlarning hajmini oshirish;

muayyan ish yuzasidan zarur tavsiyalarni qidirishni yengillash-tirish, metodik tavsiyalarni displeyning ekranida har xil shakllarda (jadval, sxema, ro'yxat ko'rinishida va h.k.) olish;

muhim holatlarni kombinatsiya qilish;

dalillardan to'laqonli foydalanilganligini namoyish etish imkonini beradi.

Kompyuter texnologiyalaridan ko'p epizodli ishlar bo'yicha foydalanish quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

tergovchilarning personal tarkibini hisobga olish;

jinoiy epizodlar haqidagi ma'lumotlarni shakllantirish;

tergov ish yurituvchi materiallarida nomi zikr etilgan barcha shaxslar haqidagi ma'lumotlarni turkumlash;

har bir gumon qilinayotgan (ayblanayotgan) shaxs haqida axborotlar jamlash;

ushlangan shaxslarning belgilari, hislatlari va xususiyatlarini turkumlash;

tergov jarayonida olingan dalillarni epizodlar bo'yicha tartiblash;

ushlab turish va qamoqda saqlash muddatlarini nazorat qilish;

ayblov xulosasi uchun ma'lumotlar tayyorlash;

ma'lumotnomalar va boshqa hisobot hujjatlari tuzish.

Bizga ma'lumki bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi va qo'shni MDH da tergov jarayonini axborot bilan ta'minlash uchun xizmat qiladigan bir qator AAT ishlab chiqilgan.

Masalan, Rossiya Federatsiyasining IIV Akademiyasida tergov jarayonini axborot bilan ta'minlash uchun xizmat qiladigan bir qator AAT ishlab chiqilgan.

«Arsenal» kompleksi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

«Jinoyat ishlari kartotekasi» AAT ishning o'tishini, protsessual muddatlarga rioya qilinishini, o'tkazilgan ekspertizalarning soni va turlarini, ilmiy-texnik vosita va metodlarning qo'llanishini, xodimlarning jinoyatlarni profilaktika qilish faoliyatini nazorat qilish hamda ularning ish sifatini va ish bilan yuklanganlik darajasini baholash imkonini beradi;

«Statistik ko'rsatkichlarning tahlili» AATda tergov boshqarmasi miqyosida boshqaruv qarorlarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan tergov ishining ko'rsatkichlari jamlanadi;

«Dalillar» AAT ko'pgina protsessual hujjatlarni tayyorlash ishini avtomatlashtiradi. Tizim so'roqlarning bayonnomalari va qayd etilgan ko'rgazmalarning rekvizitlariga qarab axborotlarni qidiradi, shuningdek ishlarning materiallarini tahlil qiladi;

«Qarorlar» AAT ayblanuvchi tariqasida jalb etish to'g'risidagi qarorlarni va ayblov xulosalarini, jinoyat ishlarini tugatish va to'xtatish hamda jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarorlarni tayyorlash jarayonini avtomatlashtiradi.

«Arsenal» kompleksi muntazam rivojlantirilib va takomillashtirilib borilmoqda. Kompyuter fototekalari va daktiologik hisoblarga murojaat qilish uchun interfeys ishlab chiqilmoqda, avtomatlashtirilgan ish joylarini ixtisoslashtirilgan ekspert tizimlari bilan integratsiya qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

«Face Manager» kompyuter tizimi ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv faoliyatida qiziqtirayotgan obyektlarni mavjud videoyozuvlar yoki ularning fragmentlari bo'yicha qidirish va tanish bilan bog'liq vazifalarni hal qilishda foydalanish uchun grafik ma'lumotlar bazalarini tashkil qilish va yuritish maqsadida ishlab chiqilgan. Mavjud matn ko'rinishidagi axborotlar va videoaxborotlarning kataloglashtirilgani, ular bilan tez tanishish, elektron aloqa kanallari orqali uzatish va boshqa imkoniyatlarning mavjudligi bilan «Face Manager» videokassetalardagi an'anaviy arxivlardan ajralib turadi.

Tizimni mavjud videoteka yoki fototekadan to'ldirish mumkin. Tasvir kompyuterga videokamera va videomagnitofondan videokiritish platasi yoki skaner yordamida kiritiladi. Tizim axborotlarni matn maydonlariga (rekvizitlarga) qarab qidirish, axborotlarni har xil rejimlarda ko'rib chiqish va ularni har qanday printerda chiqarish imkonini beradi. Tashkil etilgan ma'lumotlar bazasi ruxsatsiz kirishdan himoya qilish tizimi bilan jihozlangan.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining avtomatlashtirilgan axborot ta'minoti tizimi doirasida transport prokuraturalarida foydalanishga mo'ljallangan «Iz» funksional tizimchasi ishlab chiqilgan. Bu tizimchani joriy etish axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarni yanada to'liq, obyektiv va operativ qondirish, yakuniy hisobda esa – axborotlar bilan asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

«Modus operandi» avtomatlashtirilgan tizimlari¹ tezkor-qidiruv ishlari va jinoyatlarni tergov qilish amaliyotida muhim o'rin tutadi.

Insonga u yoki bu harakatlarni ma'lum (o'ziga xos) usulda bajarish xos, inson faoliyatining mahsulotlari esa shaxs xususiyatlarini (tajribasi, ruhiyati, ko'nikmasi, uquvini) o'zida aks ettiradi. Shunga o'xshab jinoyatchilar ham ba'zan ma'lum jinoiy qilmishlar sodir etishga moyil bo'ladi va ularni turg'un (odat bo'lib qolgan)

¹ «Modus operandi» lotin tilidan tarjimada harakat usuli yoki tarzi degan ma'noni bildiradi.

usullar yordamida amalga oshiradi. Jinoyat usuli, uni tayyorlash paytidagi harakatlar tizimi tashqi muhit shart-sharoitlari va shaxsning psixofiziologik xususiyatlari bilan belgilanadi.

«Modus operandi» jinoyatchilarning harakat usullari haqidagi ma'lumotlarning ma'lum tarzda uyushtirilgan majmuidir.

Birlamchi axborot ikki qismdan: ma'lum jinoyatchilarning tavsifi va jinoyat sodir etish usulining tavsifidan tashkil topadi. Kartotekadan quyidagi tartibda foydalaniladi: yangi sodir etilgan jinoyat usulining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi va ma'lum jinoyatchilarning «Modus operandi»dagi belgilariga solishtiriladi. Belgilar mos kelgan taqdirda mazkur jinoyat avval ham xuddi shunday usulda harakat qilgan ma'lum shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqariladi. Shu bilan bir vaqtda, shunga o'xshash usulda sodir etilgan va ochilmay qolgan jinoyatlarning kartotekalari ko'rib chiqiladi.

Usullar mos kelgan taqdirda ikki xil taxmin ilgari surilishi mumkin: jinoyatni ma'lum shaxslar guruhiga mansub bo'lgan shaxs sodir etgan; jinoyatni bitta shaxs sodir etgan.

§3. Sud ekspertizasida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish

Sud – ekspertiza tadqiqotlarini avtomatlashtirish

Bugungi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanilgan holda Sud huquq ishohatlarini axborotlashtirish, avtomatlashtirish va sud – ekspertiza tadqiqotlarini avtomatlashtirishda zarur bo'lgan axborotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan dasturiy komplekslarini, avtomatlashtirilgan axborot - qidiruv tizimlarini yaratish va takomillashtirish hamda amaldagi har xil avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimlarini joriy qilish esa sud - ekspertiza natijalarini tezkor olish va samaradorligini oshirishda hamda axborot aylanishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solishda keng yo'l ochib beradi

Bizga ma'lumki jinoyatlarni fosh qilish va tergov qilishda, shuningdek fuqarolik va xo'jalik protsesslarida sud ekspertizasini o'tkazish muxim o'rin tutadi.

Sud ekspertisasi – jinoyat – protsessual yoki fuqarolik –

protsessual qonunlarga muvofiq o'tkaziluvchi tadqiqotlar turini bildiruvchi tushuncha.

Kriminolistik ekspertiza – ilmiy asosini bir qator alohida kriminalistik nazariyalarning qoidalari tashkil etuvchi sud ekspertizalarining turi.

Ekspert – tergov va adliya organlari tomonidan ekspertiza o'tkazish uchun jalb etiladigan, maxsus bilimlarga ega bo'lgan shaxs.

Ekspert tadqiqoti – ekspertizaga taqdim etilgan obyektlarni o'rganish jarayoni.

Ekspert xulosasi – ekspertiza jarayonining yakuniy bosqichi bo'lib, unda ekspert tomonidan aniqlangan faktlar ma'lum qilinadi. Bu xulosada tergovchi yoki sud tomonidan qo'yilgan savollarga javoblar ifoda etiladi.

Ekspert xulosasi qat'iy va ehtimol tutilgan bo'lishi mumkin.

Sud – ekspertiza tadqiqotlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ushbu sohada avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimlarining yaratilishi bilan bog'liq. Bunday tizimlarni yaratish shu bilan rag'batlantiriladiki, mazkur tadqiqotlarning obyekti sifatida har xil materiallar, moddalar va ashyolarning minglab turlari ish-tirok etadi, ularning har biri ko'plab xususiyat va alomatlari bilan farq qiladi. An'anaga ko'ra sud ekspertizasi muassasalarida bildirgich – axborotlar fondi – har xil obyektlar, qurol – yarog', o'q – dori, poyafzal va boshqa shunga o'xshash buyum va ashyolarning namunalari to'plamlari tashkil etilib kelingan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida tashkil etilgan avtomatlashtirilgan tizimlar

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining respublika sud ekspertizasi markazida sud – ekspertiza tadqiqotlarini avtomatlashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Sud ekspertizasini avtomatlashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'ttiz yil muqaddam sobiq SSSR davrida Sud ekspertizasi Markaziy (keyinchalik Butunittifoq) ilmiy – tadqiqot institutida boshlangan. Avtomatlashtirish usullaridan foydalanilgan holda o'tkazilgan ekspertizalar soni uzoq vaqt jiddiy salmoqqa ega bo'lmagan. Bugungi kunda Respublika Sud ekspertiza markazida sud – ekspertiza tadqiqotlarini avtomatlashtirish bo'yicha bir qator av-

tomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimlari yaratilgan bo'lib, o'tkazilgan tadqiqotlar zamonaviy kompyuterlardan foydalanilgan holda o'tkazilgan va ijobiy natijalarga erishilgan. Respublika sud – ekspertiza markazida bugungi kunda quyidagi avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimlari va dasturlari sud – ekspertiza tadqiqotlarini olib borishda foydalanilmoqda: “Nast”, “Dargam”, “Raduga”, “Lekarstvo”, “Sis”, “Bilding - Eksport”, “Traskrayver” va b.q.

“Nast” – avtomatlashtirilgan axborot - qidiruv tizimi hisob – kitoblar ishlari bo'yicha ekspertiza tadqiqotlarida foydalanish uchun mo'ljallangan;

“Dargam” – avtomatlashtirilgan axborot - qidiruv tizimi narkotik va psixotrop moddalarini tadqiqot etish bo'yicha ekspertiza tadqiqotlarida foydalanish uchun mo'ljallangan;

“Raduga” – avtomatlashtirilgan axborot - qidiruv tizimi lakokraskalarni tekshirish va tarkibini aniqlash bo'yicha ekspertiza tadqiqotlarida foydalanish uchun mo'ljallangan.

“Lekarstvo”- farmatsevtik dori – darmonlarni tekshirish bo'yicha ekspertiza tadqiqotlarini olib boruvchi avtomatlashtirilgan tizim.

“Sis” – avtomatlashtirilgan axborot - qidiruv tizimi ovozni matematik hisob - kitob qilish bo'yicha ekspertiza tadqiqotlarida foydalanish uchun mo'ljallangan.

“Bilding - Eksport” – shaxsiy hovli joylarini narxlarini chiqarish va narxlash bo'yicha ekspertiza tadqiqotlarida foydalanuvchi avtomatlashtirilgan qidiruv tizimi.

Yuqorida qayd etilgan avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimlari Sud huquq islohatlarini axborotlashtirish, avtomatlashtirish va sud – ekspertiza tadqiqotlarini avtomatlashtirishda va kunlik ish faoliyatini yengillashtirishda benihoya katta rol o'ynamoqda.

Insoniyatning kunlik hayotida uchrab turadigan baxtsiz xodisalar (masalan, yo'l – transport halokatlari) bor ekan, bu halokatlar bo'yicha avtomatlashtirilgan sud – ekspertiza tadqiqotlaridan foydalanish yo'l qo'yilgan baxtsizlikni ochib berishda katta yordam beradi. Buning uchun “Avtoeks” avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimining imkoniyatlaridan foydalanilsa maqsadga muvoffiq bo'ladi.

“Avtoeks” avtomatlashtirilgan tizimi yo'l – transport halokatlari bo'yicha ekspertiza tadqiqotlarida foydalanish uchun mo'ljallangan.

Mazkur tizimning birinchi varianti – “Avtoeks-1’ avtomatlashtirilgan tizimi 1974-yilda amalga joriy etilgan edi.

Keyinchalik “Avtoeks-2’ avtomatlashtirilgan tizimi ishlab chiqilgan va yo’l – transport halokatlarini ekspertiza qilishning 6 turini bajaragan. 1983-1984-yillarda ekspertizalarning 8 turini bajarishga qodir bo’lgan “Avtoeks-3’ avtomatlashtirilgan tizimi ishlab chiqildi va yo’l – transport halokatlari bo’yicha ekspertiza tadqiqotlarini olib borish uchun foydalanishga topshirildi.

Avtotexnik ekspertizani o’tkazishda oldin sud – tergov organlari odatda yo’l – transport hodisasining mexanizmiga taalluqli quyidagi savollarni qo’yadi:

Avtomashinaning tezligi, yo’lda to’xtalgan joy, alohida vaqtlarda va yo’l – transport hodisasining boshqa parametrlarida avtomobil va yo’lovchining holati haqida;

haydovchida favqulodda to’xtash yo’li bilan yo’l – transport hodisasining oldini olish imkoniyatining mavjudligi haqida;

haydovchi vujudga kelgan vaziyatda qanday harakat qilishi lozimligi haqida.

“Avtoeks — 3’ sifat jihatidan yangi imkoniyatlarga ega. Avvalambor bu haydovchilarning ko’rish imkoniyati cheklangan hol-larda sodir etilgan yo’l – transport halokatlarini o’rganish bilan bog’liq savollarning yangi turkumiga taalluqli.

O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida yaratilgan avtomatlashtirilgan tizimlar

O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida kriminalistik ekspertiza tadqiqotlarini avtomatlashtirish bo’yicha bir qator avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimlari yaratilgan bo’lib, bu yaratilgan tizimlardan biri fonogrammalarni kriminalistik tadqiq qilish kompyuter tizimi. Tizimning maqsadi – kriminalistik ekspertlarni fonogrammalarni obyektiv o’rganishning yuksak talablarga javob beradigan vositasi bilan ta’minlashdan iborat.

Tizimda hal qilinadigan asosiy vazifalar:

shaxsni nutq signaliga qarab identifikatsiya qilish;

magnitli fonogramma montajining belgilarini o’rganish;

magnitofonni fonogramma bo’yicha diagnostika va identifikatsiya qilish;

ovoz taratuvchi obyektlarini diagnostika va identifikatsiya qilish;

impulsli shovqinlar tufayli tushunarsiz bo'lgan nutqning mazmunini aniqlash;

fonogrammaning asl nusxasi va nusxasini aniqlash va boshqalar.

Fonogrammani o'rganish jarayonida ekspert:

fonoobyektning umumiy tavsifini quvvat darajasining dinamikasi ko'rinishida;

mikrosegmentni fonoobyekttni tahlil qilishning joriy nuqtasidagi osilogramma ko'rinishida;

fonoobyekttni tahlil qilishning yetti asosiy shakli: osilogramma, amplitudali-bosqichli spektr, uyg'unlik va ovozning asosiy toni indikator funksiyalari, sonogramma, garmonogramma va intonogrammani muntazam ko'rib turadi.

"Portret" avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimi grafik axborotlar jamlangan ma'lumotlar bazasini tashkil etish imkonini beradi. Bular raqamli fotokamerada bevosita olingan va skanerda chiqarilgan fotosuratlar yoki videokamera yoki videomagnitofondan olingan tasvirlar bo'lishi mumkin.

Qidirish bo'yicha mavjud parametrlar: ism-sharifi, tug'ilgan sanasi, yashash manzili, sodir etgan jinoyatining tarkibi va usuliga qarab, shuningdek qiyofasining og'zaki tavsifi: yuzi, ko'zlari, burni, qoshlarining shakli va boshqa shunga o'xshash alomatlariga qarab amalga oshiriladi.

Yuklangan rekvizitlar bo'yicha qidirish jarayonida topilgan fotosuratlar vizual tanlab olish uchun ekranga chiqariladi. Tasvirni har qanday turdagi printerda chiqarish mumkin.

"Fotorobot" avtomatlashtirilgan tizimi jinoyat sodir etishda shubha qilingan shaxslarning portretlarini yaratish uchun mo'ljallangan.

Portret alohida elementlardan tarkib toptiriladi. Bu elementlar jumlasiga soch turmaklari, ko'zlar, burunlar, lablar va boshqa shunga o'xshash elementlar kiradi. Bundan tashqari, tizimda mo'ylovlar, ko'zoynaklar, bosh kiyimlar, har xil ajinlar, sirg'alar, kulonlar va boshqa shunga o'xshash elementlarning tasvirlaridan iborat elementlar turkumlari ham mavjud. Profilli portret elementlari jamlangan turkumlardan ham foydalanish mumkin. Ayrim turkumlarda elementlar soni 250 tadan oshadi. Olingan portretlarni "qo'lda" to'ldirish va tuzatish mumkin. Portret elementlarining joyini o'zgartirish imkoni mavjud.

O'zbekiston Respublikasi sud ekspertizasi markazi, O'zbekiston

Respublikasi IIV va boshqa mutassadi organlar tomonidan yuqorida qayd etilgan o'lgan ishlariga qo'shimcha qilib, sud huquq islohatlarini, ya'ni sud – ekspertiza tadqiqotlarini olib borishda avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimlarini yanada rivojlantirish bo'yicha zamon (jahon) talablariga javob beradigan yangi dastur va avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimlari yaratishda va ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor qaratsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Sud — ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishda EHMdan foydalanishning quyidagi:

an'anaviy ekspertiza o'tkazish metodikasini avtomatlashtirish; ekspertiza tadqiqotlarini matematik metodlar va elektron – hisoblash texnikasidan foydalanilgan holda amalga oshiriluvchi maxsus ishlab chiqilgan metodika negizida avtomatlashtirish;

ekspertiza tadqiqotlarini ixtisoslashtirilgan axborot – qidiruv tizimlaridan foydalangan holda avtomatlashtirish shakllari vujudga kelishiga.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining sud – ekspertiza muassasalari tizimida ekspertiza vazifalarini hal qilish uchun quyidagi:

uskunalardan tushuvchi birlamchi axborotlarni to'plash va qayta ishlash dasturlari ;

identifikatsiya qilish va turkumlash vazifalarini hal qilishga mo'ljallangan dasturlar;

matematik hisob – kitoblarga mo'ljallangan dasturlar;

sud ekspertizasini axborotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan dasturiy komplekslar (har xil avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimlari);

dialog rejimida ekspertiza xulosalari matnini tayyorlashga mo'ljallangan dasturlar.

Portlashlar va yong'inlar bo'yicha quyidagi:

portlashlar va yong'inlar bo'yicha avtomatlashtirilgan axborot – qidirish tizimlarini ishlab chiqish;

portlashlarning sabablari va portlovchi moddalarning turkumlari haqidagi axborotlar;

bunday hodisalarni tahlil qilish va taqqoslash usullari;

jamlangan bo'lishligi kerak hamda Istiqbolda integrativ

ma'lumotlar bazalarini barpo etish rejalarini ishlab chiqishga qaratsilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Hozirgi kunda jahonning ko'pgina mamlakatlarida avtomatlashtirilgan monodaktiloskopik ro'yxatdan o'tkazish tizimlaridan foydalanilmoqda. Bu sohaning asoschilaridan biri L.G. Ejubov bo'lib, u daktiloskopik ro'yxatdan o'tkazishning prinsipial jihatdan yangi yarim avtomatik tizimini taklif qilgan. Eng og'ir vazifa-papillyar chiziqlarni kodlashtirish vazifasi bu tizimda zonal-nuqtali kod yordamida hal qilinadi. Optik proyeksiya yordamida kattalashtirilgan, koordinataning ikki o'qiga nisbatan qat'iy ma'lum tarzda joylashtirilgan barmoq izida chiziqlarning detallari nuqtalar bilan belgilanadi. Har bir nuqtaning koordinatalari EHM xotirasiga ikki son ko'rinishida kiritiladi.

Bundan boshqa avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimlari kompleksi ham yaratilgan bo'lib, bu avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimlari kompleksi ichki ishlar organlarida hisobda turgan odamlarning barmoq izlari va jinoyat sodir etilgan joylardan olingan iziarga qarab shaxsni avtomatlashtirilgan identifikatsiya qilish uchun mo'ljallangan.

Kompleksning imkoniyatlari undan 10 mingdan 10 mln.tagacha daktilokartalarni jamlash va qayta ishlash uchun foydalanish imkonini beradi.

Kompleks ish joyining asosiy imkoniyatlari axborotlarni bir smenada 400 kartagacha tezlikda kiritish, shuningdek kartotekadan sekundiga 10 ming barmoq izigacha tezlikda qidirishdan iborat. Boshqa bunday tizimlarga kiritib bo'lmaydigan izlardan foydalanish imkoniyati ham mavjud; ularni daktiloplenkalardan ham, bevosita yetkazuvchilarning sirtidan ham kiritish mumkin.

Kompyuter ekspertiza tizimi iz va barmoq izini vizual o'rganishdan voz kechish imkonini beradi, uning tasvirini kattalashtirish, uni ko'zguli va negativ aks ettirish imkoniyatlari esa ekspertizaning samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, avtomatlashtirilgan axborot – qidiruv tizimining zamonaviy usullari va vositalarini amalda qo'llashga nisbatan bayon etilgan tizimli yondashuv sud – ekspertiza tadqiqotlarini avtomatlashtirish sohasidagi normativ negizni takomillatirish va rivojlantirish muammosini hal qilish imkonini beradi.

IX BOB. HUQUQ SOHASIDA AXBOROT QIDIRISH

§1. Axborot qidirish nazariyasi asoslari

Axborot qidirish muammosi umumiy va huquqiy informatikaning asosiy vazifalaridan biridir. Insoniyat axborot qidirish (iqtisod, fan, texnika, harbiy ish va boshqa sohalarda) muammosi bilan hamisha to'qnash kelgan. Kutubxonalar, arxivlar, adres byurolari, telefon bildirgichlari – bularning hammasi turli miqyosdagi va turli ahamiyatga molik axborot tizimlaridir.

Hozirgi zamon axborot qidirish nazariyasi asoslari 50- yillarda va 60- yillarning birinchi yarmida ishlab chiqilgan. «Deskriptor» atamasi 1947-yilda amalga kiritilgan, axborot qidirishni avtomatlashtirishning negizi hisoblanuvchi koordinatali indeksatsiyalash prinsiplari esa 50- yillarda ishlab chiqilgan.

Kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan ming yilliklar mobaynida bibliografik qidirish metodlari ishlab chiqilgan. Asarning bosh mavzusi qisqacha matn ko'rinishida ifodalangan va kitobxon mana shu matnga qarab mazkur asar o'zining axborotga bo'lgan talablarini qondirish-qondirmasligi haqida xulosa chiqargan.

Maqbul qidirish strategiyasini tanlash axborot qidirishning juda ko'p savollariga javob beradi. Bundan tashqari, ayrim vaziyatlarda qidirish strategiyasi maxsus yo'sinda ko'rsatiladi. Jumladan, axborot massivi ma'lum tarzda tartibga solingan bo'lsa, bu axborot qidirishni yengillashtiradi. Bunda avval normativ-huquqiy hujjat mavjud bo'lgan huquq sohasini, so'ng esa – hujjatning o'zini (yoki huquq normasini) topish talab etiladi.

Axborot qidirish nazariyasida assotsiativ qidirish va assotsiativ fikrlash farq qilinadi. Noma'lum masalani yechish u yoki bu jihatdan yechilgan masalalarga asoslanadi. Uni yechish usuli qachondir shunga o'xshash masalani yechishga yordam bergan usulga yaqin bo'lishi kerak. Buning uchun xotiraga murojaat qilish va avval uchragan shunga o'xshash nimanidir topishga urinib

ko'rish lozim. Mana shunday qidirish assotsiativ qidirish hisoblanadi.

Axborot qidirish muammosi yuridik faoliyatning barcha turlarida mavjud. Normativ-huquqiy axborot sohasida bu muammo ayniqsa keskin xarakterga ega. Normativ-huquqiy axborotning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u rasmiy va hujjatlashtirilgan axborot hisoblanadi¹.

O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonunida normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari belgilangan:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- 6) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining qarorlari;
- 7) mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Har bir normativ-huquqiy hujjat murakkab dinamik tizimdan iboratdir. Huquq ijodkorligi faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlarining ichki tuzilishida amalda bo'lgan tizim hosil qiluvchi omillarni hisobga olish lozim.

Butun dunyoda huquqiy axborot, shu jumladan xalqaro xususiyatga ega bo'lgan huquqiy axborot hajmi ortib bormoqda. Jumladan, birgina Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'zi 1970-yilgacha 500 jilddan ortiq shartnoma va Kotibiyatda ro'yxatga olingan boshqa xalqaro ahamiyatga molik hujjatlarni e'lon qilgan.

Boshqaruvsiz huquqiy axborot oqimlari jamiyat va davlatga juda katta zarar yetkazadi. Huquqiy hujjatlar «inflatsiya»si huquq-tartibot va qonuniylik negizlariga bolta uradi.

Inqirozdan chiqishning yo'llari zamonaviy elektron-hisoblash mashinalari va boshqa elektron-hisoblash texnikasi vositalaridan samarali foydalanish orqali topildi. Amaliyot elektron-hisoblash mashinalari qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, yangilash va foydalanuvchilarga berishning ideal vositasi ekanligini ko'rsatdi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda yirik huquqiy axborot bazalari

¹ Normativ-huquqiy hujjat – umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat.

va banklarini tashkil etishda eiektron-hisoblash mashinalaridan faol foydalanilmoqda. Bunda axborot olish va uzatishga mo'ljallangan murakkab telekommunikatsiya tizimlari barpo etilmoqda. Huquqiy informatika sohasida juda ko'p kompyuter texnologiyalaridan foydalaniladi. Avtomatlashtirilgan tizimlar va ekspert tizimlari, konsultatsiya tizimlari, kompyuter tizimlari va tarmoqlari, sun'iy intellekt g'oyalari asosiga qurilgan tizimlar, o'qitib-o'rgatuvchi tizimlar, avtomatlashtirilgan mantiqiy-axborot tizimlari shular jumlasidandir.

Huquqiy informatikaning vujudga kelishi va rivojlanishi amaliyotda yuridik fanining tez va operativ ta'sirining yorqin misolidir. Normativ-huquqiy hujjatlarni qidirish vazifasini hal qilish uchun elektron-hisoblash mashinasidan foydalanish bo'yicha dastlabki muvaffaqiyatli eksperimentlar 60- yillarda V.I. Ivanov va S.S. Moskvina rahbarligidagi huquqiy axborot-ma'lumot xizmatini avtomatlashtirish laboratoriyasida amalga oshirilgan.

70- yillarning o'rtalarida bu g'oyalar amalga tatbiq etildi. Eng yirik huquqiy axborot tizimi – «qonunchilik» avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimi sobiq Ittifoq Adliya vazirligining Huquqiy axborot ilmiy markazida yaratildi.

Bu tizimda SSSR va ittifoqdosh respublikalar davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining e'lon qilingan va e'lon qilinmagan amaldagi normativ hujjatlari, vazirliklar, idoralar va davlat qo'mitalarining umummajburiy normativ hujjatlari hisobga olinishi lozim edi. Hujjatlar fondini shakllantirish tartibi belgilandi. Birinchi bosqichda davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining hujjatlarini, ikkinchi bosqichda esa – vazirliklar, idoralar va davlat qo'mitalarining umummajburiy hujjatlarini jamlash nazarda tutildi.

Huquqiy axborot ilmiy markaziga normativ hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va ular haqida axborot berishni tashkil qilishdan tashqari, axborotlarni qayta ishlash yo'riqnomalari, metodikalari va avtomatlashtirilgan jarayonlarini ishlab chiqish va amalga joriy etish, «qonunchilik» avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimini loyihalash, ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan tizimlarni amalga joriy etish, ulardan foydalanish va bu tizimlarni takomillashtirish vazifalari ham yuklandi.

Qonun hujjatlariga doir avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimining yaratilishi va huquqiy informatikaning rivojlanishi huquq

nazariyasining yangi muammolari qo'yilishiga obyektiv imkoniyat yaratadi. Ular jumlasiga, masalan, latent (yashirin) huquqiy axborot muammosi kiradi. Latent axborotning xilma-xil shakllari mavjud. Ularning uch asosiy turkumini ajratish mumkin. Bular:

1. Ma'nosi jihatidan o'xshash yoki yaqin, ammo turli til shakllarida ifodalangan normalar va huquqiy qoidalar. Masalan, «shart-noma», «bitim» va «kontrakt» tushunchalarini olaylik. Ma'no jihatidan ular juda yaqin. Ko'rsatilgan atamalardan birortasi mavjud bo'lgan massiv huquq ijodkorligining muayyan vazifalarini hal qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, foydalanuvchiga mazkur atamalardan faqat bittasi ifodalangan axborot sifatida taqdim etilsa, qolgan axborotlar yashirin bo'lib qoladi. Ularni oshkora axborotlarga aylantirish imkonini beruvchi metodlarni izlash talab etiladi. Bu metodlar axborot qidirish nazariyasida ishlab chiqiladi.

2. Normativ hujjat (qonun, boshqa normativ hujjat) matnining mazmunidan mantiqiy xulosa chiqarish. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining V va VII boblarini bir-biriga solishtirish orqali VII bobda ifodalangan axborotga doir normalarda V bobda latent ko'rinishda zohir bo'lgan xossa va sifatlar mavjudligi haqida xulosa chiqarish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasi va 13-moddasi bir-biriga solishtirish orqali axborot olish huquqi jamiyat va davlatning oliy qadriyatlarini jumlasiga kiradi, degan xulosaga kelish mumkin. Axborot olish huquqini e'tirof etish, unga rioya qilish va uni himoya qilish davlatning burchidir.

3. Huquq ijodkorligi vazifalarining ma'lum doirasi bilan mantiqan bog'liq bo'lgan latent axborot. Umumiy huquq nazariyasi qoidalariga muvofiq, har bir huquqiy norma boshqa huquqiy normalar kontekstida amal qiladi, har bir huquq instituti boshqa institutlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi, qonunchilikning har bir sohasi esa – boshqa sohalar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Barcha normativ ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining norma va prinsiplari bilan birgalikda amal qiladi.

Huquq sohasida axborot qidirish vazifalarini amalga oshirish tegishli axborot (kompyuter) texnologiyalarini yaratishni talab etdi. Huquqiy axborot avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimlari shu-

lar jumlasidandir. Avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimi bu huquqiy axborotlarni jamg'arish va jamoaviy tartibda foydalanishga mo'ljallangan axborot, matematika, dasturiy lingvistik, tashkiliy va texnikaviy vositalar tizimidir.

Huquqiy axborot avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) eng yangi kompyuter texnologiyalarini;

2) tizimdan foydalanish operatsiyalarini amalga oshiruvchi mutaxassislardan (muhandislar, matematiklar, dasturchilar, operatorlar va texnika fanlarining texnikaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi boshqa vakillaridan);

3) muayyan huquq sohasining axborot qidirish tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etuvchi mutaxassislardan¹.

Huquqiy axborot avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimini yaratish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish talab etiladi:

huquqiy axborotning son va sifat xususiyatlarini aniqlash;

huquqiy axborotni yig'ish va tarqatishning eng samarali usullarini ishlab chiqish;

axborot qidirish tizimiga kiritish uchun axborot manbalarini tanlash mezonlarini aniqlash;

axborot algoritmlarini ishlab chiqish;

katta hajmdagi axborot joylangan EHM xotirasidan normativ-huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirilgan yo'sinda qidirish protseduralari majmui;

huquqiy axborot sohasidagi amaliyotning rivojlanishini belgilovchi tendensiyalarni aniqlash maqsadida turli davlat idoralari, muassasalari va tashkilotlarining faoliyatiga doir sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish.

Huquqiy axborot avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimining asosida normativ-huquqiy axborot bazalari va banklari yotadi. Ular butun tizimning «miyasi va yuragi»dir. Ularda huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash vazifalarini hal qilish uchun zarur bo'lgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar jamlanadi.

Ma'lumotlar bazasi – bu ma'lum qoidalarga muvofiq tashkil etilgan o'zaro bog'liq ma'lumotlar majmuidir. Maxsus tarzda tashkil

¹ Huquqiy axborot avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimi inson tomonidan boshqariladigan ijtimoiy-texnikaviy tizimlar turkumiga kiradi.

etilgan fayllar guruhlari ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Ular bilan ishlash uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimidan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi 1994 yil 5 may qonunining 1-moddasiga muvofiq, «ma'lumotlar bazasi – elektron hisoblash mashinalari yordamida topish va ishlov berish mumkin bo'ladigan tarzda bir tizimga solingan ma'lumotlar (masalan, maqolalar, hisob-kitoblar) majmui»¹.

Ma'lumotlar bazasi katta axborot massivlarini saqlash, zarur ma'lumot va hujjatlarni tez qidirib topishga mo'ljallangan. Mutaxassisning avtomatlashtirilgan ish joyidan tortib superkompyutergacha bo'lgan har qanday axborot tizimida ma'lumotlar bazasi tashkil etiladi.

Normativ hujjatlar bazasi hajman cheksiz bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar majmuidan iborat. Normativ-huquqiy hujjatga quyidagi belgilar xosdir:

u davlat nomidan chiqarilgan rasmiy yozma hujjat hisoblanadi;
normativ-huquqiy hujjat davlat organining vakolatiga qat'iy muvofiq ravishda chiqariladi;

normativ-huquqiy hujjat turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun mo'ljallanadi, belgilangan shaklga ega bo'ladi va umummajburiy hisoblanadi;

normativ-huquqiy hujjatlar tizimida qonun – eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun qonun chiqaruvchi organ tomonidan chiqariluvchi yoki referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilinuvchi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat muhim o'rin tutadi.

Huquq sohasida avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimini yaratish va uning faoliyati uchun muhim omil – normativ-huquqiy hujjatning tuzilishi, uning ichki arxitektonikasi katta ahamiyatga egadir. Bunday ehtiyojlarni qondirish uchun kod faqat butun normativ-huquqiy hujjatni emas, uning moddasi (bandi, paragrafi) – normativ-huquqiy hujjatning aniq ifodalangan tarkibiy qismi, uning shakliy tuzilishining mikroelementlaridan birini ifodalashi ham

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 yil, 5-son, 136-moddada.

talab etiladi. Hujjatning raqami va uning moddasi raqamidan iborat kod huquqiy hujjatning adresi hisoblanadi.

Huquq ijodkorligi faoliyatining maxsus turlariga mo'ljallangan axborot bazalarini tashkil etish katta samara beradi.

Normativ-huquqiy axborotni qidirish shartlari xilma-xil savollar tuzishni talab etadi. Misol tariqasida quyidagi xarakterli savollarni keltirish mumkin:

«Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan tartibga solish» iborasi qaysi normativ-huquqiy hujjatda qo'llanilgan?

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi qachon qaysi organ tomonidan qabul qilingan?

Aksiyadorlik jamiyatlarining huquqiy maqomi qaysi hujjatlarda belgilab qo'yilgan?

O'zbekiston Respublikasining «Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni qaysi huquq sohasiga taalluqli?

Ko'chmas mulkni davlat ro'yxatidan o'tkazish qaysi hujjatlar bilan tartibga solinadi?

Tadbirkorlik faoliyati qaysi hujjatlar bilan tartibga solinadi?

Jinoyatchilikka qarshi prezident dasturlarining huquqiy maqomi qaysi hujjat bilan tartibga solinadi?

«Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ekspertizasi» tushunchasi qaysi hujjatda belgilangan?

Fuqarolarning axborot olish huquqi xalqaro huquqning qaysi norma va hujjatlari bilan tartibga solinadi?

Huquqiy axborot markazlari shuningdek quyidagi vazifalarni ham bajaradi:

yangi qabul qilingan hujjatlar haqidagi axborotlarni tarqatish;
abonentlar tomonidan taklif qilingan mavzularga qarab hujjatlarning ro'yxatlarini tuzish;

hujjatlarga o'zgartirish kiritilgani va ular (ularning moddalari) bekor qilingani haqida (bu qaysi hujjatga muvofiq amalga oshirilganini ko'rsatgan holda) ma'lumotlar berish;

axborot nashrlarini chiqarish va massivlarni boshqa avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimlari uchun mashinada o'qiladigan tarqatuvchilarda ko'paytirish;

normativ-huquqiy hujjatlarni tahliliy nuqtai nazardan qayta ishlash (ma'lum atama qay darajada ko'p uchrashini aniqlash, qonun

hujjatlarining muvoziyligini tahlil qilish, bunda idoraviy qonun hujjatlarining roli va o'mini hamda qonunning roli oshib borayotganini hisobga olish).

Huquqiy axborotni kompyuterda qidirish metodlarini takomillashtirib borish lozim. Bu yo'nalishning imkoniyatlaridan biri gipermatnli ma'lumotlar bazalarini yaratishdan iborat. Gipermatn – bu matnli materialni tashkil etish va ifodalashning o'ziga xos shaklidir. Gipermatnli texnologiyalar kompyuterlardan foydalanishning yangi shakllariga va maxsus yaratilgan dasturlarga tayanadi.

Ko'pgina matnlar, qanday tabiatga egaligidan qat'iy nazar, shu jumladan huquqiy matnlar ham asosiy matn bilan bir qatorda yordamchi xususiyatga ega bo'lgan ayrim boshqa matnlar: matnga havolalar tizimi, matnga sharhlar, matnning turli tahrirlari, bir-biriga javob beruvchi yoki e'tiroz bildiruvchi matnlardan tashkil topadi.

Gipermatnli texnologiyalarda bir matndan boshqa matnga EHM yordamida o'tish qoidalari amal qiladi. Huquq sohasida bunga ayni matnda mavjud boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga havolalar tizimi xarakterli misol bo'lishi mumkin.

§2. Axborot qidirish tili. Huquqiy tezaurus

Huquq ijodkorligi jarayonini lingvistik jihatdan ta'minlash huquqiy informatikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Huquq tildan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Huquqning tili – bu uning nutqiy vositalari tizimidir. So'zlar, atamalar, iboralar va gaplar – bularning barchasi qonun hujjatining matnini shakllantirish uchun o'ziga xos «qurilish materiali» bo'lib xizmat qiladi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini ta'minlash vositalari jumlasiga lingvistik vositalar ham kiradi. Informatikada avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini lingvistik ta'minlash vositalari deganda axborot qidirishning yuksak darajada samaradorligini ta'minlovchi barcha lingvistik (lisoniy) vositalar majmui tushuniladi.

Axborot qidirish tili avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimlarini lingvistik ta'minlash vositalari tizimida yetakchi o'rinni egalaydi. Keng ma'noda til – bu axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun foydalaniluvchi belgilar tizimidir. Biron-bir

boshqa predmetning vakili bo'lib xizmat qiluvchi moddiy obyekt belgi (simvol, so'z) deb ataladi. Axborot qidirish tili — bu hujjatlarni kelgusida saqlash va qidirish maqsadida indeksatsiya qilish, axborotlarni so'rash va faktlarni tavsiflash uchun mo'ljallangan shaklga solingan sun'iy tildir.

Har qanday axborotni uzatish uchun avval tegishli tarzda kodlashtirish, ya'ni maxsus belgilar yoki signallar tiliga o'tkazish lozim. Elektr impulslar, nurli yoki ovoqli tebranishlar, mexanik ko'chishlar axborot uzatuvchi signallar bo'lishi mumkin. Har qanday shaklga solingan tilni yaratish uning alifbosini – boshlang'ich belgilar majmuini tuzishdan boshlanadi. Bu belgilar mantiqiy va nomantiqiy bo'ladi. Qonun hujjatlariga doir axborot qidirish tili quyidagilarni ta'minlashi lozim:

huquq normalari va normativ-huquqiy hujjatlarni samarali shaklga solish;

huquq ijodkorligining muayyan vazifalarini hal qilish uchun zarur axborotni kompyuterdan katta tezlikda qidirib topish;

normativ matnni yuridik tildan EHM tiliga muvofiq ravishda o'tkazish;

axborot qidirish paytida «shovqin»ning minimai bo'lishiga erishish (ya'ni kompyuter tomonidan ortiqcha axborot berilishi ehtimolini minimumga keltirish);

axborot qidirishning to'liqligi, ya'ni huquq ijodkorligining muayyan vazifalarini (yangi hujjat yaratish, tizimga solish) hal qilish uchun zarur bo'lgan barcha axborotni olish.

Axborot qidirish nazariyasida axborot qidirish tillarining quyidagi tiplari farq qilinadi.

Predmetli tip tillari – bu to'plamlar va alohida normativ hujjatlarga alifboli-predmetli ko'rsatkichlar hamda keng tarqalgan alifboli-predmetli rubrikatorlar. Bu tipga mansub tillardan foydalanishda hujjatning asosiy mavzusi (predmeti) bir yoki bir necha namunaviy so'zlar – ruknlarda (rubrikalarda) ifodalanadi.

Klassifikatsion (turkumlovchi) tipga mansub til qonunchilik sohalari klassifikatorining aynan o'zidir.

Axborot qidirish tilining uchinchi tipi – bu deskriptor tipiga mansub tildir. Bunday til katta «semantik kuch»ga ega, ya'ni normativ-huquqiy hujjatning mazmunini to'liq berish, deskriptorlar kombinatsiyasi orqali har qanday tushunchani ifodalashga qodir

bo'lib, hujjatlarning mazmunini yuksak darajada aks ettirishi, asos so'zlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Huquqiy axborot avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimlarida foydalanish uchun ishlab chiqiluvchi va qo'llaniluvchi deskriptorli axborot qidirish tillarini ikki asosiy turkumga ajratish mumkin:

1) tushunchalar o'rtasida mantiqiy va mazmunga doir nisbatlar farq qilinmaydigan tillar;

2) tarkibida mantiqiy va mazmunga doir nisbatlar mavjud tillar.

Deskriptor tipiga mansub tillar orasida huquqiy tezaurus eng katta semantik kuchga ega bo'lgan til sifatida muhim o'rin tutadi. Huquqiy tezaurus – bu huquqiy axborot avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimlarini lingvistik ta'minlash va ulardan foydalanishda qo'llaniluvchi asos so'zlar va deskriptorlarning leksik-semantik to'plamidir. Uning vazifasi huquq ijodkorligi jarayonida foydalaniluvchi leksik vositalarni tartiblash va tizimga solishdan iborat.

Informatikada tezaurus quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1) undan axborot qidirishni tashkil etishda foydalaniladi («axborot qidirish tezaurusi»);

2) huquq ijodkorligi vazifalarini hal qilish jarayonida ulardan lingvistik vosita sifatida foydalaniladi¹;

3) xabarning ma'nosini mezonlash vositasi sifatida foydalaniladi²;

4) latent axborotni qidirishning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tezaurus bir qator asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Huquq normalarining (hujjatlarining) mazmunini to'laqonli ifodalovchi asos so'zlar ularning muhim jihatlaridir. Jiddiy ma'no yukini tashimaydigan so'zlar asos so'zlar jumlasiga kirmaydi. Ko'makchi, umumfoydalaniladigan so'zlar, tashlab ketilsa ham huquq normasining mazmuni o'zgarmaydigan so'zlar shular jumlasidandir.

Deskriptor tushunchasi. Asos so'z tushunchasini yanada umumlashtirish deskriptor tushunchasiga olib keladi. Deskriptor degan-

¹ Tezauruslarning mazkur tipi chet el huquqiy informatikasida ayniqsa keng tarqalgan. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: atamalarning to'liq lug'ati, yuridik tushunchalarning ta'riflari, sharhlar, mavzuga doir deskriptorlarning soni haqida statistik ma'lumotlar va h.k.

² «Foydalanuvchining tezaurusi» – foydalanuvchi ega bo'lgan ma'lumotlar majmui.

da huquq normasi yoki normativ hujjatning asosiy mazmunini tavsiflash uchun xizmat qiluvchi axborot qidirish tilining leksik birligi tushuniladi. Deskriptor asos so'zlarning butun bir guruhini ifodalovchi ajratilgan asos so'z deb aytilish mumkin. Bunday so'zlar deskriptorli moddani hosil qiladi. Buning natijasida «axborotning zichlashishi» sodir bo'ladi. Deskriptorli modda quyidagi tuzilishga ega bo'lishi mumkin: bosh deskriptor, ekvivalentlik turkumiga mansub asos so'zlar; bosh so'zga bo'ysunuvchi so'zlar; bosh so'zga bog'liq bo'lgan asos so'zlar.

Huquq normasi, huquq instituti yoki normativ-huquqiy hujjatning qidiriladigan obrazini yaratish protsedurasi indeksatsiyalash deb ataladi. Indeksatsiyalash huquq normasining mazmuni va matnini tegishli asos so'zlar va deskriptorlar to'plamiga aylantiradi. Bu protsedura faqat yuqori malakali yuristlar tomonidan bajarilishi mumkin¹.

Deskriptor va asos so'z tushunchalari ikki maqsadga erishish uchun xizmat qiladi. Birinchi maqsad mazkur tushunchalardan huquq normalarining qidiriladigan obrazini yaratishda foydalanishdan iborat. Huquq normasining (normativ-huquqiy hujjatning) qidiriladigan obrazi – bu normativ-huquqiy hujjatning tarkibiy elementlarini (normalar, moddalar, umuman hujjatni) axborot qidirish tilining atamalarida (asos so'zlar va deskriptorlarda) ifodalash demakdir. Huquqiy hujjatning (uning bir qismining) qidiriladigan obrazi mazkur hujjatni kompyuter xotirasida saqlashga xizmat qiladi.

Deskriptor tipiga mansub tildan foydalanishning ikkinchi vazifasi huquqiy axborotni qidirishga so'rovlarni to'g'ri tuzishdan iborat. Bu so'rovlar EHM xotirasiga kiritiladi. Foydalanuvchining lug'ati axborot qidirish tilining lug'ati bilan almashtirilishi (aniqlashtirilishi) lozim. EHM yordamida axborot qidirish yakuniy hisobda so'rov atamaları va hujjat atamalarini belgima-belgi ayniylashtirishga asoslanadi.

Ayrim natijalarni ko'rib chiqamiz. Tezaurusdan foydalanish normativ-huquqiy axborotni yanada chuqur va har tomonlama qidirish imkonini beradi. Huquq ijodkorligi vazifalarini hal qilishda foydalaniluvchi ma'lumotlarni qidirish va tizimga solish bilan bog'liq hollarda huquqiy tezaurus ayniqsa katta rol o'ynaydi.

¹ Shu bilan birga, indeksatsiyalashni indeksning miqdoriy tushunchasiga bog'lama maslik lozim.

Tezauruslarning har xil tiplari mavjud. Tezauruslarning birinchi tipi umumiy huquq tezaurusi o'tgan asrning 70-chi yillarida ishlab chiqilgan. Ammo hozirgi vaqtda bu tezaurusdan foydalanilmayapti.

Tezauruslarning ikkinchi tipi – bu huquq sohalari bo'yicha ixtisoslashgan tezaurusdir. U nisbatan oz deskriptorlar va asos so'zlardan tarkib topadi.

O'zbekistonda yaratilgan va amalda bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimlarining hammasida ham tezaurusdan foydalanilmaydi. Ammo bunga vaqtinchalik holat deb qarash lozim. Huquqiy tezauruslarning har xil tipi va turlarini yaratish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirish talab etiladi¹.

Huquq sohasida avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimlarini tashkil etishga har xil lingvistik vositalar – yuridik atamalar, so'z va iboralarning lug'atlari, klassifikatorlar hamda yuridik atamalar banklari yordam beradi.

Klassifikator – bu klassifikatsion turkumlar nomlari va kodlarining tizimga solingan to'plamidir. Har qanday turkumlashda quyidagi talablarga rioya qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ko'rib chiqilayotgan sohadagi obyektlarni to'liq qamrab olish;
- yangi obyektlarni kiritish imkoniyatining mavjudligi;
- ko'p pog'onali tuzilish.

O'zbekiston Respublikasida qonunchilik sohasining umumhuquqiy klassifikatori mavjud bo'lib, bu umumhuquqiy klassifikator muntazam yangilanib boriladi.

Normativ hujjatlarning klassifikatorlaridan foydalanish ancha katta samara beradi. Ammo tor mavzularga doir hujjatlarni qidirishda ularning samaradorligi bir muncha pasayadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni tartiblash jarayonida faqat umumhuquqiy klassifikatorlardan emas, boshqa bilim sohasining klassifikatorlaridan ham foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan:

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishining klassifikatori;

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan hujjatlar turlarining klassifikatori;

¹ Chet elda yaratilgan huquqiy axborot avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimlarining ko'pchiligida tezaurusdan foydalaniladi.

normativ hujjatlar e'lon qilingan manbalarning klassifikatori;
kasblar, lavozimlar va mutaxassisliklar klassifikatori;
xalq xo'jaligi tarmoqlarining klassifikatori.

Huquqiy axborot avtomatlashtirilgan axborot qidirish tizimini lingvistik ta'minlashni tezaurus (va turli klassifikatorlar) asosida ham, boshqa lingvistik vositalar yordamida ham amalga oshirish mumkin.

Avtomatlashtirilgan terminologik bazalar va ma'lumotlar bazalarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Normativ-huquqiy hujjatlarda ishlatiluvchi atamalarning leksik diapozoni juda keng. Bu normativ-huquqiy matn politematik tuzilma bo'lib, unda ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalari aks ettirilganligi bilan izohlana-di.

Huquq ijodkorligi jarayonida foydalaniluvchi barcha axborotni quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

- 1) umumiy yuridik atamalar;
- 2) maxsus yuridik atamalar;
- 3) umumfoydalaniladigan leksika;
- 4) ilmiy va texnikaviy leksika;
- 5) siyosiy, ekologik yoki boshqa ijtimoiy axborot.

Normativ-huquqiy hujjatlar terminologiyasi standartlashtirilishi lozim.

Standartlashtirish har xil obyektlarga umumiy majburiy talablarni o'rnatishdan iborat alohida faoliyat shakli hisoblanadi.

Huquq sohasida foydalaniluvchi yangi leksikani nazorat qilish katta amaliy ahamiyatga egadir. Ushbu funksiya yangi atamalarning zaruratsiz amalga kiritilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida avtomatlashtirilishi lozim.

X BOB. KOMPYUTER JINOYATCHILIGI VA XAVFSIZLIGI

§1. Kompyuterda saqlanayotgan ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish

Taraqqiyotni hech narsa bilan to'xtatib bo'lmaydi. Hozir insoniyat katta sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ba'zan qonun chiqaruvchi jamiyatning tezkorlashib borayotgan barcha sur'atlari ortidan ulgura olmay qolayapti.

Kompyuter ma'lumot (axborot)larni jinoiy-huquqiy himoyalash O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida birinchi marta amalga kiritilgan.

1994-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasining «Elektron-hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni amalga kiritildi.

Mazkur Qonunda EHM, ma'lumotlar bazasi, umuman tarmoqlar, kompleks axborotlarni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarning butun bir majmui ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, unda EHM yoki ma'lumotlar bazasi uchun bironing dasturini o'z nomidan chiqarish, noqonuniy ravishda qayta ishlab chiqarish, bunday asarlarni tarqatish ushbu Qonunga muvofiq ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risidagi qoida bor.

Biroq tegishli jinoiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi qabul qilinishi bilan bog'liq holda faqat 1994-yil 22-sentabrdagina yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 174-moddasiga muvofiq axborotlashtirish qoidalarining buzilishi, ya'ni axborotlashtirish tarmoqlariga ruxsatsiz kirish yoki tegishli himoyalash chora-tadbirlari qabul qilinmasdan, bunday tarmoqlarga kirish yoxud ulardan ma'lumotlarni qasddan o'zgartirish, yo'qotish, olib tashlash yoki yo'q qilish kabi hollar katta zarar yetkazgan taqdirda, eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida jarima solish yoki uch oygacha qamash yohud uch yilgacha axloq tuzatish ishlariga jalb etish bilan jazolanadi.

Kompyuter tizimlarida saqlanayotgan ma'lumotlar yoki dasturlarni o'zgartirish maqsadida tegishli ruxsatsiz kompyuter viruslari yoki dasturlarini yaratish va ularni tarqatish, shuningdek ma'lumotlarning buzib ko'rsatilishi, olib tashlanishi, yo'qotib yuborilishi yoki bu tizim ish-faoliyatining to'xtab qolishiga sabab bo'lgan axborotlar tizimiga ruxsatsiz kirish eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorida jarima solish yoki uch oydan olti oygacha bo'lgan qamoq jazosi yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum etib, muayyan huquqlardan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining turli sohalarida ma'lumot (axborot)larni himoya qilish shart-sharoitlari va tamoyil (prinsip)larini belgilab beradigan bir qancha me'yoriy (normativ) hujjatlarning qabul qilinishi bilan bog'liq jarayon kechmoqda.

Himoyalash mexanizmining normal ishlashi-faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan huquqiy apparatni yaratish nihoyatda qiyin vazifadir. Bu sohadagi mavjud adabiyotlarni tahlil qilish bir necha huquqiy muammolar ishlanmalari haqida qisqacha to'xtalib o'tishga imkon beradi. Ular huquqiy himoyalash komponentlarining tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Ular quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Tizim ma'lumotlariga kirish ustidan nazoratning xuquqiy asoslarini belgilash.

2. Ma'lumotlarni himoya qilish bilan u yoki bu tarzda bog'liq bo'lgan texnologik operatsiyalarni bajarish uchun tizim ichidagi javobgarlikni belgilash.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchidan, ma'lumotlarni himoya qilish maqsadiga qaratilgan huquqiy mexanizmning tarkib topayotganligi to'g'risida dalolat beruvchi nazariy baza to'plangan.

Ikkinchidan, ko'pchilik mualliflar oldin huquqiy tartibga solishni talab qiladigan masala (muammo)ni ajratib ko'rsatadilar, keyin bunday tartibga solish vositalarini taklif etadilar, ya'ni funksional yondashuvdan foydalaniladi.

Uchinchidan, avtomatlashtirilgan tizimlarning himoya qilinishini butun bir tizim sifatidagi aniq tasavvuri hozircha yo'q.

Kompyuter jinoyatchiligi chegara bilmaydi. Bu — xalqaro tushunchadir. Axborot almashish tez, arzon va samarali bo'lib qolgan bir paytda, yangi texnologiyalarning inson hayotiga joriy etilishi bilan bog'liq holda axborot sohasidagi jinoyatchilik uni aniqlash uchun qo'llangan an'anaviy tushunchalar doirasidan chiqib ketdi. Kompyuter jinoyatchiligini ikkita katta toifaga bo'lish mumkin: kompyuter ishiga aralashish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar va kompyuterlardan zarur texnik vositalar sifatida foydalanishga oid jinoyatlar.

Kompyuter axborot (ma'lumot)lari tushunchasi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida belgilab berilgan. Kompyuter axboroti - axborotlashtirish tizimlarida hujjatlarning alohida massivlari sifatida qaraladigan ma'lumotlar resurslaridir. Bu resurslar, taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar, shaxslar, narsalar, voqealar, jarayonlar, aholi to'g'risidagi ma'lumotlardan tarkib topgan.

Kompyuter axborotining o'ziga xos xususiyati uning nisbatan oddiy ko'chirilishi, qayta ishlanishi va ko'paytirilishidir; ma'lumot olingan, chiqarib tashlangan vaqtda (biror narsani olib qo'yishdan farqli ravishda) u dastlabki manbaida osongina saqlanib qoiadi. Ma'lumot mavjud bo'lgan bir kompyuter fayliga kirish bir vaqtning o'zida cheklanmagan miqdordagi foydalanuvchilarga ega bo'lishi mumkin.

1982-yildayoq sobiq SSSR Oliy Sudi tomonidan qabul qilingan sud amaliyoti sharhida kompyuter ma'lumotlaridan jinoyatchilikka oid sud ishlari jarayonida foydalanish shartlari aks ettirilgan edi. Ko'p hollarda ruxsat olinmay turib (ma'lumotlarni o'g'irlash uchun kompyuterga) kirish, odatda, begona-birovning nomidan foydalanish, jismoniy manzillar, texnik qurilmalarni o'zgartirish, masalalar hal etilganidan keyin qolgan ma'lumotlardan foydalanish, dasturiy va axborotlashtirish ta'minotini modifikatsiyalash, axborot tashuvchini o'g'irlash, ma'lumotlarni uzatish kanallariga ulanadigan yozib oluvchi asboblarni o'rnatish orqali amalga oshiriladi.

Taraqqiyot jinoyatchilarning mutlaq yangi toifasi — xakerlarni yuzaga keltirdi. Bu odamlar kompyuter texnikasiga shu qadar berilib ketishganki, ular umum qabul qilingan jamoatchilik axloq-odob qoidalari doirasidan ham chetga chiqib ketishadi.

Tekshirilmagan ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda xakerlarning butun bir hamkorliklari mavjud bo'lib, u yerda ular axborot, ma'lumotlar

va shu kabilar bilan o'zaro axborot almashib turishadi. Ko'p hollarda kompyuter xavfsizligi sohasidagi jinoyatlar ayni shular tomonidan sodir etiladi.

Ularning ba'zilari uchun bironing kompyuteriga kirish, ma'lumotlarni o'g'irlash, o'g'irlangan ma'lumotlarni tushunib olishga urinish shunchaki ko'ngil ochish, ermak bo'lsa, ayrimlari uchun - biznesdir. Ular parol (yashirin shartli raqam, so'z yoki ibora) sifatidagi oddiy so'zlarni tanlab, parol, nusxa ko'chirishdan himoya tizimlari bilan yopilgan tarmoqlar yoki muayyan kishilarning kompyuterlari «eshigi»ni haftalab, oylab «taqillatib» o'tirishlari mumkin. Bu - aftidan, unchalik ahmoqona ish emas (hech bo'lmaganda, yaqin vaqtlargacha shunday edi).

Uzoq masofadagi kompyuterlarga noqonuniy ravishda ulanishning yana bir qancha oddiy va samarali usullari bor. Shu munosabat bilan bu to'g'rida Internetda - kompyuter tarmog'ining global jahon tarmog'ida topilishi mumkin bo'lgan butun bir traktatlar (ilmiy asarlar) yozilayapti.

Qonuniy foydalanuvchining fayllariga ruxsatsiz kirish himoya tizimidagi kuchsiz joylarni topish orqali ham amalga oshiriladi. Kunlardan bir kun qonun buzuvchi bu joyni topib olib, tizimdagi ma'lumotlarni shoshilmasdan tadqiq etishi, undan nusxa ko'chirib olishi, go'yoki xaridor do'kon peshtaxtasida tovarlarni ko'rayotganidek yoki o'quvchi kutubxona tokchalaridagi kitoblarni birma-bir ko'rib, tanlab olayotganidek, unga ko'p marotaba yana qaytishi mumkin.

Dasturchilar ba'zan tuzatish, sozlash jarayonida dasturlarda izlab topish mumkin bo'lmagan xatolarga yo'l qo'yishadi. Bu esa, «teshik» («брешь») larni topish uchun imkoniyat yaratadi. Katta, murakkab dasturlarning mualliflari mantiqning ayrim kuchsiz tomonlarini sezmay qolishlari mumkin. Nozik (qaltis) joylar ba'zan elektron zanjirlarda ham topiladi. Odatda, ular, har holda, tekshirish, tahrir etish vaqtida, dasturni tuzatishda aniqlanadi, ammo ulardan butunlay qutulishning iloji yo'q.

Dasturchilar keyinchalik foydalanish maqsadida atayin «teshik» («брешь») lar qilishadi. «Брешь» usulini rivojlantirish mumkin. Topilgan (yaratilgan) «брешь» larda dastur «uziladi» va u yerga qo'shimcha ravishda bir yoki bir necha komandalar qo'yiladi (kiritiladi). Ushbu «qopqoqli tuynuk, teshik» («люк») lar zarurat

tug'ilganida «ochiladi», qurilib-kiritilgan komandalar esa, avtomatik ravishda o'z vazifasini bajaradi. Bu usul ko'pincha tizimlar profilaktikasi va ularni tuzatish bilan shug'ullanuvchi loyihachilar va tashkilotlarning xodimlari tomonidan foydalaniladi. Ba'zan uni «teshik» («брешь»))larni mustaqil ravishda topgan shaxslar qo'llaydi.

Shunaqasi ham bo'ladiki, biror kimsa o'zini qonuniy foydalanuvchi sifatida ko'rsatib, kompyuter tizimiga kirib oladi. Autentik o'xshatish, tenglashtirish (identifikatsiya) (masalan, fiziologik xususiyatlar bo'yicha: barmoqlarning izlari, ko'z to'r pardasining chizmasi, shakli, ovoz va h.k. bo'yicha) vositalariga ega bo'lmagan tizimlar bu usulga qarshi himoyasiz bo'lib qoladi. Uni amaiga oshirishning eng oddiy yo'li qonuniy foydalanuvchilarning kod (xosraqam)lari va boshqa identifikatsiya shifrlarini olishdir. Bunday usullar eng oddiy muttahamlikdan boshlab, ularning soni nihoyatda ko'p. Ba'zan, masalan, adashib tushib qolgan telefon qo'ng'iroqlari kabi, uzoqdagi kompyuter tarmog'idan foydalanuvchi birovning tizimiga ulanib qolib, o'zi ishlamoqchi bo'lgan tizim bilan ishlayotganiga ishonadi. Amalda o'ziga begona ulanib qolgan tizim egasi to'g'riga o'xshagan javoblarni shakllantirib, ushbu adashishni muayyan vaqt davomida qo'llab-quvvatlashi va shu tariqa ayrim ma'lumotni, xususan kodni bilib olishi mumkin.

Har qanday kompyuter markazida EHM ishida uzulishlar yoki boshqa chetga chiqishlar sodir bo'lgan vaqtda tizim asbobi (sistemali instrument) sifatida qo'llanadigan maxsus dastur mavjud bo'ladi. Bunday dastur transportda «avariya-halokat sodir bo'lgan holda, oynani sindiring» degan yozuv bilan joylashtiriladigan moslamani eslatadi. Bizning mamlakatimizda yaqindagina axborot xavfsizligi sohasida mutahassislarni o'qitib, tayyorlaydigan markazlar va oliy o'quv yurtlari yaratila boshladi. Ruxsatsiz kirish tizimni buzish, sindirish natijasida amalga oshirilishi ham mumkin. Masalan, agar ayrim fayllar ochiq qolgan bo'lsa, u o'ziga tegishli bo'lmagan ma'lumotlar bankining qismlariga kira olishi mumkin. Hamma ish shunday sodir bo'ladiki, go'yo bankning mijozi omborda o'ziga ajratilgan xonaga kirib, omborning bitta devori yo'qligini ko'rib qoladi. Bunday holatda u begona seyflarga kirishi va u yerda saqlanayotgan hamma narsani o'g'irlashi mumkin.

Ruxsatsiz kirish tushunchasiga «mantiqiy bombalar» dasturiy ta'minotiga kirishdek xususiy voqealar ham kiritiladi, ular muayyan

shartlar bajarilayotgan vaqtda ishlab qoladi va kompyuter tizimini qisman yoki to'liq, butunlay ishdan chiqaradi.

«Troya oti» deb ataladigan usul begona dasturga uning egasi tomonidan rejalashtirilmagan yangi funksiyalarni amalga oshirish, ammo ayni vaqtda uning oldingi ish qobiliyatini ham saqlab qolishga imkon beradigan komandalarni mahfiy ravishda kiritishdan iboratdir.

«Troya oti» yordamida jinoyatchilar, masalan, har bir operatsiyadan muayyan summani ajratib, o'z hisobvaraqlariga o'tkazadilar. Aslida bu ish juda oddiy va oson bajariladi: kompyuter dasturiy matnlari anchagina murakkab. Ular yuz minglab, ba'zan millionlab komandalardan iborat. Shu boisdan bir necha o'nlab komandalar ichida «troya oti», agar unga nisbatan shubha tug'ilmasa, bilinmasligi, topilmasligi ham mumkin. Biroq ekspertlar - dasturchilar uni topishi uchun ko'p vaqt: bir qancha kunlar, haftalar kerak bo'ladi.

Masalan: Amerikalik bir dasturchi tomonidan «troya oti»dan foydalanishga oid qiziq hodisa yuz bergan. U o'zi ishlagan firmaning kompyuteri dasturiga pul hisoblab ajratadigan komandalarni emas, balki hisobot uchun muayyan tushumlarni bosmaga chiqaruvchi komandalarni kiritgan. Bu summalar maxsus tarzda belgilangan bo'lib, faqat tizimdagina «mavjud» bo'lgan. U blankalarni o'g'irlab, o'zining maxfiy belgisini ko'rsatib, bu pullarni olgan. Tegishli operatsiyalar esa, ilgorigidek bosib chiqarilmagan va taftish qilinishi ham mumkin bo'lmagan.

«Troya oti» ning yana bir shakli ma'lum bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, dasturning oddiygina bo'lib ko'ringan qismi bevosita operatsiyalarni amalga oshiruvchi dasturlarga emas, balki ularni shakllantiruvchi va keyinchalik ularni yo'qatuvchi dasturlar ichiga kiritiladi. Bunday holda dasturchi dasturlarni emas, balki ushbu dasturlarni shakllantiruvchi ikkilamchi komandalarni izlashi kerak, bu esa, tabiiyki, qidirishni qiyinlashtiradi. Ushbu g'oyani rivojlantirib, boshqa komandalarni shakllantiruvchi komandalarni tasavvur etish va shu tarzda cheksiz holda, nihoyat, «troya oti» shakllanganiga qadar davom ettirish mumkin.

Kompyuter jinoyatlari tarixiga murojaat etamiz. Bunda, xususan, AQSH bosh o'rinni egallab kelmoqda, chunki ayni shu

mamlakat kompyuter texnologiyalari ommaviy ravishda yuzaga kelgan joydir. Shuni qayd etish kerakki, bu sohada O'zbekiston Respublikasi endigina «kompyuterlashtirish» yo'liga kirib bormoq. Bizning davlatimizda ushbu sohada jinoyat sodir etish imkoniyati birmuncha kam yoki umuman ma'nosizdir.

§2. Kompyuter ma'lumotlarini o'g'irlash

Garchi keyingi paytlarda ko'pgina yirik kompyuter kompaniyalari (Naytov, Semurg', XayTek va b.) litsenzion dasturlar yetkazib berayotgan bo'lsalar-da, litsenzion dasturlar bilan qaroqchilik nusxalari o'rtasidagi farqlar dasturiy ta'minotning huquqiy bozorini yaratishga bo'lgan barcha sa'y-harakatlarni chippakka chiqarmoqda. Dasturiy ta'minotni huquq yo'liga burishga bo'lgan urinishlar amalda hech narsaga olib kelmayapti.

Agar oddiy o'g'irliklar jinoyat qonunchiligi ta'siriga tushsa, ma'lumot (axborot)larni o'g'irlash muammosi talaygina qiyinchiliklar tug'diradi. Mashina axboroti, shu jumladan, dasturiy ta'minotni ruxsat olmay, o'zlashtirib olish o'g'irlik sifatida tasniflanmaydi, chunki o'g'irlik tashkilot fondidan qimmatliklarni olish bilan bog'liq holda sodir etiladi.

Bizda dasturiy ta'minotni tarqatish faqat o'g'irlik yo'li bilan yoki o'g'irlangan narsani almashtirish orqali amalga oshiriladi, degan hazil haqiqatdan uzoq emas. Mashina axboroti bilan noqonuniy ravishda o'z mulki sifatida muamola qilinganda, uni fondan ajratib olmay turib, nusxa ko'chirish mumkin. Demak, yuqorida qayd etilgandek, mashina axboroti jinoiy-huquqiy muhofaza qilishning mustaqil predmeti sifatida ajratilishi kerak.

Biroq bu nima-kompyuter dasturimi? Narsami? Moddiy aktivmi? Yoki hali qonun chiqaruvchi uni bilmagan boshqa bir narsami?

Bizning fikrimizcha, kompyuter dasturi, asosan, shu bilan farqlanadiki, undan bema'lol nusxa ko'chirish mumkin bo'lib, bunda u o'zining xususiyatlarini zarracha ham yo'qotmaydi. Virtual makonlar birinchi qarashda katta, ulkan bo'lgan ma'lumotlarni nihoyatda kichik bir joyda joylashtirishga imkon beradi. So'nggi ikki yil ichida jamiyatimiz huquqiy hayotida fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish sohasida katta o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasining «Avtorlik huquqlari va ularga turdosh huquqlarni

himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi bilan avtorlik (mualliflik) huquqini himoya qilishning o'ziga xos jahon mezeni hisoblangan adabiy va badiiy asarlarni himoyalash to'g'risidagi Bern konvensiyasi talablariga to'liq javob beruvchi, avtorlarning huquqlarini muhofaza qilishning eng yuqori darajasini ko'zda tutuvchi me'yorlar tizim sifatida shakllanishi tugallandi. Informatika-da avtorlik huquqiga tegishli masalalar, EHM dasturi va ma'lumotlar bazasiga huquqlarni berish masalalari ham bizning qonunchiligimizda avtorlik huquqlari obyektining o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi sababli, alohida ko'rib chiqildi. Bu sohadagi avtorlik huquqi to'g'risida gapirish uchun dastlab ishlatiladigan tushunchalarni belgilab olishimiz kerak.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining «Avtorlik huquqi va ularga turdosh huquqlarni himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni quyidagi tushunchalarni belgilab beradi:

— EHM uchun dastur muayyan natijalarni olish maqsadida elektronik-hisoblash mashinalari va boshqa kompyuter qurilmalarining ishlashi uchun mo'ljallangan ma'lumotlar va komandalar majmui. EHM dasturi deganda, shuningdek, dasturni ishlab chiqish vaqtida olingan tayyorlov materiallari va uning tomonidan vujudga keltiriladigan audiovizual aks ettirishlar ham tushuniladi;

— ma'lumotlar bazalari — EHM yordamida topilishi mumkin bo'lgan va ishlov berilgan ma'lumotlarning tizimlashtirilgan (tartibga solingan) majmui (masalan: maqolalar, hisob-kitoblar to'plami)ni taqdim etish va tashkil etishning obyektiv shakli;

— EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazalari adaptatsiyasi (moslashtirish) — faqat EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazalari ishlashini ta'minlash maqsadida foydalanuvchining aniq texnik vositalari yoki foydalanuvchining muayyan dasturlari boshqaruvida amalga oshiriladigan o'zgartirishlarning kiritilishi;

— EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazalari modifikatsiyasi (qayta ishlash) — ularning adaptatsiya bo'lmagan har qanday o'zgarishlari;

— EHM uchun yaratilgan dasturni dekomplyatsiyalash — EHM uchun mo'ljallangan dasturning tuzilmasi va kodlanishini o'rganish maqsadida obyekt kodini dastlabki kodga o'zgartirishni o'z ichiga oladigan texnik usul;

— EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazalarini

chiqarish — har qanday moddiy shakldagi dasturiy mahsulotni bir yoki undan ortiq nusxalarini tayyorlash ;

— EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazalarini tarqatish — har qanday moddiy shaklda chiqarilgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazalaridan foydalanishga ruxsat berilishi, shu jumladan, tarmoq va boshqa usullar, sotish, prokatga berish, yollab berish, qarzga berish yo'li bilan, ushbu ko'rsatilgan istalgan maqsadlarda import qilish uchun ruxsat berilishi;

— EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazalarini bosib chiqarish (e'lon qilish), — EHM uchun mo'ljallangan dastur yoki ma'lumotlar bazalarini avtomning roziligi bilan muayyan doiradagi shaxslarga (jumladan, EHM xotirasiga yozib berish va bosma matnni chiqarish yo'li bilan) taqdim etish. Bunda asarlarning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinib, bunday nusxalar soni ushbu shaxslar doirasining talab ehtiyojlarini qondiradigan miqdorda bo'lishi kerak;

— EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazalaridan foydalanish - ularni bosib chiqarish, tarqatish va xo'jalik oborotiga kiritishga oid (jumladan, modifikatsiyalangan shakldagi) boshqa harakatlar. Ommaviy axborot vositalarida bosib chiqarilgan EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazalari to'g'risida berilgan xabariar EHM uchun mo'ljallangan dastur yoki ma'lumotlar bazalaridan foydalanish deb tan olinmaydi.

Avtorlik huquqi egalari - qonun yoki shartnoma bilan olingan faqat shaxsiy va mulkiy huquqqa ega bo'lgan muallif, uning merosxo'ri, shuningdek har qanday jismoniy va yuridik shaxslardir.

Yuqorida qayd etilgan qonun EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini yaratish, huquqiy himoyalash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni, shu jumladan, ko'p hollarda dastur va ma'lumotlar bazasiga bo'lgan huquqni berish (o'tkazish) kabi hal qiluvchi sohaga oid masalalarni ham tartibga soladi. Dastur va ma'lumotlar bazasiga bo'lgan mulkiy huquqlar muallif tomonidan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxsga berilishi mumkin. Dastur va ma'lumotlar bazasiga bo'lgan mulkiy huquqlar qonunda belgilangan tartibda meros bo'lib o'tadi. Ularni avtorlik huquqi amal qilgan muddat davomida realizatsiya qilish, sotish mumkin. Mulkiy huquqlarning berilishi (o'tkazilishi) yozma

shaklda tuziladigan shartnoma yoki kontrakt asosida rasmiylashtirilishi shart. Shartnomada, albatta, quyidagi asosiy shart (qism)lar mavjud bo'lishi kerak: foydalanish hajmi va usullari, haq (mukofot) to'lash tartibi va shartnomaning amal qilish muddati, shuningdek ushbu mahsulot foydalaniladigan hudud.

Har bir foydalanuvchi faqat shartnoma asosida sotib olish, ijaraga olish yoki prokatga olish yo'li bilan olgan dasturiy mahsulotdangina foydalanishga haqlidir. Hozirgi kunda bizning mamlakatimizda mualliflik sohasidagi masalalarni aniq himoyalash va tartibga solish uchun yetarlicha mustahkam bo'lgan huquqiy baza mavjud. Biroq, afsuski, bu qonunlar davlat tomonidan aniq harakatlar bilan mustahkamlanmagan.

Bizning sharoitda, ushbu tartibsizlikka shunchaki ko'z yumib qaralmasligi kerak, chunki ko'pgina istiqbolli xorijiy sheriklar biz bilan hamkorlik qilishdan cho'chishmasinlar. Himoya qilish masalalarini tartibga solishda, bizning nazarimizda, ichki ishlar organlari katta rol o'ynaydi.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida politsiya va prokuratura organlarida maxsus bo'limlar bo'lib, ular faqat intellektual mulkni himoya qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Davlat avtorlik huquqi va unga turdosh huquqlarni himoya qilish sohasida yo'l qo'yiladigan qoidabuzishlar tufayli soliqlar ko'rinishida undirish mumkin bo'lgan katta miqdordagi summalarni olish imkoniyatini qo'ldan boy bermoqda. EHM uchun dasturlar, ma'lumotlar bazasining dastlabki hujjatlari va boshqa qo'lyozma shaklidagi, printerda bosib chiqarilgan yoki bosmaxona usulida chop etilgan boshqa axborotlardan noqonuniy ravishda ruxsatsiz foydalanish qonunchilikning tegishli moddalarida ko'zda tutilmagan va tegishli hollarda Jinoyat Kodeksining Maxsus qismidagi moddalar bo'yicha javobgarlikka olib kelishi mumkin.

Ta'minot manbai, shuningdek, mashina tashuvchisi bo'lmagan kompyuterga ega bo'lish ham kompyuter ma'lumotlariga ruxsat sifatida qaralmaydi va tegishli hollarda mulkka qarshi jinoyatlar to'g'risidagi moddalar bo'yicha javobgarlikka olib kelishi mumkin.

Mashina tashuvchilariga issiqlik, magnit nurlanishi, zarb va boshqa usullar vositasida tashqi ta'sir ko'rsatish yo'li bilan kompyuter ma'lumotlarini yo'q qilish yoki buzish mazkur jinoyatchilikning obyektiv tomoni deb qaralmayapti. Yana shuni eslatib o'tish

kerakki, kompyuter ma'lumotlari bilan muomala qilish qoidalari mulk egasi, axborot egasi, qonun yoki boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilab qo'yilishi mumkin.

Axborot qonun bilan himoya qilinadi, ya'ni ommaviy ochiq axborotdan, qonun yoki boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ajratib olingan axborot, ma'lumotlar mavjud. «Cheklangan miqdorda foydalanish» uchun ustxati (grifi) bor.

Qonunning talqinidan kelib chiqib, xususiy firmalar va tijorat banklari tijoratga oid, bank siri va boshqa sirlarini maxfiy saqlash maqsadida mustaqil ravishda o'zlarining cheklovchi ustxat (grif)larini belgilashga haqlidir.

§3. Kompyuter viruslarini ishlab chiqish va tarqatish

Amalda barcha kompyuterdan foydalanuvchilar viruslarga duch kelishgan, ya'ni ular viruslar tashiydigan barcha «go'zalliklar», «ajoyibotlar» deb atalmish «boshi berk ko'cha»ga kirib-chiqishgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida 174-sonli maxsus modda berilgan bo'lib, unda EHM uchun dasturlar yaratish yoki mavjud dasturlarga o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan kompyuter viruslarini ishlab chiqish va tarqatish haqida gap ketadi.

Kompyuter viruslarining xavfli tomoni shundaki, modda matnida ko'rsatilishicha, ular kompyuter axborot tizimi tashkil etilishini to'la ishdan chiqarish (dezorganizatsiya qilishi) va bunda, mutaxassislarning fikricha, uzoq vaqt harakatsiz bo'lib, keyin kutilmagan vaqtda faollashib, halokat, fojiga olib kelishi mumkin. Virus kompyuter axborotidan foydalaniladigan mudofaa, kosmonavtika, davlat mulki, jinoyatchilikka qarshi kurash kabi sohalarda fojia, falokat yuz berishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayni jamoa xavfsizligining yuqori darajada bo'lishi, bizning nazarim izda, jinoyatchilik to'g'risidagi qonunga asosan EHM uchun virusli kompyuter dasturlari yaratish yoki mavjud dasturlarga o'zgartirishlar kiritish harakatini sodir etganlik uchun (uning qanday oqibatlarga olib kelishi haqida gapirmay turib) aybdorning yetarlicha qattiq jazoga tortilishi bilan ham izohlanadi.

Dastur yaratilgan yoki o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa, jinoyat

tugallangan hisoblanadi. Zararli dasturlar yoki ularga mashina tashuvchilarini qo'llash (tarqatish) deganda, tegishli ravishda ushbu dasturlarni kompyuterga, tizimga, kompyuterlar tarmog'iga kiritish, shuningdek, ularni sotish, almashtirish, sovg'a qilish, beg'araz berish tushuniladi. Ulardan nusxa ko'chirishni ham tarqatish deb tushunish mumkinligi taxmin qilinadi.

Qonun chiqaruvchi, nihoyat, quyidagi malakali belgilarni ko'rib, yuzaga kelayotgan vaziyatning jiddiyligini tushunib yetdi: bunday jinoyat shunday oqibatlariga olib kelishi mumkin, odamlar qurbon bo'lishi, salomatligiga og'ir putur yetishi, korxonada yoki sanoat sohasida ishlab chiqarish izdan chiqishi — dezorganizatsiya va boshqa ko'pgina salbiy hodisalar ro'y berishi mumkin. Amerika yozuvchisi Devid Bishofning aniq ro'y bergan voqealar asosida yozilgan «Harbiy o'yinlar» deb nomlangan asari beixtiyor yodga keldi. O'ta qobiliyatli o'smir Pentagon kompyuter tarmog'ini buzishi oqibatida uchinchi jahon urushining boshlab yuborilishiga salgina qolgan.

«Bu dasturdagi barcha ma'lumotlarni o'chirib tashla, keyingisiga o't va undan keyin yana shunday qil» tartibida harakat qiladigan viruslar haqiqiy virusli kasallik kabi tarqalib, bir tizimdan boshqasiga kommunikatsion tarmoqlar orqali o'tish xususiyatiga ega bo'ladi.

Virus birdaniga namoyon bo'lmaydi, dastlabki vaqtda kompyuter «infeksiyani olib yuradi», chunki virus ko'pincha «mantiqiy bomba» yoki « muvaqqat bomba» bilan birgalikda foydalaniladi. Virus ishlanayotgan barcha ma'lumot (axborot)larni kuzatib boradi va u ushbu axborotning ko'chishidan foydalanib, siljishi mumkin. Hamma narsa go'yoki oq qon tanachasini kasallantirib, u bilan birga odam organizmi bo'ylab sayohat qilib yurgan virus harakati-dek sodir bo'ladi.

Virus harakatlanib, yuqqan versiyani yozib olishi uchun kompyuterga komanda (ko'rsatma, buyruq) beradi. Bundan keyin u dasturga boshqarishni qaytarib beradi. Foydalanuvchi esa, bundan bexabar, u hech narsani bilmaydi, chunki uning kompyuteri «virusni olib yuruvchi sog'lom» kishi holatida bo'ladi. Bu vaqtda dasturlashtirish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan holdagina virusni aniqlash mumkin, chunki mazkur holatda EHM ishidagi har

qanday buzilish hech narsa bilan o'zini namoyon etmaydi. Ammo kunlarning birida kompyuter «kasal» bo'lib qoladi.

Barcha viruslarni ularning murakkabligiga qarab ikki turga bo'lish mumkin: «vulgar virus» va «maydalangan virus».

«Vulgar (soxtalashtirilgan, buzilgan) virus» yagona blok tomonidan yozilgan bo'lib, EHM «kasallangan»ligiga shubha tug'ilganida, ekspertlar tomonidan «epidemiya» (ko'payish) boshlangani sezib qolinganda aniqlanishi mumkin. Ammo bu operatsiya EHM operatsion tizimining butun majmuini nihoyatda sinchiklab, puxta tahlil etilishini talab qiladi.

«Maydalangan virus» dasturi birinchi qarashda o'zaro hech qanday aloqasi bo'lmagan qismlarga bo'lingan. Bu qismlar kompyuterga virusni yaratish va keyin tarqatish uchun ularni bir butun qilib yig'ishga ko'rsatma beradigan yo'l — yo'riqlar (instruksiya)ga ega. Shunday qilib, u deyarli hamma vaqt «tarqatilgan» holatda bo'ladi, o'z ishi davomida faqat qisqagina vaqt yagona, bir butun bo'lib to'planadi.

Odatda, virus yaratuvchilar virusga reproduksiyalar (nusxalar) sonini ko'rsatadi, virus bu miqdorga yetgach, tajovuzkor bo'lib qoladi. Bunday viruslar «ko'zga ko'rinmas viruslar» deb ham ataladi.

Viruslarning variant - turlari ularni yaratuvchilarning ko'zlagan maqsadlariga bog'liq.

Ularning belgilari nisbatan asl, yaxshi bo'lishi mumkin, masalan: dasturlarni bajarishda sekinlashish yoki displey ekranida yoruvchan nuqtalarning paydo bo'lishi.

Belgilar evolyutiv bo'lishi mumkin va «kasallik»ning kechishi darajasiga qarab kuchayib boradi. Tushunarsiz sabablarga ko'ra, dasturlarni magnit disklar to'ldira boshlaydi. Natijada dastur fayllari hajmi anchagina kattalashadi. Nihoyat, bu ko'rinishlar halokatli bo'lib, fayllarning o'chib ketishi va dasturiy ta'minotning yo'q qilinishiga olib kelishi mumkin.

Kompyuter virusini tarqatish usullari qanday? Ular virusning uzatiladigan ma'lumotlarning har qanday tashuvchisini «siljib harakatlanish vositasi» sifatida foydalanishi qobiliyatiga asoslanadi. Ya'ni virus yuqishining boshida EHM ko'p sonli harakatlanish vositalarini yaratishi va keyingi soatlarda esa, barcha fayllar va dasturiy vositalarning hammasiga «kasal» yuqqan bo'lishi mum-

sifatida emas, balki axborot fayli ko'rinishida tashkil etilib, unga kirish mumkin bo'ladi.

Ehtimol, kompyuter jinoyatchiligining bu turi eng yangi jinoyatlardan biri bo'lsa kerak. U dasturga ruxsatsiz kirishning bir turi bo'lib, undan begona foydalanuvchi emas, balki yetarlicha yuqori malakaga ega bo'lgan ishlab chiquvchining o'zi foydalanishi mumkin. Jinoyatning g'oyasi katta tizimlarni ishlash qobiliyatini o'xshatib yaratish ya'ni imitatsiyalash maqsadida kompyuterlarning tarkibiy qismi bo'lgan ma'lumotlarini qalbakilashtirishdan iboratdir.

Yuqori darajada bajarilgan qalbakilashtirishda ko'pincha buyurtmachilarga buzilgan mahsulotni topshirishga erishiladi. Ma'lumotlarni qalbakilashtirishga saylov, ovoz berish, referendumlar va h.k. Natijalarini buzib ko'rsatishni kiritish mumkin. Agar har bir ovoz beruvchi uning ovozi ro'yxatga to'g'ri olinganiga ishonch hosil qilmasa, yakuniy bayonnomalarda buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Tabiiyki, ma'lumotlarni qalbakilashtirish boshqa maqsadlarda ham amalga oshiriladi.

Endi jinoyatlarning ikkinchi toifasini ko'rib chiqamiz. Bunda kompyuter maqsadga erishish «vositasi» bo'ladi. Kompyuter apparaturasi o'z mulkiga qarshi jinoyat predmeti bo'lgan taqdirda, uni o'g'irlash, yo'q qilish yoki ziyon yetazish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli moddalariga muvofiq kvalifikatsiya qilinadi. Gap shundaki, axborot tuzilmasi (masalan, dasturlar va ma'lumotlar) o'z mulkiga qarshi jinoyat bo'lishi mumkin emas, chunki mashina ma'lumotlari o'z mulkiga qarshi jinoyat predmetining asosiy prinsiplarini birontasiga to'g'ri kelmaydi. Xususan, u jismoniy belgilarga ega emas (boshqacha aytganda, uni real sezib, ko'rib bo'lmaydi). Kompyuterlarga jinoyat quroli sifatida qarashga kelsak, uni qurol yoki transport vositasi sifatida ko'rish kerak. Kompyuterlardan bu ma'noda foydalanish, pul mablag'larini o'g'irlash, soliqlarni yashirish kabi jinoyat sodir etilayotganidagi kabi, amaliy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, kompyuter biror ma'lumotni saqlash maqsadlarida foydalanilishi, Masalan, bosmaxona dastgohida, ma'lumotlar bazasiga noqonuniy ravishda kirishda, ma'lumotlardan nusxa ko'chirib olishda foydalaniladigan apparatura va h.k. bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bunday harakatlar mustaqil jinoyatlar sifatida qaralmaydi, balki tajovuz obyektiga muvofiq holda boshqa modda bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Bizning fikrimizcha, hamma muammo shundan iboratki, kompyuter o'z mohiyati va e'tibori bilan universal bo'lib, amalda nihoyatda keng doiraga mo'ljallangan har qanday ishni bajarish imkonini beradi. Bundan tashqari, yana murakkab matematik modellarni ishlab chiqishni aytib o'tish kerak, ularga kirish ma'lumotlari jinoyat sodir etishning imkoniy shartlari, chiqish ma'lumotlari esa, jinoyatchi harakatlarini topishning eng optimal variantlarini tanlash imkonini beradi.

Kompyuterlarda sodir etiladigan jinoyatlarning yana boshqa bir turi «havo varragi» («воздушный змей») degan nom oldi. Eng oddiy holda, ikkita bankda katta bo'lmagan hisob raqamini ochish kerak bo'ladi. Keyin pullar bir bankdan ikkinchisiga va aksincha, bir-biriga o'tkaziladi, bunda asta-sekin summalar miqdori ko'payib boradi. Ayyorlik shundan iboratki, bankda o'tkazilayotgan pul to'g'risidagi topshiriqnomaga zarur summa bilan ta'minlanmagani aniqlangunicha o'tkazma to'g'risida shunday xabarnoma kelishi kerakki, umumiy summa birinchi o'tkazma to'g'risidagi talabni qoplasin. Bu davrda (sikli) hisob varaqda katta summa hosil bo'lguniga qadar bir necha marta takrorlanadi. Bu summa to'plangach, hisob raqamining egasi pullarni olib qochib qoladi.

Bu usul nihoyatda aniq hisob-kitoblarni talab qiladi, uni ikkita bank doirasida kompyutersiz ham amalga oshirish mumkin. Amalda bunday o'yinlarda ko'plab banklarni qamrab oladi. Keyin summa tezroq va ko'proq to'planadi, o'tkazmalar to'g'risidagi topshiriqnomalar shubha tug'diradigan darajaga yetmaydi. Ammo bunday jarayonlarni faqat kompyuter yordamidagina boshqarish mumkin.

Kompyuter sohasidagi jinoyatlar to'g'risida dunyo ahli dastlab 70-yillarning boshida xabardor bo'ldi. Bu xol birinchi Amerikada juda ham ko'p sodir etila boshladi. Ma'lumki, eng xavfli jinoyatlar iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan jinoyatlardir. Masalan, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini suiiste'mol qilib, noqonuniy ravishda boyish maqsadida iqtisodiy josuslik bilan shug'ullanish, dasturlarni va «kompyuter vaqti»ni o'g'irlash, kompyuter yordamida amalga oshiriladigan an'anaviy iqtisodiy jinoyatlar shular jumlasidandir.

Dastlabki vaqtlarda jinoyatchilik ishlari bo'yicha adliya organlari mulkni himoyalash to'g'risidagi an'anaviy me'yorlar yordamida ushbu

jinoyatlarga qarshi kurashganlar. Ammo tez orada amaliyot shuni ko'rsatdiki, bunday yondashuv yuzaga kelgan vaziyatning barcha talablariga javob bera olmaydi, chunki kompyuter sohasidagi ko'pgina noqonuniy ishlar jinoyatlarning an'anaviy tarkibi bilan qamrab olinmaydi. Ko'pgina jinoyatlarda moddiy belgi yo'q, chunki jismoniy dunyoda mavjud bo'lgan moddiy belgi sifatidagi predmet yo'q.

Kompyuter yordamida aldash birmuncha o'tkinchi, xayoliy narsa, chunki u bor-yo'g'i mexanizmdir, uni aldash aslida mumkin emas. Xuddi shunday muvaffaqiyat bilan eshik qulfini ochish mumkin.

Mulknii yo'q qilish ham ushbu jinoyatga kirmaydi. Yo'q qilishning o'zi mavjud emas. Garchi yuqorida bayon etilgan bunday hodisalar katta mulkiy zarar yetkazishi mumkin bo'lsa ham kompyuterga jismoniy ziyon yetkazilmaydi va bunday tarkib shunchaki ma'nosizdir.

Kompyuter ma'lumoti sohasidagi jinoyatlar, bizning fikrimizcha, go'yoki ikki yoqlama ma'noga ega va bu hoi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga qo'shimcha maxsus moddalar kiritilishini talab qiladi.

§5. Kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarni himoya qilish

Tarmoqlarda ma'lumotlarni himoya qilish muammolarini muhokama qilishda, eng avvalo, ma'lumotlarning yo'q qilib yuborilishi yoki nomaqbul tarzda o'zgartirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan no-sozliklar va ma'lumotdan foydalanish huquqini buzish holatlarini tasniflash masalasi ko'ndalang bo'ladi.

Bunday potensial «xavflar» orasida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- uskunadagi noozliklar;
- kabel tizimidagi noozliklar;
- elektr ta'minotining uzilishi;
- disk sistemalarining ishdan chiqishi;
- ma'lumotlarni arxivlashtirish sistemalarining ishdan chiqishi;
- serverlar, ishchi stansiyalari, tarmoq kartalari va h.k.ning ishdan chiqishi.

Dasturiy ta'minlash vositasi noto'g'ri ishlashi natijasida axborotning yo'qolishi:

— dasturiy ta'minlash vositasining xatolari natijasida ma'lumotlarning yo'qolishi yoki o'zgarishi;

— sistemaning kompyuter viruslari bilan zararlanishi.

Sistemaga g'ayriqonuniy kirish bilan bog'liq yo'qotishlar:

— axborotdan g'ayriqonuniy tarzda nusxa ko'chirish, uni yo'q qilib yuborish yoki soxtalashtirish;

— begona shaxslarning sirini tashkil etuvchi maxfiy axborot bilan tanishish.

Arxiv ma'lumotlari noto'g'ri saqlanishi natijasida axborotning yo'qotilishi.

Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va foydalanuvchilarning xatolari:

— ma'lumotlar tasodifan yo'q qilib yuborilishi yoki o'zgartirilishi;

— dasturiy ta'minlash vositasidan noto'g'ri foydalanish.

Tarmoq ishining buzilishi turlariga qarab, axborotni himoya qilish vositalarining ko'p sonli turlari uch asosiy turkumga birlashtiriladi:

— fizik himoya vositalari (kabel sistemasi, elektr ta'minot sistemasi, arxivlashtirish vositalari, disk to'plamlari va h.k.ni himoya qilish vositalari);

— dasturiy ta'minlash vositalari, shu jumladan: virusga qarshi dasturlar, vakolatlarni ajratish sistemalari, sistemaga kirishni nazorat qilish dasturiy vositalari;

— ma'muriy himoya vositalari, shu jumladan: binoga yoki xonaga kirishni nazorat qilish, firmaning xavfsizlik strategiyasini, favqulodda holatlardagi harakatlar rejasini ishlab chiqish va b.

Mazkur tasnif ancha shartli, chunki zamonaviy texnologiyalar himoya dasturiy va apparat vositalarini uyg'unlashtirish yo'nalishida rivojlanmoqda. Bunday dasturiy — apparat vositalari xususan sistemaga kirish, viruslardan himoya qilish sohalarida keng tarqalgan.

Kompyuterlarda axborotning jamlanishi, banklarda naqd pullarning jamlanishi kabi, axborotni himoya qilish maqsadida nazoratni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Yuridik masalalar, shaxsiy sir, milliy xavfsizlik tijorat va hukumat tashkilotlarida ichki nazoratni kuchaytirishni talab qilmoqda. Bu yo'nalishda olib borilgan ishlar natijasida yangi soha – axborot xavfsizligi sohasi vujudga keldi.

Axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassis tashkilotda axborot xavfsizligini ta'minlash tizimini ishlab chiqish, yo'lga qo'yish va undan foydalanish uchun javob beradi.

Axborotni himoya qilish tizimini tashkil etishning murakkabligi shu bilan belgilanadiki, ma'lumotlar kompyuterdan o'g'irlanishi va ayni vaqtda joyida qolishi mumkin; ayrim ma'lumotlarning butligi ularning yo'q qilib yuborilishi yoki o'zgartirilishida emas, balki ularga egaiik qilishdan iboratdir.

Axborot xavfsizligini ta'minlash — ancha qimmat ish. Gap faqat vositalarni xarid qilish yoki o'rnatish xarajatlarida emas. Muayyan sistemaning oqilona xavfsizligi chegaralarini to'g'ri aniqlash va sistemani ishga layoqatli holatda saqlash juda qiyin ish. Agar mahalliy tarmoq litsenziyalangan dasturiy vositalar, qimmatbaho rangli printerlar yoki ochiq axborotlarning katta fayllaridan birgalikda foydalanish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lsa, bu holda axborotni shifrlash va shifrdan chiqarish sistemalariga ehtiyoj bo'lmaydi.

Ma'lumotlarni shifrlash bilan an'anaviy tarzda hukumat va mudofaa tashkilotlari shug'ullangan, ammo ehtiyojlarning o'zgarishi munosabati bilan ayrim obro'li kompaniyalar axborotning maxfiyligini ta'minlash uchun shifrlash imkoniyatlaridan foydalanmoqdalar.

Ma'lumotlarni shifrlash On — line rejimida (axborotning olinish sur'atida) va Off — line rejimida (avtonom tarzda) amalga oshirishi mumkin. Foydalanuvchilarda katta qiziqish uyg'otgan birinchi tipga mufassalroq to'xtalamiz. Ikki algoritm ayniqsa keng tarqalgan:

DES (Data Encryption Standart) ma'lumotlarni shifrlash standarti IBM firmasi tomonidan 70- yillarning boshida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirda raqamli axborotni shifrlash uchun mo'ljallangan hukumat standarti hisoblanadi. U Amerika bankirlari uyushmasi tomonidan tavsiya etilgan. DES murakkab algoritmi uzunligi 56 bitdan iborat kalitni qo'llaydi va sistemaga g'ayriqonuniy tarzda kirmoqchi bo'lgan shaxsdan mumkin bo'lgan 72 kvadrillionta kalit kombinatsiyalarini qayta terishni talab qiladi. Kalitlar tez-tez almashtirilgan hollarda algritm maxfiy axborotga yo'lni qat'iy berkitadi.

RSA algoritmi 1976-yilda Rivest, Shamir va Alderman tomoni-

dan kashf etilgan. Bu algoritim kriptografiyada tashlangan ancha katta qadamdir. U standartlar milliy byurosi tomonidan qabul qilingan. DES texnik jihatdan simmetrik algoritim bo'lsa, RSA nosimmetrik, ya'ni shifrlash va shifrdan chiqarishda turli kalitlarni qo'llovchi algoritmdir. Foydalanuvchilar ikkita kalitga ega bo'ladilar va o'z ochiq kalitini keng tarqatishlari mumkin. Ochiq kalitdan foydalanuvchining ma'lumotlarini shifrlash uchun foydalaniladi, ammo uni muayyan oluvchigina o'z maxfiy kaliti yordamida shifrdan chiqarishi mumkin; ochiq kalit shifrdan chiqarish uchun foydasizdir. DES ma'lumotlar va kalitning uzunligini bitlarda belgilaydi, RSA da esa istalgan uzunlikdagi kalit qo'llanilishi mumkin. Kalit qancha uzun bo'lsa, xavfsizlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi (lekin shifrlash va shifrdan chiqarish jarayoni uzayadi). Agar DES kalitlarini mikrosekundlarda generatsiya qilish mumkin bo'lsa, RSA kalitini generatsiya qilish o'nlab sekund vaqtni oladi. Shu bois dasturiy ta'minlash vositalarining mualliflari RSA ochiq kalitlarini, apparatura mualliflari esa – DES maxfiy kalitlarini qo'llashni ma'qul ko'radilar.

EHM tarmog'ida axborot xavfsizligi

Kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarni himoya qilish hozirgi axborot-hisoblash sistemalarida eng muhim muammolardan biriga aylanmoqda. Hozirgi vaqtda axborot xavfsizligining uch asosiy prinsipi ta'riflab berilgan. Ularga muvofiq, axborot xavfsizligining vazifasi:

- ma'lumotlarning butligini;
- axborotning sir tutilishini;
- tegishli huquqqa ega bo'lgan foydalanuvchilar axborotdan foydalanishini ta'minlashdan iborat.

Tarmoqda ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq muammolarni muhokama qilishda ma'lumotlarning yo'q qilib yuborilishi yoki nomaqbul tarzda o'zgartirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan no-sozliklar va ma'lumotdan foydalanish huquqini buzish holatlarini tasniflash masalasi ko'ndalang bo'ladi. Bular uskunadagi no-sozliklar (kabel tizimidagi no-sozliklar, disk sistemalarining ishdan chiqishi, serverlar, ishchi stansiyalar va h.k.ning ishdan chiqishi), dasturiy ta'minlash vositasi noto'g'ri ishlashi natijasida axborotning yo'qolishi (dasturiy ta'minlash vositasining xatolari natijasida

ma'lumotlarning yo'qolishi yoki o'zgarishi, sistemaning kompyuter viruslari bilan zararlanishi), xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va foydalanuvchilarning xatolari (ma'lumotlar tasodifan yo'q qilib yuborilishi yoki o'zgartirilishi, dasturiy ta'minlash vositasidan noto'g'ri foydalanish) bo'lishi mumkin. Sanab o'tilgan tarmoq ishining buzilishi holatlari har xil axborotni himoya qilish vositalari yaratilishiga olib keldi. Bu vositalarni shartli ravishda uch turkumga ajratish mumkin:

— fizik himoya vositalari;

— dasturiy ta'minlash vositalari (virusga qarshi dasturlar, vakolatlarni ajratish sistemalari, sistemaga kirishni nazorat qilish dasturiy vositalari);

— ma'muriy himoya vositalari (binoga yoki xonaga kirishni nazorat qilish, firmaning xavfsizlik strategiyasini, favqulodda holatlardagi harakatlar rejasini ishlab chiqish va b.).

Axborotni arxivlashtirish va dublyaj qilish sistemalari fizik himoya vositalaridan biridir. Bir-ikkita server o'rnatilgan kichik tarmoqlarda ko'pincha arxivlashtirish sistemasi bevosita serverlarning bo'sh slotlariga o'rnatiladi. Korporatsiyalarning yirik tarmoqlarida alohida ixtisoslashgan arxivlashtirish serverini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. U tarmoq ma'muri belgilagan muayyan vaqtda serverlar va ishchi stansiyalarning qattiq disklaridagi axborotni avtomatik tarzda arxivlashtiradi va bajarilgan zahira nusxalar ko'chirish ishi haqida hisobot beradi. Ishonchli va samarali ma'lumotlarni arxivlashtirish sistemasini tashkil etish tarmoqda axborotning butligini ta'minlashning muhim vazifalaridan biridir. Intel ARCserve for Windows korporatsiyasi ishlab chiqargan Storage Express System serveri arxivlashtirish serverlarining eng ko'p tarqalgan modelidir. Alohida qimmatga ega bo'lgan arxiv ma'lumotlarini saqlash maxsus qo'riqlanadigan xonada tashkil etilishi lozim. Mutaxassislar eng muhim ma'lumotlar arxivlarining dublikatlarini boshqa binoda saqlashni tavsiya etadilar.

O'z faoliyatida kompyuter viruslari bilan to'qnash kelmagan tarmoqdan foydalanuvchi yoki tarmoq ma'muri bo'lmasa kerak. Ammo kompyuter viruslaridan himoyalaniishga istiqbolli yondashuv sifatida so'nggi yillarda axborotni himoya qilish dasturiy va apparat vositalarining uyg'unligi tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Bunday apparat vositalari orasida kompyuterning kengayish standart slot-

lariga o'rnatiluvchi virusga qarshi maxsus platalarni qayd etish mumkin. Kompyuter viruslariga qarshi kurashda virusga qarshi dasturlar ko'proq, axborotni himoya qilish apparat vositalari esa kamroq qo'llanilmoqda. Intel korporatsiyasi 1994 yilda kompyuter tarmoqlarida axborotni viruslardan himoya qilishning istiqbolli texnologiyasini taklif qildi. Bu texnologiya kompyuter sistemalarini yuklashdan oldin ularni skanerlashni nazarda tutadi. Virusga qarshi dasturlardan tashqari, kompyuter tarmoqlarida axborotni himoya qilish muammosi sistemaga kirilishini nazorat qilish va foydalanuvchining vakolatlarini aniq belgilash orqali hal qilinmoqda. Virusga qarshi dasturlardan tashqari, kompyuter tarmoqlarida axborotni himoya qilish muammosi kirishni nazorat qilish va foydalanuvchining vakolatlarini belgilash yo'li bilan hal qilinmoqda (Flash – Intel EtherExpress Pro/10 tarmoq adapterlari xotirasi virusga qarshi dasturga ega bo'lib, u kompyuter yuklangunga qadar uning barcha sistemalarini skanerlaydi). Buning uchun tarmoq operatsion sistemalarining o'rnatiladigan vositalaridan foydalanilmoqda. Novell korporatsiyasi mana shunday vositalarni ishlab chiqaruvchi yirik tashkilotlardan biridir. Masalan, NetWare sistemasida, axborotdan foydalanishni cheklash standart vositalari (parollarni almashtirish, vakolatlarni belgilash)dan tashqari ma'lumotlarni «ochiq kalit» prinsipiga ko'ra, tarmoq orqali uzatiladigan paketlar uchun elektron imzoni shakllantirish orqali kodlashtirish imkoniyati nazarda tutilgan.

Sistemaga kirishni boshqarish smart-kartalari kirishni nazorat qilish, SHK moslamalari, dasturlar, fayllar va komandalarga kirish kabi funksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Kerberos sistemasi axborotni himoya qilish dasturiy va apparat vositalarining uyg'unligiga asoslangan ochiq sistemalardan biridir. U uch asosiy tarkibiy qismdan iborat:

— barcha tarmoq resurslari, foydalanuvchilar, parollar, axborot kalitlari va h.k. haqida axborotni o'zida jamlovchi ma'lumotlar bazasi;

— vazifasi foydalanuvchilarning muayyan tarmoq xizmatlari ko'rsatish haqidagi so'rovlariga ishlov berishdan iborat bo'lgan avtorizatsiya serveri. So'rovni olgach, u ma'lumotlar bazasiga murojaat etadi va foydalanuvchining muayyan operatsiyani amalga oshirish vakolatini aniqlaydi. Foydalanuvchilarning parollari

tarmoq orqali uzatilmaydi, bu esa axborotning himoyalanganlik darajasini oshiradi;

— Ticket — granting server (ruxsatlar berish serveri) avtorizatsiya serveridan foydalanuvchining nomi va uning tarmoqdagi adresi, so'rov vaqti ko'rsatilgan «ruxsatnoma» hamda betakror «kalit»ni oladi. «Ruxsatnoma» ifodalangan paket shifrlangan ko'rinishda uzatilishi ham mumkin. Ruxsatlar berish serveri «ruxsatnoma»ni olganidan va uni shifrdan chiqarganidan keyin so'rovni tekshiradi, «kalitlar»ni solishtiradi va ular o'xshash bo'lgan taqdirda tarmoq apparaturasi yoki dasturlardan foydalanishga ruxsat beradi.

Hozirda kommutatsiya liniyalari orqali hisoblash tarmoqlariga kirishni nazorat qilish moslamalari ishlab chiqilgan. AT&T firmasi ishlab chiqqan Remote Port Securitit Device (PRSD) moduli shular jumlasidan. U oddiy modem kattaligidagi ikki blokdan: markaziy ofisda o'rnatiladigan RPSD Lock (qulf) va uzoqdagi foydalanuvchining modemiga ulanadigan RPSD Key (kalit)dan tashkil topgan. RPSD Key va Lock himoya va sistemaga kirishni nazorat qilishning bir necha darajalarini o'rnatish imkonini beradi:

— tarmoq bo'ylab jamlanadigan raqamli kalitlar yordamida uzatiluvchi ma'lumotlarni shifrlash;

— hafta kuni yoki kun vaqtini hisobga olgan holda tizimga kirishni nazorat qilish.

G'ayriqonuniy kirishdan himoya qilish vositalariga hisoblash texnikasi vositalarini himoyalashning yetti toifasi (1 — 7) va avtomatlashtirilgan tizimlarni himoyalashning to'qqiz toifasi (1A, 1B, 1V, 1G, 1D, 2A, 2B, 3A, 3B) belgilangan. Hisoblash texnikasi vositalari uchun yettinchi toifa, avtomatlashtirilgan tizimlar uchun esa — 3B toifasi eng past toifalar hisoblanadi.

Axborotni g'ayriqonuniy foydalanishdan himoya qilish

Mahalliy va, ayniqsa, global kompyuter tarmoqlarining keng tarqalishi bilan axborotni g'ayriqonuniy foydalanishdan himoya qilish muammosi keskin tus oldi. Ko'pincha kompyuter sistemalariga zarar yomon niyatda emas, balki foydalanuvchilar yo'l qo'ygan oddiy xatolar natijasida yetkazilmoqda. Bu nuqtai nazardan foy-

dalanuvchilarning vakolatlarini belgilash kompyuter tarmoqlarida axborotni himoya qilishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Kompyuter tarmoqlariga kirish ustidan nazoratni tashkil etish va foydalanuvchilarning vakolatlarini belgilash uchun ko'pincha tarmoq operatsion sistemalarining o'rnatiladigan vositalaridan foydalaniladi. Tarmoq operatsion sistemalarining yirik ishlab chiqaruvchisi — Novell korporatsiyasi o'zining oxirgi mahsuloti NetWare 4.1 sistemasida, axborotdan foydalanishni cheklash standart vositalari, chunonchi, parollarni almashtirish, vakolatlarni belgilash vositalaridan tashqari, ma'lumotlarni «ochiq kalit» prinsipiga ko'ra, tarmoq orqali uzatiladigan paketlar uchun elektron imzoni shakllantirish orqali kodlashtirish imkoniyatini nazarda tutgan.

Sistemaga kirishni boshqarish smart - kartalari kirishni nazorat qilish, SHK moslamalari, dasturlar, fayllar va komandalarga kirish kabi funksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Kerberos sistemi axborotni himoya qilish dasturiy va apparat vositalarining uyg'unligiga asoslangan ochiq sistemalardan biridir. U uch asosiy tarkibiy qismdan iborat:

Sistemaga kirishni boshqarish smart - kartalari kirishni nazorat qilish, SHK moslamalari, dasturlar, fayllar va komandalarga kirish kabi funksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Kerberos sistemi axborotni himoya qilish dasturiy va apparat vositalarining uyg'unligiga asoslangan ochiq sistemalardan biridir. U uch asosiy tarkibiy qismdan iborat:

Barcha tarmoq resurslari, foydalanuvchilar, parollar, axborot kalitlari va h.k. haqida axborotni o'zida jamlovchi ma'lumotlar bazasi.

Vazifasi foydalanuvchilarning muayyan tarmoq xizmatlari ko'rsatish haqidagi so'rovlariga ishlov berishdan iborat bo'lgan avtorizatsiya serveri (authentication server). So'rovni olgach, u ma'lumotlar bazasiga murojaat etadi va foydalanuvchining muayyan operatsiyani amalga oshirish vakolatini aniqlaydi. Foydalanuvchilarning parollari tarmoq orqali uzatilmaydi, bu esa axborotning himoyalanganlik darajasini oshiradi.

Ticket — granting server (ruxsatlar berish serveri) avtorizatsiya serveridan foydalanuvchining nomi va uning tarmoqdagi adresi,

so'rov vaqti ko'rsatilgan «ruxsatnoma» hamda betakror «kalit»ni oladi. «Ruxsatnoma» ifodalangan paket shifrlangan ko'rinishda uzatilishi ham mumkin. Ruxsatlar berish serveri «ruxsatnoma»ni olganidan va uni shifrdan chiqarganidan keyin so'rovni tekshiradi, «kalitlar»ni solishtiradi va ular o'xshash bo'lgan taqdirda tarmoq apparaturasi yoki dasturlardan foydalanishga ruxsat beradi.

Shunga o'xshagan boshqa kompleks sistemalar orasida Yevropa kompyuter ishlab chiqaruvchilar uyushmasi tomonidan yaratilgan yirik geterogen tarmoqlarda qo'llashga mo'ljallangan Sesame (Secure European System for Applications in Multivendor Environment) sistemasini qayd etish mumkin.

Faoliyatning kengayishiga qarab, uzoqdan turib foydalanishni tashkil etish uchun kabel tarmoqlari va radiokanallardan tobora ko'p foydalanilmoqda. Shu munosabat bilan uzoqdan turib foydalanish kanallari bo'ylab uzatiladigan axborotni himoya qilish alohida yondashuvni taqozo etmoqda.

So'nggi yillarda radio tarmoqlarining keng tarqalishi mazkur tarmoqlarni ishlab chiquvchilar oldiga turli — tuman skanerlash moslamalari bilan qurollangan «xakerlar»dan axborotni himoya qilish masalasini hal qilish talabini qo'ydi. Masalan, RAM Mobil Data kompaniyasining radiostansiyasida axborot paketlari turli kanallar va asosiy stansiyalar orqali uzatiladi. Bu uzatilgan axborotni begona shaxslar to'plab, bir yerga jamlashiga imkon bermaydi. Radiotarmoqlarda ma'lumotlarni DES va RSA algoritmlari yordamida shifrlash ham faol qo'llanilmoqda.

§6. Xavfsizlik dasturiy – texnik vositalarini identifikatsiya va autentifikatsiya qilish

Hozirda taqsimlangan kompyuter tizimlarida ma'lumotlarning xavfsizligi masalalariga juda katta e'tibor berilmoqda. Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun juda ko'p vositalar ishlab chiqilgan. Ular hal xil operatsion sistemali turli kompyuterlarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Axborot xavfsizligining maqsadi tizimning xavfsizligini ta'minlash, axborotning yaxlilligi va ishonchligini himoya qilish va kafolatlash, axborot modifikatsiya qilingan yoki buzilgan taqdirda ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni mumkin qadar kamaytirishdan

iborat. Axborot xavfsizligi axborotni yaratish, modifikatsiya qilish, undan foydalanish yoki uni tarqatish bilan bog'liq barcha jarayonlar va hodisalarni hisobga olishni taqozo etadi.

Identifikatsiya va autentifikatsiya qilishni xavfsizlik dasturiy-texnik vositalarining negizi deb hisoblash mumkin. Identifikatsiya va autentifikatsiya qilish – mudofaaning oldingi marrasi, tashkilot axborot maydonining o'tish yo'lagi.

Identifikatsiya qilish subyektga – foydalanuvchiga yoki muayyan foydalanuvchi nomidan ish ko'rayotgan jarayonga o'z nomini ma'lum qilib, o'zini tanitish imkonini beradi. Autentifikatsiya vositasida ikkinchi tomon subyektning haqiqiyiligiga ishonch hosil qiladi. «Autentifikatsiya» so'zining sinonimi tarzida ba'zan «haqiqiylikni tekshirish» birikmasi qo'llanadi. Subyekt o'zining haqiqiyiligini quyidagilardan birini ko'rsatish yo'li bilan tasdiqlashi mumkin:

- parol, shaxsiy identifikatsiya raqami, kriptografik kalit;
- shaxsiy varaqcha yoki shunday ahamiyatga molik boshqa moslama;

- ovoz, barmoq izi va h.k., ya'ni o'z biometrik ko'rsatkichlari;
- shunga o'xshash narsalar, masalan, koordinatlar.

Parol yordamida autentifikatsiya qilish eng sodda va qulay usul hisoblanadi. Parollar barcha operatsion sistemalar va boshqa servislarga o'rnatilgan. To'g'ri foydalanilgan holda parollar ko'pgina tashkilotlar uchun oqilona xavfsizlik darajasini ta'minlashi mumkin. Shunga qaramay, ko'rsatkichlari majmuiga ko'ra, ularni haqiqiylikni tekshirishning eng zaif vositasi deb e'tirof etish lozim. Parollarning ishonchliligi ulami yodda tutish va sir saqlash qobiliyatiga asoslanadi. Parolning kiritilishini ko'rib olish mumkin. Parolni qo'pol kuch ishlatib, masalan, lug'at yordamida topish mumkin. Agar parol fayli shifrlangan, ammo o'qish uchun ochiq bo'lsa, uni o'z kompyuteriga o'tkazib olib, muayyan dasturlar yordamida parolni topishga urinib ko'rish mumkin.

Shunga qaramay, quyidagi chora — tadbirlar parol yordamida himoya qilishning ishonchliligini ancha oshirish imkonini beradi:

- texnik cheklashlar belgilash;
- parollarning amal qilish muddatini boshqarish, ularni vaqti-vaqti bilan almashtirib turish;
- parollar fayliga kirishni cheklash;

- tizimga muvaffaqiyatsiz kirish hollarining sonini cheklash, bu qo'pol kuch ishlatish usulini qo'llashni qiyinlashtiradi;
- foydalanuvchilarni o'qitish va tarbiyalash;
- parollarning dasturiy generatorlaridan foydalanish, ular uncha murakkab bo'lmagan qoidalarga asoslanib, faqat jarangli va yaxshi esda qoladigan parollar ishlab chiqishi mumkin.

Mazkur chora - tadbirlar doim, hatto parollar bilan bir qatorda boshqa autentifikatsiya usullari, masalan, tokenlarni qo'llashga asoslangan usullardan foydalanilgan hollarda ham amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Token bu shunday bir predmet yoki moslamaki, unga egalik foydalanuvchining haqiqiylikini tasdiqlaydi. Xotirali tokenlar va intellektual tokenlar farqlanadi.

Magnit chiziqli kartochkalar xotirali tokenlarning eng ko'p tarqalgan turidir. Bunday tokenlardan foydalanish uchun klaviatura va protsessor bilan jihozlangan o'qish qurilmasi zarur. Odatda foydalanuvchi klaviatura yordamida o'z shaxsiy identifikatsiya raqamini teradi. Shundan so'ng protsessor uni kartochkadagi raqamga solishtiradi va kartochkaning haqiqiylikini tekshirib ko'radi. Shunday qilib, bu yerda amalda ikkita himoya usuli qo'llaniladiki, bu yovuz g'ayriqonuniy kirishni ancha qiyinlashtiradi.

Ba'zan kartochkalar o'z holicha qo'llaniladi va shaxsiy identifikatsiya raqami so'ralmaydi.

Intellektual tokenlar o'z hisoblash quvvatining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ular intellektual kartalar, standartlashtirilgan ISO va boshqa tokenlarga bo'linadi. Kartalar interfeys qurilmasini taqozo etadi, boshqa tokenlar ham qo'lda bajariladigan interfeysga ega bo'ladi va tashqi ko'rinishi kalkulyatorlarni eslatadi. Token ishlashi uchun foydalanuvchi o'z shaxsiy identifikatsiya raqamini kiritishi lozim.

Ishlash prinsipiga ko'ra intellektual tokenlarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

- statik parollar almashish: foydalanuvchi oddiy tarzda token-ga o'zining haqiqiylikini isbotlaydi, so'ngra tokenni kompyuter tizimi tekshirib ko'radi;
- parollarni dinamik generatsiya qilish: token parollarni vaqti
- vaqti bilan almashtirib turadi. Kompyuter tizimi parollarning

sinxronizatsiya qilingan generatoriga ega bo'lishi kerak. Axborot tokendan elektron interfeys orqali keladi yoki foydalanuvchi uni terminal klaviaturasida teradi;

— so'rov-javob tizimlari: kompyuter tasodifiy sonni beradi va tokenga o'matilgan kriptografiya mexanizmi uni o'zgartiradi. Shundan keyin natija kompyuterga tekshirish uchun qaytariladi. Bu yerda ham elektron yoki qo'l interfeysi ishlatilishi mumkin. So'nggi holda foydalanuvchi so'rovni terminal ekranida o'qiydi, uni token klaviaturasi yordamida teradi, token displeyida esa javobni ko'radi va uni terminal klaviaturasiga o'tkazadi.

ADABIYOTLAR

1. *Karimov I.A.* По пути безопасности и стабильного развития. – Т.: Узбекистон, 1998.

2. *Karimov I.A.* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 yiliga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat" mavzusidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. – 2005.

3. *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.

4. *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O'zbekiston, 1999.

5. *Karimov I.A.* Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. – T.: O'zbekiston, 2003.

6. *Karimov I.A.* Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005.

7. *Karimov I.A.* За безопасность нужно бороться. –Т.: "Ўзбекистон", 2002.

8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003.

9. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. –T.: (11.12.2003-y.).

10. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni– T.: (12.12.2002-y., № 439- I I).

11. O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni. – T.: (11.12.2003-y.).

12. O'zbekiston Respublikasi ning "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonuni. – T.: (24.04.1997-y.).

13. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni. – T.: (30.08.1996-y. N 272-I (Mazkur Qonunga O'zR. 15.12.2000-y. 175-II-son Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan)).

14. O'zbekiston Respublikasining "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 12.05.2001-y.N 218-II.

15. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, Qonuni. – T.: (26.12.1997-y. №541-I (Mazkur Qonunga O'zR. 30.08.2002 y. Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan)).

16. O'zbekiston Respublikasining "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 20.08.1999-y. N 822- I.

17. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 29.04. 2004-y. №613-II.

18. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 29.04. 2004-y. №611-II.

19. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyundagi 200-son qaroriga 1-ilova 2002—2010-yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi.

20. O'zbekiston respublikasi Fuqarolik kodeksi. (2003-yil 24-iyungacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003-y.

21. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi (2004-yil 29-avgustgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2004.

22. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahrirda). —T.: Adolat, 2001.

23. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). —T.: 2002.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasfuri to'g'risida». 2005-yil 10-mart Qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari To'plami. № 10-11. — 2005.

25. *Aripov M.M., Muhammadiyev J.O'*. Informatika, informatsion texnologiyalar. // Huquqshunoslik oliy o'quv yurtlari uchun darslik. —T.: TDYUI, 2004.

26. *Андреев Б. В., Г.И. Бушуйев*. Моделирование при решении уголовно-правовых и криминологических задач. М., 1997.

27. *Андреев Б.В.* Правовая информатика. Учебное пособие. М., 1998.

28. *Burxonov A.U., Normurodov K.T.* «PRAVO» axborot – qidiruv tizimida ishlash. // O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: TDYUI, 2004.

29. Баранов В.М., С.В. Поленина "Система права, система законодательства и правовая система". Н. Новгород, 1999 .
30. Батурич Ю.М. "Информация общества, право и человек". – М.: Юридическая литература, 1998.
31. Ю. М. Батурич. Проблемы компьютерного права. – М.: Юрид. литература., 1991.
32. Бачило И.Л. Правовое регулирование процессов информатизации. // Государство и право. 1994. № 12.
33. Бурицкий Е.Ф. Судебная экспертиза документов. СПб., 1993.
34. Викарук А.Я., Гегечкори Л.А. Математические аспекты экспертно-криминалистической идентификации. // Правовая информатика. Вып. 3. 1998.
35. Гаврилов О.А. "Основы правовой информатики". – М.: Норма-Инфра, 1998.
36. Гаврилов О.А. Компьютерные технологии в правотворческой деятельности. – М., 1999.
37. Кушаков О.Л. Цель информатизации – эффективность законодательной деятельности. // Информатика и вычислительная техника. 1997. № 1.
38. Курушин В.Д., Минаев В.А. Компьютерные преступления и информационная безопасность. – М., 1998.
39. Компьютерные технологии в юридической деятельности. – М., 1999.
40. Криминалистика. Учебник для вузов / Отв. ред. проф. Н. П. Яблоков. – М.: ВЕК, 1995.
41. Полевой Н.С. Компьютерные технологии в юридической деятельности. Учебное и практическое пособие. – М.: ВЕК, 1994.
42. Полевой Н.С. Правовая информатика и кибернетика. М., 1993.
43. Москвин С.С. "Правовая информация - разновидность социальной информации" // Труды ВНИИСЗ Вып. 13 .1995 .
44. Рассолов М.М. и др. "Правовая информатика". – М.: Юридическая литература , 1996.
45. Хургин В.М. Правовые основы информатизации // Научно-техническая информатика. 1994. № 9.
46. Muhammadiyev A.O', Badalov M. Ommaviy axborot ishlab chiqarish va tarqatish jarayonida yuzaga keluvchi axborot munosabat

larini tartibga solishning chet el tajribasi. //TDYUI ilmiy maqolalari to'plami, №2 , 2005-y.

47. *Muhammadiyev A.O'*. Internet tarmog'ining yuridik tabiati // TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №9, 2005-y.

48. *Muhammadiyev A.O'*. Internetda domen nomlaridan foydalanishning huquqiy muammolari. // TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №9, 2005-y.

49. *Muhammadiyev A.O'*. Ommaviy axborot vositalarini davlat organlari tomonidan nazorat qilish va tartibga solish (AQSH misolida). //Труды международной научной конференции "Роль изначениеие телекоммуникаций и информационных технологий в современном обществе». Ташкент 27-30 сентября 2005 г. III том – 233 с.

50. *Muhammadiyev A.O'*. «Mantiqiy bombalar» yoki Kompyuter viruslarini ishlab chiqish va tarqatish. // «Hayot va qonun» №4, 2002 y

51. *Muhammadiyev A.O'*, *A. Saidov*. "Yurisprudensiya va ta'limda informatsion texnologiyalar" fanini o'qitish. // "Davlat va huquq". № 1, 2000-y.

52. *Muhammadiyev A.O'*, *A. Saidov*. Yurisprudensiya va ta'limda informatsion texnologiyalar. // « Hayot va qonun» № 5, 2001-y.

53. *Muhammadiyev A.O'*, *Abrajev N.K.* Axborot jamiyati to'g'risida tasavvur. //TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №7, 2004-y.

54. *Muhammadiyev A.O'*. Axborot resurslarini vujudga keltirish va ulardan foydalanishning konstitutsiyaviy asosi. // "O'z.R. Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni shakllantirishning asosi" Ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. TDYUI, 2003-y.

55. *Muhammadiyev A.O'*. Axborot huquqi uning manbalari xususida ba'zi mulohazalar. // "Hayot va qonun". № 6, 2002-y.

56. *Muhammadiyev A.O'*. Axborot, axborot resurslari va axborot tizimlarini begona shaxslarning ruxsatsiz va qonunga zid ta'sirlari tahdididan huquqiy himoya qilish. // "Hayot va qonun". №3 , 2003-y.

57. *Muhammadiyev A.O'*. Axborotni izlash, olish va uzatishning konstitutsiyaviy asosi. // "Davlat va huquq". №4 , 2002 y.

58. *Muhammadiyev A.O'*, *D. Nazirova*. Kompyuterdagi ma'lumotlarni yo'q qilish va qalbakilashtirish. //TDYUI Yosh olimlar ilmiy maqolalar to'plami, №2, 2002-y.

59. *Muhammadiyev A.O'*. Davlat xavfsizligi(milliy xavfsizlik) nuqtai nazaridan ommaviy axborot vositalarininghuquq va majburiyatlari //Труды

международной научной конференции “Роль изначение телекоммуникаций и информационных технологий в современном обществе» Ташкент 27-30 сентября 2005г. III том – 233 с.

60. *Muhammadiyev A.O', I.J.Muxammadiyeva.* Ommaviy axborot vositalari va internet. //Труды международной научной конференции “Роль изначение телекоммуникаций и информационных технологий в современном обществе» Ташкент. 27-30 сентября 2005г. III том – 233 с.

61. *Muhammadiyev A.O'.* Internetning huquqiy aspektlari. // “Hayot va qonun”, №2, 2003-y.

62. *Muhammadiyev A.O'.* Informatsionnaya revolyutsiya XXI veka. // Distansion ta'lim texnika va texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –T.: TEAI, 2002-y.

63. *Muhammadiyev A.O', Q. Ro'zmetov.* «Kompyuter ma'lumotlarini o'g'irlash». // TDYUI yosh olimlari ilmiy maqolalar to'plami, № 2, 2002 y.

64. *Muhammadiyev A.O', Q. T.Normurodov.* Informatika va sun'iy intellekt. // TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №4, 2003-y.

65. *Muhammadiyev A.O', Q. T.Normurodov.* Huquqiy informatikaning interaktiv vazifasi. // TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №4, 2003-y.

66. *Muhammadiyev A.O', Ro'zmetov Q.SH.* Huquqiy sohani informatsiyalashtirish. //TDYUI yosh olimlar maqolalar to'plami, №4, 2003-y.

67. *Muhammadiyev A.O', M. Yunusova.* Kompyuterda saqlanayotgan ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish. // TDYUI Yosh olimlar ilmiy maqolalar to'plami, №2, 2002-y.

68. *Muhammadiyev A.O', M.Badalov.* Axborot tizimlari, axborot texnologiyalari va ulami ta'minlash vositalarining huquqiy rejimi. // Труды международной научной конференции “Роль изначение телекоммуникаций и информационных технологий в современном обществе». Ташкент. 27-30 сентября 2005г. III том – 233 с.

69. *Muhammadiyev A.O', N. Abrayev.* Avtorlik huquqiy munosabatlari qo'llanadigan, qonunchilik bilan belgilangan terminologiya. // TDYUI Yosh olimlar ilmiy maqolalar to'plami, № 2, 2002-y.

70. *Muhammadiyev A.O', N.K.Abrayev.* “Ommaviy axborot vositalarining fuqoralar bilan tashkilotlar munosabatlari”. // TDYUI, Yosh olimlar maqolalari to'plami. 2003-y.

71. *Мухаммадиев А.У.* Правовой режим информационных систем, информационных технологий и средств их обеспечения. // Республиканская научно-техническая конференция «Информатика, информационные технологии, информационная безопасность». – Т.: ТЭАИ, 2002 г.

72. *Мухаммадиев А.У.* Правовые проблемы информационной безопасности // Республиканская научно-техническая конференция «Информатика, информационные технологии, информационная безопасность». – Т.: ТЭАИ, 2002 г.

73. *Muhammadiyev A.O'., Toshev B.* Axborot texnologiyalari tushunchasi va rivojlanishi. // TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №9, 2005 y.

74. *Muhammadiyev A.O'., Toshev B.* Axborot texnologiyalariga oid huquqbuzarlik va unga qarshi kurash yo'llari. //TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №9, 2005-y.

75. *Muhammadiyev A.O'., Toshev B.* Axborot texnologiyalarida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari. //TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №9, 2005-y.

76. *Muhammadiyev A.O'., Toshev B.* Axborot texnologiyalarining iqtisodiyotda qo'llanilishi. //TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №9, 2005 y.

77. *Muhammadiyev A.O'., Toshev B.* O'zbekiston Respublikasining axborot texnologiyalarini himoya qilishga oid qonunchiligining hozirgi ahvoli. //TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №9, 2005-y.

78. *Muhammadiyev A.O'., Toshev B.* O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalarini huquqiy tartibga solish masalalari. //TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №9, 2005-y.

79. *Muhammadiyev A.O'.* O'zbekiston Respublikasi axborot huquqining konstitutsiyaviy va xalqaro – huquqiy asoslari. // “Davlat va huquq” J., №1 2003-y.

80. *Muhammadiyev A.O'.* O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning axborot huquqlari va erkinliklari. // Davlat va jamiyat islohining huquqiy asosi ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. –Т.: TDYUI, 2002-y.

81. *Muhammadiyev A.O'.* O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini huquqiy va tashkiliy jihatdan himoyalash bo'yicha ba'zi mulohazalar. // “Iste'dod Jamg'armasi maqolalar to'plami”. №2, 2004-y.

82. *Muhammadiyev A.O'*. O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini huquqiy jihatdan himoyalash bo'yicha ba'zi mulohazalar. // "Hayot va qonun" J., №2, 2004-y.

83. *Мухаммадиев А.У., Фазилов М.* Участие Узбекистана в международных системах телекоммуникации и обмена информацией. // TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №9, 2005-y.

84. *Muhammadiyev A.O'*. Fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida axborot jamiyatiga doir ba'zi mulohazalar. // "Fuqarolik jamiyatini o'rganish muammolari va yechimlari" Ilmiy – amaliy konferensiya materiallari, TDYUI, 2004-y.

85. *Muhammadiyev A.O'*. Huquqiy axborot tushunchasi va uning mohiyati. // TDYUI yosh olimlar maqolalari to'plami, №7, 2004-y.

86. *Muhammadiyev A.O'*. Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini sifat-siz axborotlarning ta'siridan, axborot tarqatish tartibining buzilishidan himoya qilish. // "Davlat va huquq" J., №2, 2003-y.

87. *Muhammadiyev A.O'*. "Ommaviy axborot sohasida davlatlararo hamkorlik va qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik to'g'risida ba'zi bir mulohazalar". // TDYUI Yosh olimlar maqolalari to'plami 2003-y.

88. *Muhammadiyev A.O'*. Axborot xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning tuzilmasi. // "Davlat va huquq" J., №6 2006-y.

89. *Muhammadiyev A.O'*. Sud ekspertizasida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish (Sud-ekspertiza tadqiqotlarini avtomatlash-tirish muammolariga doir taklif va mulohazalar). // TDYUI (Axborotnoma-si) ilmiy maqolalari to'plami №2, 2006-y.

90. *Muhammadiyev A.O'*. Yurisprudensiyada informatika va informat-sion texnologiyalar fanini o'qitish bo'yicha ba'zi mulohazalar. // "Respublikada yuridik ta'im samaradorligini oshirish istiqbollari" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman. 2006-y.

Abdujabbor MUHAMMADIYEV
HUQUQIY INFORMATIKA

Muharrir *A. Irisboyev*
Badiiy muharrir *A. Tursunov*
Texnik muharrir *T. Smimova*
Musahhah *Sh. Nishonov*
Sahifalovchi *R. Odinayeva*



Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent Davlat yuridik instituti "Huquqiy informatika va informatsion texnologiyalar" kafedrasini mudiri.

100 dan ortiq ilmiy maqolalar, o'quv va o'quv uslubiy qo'llanmalar muallifi, shu jumladan 60 dan ortiq ilmiy maqolalari axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligining huquqiy masalalariga bag'ishlangan. 10 dan ziyod o'quv va o'quv uslubiy qo'llanmalar muallifi.

"Huquqiy informatika va informatsion texnologiyalar" kafedrasini asoschisi.

"Axborot xavfsizligi asoslari" yo'nalishlari bo'yicha xorijiy mamlakatlar Oliy o'quv yurtlarining sertifikatlariga ega.

Hozirgi kunda "Huquqiy informatika"ni rivojlantirish muammolari ustida ilmiy ishlar olib bormoqda.



ISBN 978-9943-06-014-2

HUQUQIY INFORMATIKA

HUQUQIY

Abdujabbor MUHAMMADIYEV